O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Til ta’limining uzviyligini ta’minlashda innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar

respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya

CHIRCHIQ-2021

UO‘K: 821.0

Til ta’limining uzviyligini ta’minlashda innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar. Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, 2021. – 450 b.

MAS’UL MUHARRIR:

G.I.Muxamedov – TVChDPI rektori, kimyo fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

O.E.Ziyadullayev – ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor, kimyo fanlari doktori, professor

R.A.Ikramov – Gumanitar fanlar fakulteti dekani, yuridik fanlari nomzodi, dotsent

A.M.Shofqorov – O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b.

N.D.Xoliqova – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b.

Q.Mo‘ydinov – O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

T.Sabitova – O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

A.R.Davlatova – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

L.F.Xasanova – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

X.Abduqahhorova – O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

Tuzuvchilar:

O‘.Saidov – O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

L.Xasanova – O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislardagi dalil, raqam va ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar

1-SHO‘BA: TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLARI

TILGA ZO‘RAVONLIK YOKI MASHHUR LINGVISTIK JINOYATLAR

Baxtiyor Mengliyev,
filologiya fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Amaliy filologiya kafedrasi mudiri

Zo‘ravon siyosat tilda ham o‘zining mash’um izlarini qoldirgan holatlar tarixda ko‘p. Ulardan eng mashhuri Buyuk Fransuz inqilobi davriga tegishli. Bu inqilobning muhim merosi, bir tomondan, erkin qomusiy fikrlashga keng yo‘l ochganligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tilni zo‘rlik bilan sindirishga ilk urinishlarni amalga oshirganligi. Inqilob hukumati an’anaviy oy nomlari, murojaat ifodalaridan voz kechish siyosatini qo‘llagan. Masalan, rasmiy murojaat uchun *sitoyen* (“shaharlik”) ifodasini qo‘llash majburiyligi belgilab qo‘yilgan.

Rossiya inqilobchilari ham faranglardan qolishmadi. Ularga taqlidan Rossiyada 1917-yilgi Fevral inqilobidan keyin *grajdanin* so‘zi rasmiy murojaat tusini oldi. So‘ngra *tovarish* so‘zi ham ommalashtirildi. Eronda Islom inqilobidan keyin *birodar* so‘zi shunday taqdirga ega bo‘lgan. Bu so‘zlarning barchasi rasmiy bo‘yoqdor bo‘ldi, lekin jonli til xazinasidan joy olmadi. O‘tgan asrning 60–70 yillarida *grajdanin*, *o‘rtoq* so‘zlari o‘z yo‘nalishini o‘zgartirdi – sobiq sovet rejimi davrida mahbuslar, mahkumlar huquq-tartibot xodimlarini *o‘rtoq* emas, balki *grajdanin* so‘zi bilan atash shart qilib qo‘yildi.

Buyuk Fransuz inqilobi davriga kelib, fransuz tilidagi *ozodlik, shuhrat, vatan* so‘zlari har doim qurbonlik talab qiladigan, qonga tashnalik mohiyati bilan yo‘g‘rildi. Xalq dushmani atamasi Fransiyadan keyin sobiq SSSRda xalqni, millatni mustaqil, ozod ko‘rishga intilganlar uchun tavqi la’nat mazmunini

kasb etdi. Bunday holatni Germaniyada *reyx dushmani*, Eronda *islom dushmani* birikmalari misolida ham ko‘rish mumkin.

Germaniyadagi natsistlar hukumati 1936-yil 22-avgustda barcha rasmiy hujjatlarda o‘lgan nemis askarlarini “halok bo‘lgan” (*gefallenen*) deb emas, balki “o‘ldirilgan” (*ermordeten*) deb rasmiylashtirish haqida qaror qabul qildi. Bu “nemis askari vijdonli dushman bilan bo‘lgan urushda halok bo‘lmadi, balki vijdonsizlar tomonidan vahshiylarcha o‘ldirildi” degan g‘oyani ifodalash uchun xizmat qilishi mo‘ljallandi. Fashistik rejimda *volk* (“xalq”), *deutsch* (“nemis”), *blut* (“qon”), *boden* (“tuproq”) so‘zlari vermaxt natsional-sotsializmining asosiy tushunchalari sifatida rasmiylashtirildi.

SSSR tarixi darsliklari Rossiya imperiyasi egallagan hududlarga nisbatan tarixiy haqiqatga zid ravishda “bosib olish” so‘zi o‘rniga “qo‘shib olish” ifodasini rasmiylashtirdi.

SSSR qo‘shinlari Afg‘onistonga bostirib kirgach, sovet mafkurasi afg‘on qarshilik harakati a’zolariga nisbatan *dushman* so‘zini rasmiylashtirdi. Holbuki, mantiqan, bu so‘zning bostirib kirgan tomonga nisbatan istifoda qilinishi to‘g‘riroq bo‘lar edi.

Amerika Qo‘shma Shtatlari Vyetnam urushi davrida tilni suiiste’mol qilishning o‘ziga xos namunalarini ko‘rsatdi. Urush AQSH hududidan ancha yiroqda bo‘lganligi uchun mamlakat jamoatchiligini tinchlantirish maqsadida harbiy ma’muriyat qator evfemistik vositalarning OAVda qo‘llanishini rasmiylashtirgan. Masalan, *appeasement* (“tinchlantirish”) so‘zi “butunlay tor-mor qilish”, *self protektion* (“o‘zini himoya qilish”) birikmasi “bombardimon qilish”, *friyendli fire* (“do‘stona olov”) qurilmasi “bilmasdan o‘z tomonidagilarni otib qo‘yish” ma’nosida evfemistik qo‘llanib, manipulyativ maqsadlarga bo‘ysundirilgan.

ҲОЛАТ ФЕЪЛИ АСОСЛИ ГАПЛАРНИНГ КОНТРАГЕНТ ВАЛЕНТЛИГИ

Равшанхўжа Расулов,
филология фанлари доктори, профессор,
Чирчиқ давлат педагогика институти
Ўзбек тилшунослиги кафедраси

Тилшунос Ч.Филлимор томонидан киритилган контрагент термини[1] феълда қайд этилган жараённинг иккиламчи бажарувчисини ифода этади. Контрагент сўзи маъносида феълдан англашилган ҳолатни (ёки ҳаракатни) юзага келтирувчи шахс ифодаланади. Демак, бу ҳолда контрагент билан агенс моҳиятан ўзаро мос, мувофиқ бўлади. Ҳақиқатан ҳам бажарувчи характердаги бу паралеллик мантиқий асосга эгалиги билан ажралиб туради, яъни феъл маъносида қайд этилган ҳолатнинг бажарувчиси (процессори) фақат агенс эмас (агенс акти), шунингдек, контрагент ҳамдир (контрагент акти). Агенс ва контрагент ҳолатнинг бажарувчиси, уни ўзида моддийлаштирувчи актант бўлиб реаллашади. Аниқроғи, агенс ва контрагент - субъект, айни вақтда, объект характерида ҳам бўлади. Аммо агенс ва контрагентнинг феълда акс этган жараённинг бажарувчи сифатидаги ўхшаш фаолияти - контрагентнинг мантиқий-семантик жиҳатдан агенсга ўхшашлиги коммуникатив жиддий фарқ қилишига кўра ўзига хос аҳамиятга эга бўлади. Шунга кўра улар бошқа-бошқа актанлар сифатида баҳоланади.

Ю.Д. Апресян таъбири билан айтганда, “...бу икки актантнинг (агенс ва контрагентнинг – Р.Р) фаолияти бир-бирига мос келмайди: предикат контрагент фаолиятини эмас, бутунлай фақат субъект (агенс Р.Р.) фаолиятини тасвирлайди”[2]. Чунки субъект ва предикат муносабати ҳукмнинг асосидир. Қолаверса, бу муносабат грамматик эга ва кесим

1 Қаранг: Апресян Ю.Д. Лексическая семантика,127-бет
2 Апресян Ю.Д. Лексическая семантика, 127-бет. Яна қаранг: Н.А.Слюсарева. Проблемы функциального синтаксис современного английского языка, 107-бет

алоқасидир, гапдир. Бизнингча, шунга кўра предикат субъект (агенс) фаолиятини характерлайди.

Агенс ва контрагент орасидаги фарқ қуйидаги фикрда яна ҳам аниқ баён этилади: “Контрагент валентлиги кўрсатувчи шахс... агенс валентлиги қайд этувчи шахсдан фарқли ҳолда мустақил эмас”[1]. Демак, контрагент мантиқий-семантик жиҳатдан ҳукмнинг – гапнинг асосини (ядросини) бевосита ташкил қилувчи ҳисобланмайди. Унинг коммуникатив фаоллиги ўз-ўзидан иккинчи даражали аҳамият касб этади. Бу семантик - грамматик жиҳатдан қатъий тасдиқланади. Контрагент валентлигини реаллаштирувчи сўз синтактик жиҳатдан феъл предикатни характерловчи бўлак (тобе компонент) сифатида мустақилликка эга бўлади.

Кўриниб турибдики, контрагент валентлигига эга феъл кесимли синтактик бирликлардан мақсад агенснинг ҳолатини кўрсатиш – унинг феълда ифодаланган ҳолатнинг асосий бажарувчиси эканлигини қайд этиш, тема характеридаги мантиқий субъект (агенс) – бош бўлакка хос рема характеридаги белги-хусусиятларни “кўрсатиш”, тема–рема муносабатини конкретлаш ва шу ҳақда муайян ахборот беришдир. Демак, агенс ва ҳолат орасидаги алоқа фаол, кучли бўлса, контрагент ва ҳолат орасидаги алоқа эса унга нисбатан фаолсиз, кучсиздир. Агенс етакчи, контрагент агенсга эргашувчи, унга “тақлид қилувчи”дир. Агенс фикрнинг диққат марказидаги асосий, етакчи актант бўлса, контрагентнинг етакчилиги нисбийдир. У агенсга нисбатан “тобе”, аммо локалис, объект, адресат, ҳолат ва сабаб каби актантларга нисбатан эса “ҳоким”дир. Контрагентнинг фаоллиги агенс фаоллигининг давоми сифатида юзага келади. Шунингдек, контрагент агенсга “тегишли” – у билан биргаликда реаллашишга кўра характерланади. Бошқача айтганда, агенс ҳолати контрагентга “намуна” сифатида воқе бўлади. Аниғи, агенс ҳолати мантиқан контрагентга ўтади, унда давом этади. Аммо аксинча эмас.

Ўзбек тилидаги ҳолат феълларида агенсни англатувчи сўз бош келишикда (номинативда), контрагентни қайд этувчи сўз эса от (баъзан олмош) + билан

1 Кучкартаев И.К. Валентный анализ глаголов речи в узбекском языке,30-бет

қолипидаги аналитик шаклда келишига кўра ажралиб туради. Кўринадики, агенс валентлигининг реализатори бош бўлак, контрагент валентлигининг реализатори эса иккинчи даражали бўлак бўлишига кўра ҳам ўзаро фарқланади.

Агенс валентлигини реаллаштирувчи сўз нутқий жойлашишига кўра контрагентга нисбатан пропозицияда, контрагент валентлигининг реализатори эса доимо постпозицияда келишига кўра ҳам фарқ қилади.

Агенс феъл предикатда ифодаланган ҳолатнинг субъекти (предикатив бирикма) – синтактик гапдаги мутлақ ҳоким компонент бўлса, контрагент ҳам феъл предикатдаги ҳолатнинг субъекти, аммо синтактик кесимга нисбатан мутлақ тобе компонент (объектли бирикма) ҳисобланади.

Агенс ва контрагент актантлар фаолиятида актив, асосий бажарувчига нисбатан асосий агенс[1], унга нисбатан пассив, асосий бўлмаган агенсга – контрагентга нисбатан иккинчи даражали агенс терминини қўллаш унинг логик-семантик ва грамматик моҳиятига тўла мос келади.

Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари контрагент валентлигининг реализатори – аналитик тузилишдаги нутқ бирлиги семантик жиҳатдан акад. А.Н.Кононов таъбирича “комитатив муносабат” ифодалайди[2]. Контрагентни реаллаштирувчи сўз агенс ҳолатини биргаликда, ҳамкорликда амалга оширган, шу жараёнда фаол қатнашган шахсни билдиради. Қиёсланг: *Тожихон болалари билан турибди* (А.Қаҳҳор). Демак, комитатив[3] муносабат контрагент валентлиги реализаторининг семантик асосини ташкил қилади. Бу ҳам экстралингвистик, ҳам семантик – синтактик тасдиқланади.

Шуниси характерлики, аналитик формада – контрагент валентлиги реализаторида ифода этилган биргалик маъноси бевосита ҳолат феълининг биргалик нисбати билан семантик муносабатга киришади. Аниғи, биргалик маъносини англатувчи феълнинг биргалик нисбати ва комитатив муносабатнинг нутқий ифодаси мазмун планига кўра ўзаро боғланади.

1 Асосий агенс термини О.С.Ахманованики. Қаранг: Ахманова О.С. Словарь лингвитических терминов, 31-бет

2 Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка, 359-бет

3 Комитататив – ҳамкорлик, биргалик

Бундан эса контрагент валентлиги реализатори билан биргалик нисбатидаги ҳолат феълининг ўзаро муносабати масаласи юзага келади.

Шуни таъкидлаш керакки, биргалик маъносига эга контрагент реализаторини маъно имконига кўра бириктирувчи ҳолат феъллари нутқда фақат аниқ нисбатда қўлланишига кўра характерланади. Демак, валентлик муносабати феълнинг муайян нисбат шаклида бўлишига кўра юзага келади. Кўринадики, аниқ нисбатдаги ҳолат феълигина контрагент валентлигига эга бўлади. Қиёсланг: *Хотини ўлиб, икки ёш бола билан қолибди* (С.Аҳмад).

Контрагент валентлиги реализатори билан биргалик нисбатидаги ҳолат феълининг ўзаро боғланиши формал – назарий жиҳатдангина, семантик – синтактик жиҳатдан эса ушбу семантик синтагмаларда ҳолат феълининг биргалик эмас, балки аниқ нисбатда бўлиши қонунийдир. Чунки контрагент валентлиги реализаторининг – аналитик форманинг биргалик маъносини ифодалаши унинг нутқда *билан* кўмакчили шаклланишидан юзага келади. Айтмоқчимизки, комитативлик маъноси ҳолат феълининг биргалик нисбатида келиши билан боғлик эмас. Шунингдек, контрагент асосий агенс ҳам эмас. Биргалик нисбатидаги феъл асосий агенс билан - унинг бирдан ортиқ типи билангина боғланади. Чунки унинг бош, асосий вазифаси агенсни тасвирлаш, унинг рема қисмини ҳосил қилишдир.

Демак, ҳолат феълининг биргалик нисбатида қўлланиши контрагентни эмас, балки агенс реализаторининг кўплик шаклида келишини талаб қилади. Феъл биргалик нисбатининг мантиқийлиги бевосита асосий агенснинг миқдорий ортиқлиги билан ўлчанади. Чунки феълнинг биргалик нисбати агенс вазифасидаги логик субъектларнинг биргаликдаги фаолиятини ифода этади.

Контрагент валентлигини реаллаштирувчи сўзнинг биргалик маъноси эса, айтилганидек, бевосита унинг аналитик формада шаклланишидан юзага келади. Контрагент фаолияти агенс фаолиятига нисбатан қўшимча, иккинчи даражали аҳамият касб этади. Айни вақтда, контрагент реализаторидаги биргалик маъноси агенс фаолиятига қиёсан олинганда,

яна ҳам конкретлашади. Шунинг ўзи хам контрагентнинг феъл предикатда ифодаланган ҳолатга муносабати агенсга нисбатан фаолсизлигини кўрсатади. Чунки контрагентнинг фаолияти агенс фаолиятига кўра, у орқали, диққатга сазовор бўлади.

Агенснинг ҳолат феълли синтактик конструкцияларда фаоллиги, миқдоран минималлиги, контрагентнинг ҳам етакчисига “мослашиши” ва аналитик тузилишда келиши уларнинг ҳолат феълининг бирдан ортиқ, аммо тенг ҳуқуқли бўлмаган актантлари эканлигини кўрсатади. Айтилганидек, биргалик нисбатидаги ҳолат феъли мантиқий равишда агенснинг бирдан ортиқлигини талаб килади. Бу – аксиома, аммо контрагент аналитик тузилишда – комитатив муносабатда – реализаторида ифодаланган шахснинг миқдоридан қатъий назар биргалик нисбатидаги ҳолат феъли, шунингдек, аниқ нисбатдаги ҳолат феъли билан бевосита боғланади. Унинг семантик- морфологик ўзгариши шарт эмас. Чунки контрагент иккинчи даражали бажарувчидир. Қиёсланг: *Турди иккита бола билан турибди* (Ф. Мусажонов)... *Турди (ва Аҳмад) иккита бола билан туришибди.*

Феъл биргалик нисбатида қайд этилса, унга бирикувчи агенс ва контрагент валентликларининг реализаторлари у билан семантик – грамматик мослашадиган бўлса, бу ҳолда контрагент йўқолади, яъни аналитик форманинг *билан* компоненти эллипсисга учрайди. Контрагент реализатори эса бош келишикли шаклда агенсга ўтади. Гапда у каби мутлақ ҳоким компонент саналади, феъл предикат томонидан характерланади. Бу ҳолда семантик – грамматик тенг ҳуқуқли бирдан ортиқ фаол бажарувчилар юзага келади. Уларнинг реализатори биргалик нисбатидаги ҳолат феълининг бирдан ортиқ (“уюшган”) агенсини ифодалайди. Шундагина семантик – синтактик тўғри, фикр ифодалаш жараёнига тўла мувофиқ нутқ бирлиги (гап) юзага келади. Қиёсланг: *У онаси билан ... қолди* (Мирмуҳсин). *У, онаси ... қолишди.*

Демак, феъл биргалик нисбатида шаклланганда, агенс полисубъект характерида бўлиши ёки контрагент агенсга ўтиши, грамматик бош

келишикда қайд этилиши шарт. Бу ҳолда агенс ва контрагент (агенс) фаолияти биргаликда амалга ошиши, муайян ҳолатни биргаликда, ҳамкорликда бажариши билан ажралиб туради. Бу эса ўз-ўзидан ҳолатнинг бир неча шахс томонидан бажарилишини англатувчи биргалик нисбатининг семантик асосини ташкил қилади. Бинобарин, биргалик нисбатида ифода этилувчи ҳолатнинг бирдан ортиқ шахс иштирокида бажарилиши аслида агенсга - синтактик эгага қаратилган фикрдир.

Шуниси характерлики, контрагентни ифода этувчи сўзлар гапда доимо синтактик реаллашган бўлади. Уларнинг синтактик реаллашмаслиги мумкин эмас. Чунки контрагентнинг гап конструкцияларида синтактик реаллашмаслиги контрагент валентлигини бутунлай йўқотади. Предикат эса, асосан, агенсни характерлагани учун нутқда қайд этилмаган контрагентни ифодаламайди. Демак, контрагентнинг синтактик реаллашиши шарт, мутлақо зарурдир.

Контрагент валентлигига эга ҳолат феълли синтактик конструкцияларда агенс баъзан ифодаланмайди. Аммо унинг ким ёки нималиги, қайси шахслиги предикатдан - шахсли феълдан англашилиб туради. Синтактик реаллашмаган агенс потенциал имконият бўлиб, тема характеридаги пресуппозицияни ҳосил қилади. Демак, агенс феъл предикатдан унинг субъекти сифатида муайян ҳолати билан англашилиб туради.

Сўз, баъзан сўз бирикмаси орқали реаллашувчи контрагент актанти ўзбек тилидаги “давомли”, “ижро” ва “физиологик” интеграл семали ҳолат феълларида кузатилади. Чунки бу лексик - семантик гуруҳ ҳолат феъллари семантик имкониятга кўра контрагент (шахс) билан боғланишига кўра ажралиб туради. Ушбу ҳолат феъллари гап конструкцияларида кесим вазифасини ўтайди.

Ўтирмоқ, ётмоқ, қолмоқ, турмоқ “давомли”, *қўриқламоқ* “ижро” ва *қизармоқ, терламоқ* “физиологик” интеграл семали ҳолат феълларининг шахс актантли контрагенти отда кузатилади. От баъзан кўплик ва эгалик қўшимчаси билан шаклланишига кўра миқдорий ортиқ ва тегишлилик

маъносини ҳам беради. Объектли бирикма компонентларининг бирикуви учун “шахс” семаси классема вазифасини ўтайди. Масалан: *Чол ўғли билан ўтирибди* (Ўз. халқ эртак). *...диванда Шукур Альфия билан ётарди* (Н.Нормуродов). *У тун бўйи мижжа қоқмай қишлоқни айланди, дружинаси билан йўлларни... қўриқлади* (Ҳ.Ғулом). *Савдогар икки ўғли билан терлаб кетибди* (Ўз. халқ эртак). *У дўстининг болалари билан бирга кўчада турибди* (Ғ.Жаҳонгиров). *У онаси билан бирга қолди* (Мирмуҳсин).

Охирги гап конструкциясида комитатив муносабатни кучайтириш, таъкидлаб кўрсатиш, субъектнинг диққат-эътиборини шунга тортиш мақсадида контрагент валентлигининг реализатори билан контакт постпозицияда *бирга* сўзи қўлланади[1]. Бундай гапларда контрагент валентлиги реализатори – аналитик форма биргалик тушунчасини кучли, ортиқ даражада англатишига кўра характерланади. Биргалик маъноси давомийлик хусусиятга ҳам эга бўлади. Чунки бирга сўзи “бир бўлиб”, “қўшилишиб”, “биргаликда”[2] каби маънолар билан келади. Яна қиёсланг: *Улар билан бирга майдонда турибди* (Тошкент оқшоми).

“Давомли” интеграл семали *ётмоқ* феълининг контрагенти вазифасидаги шахсни билдирувчи от атрибутив бирикмада келиб, изоҳланмиш сифатида шахс маъноли изоҳловчига эга бўлади. Бунда изоҳловчи + изоҳланмиш бир бутун ҳолда контрагент валентлигининг реализатори ҳисобланади. Масалан: *Мана бугун ҳам Мансур ўз ўртоғи Славка билан қирғоқда ётибди* (Шуҳрат).

“Давомли” интеграл семали *турмоқ* ҳолат феълининг контрагенти реаллашган от бирдан ортиқ сўз формасида ҳар бири шахс маъноли изоҳловчига эга бўлади. Бундай синтактик конструкцияда реаллашган контрагент (шахс) агенсга тегишлилиги ва таъкидланиши билан ажралиб туради. Ушбу маъно муносабати изоҳланмиш сифатидаги эгалик аффиксли сўз формасидан, гап мазмунидан ифодаланиб туради. Бу ҳолда ҳам биргалик

---

1 Яна қаранг: Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка, 299-бет

2 Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1-том, 117-бет

маъноси кучаяди. Масалан: *У хотини Малика, ўғли Қосим билан ташқарида ... турибди* (С.Юнусов).

Турмоқ ҳолат феълининг шахс актантли контрагенти кишилик олмошларида ҳам қайд этилади. Баъзан айни олмошлар кўплик аффиксли шаклда ҳам келади. Масалан: *Сен билан турибман бу кун бетма - бет* (А. Орипов). *Улар билан бирга майдонда турибди* (Тошкент оқшоми).

Юқорида таҳлил объекти бўлган контрагент валентлигига эга ҳолат феълларига - объектли бирикмаларга бошқарув алоқаси нуқтаи назаридан ёндошиш ҳам мақсадга мувофиқдир. Чунки феъл бошқарувида кучли ва кучсиз бошқарувни фарқлаш қабул қилинган[1].

Тилшуносликка прф. А.М.Пешковский томонидан киритилгаи кучли ва кучсиз бошқарув[2] жиҳатидан *турмоқ, қолмоқ, ётмоқ, ўтирмоқ,* "давомли" *қўриқламоқ,* "ижро" *қизармоқ* ва *терламоқ,* "физиологик" интеграл семали ҳолат феъллари (ҳоким компонент) контрагентнинг реализатори – аналитик форма (тобе компонент) билан кучсиз бошқарувда бўлади. Чунки ҳоким компонентлар (ҳолат феъллари) билан тобе компонентлар (контрагент реализатори) орасидаги ўзаро боғланиш, алоқа зарурий ҳисобланмайди. Бу боғланиш ҳоким компонентларнинг – ҳолат феълларининг лексик-грамматик хусусиятларидан бевосита келиб чиқмайди[3]. Бошқача айтганда, кучсиз бошқарувда ҳоким ва тобе сўзлар орасидаги муносабат факультатив характерда бўлади. Чунки *турмоқ, ётмоқ, қолмоқ, ўтирмоқ, қўриқламоқ, терламоқ* каби феълларнинг лексик маъноси уларда тобе компонентнинг (масалан, контрагент валентлиги реализаторининг) бор ёки йўқлиги билан белгиланмайди[4]. Демак, тобе компонентнинг (отнинг ...) феъл билан ана шундай боғланиши, алоқаси кучсиз бошқарув ҳисобланади[5]. Яна қиёсланг: *У эшик тагида укаси билан турибди* (Ўз. халқ. эртак.).

---

1 Русская грамматика. П,25-бет

2 Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. М.,1956, 285-бет

3 Қаранг: Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвитических терминов.–М., 1976, 500-бет

4 Қаранг: Современый русский язык, П.М., 1979, 13-бет, Яна қаранг: Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских руниеских памятников (VII-IX вв.) Л., 1980,21-бет

5 Қаранг: Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении, 286-бет

Хуллас, 1) контрагент валентлигининг реализатори маъносида ҳолатни бажарувчи шахс ифодаланади. У агенсга нисбатан иккинчи даражали бажарувчи саналади; 2) ўзбек тилидаги ҳолат феълларининг контрагентини реаллаштирувчи сўзнинг от (баъзан олмош) + билан моделли аналитик формада шаклланиши типик бўлиб, у (контрагент реализатори) синтактик жиҳатдан воситали тўлдирувчи ҳисобланади; 3) контрагент валентлигининг реализатори агенсга нисбатан доимо постпозицияда келишига кўра феъл кесим билан боғланиб, объектли бирикмани тузади; 4) контрагент валентлигини реаллаштирувчи аналитик форма *комитатив* муносабат ифодалайди; 5) контрагент валентлигига эга ҳолат феъллари фақат аниқ нисбатда келади; 6) *комитатив* муносабат ифодаловчи контрагент валентлигининг реализатори ва ҳолат феълининг биргалик нисбати орасидаги муносабат ўзига хосдир; 7) гапда контрагентни ифода этувчи аналитик форма доимо синтактик реаллашган бўлади. Унинг синтактик реаллашмаслиги контрагент актантининг бутунлай йўқолишига олиб келади; 8) ўзбек тилидаги “давомли”, “ижро” ва “физиологик” интеграл семали ҳолат феъллари контрагент валентлигига эгадир. Ушбу ҳолат феълли бирикмалар кучсиз бошқарувни ҳосил қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1-том. 2006 й.

2. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. М.,1956.

3. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвитических терминов. –М., 1976.

4. Современый русский язык, П.М., 1979.

5. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников (VII-IX вв.) Л., 1980.

6. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика.

7. Н.А.Слюсарева. Проблемы функциального синтаксис современного английского языка.

8. Кучкартаев И.К. Валентный анализ глаголов речи в узбекском языке.

9. Ахманова О.С. Словарь лингвитических терминов.

10. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка.

DIALEKTAL SO‘Z MAQOMI MASALASI

Tolibjon Enazarov,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti unversiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, f.f.d.

Annotatsiya: Bu maqolada dialektologiyada, xususan, “O‘zbek dialektologiya”sidagi bahsli masalalardan biri bo‘lgan dialektal so‘z maqomiga to‘xtalingan. Ushbu masala sheva so‘zlarining talqini, tavsifi, izohi, etimologiyasi, dialektal matn, dialektal lug‘at maqola va dialektal lug‘atlarda o‘z ifodasini topsagina, dialektal so‘z maqomi amalda ekanligi o‘z isbotini topadi. Muallif bu masalani bir qator ilmiy va amaliy manbalar asosida yoritishga harakat qilgan.

Kalit so‘zlar: Sheva so‘zi, dialektal so‘z maqomi, dialektal so‘z talqini, dialektal so‘z tavsifi, dialektal so‘z izohi, dialektal so‘z etimologiyasi, dialektal matn, dialektal lug‘at maqola va dialektal lug‘atlar; g‘ilvindi hamda quqim.

Haligacha dialektal so‘z maqomi masalasiga e’tibor berilmagan. Natijada, ko‘pchilik dialektal so‘z deganda sof leksik dialektal leksik birliklarni tushunishadi. Ammo bu kam, chunki dialektal so‘zlarning o‘nta turi bor, sof leksik dialektal leksik birliklar esa ulardan biri hisoblanadi, xolos. Bu masalaga e’tibor berilganda dialektal so‘z turlari, dialektal lug‘at maqolalar tayyorlash, dialektal lug‘at, dialektal leksikografiya masalalariga ham e’tibor qaratilardi.

Dialektal so‘z maqomi haqida gapirganda quyidagilar e’tiborga olinishi lozim bo‘ladi: Shevalarga xos so‘z, so‘z birikmasi va iboralar adabiy tilda juda kam qo‘llanishi yoki umuman qo‘llanmasligi bilan ajralib turadi. *“O‘zbek*

tili”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek tili leksikologiyasi” kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalarda dialektal so‘z va dialektal ma’nolar to‘g‘risida mulohaza yuritilmagan. Bir o‘rinda “dialektal xususiyatli so‘z” degan jumla uchraydi [1, 247.].

Sheva so‘zlari termini uslubiy xususiyatlarga ko‘ra takroriylikning oldini olish uchun ikkinchi bir termin bilan dialektal so‘z deyiladi. Ularning badiiy asarlarda qo‘llanish shakllari esa dialektizmlar hisoblanadi [2, 203-211]. Shuning uchun ham O.Madrahimovning “*Jonli shevalar leksikasining adabiy til leksik qatlamlariga munosabati masalasi tekshiruvchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilish tabiiydir*” [3, 80.], degan fikrlari ham e’tiborga loyiq. “O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi” nomli monografiyada muallif o‘zi tuzgan lug‘at o‘g‘uz lahjasining so‘zlarini qardosh turkiy tillar bilan qiyosiy o‘rgangani uchun ham sof dialektal lug‘at emasligini ta’kidlab o‘tgan [4, 83-123.].

Shu o‘rinda ta’kidlashni istardikki, dialektal so‘z maqomi terminini bir necha yillik amaliy dialektal kuzatishlar asosida “*Dialektologiya metodologiyasi*” nomli monografiyada 2020-yilda qo‘llangan [5,24-27-]. Dialektal so‘z maqomi sheva so‘zlari ichida uning leksik-semantik va semantik (dialektal ma’no) xususiyatlari bilan farqlanishi, adabiy tildagi so‘zlarga nisbatan orfoepik va orfografik me’yorlari bilan adabiy til me’yori va talablariga bo‘ysunmasligi, unda kam ishlatilishi yoki umuman qo‘llanmasligi, ularning tarkibidagi leksik ma’no esa ma’nolar tizimida kam uchraydigan dialektal ma’no ekanligi bilan adabiy tildagi leksik birliklardan farqlanishi bilan ajralib turadi. Ushbu fikrni misollar tahlilida ham ko‘rish mumkin. Albatta, bunda “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da berilgan dialektal so‘zlarning lug‘at maqolalari bilan birga o‘zimiz tayyorlagan dialektal so‘zlarning lug‘at maqolalari bilan qiyoslab olib boramiz [6, Qarang:]:

АВСАН (Жўш)// АВСАР [Izoh] (Қашқадарё) *фаросатсиз* “*недогадливый, несообразательный* (1971, 12.12-) [[7, Qarang:]]. *Bu lug‘at maqolada negadir dialektal so‘zning transkripsiyasi berilmagani kabi u ifodalaydigan dialektal ma’noning ruscha berilishi ham bahsli, chunki uning o‘zi hali faollashmagan dialektal so‘zlardan biri. Ularning transkripsion holati quyidagi tarzda bo‘lishi*

lozim edi: ***[авсан // avsan] // [авсар // avsar].*** *Ushbu dialektal so‘zning “hech narsani tushunmaydigan, e’tiborsiz” degan ma’nolari Shahrisabz shevasida mavjud (axborotchi...). Шунинг учун sof dialektal so‘zlardan biri hisoblanadi.*

АБЗАЛ I (Хоразм) – афзал (яхши, аъло) “лучшой, пренмущественый”. (1971, 12.4-). *U fors-tojikcha afzal (f > b) so‘zining shevada fonetik o‘zgargan holda qo‘llangan shakli. Ushbu lug‘at maqolada negadir dialektal so‘zning transkripsiyasi berilmagani, u ifodalaydigan dialektal ma’noning ruscha berilishi ham bahsli, chunki uning o‘zi hali faollashmagan dialektal so‘zlardan biri. Ularning transkripsion holati quyidagi tarzda bo‘lishi lozim edi:* ***[абзал // abzal]****. Ayni vaqtda (Shah.) bu so‘zning dialektal ma’nolari oydinlashgan: abzal, yaxshi, a’lo, tuzuk, durust. (axborotchi...).O‘zlashgan so‘zdan shakllangan dialektal so‘zlardan biri sanaladi.*

АБЗАЛ II (Хоразм) – от анжоми “сбруя, упряжь” (1971, 12.5-). *Bu lug‘at maqolada dialektal so‘zning transkripsiyasi berilmagan, u ifodalaydigan dialektal ma’noning ruscha berilishi ham bahsli, chunki uning o‘zi hali кам faollashgan dialektal so‘zlardan biri. Ularning transkripsion holati quyidagi tarzda bo‘lishi lozim edi:* ***[абза // abzal]****. Mazkur (abzal) so‘z fors-tojikcha afzal (f > b) so‘zining shevada fonetik o‘zgargan holda qo‘llangan shakli hisoblanadi. Bu so‘zning (Shah.) ma’nosi real(aniq)lashgan: otning to‘qimi, otning egar-jabdug‘i. O‘zlashgan so‘zdan shakllangan dialektal so‘zlardan biri.*

Bulardan ko‘rinib turibdiki, dialektal so‘zlarning talqinlariga biz qo‘shgan qo‘shimchalar ma’lum ma’noda asosli. Albatta, bu fikrimiz va keltirib o‘tilgan misollarning to‘g‘ri hamda aniqligini asoslashda sheva vakillari nutqidan yozib olingan matn(dialektal matn)larning o‘rni beqiyos katta. Chunki har qanday so‘zning, xususan, sheva so‘zlarining ma’nosi va ma’no munosabatlari o‘zaro muloqot jarayonidagi gaplar misolida reallashadi. Masalan, kal so‘zi adabiy tilda sochi tushgan kishiga nisbatan aytilsa, shevada esa hech narsa o‘smaydigan dalaga nisbatan [8, Qarang:]: “*Шу жерлəрдə эллънəн бърэр гъйэҳ унмəйдъ, ҳэзъйəм. Шу учун унъ кəл дəлə дейъшəдъ*”. - Bu jerlarda biror giyoh unmaydi, shu uchun uni *kal dala* deyishadi. Ushbu gapda *kal* so‘zi dala so‘zi bilan birikib

kelib, o‘tlar ham o‘smaydigan yer boshqa yerlardan farqlangan. Lekin adabiy tilda *kal dala* iborasi umuman ishlatilmaydi. Chunki u sheva vakillari nutqida qo‘llanadiki, dialektal ma’nolar munosabatiga egaligi bilan giyohsiz yerni adabiy tilda umuman qo‘llanmaydigan tarzda gap ichida nomlanishi ham dialektal semantika va dialektal sintaksis jarayonlarining o‘zaro muvofiqlashuvi bilan yuzaga kelgan. Demak, sheva so‘zining dialektal maqomini oydinlashtirish uchun eng birinchi vosita bu – dialektal matnlar va ularning ilmiylikka asoslangan leksik tahlili hisoblanadi.

Yana misol: *g‘ilvindi* sheva so‘zi (Shahrisabz sh. Saksonkapa q.) bo‘lib, somsaning bir turi sanaladi. U gap ichida qo‘llanganda unga dialektal ma’no yuklaydi [9, Qarang:]:

[“*Энәм бечэрә, эттә турып, хәмър қЭрып, сут пъшърып, шърън вә гошлъ масаллықла бълә ғылвъндънъ ъккъ турънъ уЭққа тәшләп, пъшърып эптъ. этәм эсә тушдә пәлэвдән әлдънрэқ нэёб эвқәт богән ячмиччъ ъссъқ нэн ва сәрёғдән майууЭёрләп бедълә*”.

- *Onam bechora, erta turib, xamir qorib, sut pishirib, shirin va go‘shtli masalliqlar bilan g‘ilvindining ikki turini yoqqa tashlab, pishirib olibtilar. Otam esa tushda palovdan oldinroq noyob ovqat bo‘lgan yachmichni issiq non va saryog‘dan tayyorlab berdilar*.] [Izoh] Ushbu dialektal matndan shu narsa anglashilib turibdiki, g‘ilvindi va yachmish so‘zlari sheva vakillaridan birining nutqida qo‘llangani uchun hamda ularni shevaning boshqa vakillari tushunishgani uchun ham u dialektal ma’noga ega bo‘lgan. Demak, dialektal so‘z o‘zicha shakllanmaydi, balki dialektal matn(lar) va u(lar)ning tarkibida shevaga xos leksik birliklar bilan birga qo‘llangani uchun u faqat bir (yoki bir necha) sheva vakillari tushunadigan dialektal ma’noga ega bo‘ladi. Mana shu jarayonlardan keyingina u dialektal so‘z hisoblanadi. Bundan anglashilib turibdiki, dialektal so‘zning maqomi bir jihatdan uning boshqa so‘zlar o‘rtasidagi mavqei va ahamiyatidir.

Sheva leksikasi haqida gapirilganda dialektal so‘z, dialektizm va dialektal xususiyatlarining xilma-xilligi haqida oz davriga mos holda maxsus to‘xtalingan. Ammo shevaning dialektal leksikasidagi dialektal ma’no(lar) termini va

tushunchasi haqida biron bir mulohaza yo‘q. Bizningcha, sheva leksikasiningleksik birliklarda birliklarida, albatta, dialektal ma’no mavjud. Shuning uchun ular sheva va lahjalararo farqlangani kabi adabiy til leksikasidan ham ma’lum darajada tubdan farqlanib turishi tabiiydir.

Bunday so‘zlar dialektologiya sohasining tarmoqlanishi kabi ikki xil holatda bo‘ladi: 1) tarixiy dialektal so‘zlar (tarixiy dialektologiya yohud til tarixiga oid materiallar); 2) hozirgi kunda sheva vakillari nutqida faol qo‘llanayotgan dialektal so‘zlar (tavsifiy dialektologiya yoki hozirgi dialektologiya materiallari). Ularning bu tarzda guruhlanishi ham o‘zbek xalqi va shevalari qadimdan mavjudligini, ham shevalarning tarixiy taraqqiyotini ma’lum ma’noda o‘zida ifodalaydi.

Dialektal so‘z maqomining ikki jihati bor:

1) dialektal so‘z maqomining amaliy jihati;

2) dialektal so‘z maqomining nazariy jihati. Shu o‘rinda uning nazariy jihati to‘g‘risida gapirishdan avval uning amaliy jihati haqida gapirish maqsadga muvofiq.

Tarixiy dialektologiyaning materiallari tosh bitiklarda, tarixiy va yozma adabiyotlarda, shuningdek, xalq dostonlari kabi turli folklor asarlarida maxsus matnlar ko‘rinishida o‘z ifodasini topgan. Faqat sho‘ro davrida ba’zi bir yozma manbalar nashr etilishi munosabati bilan undagi ancha dialektal so‘zlar boshqa so‘zlar bilan majburiy tuzatilganligini ham unutmaslik lozim. Bu mulohazamizga asos “Alpomish” dostonining qayta nashrida uchraydigan sheva so‘zlarining majburiy holda noo‘rin o‘zgartirilishi misol bo‘ladi. Bu masalaning ijobiy yakunlanishiga, shuningdek, ushbu dostonning o‘zi ham xalq dostoni ekanligini to‘liq asoslab berishda taniqli dialektolog olim professor Xudoyberdi Doniyorovning ham xizmatlari beqiyosdir. Mustaqillik davrida bu dostonning mazmun-mohiyatini ifodalovchi dialektal so‘zlarning anchagina qismi avvalgi holatga keltirilib, qayta nashr etilgani o‘rinli bo‘lgan. Demak, xalq folklori materiallari va matnlarisiz dialektal so‘zlar maqomi haqida gapirish mumkin emas.

Aslida, o‘zbek dialektal leksikografiyasi yigirmaga yaqin turkiy tillarning so‘zlarini arabcha izohlab berilgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk”i bilan boshlangan bo‘lsa-da, XX asrda dialektal so‘zlar o‘rniga o‘zlashgan so‘zlar izohlanganligi esa sho‘ro mafkurasining ta’sirida amalga oshirilganki, sheva so‘zlarini ishlatish ham, qo‘llash ham bu davrda millatchilik hisoblangan. Xuddi shu holat tufayli katta ilmiy xodim, filologiya fanlari nomzodi Ahmad Ishaev eshik yoki deraza ochilganda kirib kelayotgan mayin shamol, shabodani “*yelvizak*” so‘zi bilan atash mumkinligini o‘zining bir maqolasida bayon qilgani uchun XX asrning 70-yillari boshida millatchilikda ayblanib, ishdan haydalganligini shu olimning o‘zi biz yoshlarga aytib bergandi.

X-XIX asrlarda, xususan, XX asrning 50-yillarigacha yaratilgan lug‘atlar, aniqrog‘i, dialektal lug‘atlar ma’lum darajada sheva so‘zlarining ko‘p berilishi bilan muhrlangan. Masalan, Abdulla Qodiriy singari ham ijodkor, ham lug‘atshunoslarning tuzgan lug‘atlarida ham ko‘p miqdorda sheva so‘zlari berilganligi maxsus ilmiy tadqiqot asosida o‘rganilgan [10,19-21]. Xullas, dialektal so‘z va dialektal ma’no masalasi XIX asrning oxirigacha qisman amaliy tadbiq etilgan. Shu sababli ham Alibek Rustamov bunday ma’noni “el ma’no” (elga, ya’ni shevaga xos ma’no) deb atagan [11,94-]. Demak, sheva so‘zlarida dialektal ma’no(lar) borligi uchun bemalol dialektal so‘z maqomi haqida gapirish o‘rinli.

Ijtimoiy siyosiy holat tufayli, ya’ni sho‘ro talabi bilan XX asrning 20-50-yillarigacha dialektal so‘zlar haqida gapirish mumkin bo‘lmagan. Faqat XX asrning 50-yillarining ikkinchi yarmidan dialektal so‘zlar masalasiga amaliy jihatdan e’tibor berish boshlangan. Natijada, yosh dialektolog olimlarning sheva so‘zlarini jamlagan katta-kichik ilmiy maqolalari o‘sha davr mafkurasi tomonidan va mavqei o‘sha davr ilmiy jurnallari darajasida e’tirof etilgan ilmiy to‘plamlarda birin-ketin nashr etila boshlangan. Shu ilmiy to‘plamlarda bosilgan ko‘p maqolalar o‘rganilayotgan sheva(lar)ning fonetikasi va morologiyasiga oid materiallar bilan birg shu sheva leksikasiga oid dialektal so‘zlarning talqini, tavsifi va ilmiy tahlillarga asoslangan izohlari berilganki, go‘yo shevaning fonetikasi, leksikasi va

morfologiyasining materiallarini ilmiy kitob bo‘ladigan hajmdagi katta hajmli bir maqolada jamlay olishgani ham dialektal so‘z maqomining masalasiga oydinlik kiritadigan dalillardan biridir.

Mana shu davrda dialektal so‘z maqomining asosiy muammosi bo‘lgan “*Sheva(lar) lug‘ati qanday bo‘ladi*?”, “*Dialektal lug‘at qanday tuziladi*?” degan savollarga F. Abdullaev, M. Mirzaev, A. G‘ulomov va A.Ishaev kabi taniqli olimlarning tavsiya va mulohaza mazmunidagi maqolalari ham e’lon qilingan [12,36-41;114-126,14,37-42, 4-42]. Xuddi mana shu maqolalarning mohiyatida sheva so‘zi, dialektal so‘z, dialektal so‘z turlari, dialektal lug‘at maqola va dialektal lug‘at kabilarning qisman nazariy va ko‘proq amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan fikr-mulohazalari mavzu doir ilk tezislar shaklida berilgan. 1971-yilda bu jarayon “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ning qisqa hajm va qisqa mazmunda berilishi bilan yanada kuchaygan. Bu lug‘atda dialektal so‘zlar bir xil emasligiga amaliy asoslanib, 1) ya’ni shunday so‘zlarni aniqlash, boshqa so‘zlardan farqlash va dialektal ma’nolariga to‘xtalish; 2) bunday so‘zlarni jamlash, guruhlash va ularni ma’lum bir so‘z turlariga ajratish asosida dialektal so‘zlarga xos qoida, nazariy umumlashmani amalga oshirish lozim edi. Bu haqida fikr yuritish uchun o‘zbek xalq shevalaridagi dialektal leksikani to‘la yig‘ib olish lozim edi, biroq bu hol haligacha amalga oshmagan.

Bundan keyin nashr etilgan dialektal lug‘atlar mualliflarning mablag‘iga chiqqani sababli leksik va leksikografik nuqsonlari bo‘lsa ham sohaga, qishloq, mahalla, guzar, shahar va viloyatlarning shevalariga oidligi bilan individullashib borgan [13,122; 466; 22; 196; 222].

To‘g‘ri, 1971-ilda nashr etilgan “*O‘zbek xalq shevalari lug‘ati*”da sheva lug‘atlaridagi so‘z boshi va lug‘atga oid termin va tushunchalarga to‘xtalish barovarida dialektal so‘z turlariga va ularning maqomiga qisqacha to‘xtalgan muallif ham mana shu Ahmad Ishaev bo‘lgan.

XX asrning 80-yillari oxirida, aniqrog‘i, 1988-yilda “*Shevalar lug‘atiga kiritiladigan so‘zlar*” nomli maqola va 1989-yilda “*O‘zbek dialektal leksikografiyasi*” nomli monografik tadqiqot katta ilmiy xodim Ahmad Ishaev

tomonidan tayyorlanib, nashr etilgan [14,37-42-;140 б.]. Ularda biz kutgandek, "*Dialektal so‘z, aniqrog‘i, dialektal so‘z maqomi va dialektal lug‘at nima?*"degan savolga muallif XX asrning 2-yarmidagi o‘zbek dialektologiyasi sohasida erishilgan bir qancha muvaffaqiyatlar asosida fikr yuritadi. Shu sababli muallif o‘zbek tilshunosligi sohasida birinchi bo‘lib dialektal so‘z maqomi va dialektal so‘z turlari haqida o‘z fikr-mulohazalarini o‘zbek shevashunosligida erishilgan bir qancha ilmiy muvaffaqiyatlarga asoslanib, qardosh turkiy tillarning dialektal materiallariga tayanib bayon qilgan. Muallif o‘zining dialektal so‘z, dialektal leksika, dialektal leksikografiya to‘g‘risidagi fikrlarini bu monografiyada me’yor darajasiga keltirishga harakat qilgan.

Dialektal so‘zlar maqomi masalasida gapirganda Mahmud Koshg‘ariy shunday so‘zlarning ko‘chma ma’nolari *yo‘go‘ro‘g, yĭldĭzlan, tal, qachach* so‘zlari misolida, ulardan ba’zilarining etimologiyasi *to‘msa, chaxshi, xasnĭ, tovĭl* so‘zlari misolida yoritishga harakat qilingan bo‘lsa-da [15, 26-27, 27-28.], ayni kunlarda ushbu so‘zlarga oid bu masalalar ham unutilgan.

Dialektal so‘z maqomining nazariy tomoni unga xos me’yor va tamoyil(qonun)larning ishlab chiqilishidir. Bu masala tayyorlab e’lon qilingan dialektal lug‘atlarda qanday bayon qilinganligiga e’tibor qaratsak. Yana Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘at-it turk" asarining ma’no-mohiyatiga diqqat qilsak. Asar arab lug‘atchiligi talablariga muvofiq bir necha yillik dialektologik kuzatishlar asosida yaratilgan. U vaqtlarda adabiy til haqida so‘z bormagani kabi muallif sheva so‘zlarining turi va ma’nolari haqida to‘liq gapirmasdan, arab lug‘atchiligi talablari asosida turkiy tillar so‘zlarining leksik va leksikografik tadqiqlarga asos bo‘ladigan lug‘at maqolalarga ham jiddiy e’tibor bergan [16, Qarang:].

"Alpomish" dostonining "Eng ko‘p yozib olingani qoraqolpoq va o‘zbek tillaridagi namunalaridir. Qoraqolpoq tilidagi sakkiz varianti, o‘zbekcha varianti esa, o‘ttizdan ortiq xalq dostonchisidan to‘la holda, parcha, bayoni tarzda o‘ttiz besh marta yozib olingan" [17,5-]. Ammo taniqli folklorshunos olim, akademik To‘ra Mirzaev boshchiligida tuzilgan "Alpomish" dostonining izohli lug‘atida

ham qipchoq lahjasi hamda sheva so‘zlarining o‘rinsiz, noto‘g‘ri o‘zgartirilishi va noo‘rin tuzatilishi yoki noto‘g‘ri izohlanishi [18, 5-87] bunga misol bo‘ladi.

Dialektal so‘z maqomi masalasiga e’tibor qaratilishiga sabab ham mana shu lug‘atdagi lug‘at maqolalar asos bo‘lgan desam, fikr-mulohazam asosliroq bo‘ladi. Chunki undagi lug‘at maqolalarni o‘qib, uqib, o‘rganib bu sohaga kirib kelganimiz singari dialektal so‘z maqomi to‘g‘risidagi mulohazalarimizning yuzaga kelishiga ham mana shu asardagi turkiy tillar leksikasiga oid lug‘at maqolalar turtki bo‘lgan. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, ushbu asardagi lug‘at maqolalar keyingi davrda yaratilgan dialektal lug‘atlardagi lug‘at maqolalardan mazmun-mohiyat va katta hajmligi jihatlaridan farqlanib turadi.

Agarda keyingi davr lug‘atlariga dialektal so‘z maqomi nuqtai nazardan e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, ulardagi lug‘at maqolalar ikki-uch qatordan nari borsa, ba’zi bir so‘zlardagina 7-8 qatorgacha bo‘lishi kuzatildi (bu haqida sal yuqoriroqda dialektal lug‘at maqolalardan namunalar keltirilgan). Bu esa ularga oid materiallarning kamligi, bor materiallardan maqsadga muvofiq foydalanilmaganligi va oxir oqibat ularga tegishli dialektal leksikografik me’yor va talablarning ishlab chiqilmaganligi bilan bog‘lash mumkin. Dialektal so‘z maqomi masalasida gapirganda quyidagi aksiomani ham ta’kidlash lozim: adabiy til leksikasiga bag‘ishlangan lug‘atlar, ularning ichki tuzilishi va lug‘at maqolalarining ifodalanishi dialektal lug‘atlar hamda dialektal lug‘at maqolalardan tubdan farq qilishi tabiiy.

Lekin bu holat ham nazariy jihatlardan haligacha o‘rganilmagan. Ushbu hol esa dialektal so‘z maqomining leksikografik talqini va tahlilining bo‘sh jihatlarini tadqiqotchilarga ko‘rsatib turadi. Va yana o‘zbek adabiy tili terminining XX asrning 2-yarmidan qo‘llanilganligini e’tiborga olsak, to XX asrning 50-yillarigacha bo‘lgan davrda eski o‘zbek adabiy tili hamda hozirgi o‘zbek adabiy tili tushuncha va terminlari bo‘lmaganligi aniq. Shuningdek, eski o‘zbek adabiy tili termini XX asrning 40-60-yillaridan urfga, ya’ni akademik V. Abdullaev va professor N. Mallayevlarning sa’yi harakatlari bilan ilmiy sohada yangilik va shartli yangi termin sifatida kiritilgan. Biroq (Qo‘qon (Farg‘ona), Samarqand, Toshkent, Xiva,

Buxoro) adabiy muhit(lar) tushunchasini eski o‘zbek adabiy tili termini bilan berish adabiy badiiy ijod nuqtayi nazaridan to‘g‘ridir, ammo shevalarning o‘ziga xos mavqeyi nuqtayi nazardan (Qo‘qon (Farg‘ona), Samarqand, Toshkent, Xiva, Buxoro) har biri alohida til xususiyatlariga ega bo‘lgan adabiy muhitlarining ahamiyatini eski o‘zbek adabiy tili termini va tushunchasi bilan oshirish ma’lum bir jihatdan noto‘g‘ridir. Yuqoridagi tahlillardan xulosa chiqarib aytish mumkinki, 1956-yilgacha yaratilgan lug‘atlarni ma’lum ma’noda dialektal leksikografik tadqiqotlar deyishga, achchiq haqiqat bo‘lsa hamki, haqlimiz.

Shu o‘rinda til tarixiga oid IX-X asrlardan to XIX asrning oxirigacha bo‘lgan davrdagi qo‘lyozma, tosh bosma shakllaridagi materiallarning tarixiy dialektologiyaga tegishliligini hisobga olsak, ular tarixiy dialektologiyaning asosiy ilmiy va amaliy manbalari bo‘lib qolishi tabiiy holdir.

Bugungi mustaqillik davrida bir qancha o‘zlashgan so‘zlarni o‘zbekchasi bilan almashtirish ehtiyojining kuchayishi ham dialektal so‘z maqomining ahamiyatini yana ham yorqinroq ko‘rsatadi. Masalan, o‘zlashgan so‘zlardan biri bo‘lgan *chiqindi* yoki *musir* so‘zlari bugungi madaniy taraqqiyot jihatdan qo‘llanishi noo‘rin bo‘lib qolmoqda, chunki ular tilimizda juda salbiy ma’noni anglatib turibdi. Ularning o‘rniga qipchoq lahjasining shevalarida, xususan, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi sheva vakillari tomonidan qo‘llanuvchi *quqim* so‘zini olish kerak. U umumturkiy va o‘zbekcha so‘z, palatal singarmonizm (*quqым*)ni ifodalaydigan so‘zlardan biri. Ushbu so‘z *chiqindi* yoki *musir* so‘zlariga nisbatan ancha ijobiy ma’noda qo‘llash mumkin. Chunki biz o‘zbeklarda *dasturxon atrofida tushgan non ushoqlari*, *ovqat qoldiqlari* alohida *quqim* bo‘lsa, *uyni supirish-siyirishda chiqqan mayda chuyda narsalar ham* alohida *quqim*, *qozon-tovoqni yuvishdagi yuvindi-chayindilar ham* alohida *quqim*, *ko‘cha-kuydagi tashlandiq narsa va hojatxonadagi ortiqcha narsalar ham* alohida *quqim* hisoblanadi. Bular *quqim* so‘zining onomasiologik imkoniyati.

Agar e’tibor bersangiz, ayni vaqtda *QUQIMXONA (- qarang qanchalar ijobiy so‘z) (ya’ni MUSIRXONA (-e’tiborsangiz, undagi salbiy ma’noni anglashingiz tayin)*larda ovqat chayindisi uchun alohida, non va non ushog‘i

uchun alohida, mayishiy chiqindilar uchun alohida, qo‘pol narsalar uchun alohida *QUQIMXONAChA*lar tayyorlab qo‘yilgan. Bular esa *quqim* so‘zining qo‘llashning tabiiy-ijtimoiy omillari ifodasi sanaladi. Xullas, *musir* so‘zi o‘rniga *quqim* so‘zini, musirxona so‘zining o‘rniga *quqimxona* so‘zlarini ishlatsak, xato qilinmagan bo‘ladi. Chunki xalqimizning so‘z qo‘llashdagi falsafasi komillik, didi nozik, diqqat-e’tibori kuchli – ijobiyni salbiydan tez farqlay oladi.

Xullas, dialektal so‘z maqomining quyidagi nazariy jihatlariga diqqat-e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

1) ularning lahja va shevalarning vakillari tomonidan turli ma’no hamda shakllarda qo‘llanishi;

2) ularda leksik ma’noning dialektal ma’nolar ko‘rinishiga egaligi.

Albatta, dialektal so‘z maqomining quyidagi amaliy jihatlari:

1) sheva vakillari nutqining matnlar sifatida yozib olinishi;

2) turli davr lug‘atlarida ularning berilishi;

3) ularning oddiy dialektal lug‘atdan mukammal dialektal lug‘atga kiritilishi;

4) bunday lug‘atlarda dialektal so‘zlarning tavsifi va tahlili umumiy holda kelishi;

5) lug‘atchilik an’analarining kuchayishi hamda dialektal ma’noning xiralashishi natijasida leksik ma’nolarning faollashuvi;

6) lug‘at maqolalarining tavsiy holatdan dalillarga boy tahliliy holatlarga o‘tishi natijasida mukammal lug‘atlarning yaratilishiga ma’naviy ehtiyojning kuchayishi kabilar. Lekin bu ikki holatning hech biri na sheva materiallaridagi dialektal ma’lumotlarni to‘liq qamrab olish jihatidan, na mavjud shevalarning materiallaridan foydalanishda qo‘llangan metod va usullari jihatidan mukammallik darajasiga ko‘tarila olishmagan.

Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, dialektal so‘zlar maqomi bu –sheva so‘zlarining boshqa so‘zlar orasidagi huquqi, qo‘llanish va ishlatilish imkoniyati; talqini, tavsifi, izohi va etimologiyasi; o‘ziga o‘xshagan boshqa so‘zlar ichidagi, ham adabiy tildagi so‘zlarga nisbatan dialektal ma’nolari bilan ma’no munosabatlari strategiyasidagi betakroriy mavqei va shu mavqeini asoslaydigan

amaliy, shuningdek, nazariy jihatlar nuqtai nazardan dialektal leksika hamda dialektal leksikografik talablarga muvofiq ilmiy tadqiq etilishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va izohlar:

1. Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981. –В. 247.

2. Файзуллаев Б. Бадиий адабиётда диалектизмларнинг стилистик вазифалари // Тилшунослик масалалари. –Тошкент: Фан, 1978. –В.203-211.

3. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Тошкент: Фан, 1973. –В.80.

4. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Тошкент: Фан, 1973. –В.83-123.

5. Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi (monografiya). –Toshkent: Innovasiya-Ziyo, 2020. –B.24-27.

6. Misollardagi (1971, 12.12-) gacha bo‘lgan fikrlar shu so‘zga 1971-yilda nashr etilgan “Ўзбек халқ шевалари луғати”da berilgan. Qoraytirilgan qismi esa shu so‘z talqiniga biz tomondan qo‘shilgan fikrlar.

7. Quyida namuna uchun berilayotgan lug‘at maqolalarning yozuv shakli o‘zgarsa, matn boshqa holatga kelib qolishining oldini olish uchun tayyorlanayotgan dialektal lug‘atda ular qanday berilgan bo‘lsa, shu tarzda o‘zgarishsiz qayd etildi.

8. Qavsda berilgan (1971, 12.12-) dan keyin keltirilgan fikrlar uchala lug‘at maqolaga biz qo‘shgan qo‘shimchamizdir.

9. Bu matn sheva vakillarining suhbatidan yozib olingan.

10. Qarang: Нормаматов С. Э. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни. 10.00.01 – Ўзбек тили. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. –В.19-21.

11. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: EXTREMUM PRESS, 2020. –В.94.

12. Абдуллаев Ф. А. Диалектал луғат тузиш принциплари // ЎТА. -Тошкент, 1966.2-сони.-В.35-41. Мирзаев М. Диалектал сўзлар // Ўзбек

шевалари лексикаси. –Тошкент, 1966. –В.114-326. Ғуломов А. Ғ.Диалектал луғат ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1968. 4-сони. –В.14. Ишаев А.Шевалар луғатига киритиладиган сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1988. 2-сони. –В.37-42. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. -Тошкент: Фан, 1990. –Б. 4-42.

13. Раҳимов С.Сурхондарё ўзбек шевалари луғати.-Денов,1993. 122 бет. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. -Тошкент: Муҳаррир, 2011. 466 бет. Садиков Т.Лексика говоров Ташкентской области. АКД. -Ташкент, 1968.с. 22. Тўйчибоев Б., Ширинов С., Қашқирли Қ. Туганмас бойликлар булоғи. -Тошкент, Ўқитувчи, 1991.196 бет.Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зомин сўзлиги. -Тошкент, 2008. 222 бет va boshqalar.

14. Ишаев А.Шевалар луғатига киритиладиган сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1988. 2-сони.37-42-бетлар. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. -Тошкент: Фан, 1990. 140 б.

15. Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит туркнинг тил хусусиятлари.-Тошкент, 2017. –Б.26-27, 27-28.

16. Qarang: Маҳмуд Кошғарий. Девону луғот-ит турк. Уч томлик. I т. -Тошкент: Фан, 1960. II т.-Тошкент: Фан, 1961. III том. -Тошкент: Фан, 1963.

17. T.Mirazyev. Doston gultoji. “Alpomish” dostoniga yozilgan so‘zboshi. -Toshkent: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2010. 5-bet.

18. Mirzayev T., Eshonqul J., Fidokor S. “Alpomish” dostoning izohli lug‘ati. -Toshkent: Fan, 2007. –B. 5-87.

ХӘҘЕРГЕ БАШҠОРТ ТЕЛЕНДӘ, ОҡШАТЫУ ҺҮҘҘӘРЕНӘН ҠЫЛЫМ ЯҺАЛЫШЫ

(Образование глаголов от подражательных слов в современном башкирском языке)

Иҫәнғолова Гөлназ Абдулхаҡ ҡыҙы,
филология фәндәре докторы, доцент,
Башҡорт дәүләт университеты
Рәсәй, Башҡортостан, Өфө ҡалаһы

Lekin shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, sud-huquq tizimida *ko‘rsatma* so‘zi ko‘pincha *qanday harakat qilish, ishlash lozimligini ko‘rsatuvchi yo‘l-yo‘riq* ma’nosida qo‘llanishi sabablimi ***показание*** tushunchasini ifodalash uchun ko‘rsatuv so‘zi faol qo‘llanadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, umumiste’moldagi ***ko‘rsatuv*** so‘zining birinchi ma’nosi televidenie orqali namoyish etiladigan ko‘rsatuv sifatida tushunilsa, sud-huquq sohasida, asosan, uning ***показание*** tushunchasini ifodalovchi semasi yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham M.Mirhamidov va S.Hasanovlar ***ko‘rsatuv*** atamasini “so‘roq”, ya’ni “guvohning bergan guvohligi, aybdor yoki gumon qilinayotgan shaxsning bergan so‘rog‘i” deb ishlatishni ma’qullagan[5].

---

1 O‘sha lug‘at. 472-bet.
2 O‘zbekiston advokatlarining himoya nutklari. Toshkent, 2006. 39-bet.
3 O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Besh jildlik.2-jild. Toshkent, 2006. 466-bet.
4 O‘sha lug‘at. 466-bet.
5 Mirhamidov M., Hasanov S. Yuridik til va huquqshunos nutqi. Toshkent, 2004.46-bet.

Bundan ko‘rinadiki, sud-huquq tizimida bunday bahstalab so‘zlar o‘z yechimini kutib turibdi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nazarov K., Usmonov S., Tohirov Q. Yuristning nutq madaniyati. Toshkent, 2003.

2. Mirhamidov M., Hasanov S. Yuridik til va huquqshunos nutqi. Toshkent, 2004.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik.2-jild. Toshkent, 2006.

4. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at.Toshkent, 1972.

5. O‘zbekiston advokatlarining himoya nutklari. Toshkent, 2006.

6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat- Protsessual Kodeksi. Toshkent, 2018.

7. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Protsessual Kodeksi. Toshkent, 2018.

ИСМЛАР УСЛУБИЯТИ

Шофқоров Абдишукур Мусаевич,
ф.ф.н, Чирчиқ давлат педагогика институти
ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти

Ёзувчининг индивидуал услубида сўзларни образли ишлатиш турлича бўлади. Ҳар бир ижодкор воқеликни ўзгача идрок этади. Уларнинг тасвир воситаларидан фойдаланиш усули, поэтик синтаксиси бошқалардан ажралиб туради. “Бадиий адабиётда тасвир этиладиган манбалар доираси жуда ҳам кенгдир. Адабиёт турли хил касб-ҳунар эгаларининг, ҳар хил тоифадаги кишиларнинг ҳис-ҳаяжонларини тасвирлабгина қолмай, уларнинг ички дунёсини, жамиятдаги амалиётини ҳам акс эттиради. [4; 30]

Буюк ўзбек шоири Алишер Навоий ғазалиётида лирик қаҳрамон – романтик ошиқнинг бутун орзу-ўйлари, ишқ-муҳаббат йўлидаги барча орзу-умидлари идеал даражада гўзал, тенгсиз ва ноёб хислатларнинг эгаси

маъшуқани, уларнинг ташқи ва ички дунёсини бадиий тасвирлаш муҳим ўрин тутади.

Алишер Навоийнинг “Хазойин ул-маоний” асаридаги кўпгина ғазалларда лирик қаҳрамон портрети ўз тили ва дилидан ғоят маҳорат билан тасвирланади. Хусусан, маъшуқа образи тасвир ва тавсиф этиб бўлмас даражада кўркам, ҳатто уни ойга, қуёшга ҳам тенглаштириб бўлмас даражада. Бу образ шарқ адабиётида таъриф ва тавсиф қилинган барча машҳур маъшуқалардан беқиёс гўзал ва устун турувчи тенгсиз аёл сифатида тасвирланган.

Навоий маъшуқа образининг баркамол портретини яратиш ва унга хос бўлган инсоний хислатлар, нозиклик, уятчанлик, меҳр ва ҳаё, нафосат ҳамда аёлларга хос таъсирчанлик, ноз-у ишва ёки ошиққа нисбатан “атайин” бепарволик ҳамда раҳм-шавқатсизлик сингари хусусиятларни тасвирлашда кўпгина турли-туман бадиий усуллар билан бир қаторда уни машҳур маъшуқаларга солиштириш, қиёслаш усулидан кенг фойдаланган. Навоий ғазалларида Ширин, Лайли, Азро (Узро) каби исмларнинг тез-тез учраб туриши аслида мана шу усул тақозоси билан юзага келган. Манбаларда келтиилишича “Хазойин ул-маоний” асарининг тўртта девонида машҳур маъшуқаларнинг номи - Лайли исми 71 марта, Ширин исми эса 40 марта учрайди. [2; 13]. Лайли ва Ширин исмларининг ишлатилиши муҳим бадиий-услубий мақсадлар билан алоқадор.

Шоирнинг тасвирлашича, ёри шу даражада кўркамки, унинг ҳуснини кўрган ажойиб, нафис гуллар ва машҳур гўзаллар Лайли-ю Ширин ҳижолатда, унинг Мажнун-у Фарҳоди бўлса ҳайронликдадир:

Боғ аро рухсору қаддинг жилвасин то кўрдилар,
Бўлди обу тобсиз гулбарги ҳам, шамшоди ҳам.
Лайлию Ширин бўлуб сендин хижил, мендин доғи,
Ҳам анинг Мажнунидур ҳайрон, мунунг Фарҳоди ҳам. [1; 412]

Бу каби ҳолатни шоир яна бир ғазалида қуйидагича тасвирлайди. Ошиқ ўзининг тенгсиз кўркам маъшуқаси билан фахрланади ва бу ҳусн камолоти олдида ўзини ҳушёр бўлишга, янглишиб қолмасликка чақиради:

Десалар: Лайлиму ортуқ ҳусн аро ё ул пари?

Гарчи Мажнунсен, керак ёнғилмағайсен, эй кўнгил. [1; 456]

Келтирилган байтда ажойиб сўз ўйинини кўрамиз. Одатда Мажнун доимо Лайлини дейди ва унинг ишқида “мажнун” бўлиб қолган, шундай экан, ҳусн аро “Лайлиму ортиқ... ё ул пари?” деб сўрасалар, албатта, Мажнуннинг “Лайли” деб жавоб бериши табиийдир. Чунки, у биринчидан, Лайлининг ошиғи – Мажнун, иккинчидан, умуман – мажнун (ақл-ҳуши ўзида эмас)дир. Демак, Мажнун номи келтирилган байтда ҳам атоқли отлик ва ҳам турдошлик (оддий сўзлик) вазифасида усталик билан ишлатилган.

Шундай қилиб, Навоий ғазалларида тез-тез учраб турувчи Лайли, Ширин исмлари бу асарларга тасодифан киритилган эмас. Шоир ўзи тасвирлаётган маъшуқани улуғлаш, ундаги беқиёс гўзаллик, чуқур ва теран нафосатни юқори даражада таъриф ва тавсифлаш учун бу исмларга катта услубий маъно юклайди. Навоий ғазалларида Азро (Узро), Ширин, Лайли исмлари инсоний нафосат ва одобнинг рамзи, ўлчови сифатида қабул қилинган. Шоир ўзи тасвирлаётган маъшуқани мана шу кўркамлик ва камолот ўлчови билан ўлчайди. Аммо шу билан бирга унинг севгилиси шоир учун энг кўркам ва тенги ва қиёси йўқ инсондир. У машҳур Лайли ва Ширидан ҳам ҳусну малоҳатда, ҳам маънавий дунёсига кўра қисёслаб бўлмас даражада устун ва афзалдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алишер Навоий Хазойин ул-маоний. – Т.: “ЎзР ФА”, 1959, 781 б.

2. Бегматов Э., Шофқоров А. Исмлар услубиятига доир. – Навоий: “НДПИ”, 2002. 346 б.

3. Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарқанд: “СамДУ”, 2011. 110 б.

4. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1983. 247 б.

ҲАРАКАТ ТАРЗИ МАЪНОЛАРИНИ ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШ ДОЛЗАРБЛИГИ ХУСУСИДА

Менглиева Мунира Бахтиёр қизи,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат
ўзбек тили ва адабиёти университети комьютер
лингвистикаси кафедраси ўқитувчиси,

Ахборот асрида жаҳон халқларининг маданий интеграцияси тез суръатларда кенгайиб бормоқда. Бу миллий ўзига хосликни сақлаб қолиш дунё цивилизацияситарихида ўзига хос ўрин тутган ҳар бир халқнинг долзарб вазифасидан бириэканлигини яққол намоён этмоқда.

Бугунги кунда юртимизда ўзбек тилининг ривожи ва халқаро миқёсида ўзининг муносиб ўрнини эгаллашига кенг имконият яратилган. Она тилимизнинг Давлат тили сифатидаги мақоми кучайгани унинг амалдаги кенг имконияти сифатида ижтимоий ҳаётнинг барча соҳасида ўз ифодасини топмоқда. Хорижий тилларни ўрганиш, ўзбек тилининг мавқеини жаҳоннингэнг ривожланган тиллари даражасига кўтариш муҳим масала сифатида кун тартибига кўтарилган паллада типологик таҳлилларда алоҳида ўринтутадиган бошқа грамматик ҳодисалар қаторида инглиз ва ўзбек тили ҳаракаттарзи ифодаларининг типологик структур мақомини аниқлаш ва уларни параллел корпусларда теглаш масаласи ҳам долзарб.

Мустақиллик даврида мамлакатимизда ўзбек миллий моделига мос келувчи таълим тизимини ташкил этиш ва ривожлантиришнинг замонавий талаблар даражасидаги асосий тамойиллари ишлаб чиқилиб, амалиётга жорий қилинди. Чет тилларни ўрганишга эътибор давлат сиёсатининг устувор йўналишидан бирига айланди. Талабалар маънавий салоҳиятини юксалтириш механизмларини жисмонан соғлом, руҳан ва ақлан ривожланган,

мустақил фикрлайдиган, Ватанга содиқ, қатъий фуқаролик позициясига эга ёшларни тарбиялаш, демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнидауларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш асосида такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади. Зеро тил бирликларининг семантик имконияти грамматик сатҳдаги ўрни ва нутқ жараёнидаги вазифасини белгилайди. Ҳар бир сўз маъно ва вазифа жиҳатидан ўзига хос ва у шу билан бошқасидан фарқланади. Шу боисдан ҳозирги инглиз ва ўзбек тили ҳаракат тарзи ифодаларининг қўлланиш меъёрини белгиловчи семантик, матний хусусиятини типологик таҳлил қилиш долзарблашмоқда.

Замонавий ўзбек тилшунослигида ҳаракат тарзи категориясига доир тадқиқотлар асосини кўмакчи феъл хусусидаги изланишлар ташкил қилади. Тарзнинг ўрганилишини эса тарихан уч босқичга бўлиш мумкин. Биринчи даврда кўмакчи феъллар ёрдамчи феъл сифатида қаралади, шунингдек, А.Ғуломов “Феъл” монографиясида айни шаклларни “феъл+феъл” типидаги қўшма феъл деб атайди[1]. Бу воситаларни А. Ҳожиев кўмакчи феъл сифатида номлаб, “улар ўзи бирикиб келган феълнинг маъносига турли қўшимча маъно беради ва шу феъл билан биргаликда гап бўлаги бўлиб келади”[2] деб баҳолайди. *Ҳаракат тарзи категорияси* истилоҳи илк бор таълимда қўлланди[3]. Тилшунос О.Шукуров эса ҳаракат тарзи истилоҳининг фанга кириб келишига катта ҳисса қўшди. Тадқиқотчи Ш.Раҳматуллаева томонидан ҳаракат тарзи шаклларининг лингвокультурологик ва социопрагматик жиҳати тадқиқ қилинди[4].

Бугунга қадар олиб борилган барча тадқиқотлар тарз ифода воситаларини фақат морфологик сатҳда кўриб чиқди. Ушбу категориянинг синтактик, лексик ва фонетик сатҳдаги ифода бирликлари яхлит қамраб олинмади.

1 Ғуломов А. Феъл. – Тошкент, 1954. – Б. 77.

2 Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. –Тошкент: Фан, 1966. – Б. 15.

3 Неъматов Ҳ., Ғуломов А., Абдураимова М., Қосимова Н. Она тили. 6-синф учун дарслик (синов). – Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – Б. 100.

4 Раҳматуллаева Ш.З. Ҳаракат тарзи шаклларининг лингвокультурологик ва социопрагматик хусусияти: Ф.ф. фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2018. – Б. 18.

Натижада ушбу лисоний категория функционал-семантик майдон сифатида тўлақонли ўрганилмади. Ҳар бир давр фанлар олдига янги вазифалар қўйиш билан бирга, ушбу ҳодисалар моҳиятини тадқиқ этишда замонавий таянч нуқталар ҳосил қилади. Формал тилшуносликда кўмакчи феъл доирасида тадқиқ қилинган, структур тилшуносликда морфологик сатҳ доирасида кенгайган, яъни кўмакчи феъл бирлиги [равишдош қўшимчаси + кўмакчи феъл] яхлитлиги сифатида ўрганилган бўлса, эндиликда давр бу ҳодисанинг турли сатҳ воситалари орқали воқеланишини тадқиқ қилишни тақозо этмоқда, бу эса масала моҳиятини тўлиқ англашга ёрдам беради.

Англашиладики, ҳаракат тарзи шаклларининг миллий-маданий, гендер ва прагматик хусусиятлари махсус ўрганиш эҳтиёжи мавжуд. Шунингдек, ҳозирги замон инглиз ва ўзбек тили ҳаракат тарзи ифодаларининг типологик хусусиятлари, доимий қўлланиш меъёрини кўрсатувчи семантик ва контекстуал тавсифини бериш, таржима муаммоларини ёритиш ва параллел корпусларда теглаш масаласини ҳал этиш лозим.

ТІЛ ХАЛЫҚТЫҢ АЛТЫН ДІҢГЕГІ

Өсербай БАЙҚАБЫЛОВ,
Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік педагогика институтының аға оқытушысы
Жайна ИБРАИМОВА, 2-курс студенті

Өзін-өзі білетін әр халық алдымен өзінің туған тілін сыйлап, мақтан тұта білуі керек. Өйткені халықтың даналығы, жырлары, шежіресі сол халықтың тілінде жазылады. Тіл – қай ұлтта болса да қастерлі, құдіретті ұғым. Ол әр адамның бойына ана сүтімен бірге еніп, қалыптасады. Тіл – халықтың жан, сәні, тұтастай кескін-келбеті, болмысы. Адамды мұратқа жеткізетін – ана тілі. Әр халықтың, ұлттың құрмет тұтар өз ана тілі бар. Менің ана тілім – қасиетті қазақ тілі. Қазақ тілі түркі тілдердің ішіндегі ең таза әрі бай тілге жатады.Тіл – халықтың жаны. Тілі құрыса, халық та жер бетінен жоғалады.

Адамзат тарихында көптеген өркениетті елдердің өшіп кетуі алдымен тілді жоғалтудан басталғанын ғылым дәлелдеп отыр. Бүгінгі қазақ қоғамындағы мәңгүрттіктің басы да өз тілін тәрк етуден туды. Ана сүті сіңбеген, бесік жырынан нәр алмаған ұлттық қасиет тана сүтімен кірмейді. Тілі мен дінінен айырылған ондай жан рухани кемтарлығын, адамдық болмысын түсінбей, көлденең көк аттының қолжаулығына айналады. Ана тіліміздің тағдыры үшін күресте халқымыз қам-қарекетсіз болған емес. Жиырмасыншы жылдары тіл тәуелсіздігін ту етіп көтерген Әлихан, Ахмет, Міржақып, Мағжан, Мұхтарлар, сексенінші жылдардың аяғында бостандықтың лебі білінісімен басталған бүкілхалықтық қозғалыс соның айғағы.

О, туған ана тілім! Тас бұлақтың тұнығы да сенде, ана сүтінің жұғымы да сенде, райхан гүлдің жұпары да сенде, қыран құстың жанары да сенде, назды сұлудың нәзіктігі де сенде, сахара даланың жазықтығы да сенде... Халқымыздың аса бай рухани қазынасы – туған ана тіліміз. Ол – қазақ тілі. Қазақ тілі - өзінің даласындай кең пішілген жайдары да жалпақ тіл. Қазақ сөзі қашанда даланың қоңыр желіндей аңқылдап еркін есіп тұрады. Қазақ тілінің биязы мақамы – домбыраның күмбір қаққан сазындай. Асқан әуезділігі – шырқап салар әндей. Туған тіл біздің бірінші бақытымыз, бірінші ырысымыз, біз сондықтан “Ана тіліміз” дейміз. Қазақтар “Ананың тілі” деп ерекше құрметтейді. Басқа тілді білу - әрине, мақтаныш. Әйтсе де өз ана тілін аяқ асты етуге болмайды. Тіл құдіреті - ерекше. Оның бітпесті бітіретін, жетпесті жеткізетін, үзілгенді жалғайтын мүмкіндігі бар. Бір ауыз сөз опық жегізіп, өмір бойы өзегіңді өртесе, бір ауыз орынды айтылған сөз жадында жатталып, бақытқа жеткізеді.Тіл – ұлттың жан дүниесі. Расында қазақ халқының басында талай қиын нәубет, зұлматтың, қайғылы күндердің болғаны тарихтан белгілі. Сондай ауыр сәттерде, сын сағаттарда атамекен қонысын тастап босқан халықтың өзімен бірге алып жүрген байлығы – ана сүтімен санасын дарыған ана тілі ғана.Халқымыздың тілге беріп жүрген бағасы бұл ғана емес, ана тілге деген мейірім, махаббат сезімін білдіретін сөздер көп-ақ. Оған жүздеген мысалдар келтіруге болады. Осы сияқты ой

тұжырымдардың баршасы ел аузына түспей, ғасырлар өтсе де ұрпақ жадында сақталған қанатты сөздер.

Тіл – қай ұлтта, қай елде болсада қастерлі, құдыретті. Ол әрбір адамға ана сүтімен бірге еніп, қалыптасады. Тіл байлығы - әрбір елдің ұлттық мақтанышы. Ол атадан балаға мирас болып қалып отыратын баға жетпес мұра. Демек, әр адам ана тілін көзінің қарашығындай қорғауға, оның орынсыз шұбарлануының қандайына болса, да қарсы тұруы тиіс. Ана тілі – алтын қазына, ана тілін қадірлеу, беделін нығайту біздің парызымыз. Әлемде 2500-ден астам тіл бар. Олардың нақты санын дәл айту мүмкін емес. Әр жыл сайын, әр ай сайын, тіпті, күн сайын бір тіл жойылып отырады. Қазіргі таңда көптеген тілдердің жойылып кету қауіпі бар. Адамдар өз ана тілінің жойылып кетпеуі үшін барын беруге даяр. Өкініштісі, биология заңдылығына ұқсас ірі тілдер ұсақ тілдерді өзіне кіріктіріп, жеке дара құндылықтары мен ерекшеліктерін жойып жіберуде.

Бар адамнан жатырмын тек бөлек мен
Бір дауысты естіп қалдым кенеттен.
Естідім мен осы арадан үнін де,
Екі кісі сөйлесті авар тілінде.
Мен жатырмын қара жерде көз жұмып
Мына екеуі күбірлейді сөз қылып
Ғасан деген бір кісінің қулығын
Али деген бір кісінің сұмдығын
Естідім де сөзін ана тілімнің
Бойым жылып лезде мен тірілдім
Балгер де емес дәрігер де емес емдейтін
Тек өзімнің тілім екен сөйлейтін
Өзге бір тіл емдер басқаларыңды
Мен онымен айта алмаймын әнімді
Егер тілім ертең болса құрымак
Мен дайынмын өтуге де бүгін ақ

Мен жаныммен сүйем осы тілімді

Кедей деп ақ айта берсін білімді

Ассамблеяда естілмесін үні де

Ана тілі ұлы менің өзіме.

Өлген адамды тіріліер тілдің ғана құдіреті бар. Расул Ғамзатовтың бұл өлеңі күллі авар халқының мұңын жоқтап, авар тілінің құдіреттілігін сезіндіріп тұр. Қазақ ұлтында да тіл туралы жырламаған ақын-жазушы кем де кем.

Біз – келешек еліміздің айбыны,

Біздің қолда тіл мен ұлттың байлығы!

Тіл – тиексіз болашақтың тірегі,

Бізге аманат Тәуелсіздік тұғыры!

Ана тілің – арың бұл,

Ұятың боп тұр бетте.

Өзге тілдің бәрін біл,

Өз тіліңді құрметте, – дейді талантты ақын Қадыр Мырза Әли ағамыз.

Қазақ тілінде сөйлейтін адамдарының саны жағынан әлемдік тілдер арасында 70-ші, тіл байлығынан үшінші орында. Сену қиын десек те деректер осылай. Ең бай тіл саналатын араб тілінде 12 миллион 300 мың сөз болса, бұл көрсеткіш ағылшын тілінде 750 мың, қазақ тілінде 600 мың, ал испан тілінде 300 мың, орыс тілінде 150 мың екен. Ал қытайлар болса 87019 иероглифті қолданады. Демек, қазақ тілі әлемдегі ең бай тілдердің төрінен орын алады .Қазіргі таңда елімізде қазақ тілі мен орыс тілі қатар қолданып келеді. Еліміздегі ірі қалаларда орыс тілінің басымдылығы бар екені жасырын емес. Оңтүстік өңірлер тілдің мәйегін бұзбай қазақылығын сақтап отыр. Ал солтүстік өңірлерде бұл көрсеткіш өте төмен. Біз бұл көрсеткішті көтеру үшін әр қайсымыз ана тілімізде сөйлеп, ана тілінде қарым-қатынас жасауымыз керек. БАҚ құралдары мен қоғамдық орындағы іс-шаралар қазақ тілінде өтер болса, тілімізге сұраныс артар еді. Қазір өзге ұлт өкілі түгіл, қазақтардың өзі ана тілін керексіз етіп отырғаны жасырын

емес. Бұған Мұхтар Шаханов ағамыз «мәңгүрттік» деп сипаттама берген еді.

Тіл түзелмей, қоғам түзелмейді; мемлекеттің де, ұлттың да болашағы күңгірттене береді. Сондықтан да еліміздің қоғамдық-рухани өмірінде ұлттық тіл саясатын барынша батыл қолға алып, қарқынды жүргізетін уақыт жетті.

Анамның тілі – ардақтым менің. Адамның атасы, әкесі мен шешесі сенсің. Сен менің кішкентай кезімде әкем болып мойныңа отырғызып қуандың, ат үстінде алдыңа алып, мені көкке секірттің. Жел болып кекілімнен сипадың. «Ана тілі – халық боп жасағаннан бері жан дүниеміздің айнасы, өсіп-өніп түрлене беретін, мәңгі құламайтын бәйтерегі. Жүректің терең сырларын, басынан кешкен дәуірлерін, қысқасы, жанның барлық толқынын ұрпақтан-ұрпаққа жеткізіп, сақтап отыратын қазына»,-деп Жүсіпбек Аймауытов ағамыз жазғандай, жерін, елін сүйген әрбір азаматтың ана тіліне деген сүйіспеншілігінің мақтаныш сезімі болуы керек. Бала өмірге келгеннен бастап, өз ана тілінде сөйлеп, ана тілінде білім алып, жалпы ұлттық тәрбие алуы керек деп ойлаймын. Себебі өз ана тілінде сөйлеу оған деген көзқарас ең зор адамшылық, мәдениеттілік, тәрбиелілік өлшемі болып табылады.

Қортыа айтқанда, Тіл – ұлттың жаны. Ал ұлттың болашағы – оның ана тілі. Тіл халықпен бірге өмір сүріп дамиды, әр ұлттың тілі – оның бақыты мен тірегі. Тілім, ана тілім менің, адамзатымның тілі, сен менің анам болған кезіңде көкірегіңе жабысып, төсіңнен ақ сүтіңді емдім. Сен менің ағам, інім, әпкем, қарындасым, бауырларым болған кезіңде мен сені одан әрмен түсініп, ұғынғым келді. Адамзаттың Абай мен Мағжан сынды асқар алыптарын туғызған, әкелері мен аналары болған ұлтымыздың тірегі сенсің, туған тілім. Бірақ, менің терім “туған тілім” сен үшін ғана төгілсін, менің өмірім сен үшін ғана өрілсін! Олай болса, ана тіліміздің алдымен өзіміз құрметтейік, ардақтайық! Сонда ғана туған тіліміздің туы биіктерде желбіреп тұратын болады.

Пайдаланылған әдебиеттер:

1. Аханов К. Грамматика теориясының негіздері. Алматы, 1993.
2.Жұбанов А. Қолданбалы тіл білімінің мәселелері. А.: «Арыс», 2008.
3. Қордабаев Т. Түркология және қазақ тіл білімі. Алматы, 1998.
4. Маманов Ы. Қазақ тіл білімінің мәселелері. А.: «Арыс», 2007.
5. Хасенов Ә. Тіл білімі. Алматы, 2003.
6. Мырзалиев Қ. Таңдамалы шығармалары. Астана. 2009.

БЎСТОНЛИҚ ТУМАНИ МИКРОТОПОНИМИЯСИНИ ЛИНГВОМАДИНИЙ ТАДҚИҚ ЭТИШ АСОСЛАРИ

Абдуллаев Акмал Амирович,
Чирчиқ давлат педагогика институти
таянч докторанти

Аннотация: Мақолада Бўстонлиқ тумани микротопонимиясини лингвомаданий аспектда тадқиқ қилишнинг асосий йўналишлари баён этилган.

Калит сўзлар: топоним, жой номи, ономастика, топонимия, микротопонимия, гидроним.

Ўзбек тилшунослигининг ономастика (номшунослик) соҳасидаги муаммоларини тадқиқ қилиш иши ўзбек тилшунослигида ўтган асрнинг 1960 йилларидан, янаям аниқроғи, 1965 йилдан бошланган. Атоқли ўзбек олимларидан Э.Бегматов ўзбек антропонимиясини, Т.Нафасов Қашқадарё вилояти топонимиясини, С.Қораев эса тарихий номларни ўрганишга ўша даврда киришганлар.

Ўша даврда тетапоя қадам бошлаган ўзбек тили ономастикаси, эндиликда ўзбек тилшунослигида анча ривож топган илмий йўналишдир. Ҳозирда ўзбек ономастикасининг антропонимика, топоиимика, гидронимика, этнонимика, қисман космонимия, зоонимия йўналишлари,

шунингдек ономастик лугатшунослик, атоқли отлар имлоси қониқарли тадқиқ қилинган [1,4].

Ономастиканинг асосий ўрганиш объектларидан бири ҳисобланган топонимлар узоқ ўтмишга дахлдор бўлиб, уларда қадимда яшаб ўтган аждодларимизнинг этногенези, урф-одат, касб-ҳунар, ижтимоий, маданий-маънавий, диний-фалсафий қарашлари, жойларни номлашдаги моҳирлик ва топқирлиги ўз мужассамини топган. Демак, топонимлар мана шу маънода ўзбек тилининг тарихий, лисоний бойлиги, халқ маънавиятининг улуғ мероси ҳамдир. Республикамиз Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. Биз янги Ўзбекистонни барпо этишга қарор қилган эканмиз, иккита мустаҳкам устунга таянамиз. Биринчиси – бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиёт. Иккинчиси – аждодларимизнинг бой мероси ва миллий қадриятларга асосланган кучли маънавият.” [2], - деган фикри топонимик мерос учун ҳам тегишлидир.

Бугунги ўзбек номшунослигида ўзбек топонимиясини ўрганиш бўйича бир қатор жиддий, салмоқли тадқиқотлар юзага келди. Уларнинг муаллифлари етакчи ўзбек номшунослари Б.Ўринбоев, Ҳ.Ҳасанов, Т.Нафасов, З.Дўсимов, С.Қораев, С.Найимов, Н.Охунов, Ш.Қодирова, А.Аслонов, Ў.Ориповлардир. Ушбу олимлар ҳамда бошқа бир қатор номшуносларнинг саъй-ҳаракати туфайли Фарғона, Тошкент, Хоразм, Бухоро, Қашқадарё, Сурхондарё, Самарқанд ва бошқа вилоятлар топонимларининг материаллари тўпланди ва таҳлил қилинди. Шунингдек, бугунги кунда топонимиканинг назарий масалаларига, уларнинг морфем ва ясалиш жиҳатларига бағишланган ишлар ҳам майдонга келмоқда.

Тўпланган материаллар асосида юздан ортиқ монография ҳамда алоҳида нашрлар эълон қилинган бўлса, қирқдан ортиқ докторлик ва номзодлик диссертациялари ҳимоя қилинган. Жумладан, С.Қораевнинг 1991 йилда чоп қилинган “Тошкент топонимлари” ҳамда 2005 йилда чоп қилинган “Ўзбекистон вилоятлари топонимлари” номли китоблари

Ўзбекистон жой номларини ўрганишда муҳим тадқиқотлардан саналади [3, 4]. Ушбу нашрларда республика ҳудудидаги кўплаб топонимларга шарҳлар берилган, ҳар бир вилоятнинг топонимиясига оид изланишлар олиб борилиб, қисқача таҳлиллар келтирилган. Жумладан, Тошкент вилоятидаги туман ва шаҳарлардаги қадимий кент, овул, қишлоқ, мавзе ва сув ҳавзалари номлари билан боғлиқ топонимлар ҳақида ҳам илмий мулоҳазалар юритилган.

Шунга қарамасдан, Тошкент вилояти топонимияси материаллари етарли даражада ўрганилиб тадқиқ қилинмаган.

Маълумки, топонимия ҳудудларда тарқалган ва халқ тилида яшовчи лисоний материал бўлиб, моҳиятан халқ лаҳжа ва шеваларининг ҳам луғавий бойлигидир. Афсуски, шунга қарамасдан, шу вақтга қадар шевашунослар ўз ишларида ономастик, хусусан, топонимик материални четлаб ўтишди. Топонимик кўлам кўпроқ географлар эътиборида бўлиб келди.

Маълум бўлдики, Тошкент вилояти ҳудуди топонимлари ҳозирга қадар қониқарли илмий тадқиқ қилинган эмас. Ушбу фикр вилоятнинг Бўстонлиқ тумани микротопонимияси учун ҳам тўлиқ тааллуқлидир.

Ўзбекистон ҳудуди топонимиясининг умумий хусусиятларини билиш, унинг лисоний бойликлари кўлами ҳақида умумлашма фикрга келиш ҳамда ушбу асосда республиканинг топонимик харитасини тузиш учун республиканинг барча ҳудуди, жумладан, туманлари топонимияси материалларини синчиклаб тўплаш ва тадқиқ қилиш лозим бўлади. Мана шу маънода ўз қадимий тарихи ва бой топонимик материалига эга бўлган Бўстонлиқ тумани топонимиясининг лисоний хусусиятларини алоҳида тадқиқ қилиш, шубҳасиз, маълум назарий ҳамда амалий қимматга эгадир.

Бугунги кун тадқиқотчиси олдида Бўстонлиқ тумани микротопонимиясини тўлақонли лисоний таҳлил қилиш вазифаси турибди. Бу вазифани ҳал қилиш учун туман ҳудудида мавжуд бўлган топонимик материалларни тўлиқ йиғиш, тизимлаштириш, уларни луғавий-мавзувий гуруҳларга бўлиш, топонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари

юзасидан кузатишлар олиб бориш ва этимологик маъносини очиш лозим. Қолаверса, номларнинг грамматик тузилиши ва структурал моделларини белгилаш ҳамда уларнинг ясалиш усулларини ўрганиш ҳам зарур.

Юқорида қайд қилинганларни амалга ошириш орқали Бўстонлиқ тумани топонимиясининг табиати, ўзига хос хусусиятлари ҳақида тўлиқ илмий хулосалар чиқариш мумкин. Ушбу хулосалар ўзбек номшунослигида ҳозирга қадар мавжуд бўлган илмий тасаввурларни кенгайтиришга, вилоят топонимияси ҳақида маълум даражада илмий тасаввур ҳосил қилишга, шунингдек, ўзбек номшунослиги бўйича дарслик, ўқув қўлланма ҳамда изоҳли ва имло луғатларини тузишда асос вазифасини бажаради.

Бўстонлиқ тумани ҳудудида мавжуд топонимлар алоҳида бир илмий тадқиқот учун асос бўла олади. Чунки мазкур ҳудудда туманга бўйсунувчи 1 та шаҳар, 18 та қишлоқ фуқаролар йиғини, 12 та маҳалла фуқаролар йиғини, 52 та кўча, 22 та некроним мавжуд бўлиб, жами топонимлар 103 тани ташкил этади. Мазкур рўйхатга қишлоқлар, йўллар, кўчалар, тоғ ҳудудлари, ер майдонлари, боғ номлари, тепа номлари, гидронимларни ҳам киритадиган бўлсак, салмоқли материал мавжудлиги маълум бўлади.

Ҳар бир ном ўз тарихи, пайдо бўлиш жиҳатлари ҳамда лексик-семантик ва этимологик хусусиятларига эга бўлиб, уларни алоҳида илмий иш материали сифатида тадқиқ этиш нафақат тарихимиз, балки тилимизнинг бой ўтмиши ҳамда бошқа бир қатор кенг имкониятларидан хабардор бўлиш учун замин вазифасини бажаради.

Ҳудуд топонимиясини ўрганишни бир қанча йўналишларга ажратиш мумкин. Булар сирасига топонимларнинг лексик-семантик, этимологик, морфем ҳамда ясалиш жиҳатларини киритиш мумкин.

Бўстонлиқ тумани ҳудудидаги топонимларнинг мавзу гуруҳига қуйидагиларни санаб ўтиш мумкин:

- табиий-географик шароитга мос номлар: *Боғистон, Паргос, Сижжак, Сойлиқ;*

- ҳудудида бирор объектнинг мавжудлигига ишора қилувчи номлар:

Янгиовул, Қўшқўрғон, Яккатут;

- жойлашиш ўрнига ишора қилувчи номлар: *Угом, Хумсон, Чимён;*

- аҳоли пунктининг пайдо бўлиши билан боғлиқ бўлган номлар: *Бўстонлиқ, Думалоқ, Жаҳонобод, Янгиовул, Ғалаба*;

- аҳолисининг ёки бирор шахснинг ижтимоий мавқеи билан алоқадор бўлган номлар: *Чимбойлиқ, Хондайлиқ, Бурчмулла;*

- бевосита шахс номи билан алоқадор номлар: *Тошпўлат Дадабоев;*

- уруғ-элат билан алоқадор номлар: *Озодбош, Қораманас.*

Биз Бўстонлиқ тумани микротопонимиясини ўрганишга бағишланган тадқиқотда юқорида саналган мавзу йўналишларини янада кенгроқ баён этишни режалаштирганмиз.

Бўстонлиқ тумани топонимларининг морфем хусусиятлари ҳақида гапиришдан олдин уларнинг ҳам Ўзбекистон топонимиясида кузатилганидек, содда ҳамда мураккаб тузилишга эга кўринишлари борлигини қайд этиш лозим.

Шунингдек, Бўстонлиқ тумани ҳудудида йўллар (годоним), кўчалар (дромоним), ер майдонлари – дала, ҳайдалган ер, экин майдони (агроним), тоғ номлари (оронимлар), боғ номлари, тепа номлари, гидронимлар (бу гуруҳга дарёлар, ГЭСлар, сойлар, ариқлар, киради), некронимлар (бу гуруҳга авлиё, мозор, қабристон, зиёратгоҳ, хонақо, масжид кабилар киради) ҳам мавжудки, булар ҳам бугунги кун номшунослигида лингвомаданий нуқтаи назаридан таҳлил этилиши лозим. Бунда, бизнингча, қуйидаги жиҳатларга асосий эътиборни қаратиш ўринли бўлади:

- Лингвомаданиятшунослик нуқтаи назаридан Бўстонлиқ тумани топонимларининг электрон каталогини яратиш ҳамда уларни мавзуий йўналишларга ажратиш;
- Касб-кор, ҳунар ва аҳолининг меҳнат жараёнлари билан боғлиқ топонимлар каталогини саралаш;
- Ўзбек миллатига хос бўлган урф-одатлар, миллий қадриятлар асосида шаклланган топонимлар базасини шакллантириш;

• Ўзбек миллати дунёқараши, тафаккури билан боғлиқ топонимлар каталогини саралаш ва булар устида тадқиқот ишларини олиб бориш.

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки, Бўстонлиқ тумани микротопонимияси лингвомаданий тадқиқ учун алоҳида бир тадқиқот манбаси бўла олади. Ушбу тадқиқотда ҳудуд топонимиясининг лексик-семантик, этимологик, морфем ҳамда ясалиш жиҳатлари тўлақонли акс эттирилади. Бўстонлиқ тумани топонимиясининг юзага келиши ва ривожи ушбу ҳудудда яшовчи аҳолининг узоқ тарихий ўтмиши, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий ҳамда маданий-маънавий ҳаёти этник турмуши билан узвий боғлиқ бўлиб, нафақат тилшунослик (номшунослик) соҳаси учун, балки тарих, география, этнография, маданият ва маънавият тарихи учун ҳам қимматли материаллар бера олади.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир.// https://president.uz/uz/lists/view/4089.

2. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Т.: ЎзФА, Фан, 2013.

3. Қораев С. Тошкент топонимлари. – Т.: Фан, 1991. – 129 б.

4. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2005. – 238 б.

ТІЛ – ҰЛТТЫҢ МАҚТАНЫШЫ

Өсербай БАЙҚАБЫЛОВ,
Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік педагогика институтының аға оқытушысы
Ернар ҚОШҚАРБАЕВ,
Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік педагогика институтының 2-курс студенті

...Ана тілі қайнаған қанның, қиналған жанның,
толғантқан көңілдің, лүпілдеген жүректің

сағынышы, онда дәм де, мән де болу керек.

С.Торайғыров

Қоғамның қандай түрі болмасын, ол тілсіз өмір сүре алмайды. Тіл сол бір қоғамның, сол ұлттың негізі болып саналады. Оның жоғалмауы, дамуы, өркендеуін сол ұлт қарекет етуі керек. Біздің тіліміздің дамуын көркеюіне өз үлесін қосқан қазағымның «Ұлт ұстазы» Ахмет Байтұрсынов: «Егер біз қазақ деген ұлт болып тұруды тілесек, қарнымыз ашпас қамын ойлағандай тіліміздің де сақталу қамын қатар ойлауымыз керек» деген болатын. Сонау сан жылдар тарихы бар Қазақ тілімнің бұл күнге дейін жетіп келуі қанша-қанша ақын-жазушыларымыздың еңбегінің нәтижесі іспетті.

Тәуелсіздік – ұлттық қасиетті қадірлеуден басталса керек. Ал «өзінің ұлттық қасиетін, өз тілін, әдебиетін білмеген, қадірлемеген адам толық мәнді интеллигент емес» деген М.Әуезовтің керемет дана сөзі бар. Расында да, өз тіліңнің сұлулығын сезінбей, өзге тілдің қадірін сезіну екіталай емес пе?!

Талай ақын, шешен бабаларымды бұлбұлша сайратқан, жарға соққан толқындай екпінді, наркескендей өткір тілімнің осынау уақытқа дейін тұншығып, қадір-қасиетінен айырылуға шақ қалғанда, қазақтардың көзі ашылып, қазақ тілін «мемлекеттік тіл» деп жариялады. Алайда, мәселе мұнымен біткен жоқ еді. Бойында не рухы жоқ, не қорқақ, не қара бас қамын ойлайтын «маған бәрібір» дейтіндер көбейді. Міне, сондықтан да өткеннің кейбір іргелі тағылымдарына ден қоюға тура келеді. Қазақ тілін алғаш қолданыста бәзбіреулер араб пен парсыны, одан кейін ноғайды былдырлатып, орысты араластырып тілді құртуға шақ қалғанда, аға-буын бұрқ етіп қайнаған, сарқ етіп суалған тілімізді қайтадан тірілтті.

Ал, қазір ше?.. Қазір де қазақ тілінің мемлекеттік мәртебесі үшін күресіп жүрген жандар көп. Бірақ сол «бір өліп, бір тірілген» тілдің қадір-қасиетін жоғалтып алған адамдар да аз емес. Оған кім кінәлі? Қоғам әлде адам? Қарапайым да мәңгілік сұрақтар... Дегенмен өткенге мойын бұрамын деп болашағымыздан айырылмауымыз қажет. Әрбір халықтың басында болар мұндай сұраққа жеріне жеткізе жауап беру, бәлкім, жасаған жалғыздың өзінің

ғана қолынан келер. Ал, біздің міндет – «алтын күннен бағасыз бір белгі боп қалған» ана тілімізді қадірлеп көкке көтеру екені мәлім. Сондықтан да алдағы міндет те ұлттық тілдің ұлы тұлғасын кезеңдік бұрылыстарда тарих сахнасына өшпестей етіп шығара білуде болса керек. Себебі, қазіргі таңда «үш тұғырлы» тілдің туын жоғары деңгейге көтеру сияқты зор міндеттер тұр. Мұндайда әрі кең, әрі жүрдек бүгінгі күннің даңғылымен жүру үшін байырғы тәсіл жарамсыз болмақ.

Кеңес Одағы кезеңізде ақын - жазушы, қоғам зиялыларын көп қыспаққа алғандары белгілі. Олар халқым, жұртым, елім деп өмір сүрді. Олардың халық көзін ашуы үкімет басшыларына ұйқыдағы айдаһарды оятумен тең болатын. Халықтың енді-енді саясатты түсінуі, өз құдылығын, өз ұлтын, өз тілін қорғайтын, қолдайтын азаматтардың көбеюінен сескенген КСРО басшылары қаншама қанша қоғам қайраткерлерін, ақын - жазушыларымызға түрлі айыптар тағып, жала жауып қудалайды. 1928 жылы Ахмет Байтұрсынов, Міржақыпов Дулатов, Мағжан Жұмабаев, Жүсіпбек Аймауытов, Халел Ғаббасов сынды 44 «буржуаз ұлтшыл» қамауға алынды. 1930 жылдың қыркүйегінде Мұхамеджан Тынышпаев, Халел Досмұхамедов, Жақып Ақбаевсынды бірқатар қазақтың қаймағы тағы қамауға алынды (барлығы – 40 адам). Олардың бір бөлігі Ресей территориясына итжеккенге айдалды. 1937-38 жылдары қазақтың көрнекті қайраткерлерінің барлығы репрессияланды. Сондай-ақ репрессия құрбандары ішінде Тұрар Рысқұлов, Нығмет Нұрмақов, Сұлтанбек Қожанов, Ұзақбай Құлымбетов, Ораз Жандосов, Әбілхайыр Досов, Смағұл Сәдуақасов, Темірбек Жүргенов, Әлихан Бөкейханов, Сәкен Сейфуллин, Ілияс Жансүгіров, Бейімбет Майлин, Құдайберген Жұбанов, Санжар Асфендияров та бар. Олар XX ғасыр соңына ғана келіп ақталады. Елім, жұртым деп өз өмірлерін қиған бұл ата-бабаларымыздың арқасында ана тіліміз дүние жүзілік тілдердің қолданыс жағынан 70-ші орында, ал сөздік қоры жағынан ең бай тіл саналатын араб тілі, ағылшын тілінен соң үшінші орынды иеледі.

Қазіргі қоғамдағы ащы шындықтың бірі қазақ тілінің қоғамда әсіресе жас ұрпақтың арасында қолданыстан шығып қалуы, тілді бұзып сөйлеуі әдеби норманың сақталмауы. Әлем деңгейіндегі қазақтар емес жәй ғана Қазақстан Республикасының көп бөлігіндегі жас ұрпақ орыстанып кетіп жатқандығы. Бұған дәлел мен соңғы екі айда Алматыда жұмыс бабымен болған болатынмын. Мынадай жағдайлар мені қатты қынжылтты: екі қазақ бір-бірімен орысша сөйлесуі; кітап дүкендерінің 90%-ы орыс тіліндегі кітаптар қазақ тіліндегі кітап кеміп баражатқандығы; көп мейрамхана қонақ үй сынды жерлердің орыс тілінде қызмет көрсетілуі бұл сынды мысалдарды көп келтіруге болады. Біз жастар тыныш бейбіт заманда өмір сүріп жатырмыз ғой бізде білім алуға, оқуға, үйренуге деген шектеу жоқ-қой ата-бабаларымыз қаншама қиын қыстау сәттерде де өз еліне, тіліне деген құштарлығының арқасында оқыды, үйренді, бізге мұра қылып қалдырды. Бізде олардың ісін жалғастыруымыз керек тілімізді халқымызды биіктерге көтеруіміз керек емес пе?.

Солай екен, Өзбекстан Респбуликасының Президенті Ш.М.Мирзияев Тәуелсіздігіміздің 30 жылдық меркесіне арналған салтанатты шарада сөйлеген сөзі негізінде "**Жаңа Өзбекстанда еркін және бейбіт өмір сүрейік**" деген ұранды ортаға тастады. Бұл тектен-тек айтылмаған. Отанымыздың тәуелсіздігі - біз үшін күш пен шабыт көзі, даму мен өркендеудің негізі деген идеяны алға сүрді. Бұл да біз жастар үшін өте берген кең мүмкіндіктердің бірі деп ойлаймыз.

Елбасымыз Ш.М.Мирзияев өзінің Әрекеттер стратегиясының бес аса маңызды бастамасында болашақ, келесі ғасырда, жаңа мыңжылдыққа өткен құндылықтар туралы айтқандай: «Біз өзіміздің болашағымызды және жастарымызды қандай күйде көргіміз келеді, осыны айқындап алатын уақыт жетті. Біз ненің іргесін тұрғызғымыз келетінін, таңдап алған мақсатымызға алып келетін өз дамуымыздың траекториясы, даңғылы қандай болуға тиіс екенін анық білуге және ұғынуға тиіспіз»? – деген болатын.

Міне сондықтан еліміздің даму бағыты айқындалған уақытта білім берудің маңыздылығы мен оның мәнділігіне көңіл бөлініп, сапалы білімге қол жеткізуде нақты міндеттер қойылып, болашақтағы атқарылар іс – шаралар айшықтауы қажет. Білім беруді қоғамның әлеуметтік – экономикалық құрылымынан, мәдени құндылықтарынан, ұлттық дәстүр, рухани негізден бөле - жара қарауға болмайды.

Қазағым, таянды ғой қылта мойын,

Жер, мал кетіп, бос қалды біздің қойын.

Қарашы өзіңе өзің көз жүгіртіп,

Жараспас бұдан былай күлкі-ойын.

Жетті енді қам жер мезгіл, жатпа бекер,

Ойламау келешекті түпке жетер.

Ақын Мағжан Жұмабаевтың «Қазағым» деген өлеңінің мына жолдарында құр күлкі-ойынмен жүріп келешекті ойламауымыздың соңы дұрыс болмайтындығын жеткізген. Біз сол ұлылардың ұрпағымыз !

Сөз соңында бүгінгі күн талабына сай нақты, терең білім беруде өз тілімізді құрметтеуде өз шығармашылығымнан мына өлең жолдарын ұсынғым келді.

Қазағым, Қазақ елім, бауыларым,

Анам тілін тастамайық жалынамын.

Алаш! деп келмеске кеткен қаншама жан,

Бұл тілде еңбегі көп ұлылардың.

Иә, Ататүріктің «Қай кезде де ұлттық мұрат пен ұлттық мүддеге басымдық беруіміз керек. Халықаралық саясат, еларалық жағдай – мұның бәрі ұлттық мұрат пен ұлттық мүддеден төмен тұруы керек» дегеніндей, Өзбекстан мемлекетінде де оның тілінен бастау алған рухани құндылықтарына бет бұрып, барынша халықтық мүддеге қызмет ететін ұлттық саясат жүргізу – бүгінгі күн қажет етіп отырған басты талабы.

Қорыта айтқанда, Тіл түзелмей, қоғам түзелмейді, мемлекеттің де, ұлттың да болашағы күңгірттене береді. Сондықтан да еліміздің қоғамдық-

рухани өмірінде ұлттық тіл саясатын барынша батыл қолға алып, қарқынды жүргізетін уақыт жетті.

Пайдаланылған әдебиеттер:

1.Өзбекстан Республикасының Президенті Ш.М.Мирзияев Тәуелсіздігіміздің 30 жылдық меркесіне арналған салтанатты шарада сөйлеген сөзі.“**Жаңа Өзбекстанда еркін және бейбіт өмір сүрейік**”. Нұрлы жол газеті. 2021 жыл. 1 сентябрь.

2. Аханов К. Грамматика теориясының негіздері. Алматы, 1993.

3. Жұбанов А. Қолданбалы тіл білімінің мәселелері. А.: «Арыс», 2008.

4. Қалиев Б. Тіл біліміне кіріспе. Алматы, 1997.

5. Қордабаев Т. Жалпы тіл білімі. А.: Павлодар, 2010.

6. Қордабаев Т. Түркология және қазақ тіл білімі. Алматы, 1998.

7. Маманов Ы. Қазақ тіл білімінің мәселелері. А.: «Арыс», 2007.

РАСМИЙ ИШ ЮРИТИШ ҲУЖЖАТЛАРИНИНГ МОРФОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ

Саидов Ўлмас Рахматович,

Чирчиқ давлат педагогика институти ўқитувчиси

Аннотация. Расмий иш юритишда ҳужжатларнинг тил меъёрларига амал қилиш ҳужжат мазмуни ва матнининг тўлиқ тушунилиши учун асосдир. Мақолада ташкилот ва муассасаларнинг иш юритиш фаолиятида энг кўп қўлланадиган ҳужжатлар матнининг тил тартиб-қоидалари масалалари тўғрисида фикрлар берилди. Шунингдек, баъзи расмий иш ҳужжатлари матнида от ва сифат туркумига оид қолиплашган сўзларни қўллаш меъёрларига ҳам алоҳида тўхтаб ўтилди.

Калит сўзлар: ҳужжат, ҳужжатчилик, ўзбек ҳужжатчилиги, ҳужжатлар тили, иш юритиш қоғозлари, хизмат ёзишмалари, хизмат хатлари, расмий иш услуби.

Расмий ҳужжатлар тилида от туркумига оид сўзлар жуда кўп қўлланади. Ҳужжатлар матнида баёнот, тавсифлаш, тасвирлаш ҳолати устунлик қилади, шунга мувофиқ матнларнинг мазмуни қоида тариқасида кўплаб тафсилотларни номлашни талаб қилади. Бу эса ҳужжатлар матнида от туркумидаги сўзларга тез-тез мурожаат қилишни тақозо этади.

Ҳар қандай ёзишмада, умуман, кўп ҳужжатларда адрес (манзил, турар жой, макон) ёзишга тўғри келади. Адрес аксарият ҳужжатларнинг таркибий қисми-реквизити ҳамдир. Адрес – почта жўнатмалари (хат-хабар, буюм ва пул жўнатмалари кабилар) устидаги ёзув бўлиб, унда жўнатма етиб бориши зарур бўлган жой (қаерга), уни олувчи шахс ёки муассаса (кимга) номи ва жўнатувчи ҳақидаги маълумотлар кўрсатилади. Шу ўринда, адрес ёзишда от туркумига оид сўзларнинг ишлатилиши бўйича бир намуна келтирамиз:

1-илова

Қаерга Самарқанд шаҳри, 46
Боғишамол кўчаси, 41уй

Кимга Раҳим Исломович Алиевга

_____

Алоқа бўлими шартли рақами ва жўнатувчи манзили

103046 100198 Тошкент шаҳри, 5Қўйлиқ
(қабул қилувчи даҳаси, 42уй, 14хонадон
алоқа бўлими) Маҳмуд Собирович Каримов

Намунадаги адрес(манзил)да қуйидаги отлар ишлатилган:

- кишининг исми, отасининг исми, фамилиясини билдирувчи шахс номи (антропонимлар) – *Раҳим Исломович Алиев, Маҳмуд Собирович Каримов;*

- жой номлари *(Самарқанд шаҳри, Боғишамол кўчаси, Тошкент шаҳри, Қўйлиқ даҳаси, 42-уй, 14-хонадаон).*

Бундан ташқари хизмат ёзишмалари таркибига кирувчи ҳужжатлар *(телеграмма, телофонограмма, хат-хабарлар, ахборот хати, даъво хати, илова хат, илтимос хат, кафолат хати, сўров хати, тасдиқ хат,*

*фармойиш хат, эслатма хат, дипломатик ва тижорат ёзишмалари)*да ҳам от туркумига оид сўзлар кўп ишлатилади, яъни:

- ташкилот, корхона, муассаса номлари *(Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига, Олий хўжалик судига, Маданият ва спорт ишлари вазирлиги, Ўзбекистон миллий университети ва ш.к.);*

- тарихий сана ва байрам номлари *(.....8 март – халқаро хотин-қизлар куни муносабати билан муборакбод этамиз, ……21 март – Наврўз байрами муносабати билан чин дилдан қутлаймиз, ……1 октябрь – Ўқитувчи ва мураббийлар куни муборак бўлсин ва ш.к.);*

- сув ҳавзалари ва иншоотлари номлари *(.....Чирчиқ дарёси, ……Чорвоқ сувомбори, ...Аму-Бухоро канали ва ш.к.);*

- шахс отлари *(ўқитувчи, ишчи, педагог, врач, муҳандис, ҳайдовчи, ўқувчи, тарбиячи, санъаткор, тадбиркор, вазир, ҳоким, сувчи, пахтакор ва ш.к.);*

- нарса отлари *(қоғоз, китоб, дафтар, автобус, машина, автотранспорт, телефон, эшик, дераза, кийим, парта, стол, стул ва ш.к);*

- ўрин-жой отлари *(сайилгоҳ, ошхона, сартарошхона, шаҳар, қишлоқ, маҳалла, вилоят, туман, шарқ, ғарб, кўча, гулзор, олмазор ва ш.к);*

- фаолият-жараён отлари *(чорвачилик, овчилик, пахтачилик, гулчилик, асаларичилик, уруғчилик, терим, чопиқ, атторчилик, савдогарчилик ва ш.к).*

Ҳатто феъл билан ифодаланувчи ҳаракат ва ҳолатлар ифодаси учун ҳам отга яқин сўз шакллари танланади, яъни “ҳаракат номи” деб аталувчи сўз шакллари фаол ишлатилади: *“...тайёргарликнинг бориши ҳақида”, “... қарорнинг бажарилиши тўғрисида”, “...ёрдам бериш мақсадида”, “...қабул қилишингизни сўрайман”* каби.

Ҳужжатлар тилида аслий ва нисбий сифатларнинг ишлатилиши ҳам расмий иш услубида ўзига хос хусусиятлардан биридир. Ҳужжатларда сифатларга мурожаат қилиш, кўп ҳолда:

-уларда ёритилаётган шахслар ва нарсаларнинг маълум бир белгиларини очиб бериш *(.....катта аҳамиятга эга, ...улкан хизматлари учун, ...буюк давлат арбоби, ...гўзал ва бетакрор маскан ва ҳ.к.);*

-нарса (шахс)ларнинг турли хусусият-ҳолатларини ифодалаш *(.... хурсанд ҳолда кўриш, ...камтарин инсон...., янги иморат, ...улуғ воқелик ва ҳ.к.)*;

- ҳужжатда акс этаётган нарсаларнинг ҳажми, вазни, ўлчови ва шаклини тасвирлаш *(катта даромад олиниши учун....., айлана стол атрофида гаплашмоқ, қалин мато ишлаб чиқариш, ...узун йўл, қисқа муддатда бажариш, кенг имкониятлар очилиши, баланд иншоот қурилишида.... ва ҳ.к.)*;

- макон ва замонни ифодалаш *(эрталабки бадантарбия машқлари, қадимги давр, ёзги таътил, булутурги ҳосил ва ҳ.)* каби заруратлар билан боғлиқ.

Нисбий сифатлар ҳужжатларда кўрсатилаётган маълум бир атама ва терминларни ифодаловчи сўз бирликларида ҳам фаол қўлланилади. Масалан, *илмий (иш), деворий (газета), даврий (нашр), молиявий (маблағ), моддий (рағбатлантириш), мажбурий (шартлар)* ва бошқалар.

Шу ўринда айтиш керакки, ҳужжатлар мазмунида от ва сифат туркумига оид сўзларни ўз ўрнида тўғри қўлламаслик ҳужжат тилининг ғализлигини келтириб чиқариши мумкин. Масалан, *“Юқори кўрсаткич молиявий ҳолатни тавсифлайди”* жумласидаги *“юқори кўрсаткич”* бирикмаси ўрнида *“яхши кўрсаткич”* бирлигини ишлатиш мазмунан хато саналади.

Расмий иш юритишда ҳужжат турларидан келиб чиқиб, уларни қуйидаги тил қатламлари асосида юритилиши мақсадга мувофиқдир:

2-илова

Шу тахлитда ҳужжатлар тилига ёндашиш, яъни ҳар бир расмий иш ҳужжат турида ўзига хос лингвистик хусусиятлар эътиборга олиниши ҳужжат матни ва мазмунида нохолислик ва ғализликни келтириб чиқармайди.

Адабиётлар:

1. “Ўзбекистон Республикасининг Давлат тили ҳақида”ги Қонуни (янги таҳрирдаги). 10-модда.-Тошкент, 2017.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сонли Фармони. – Тошкент, 2019 йил 21 октябрь.

3. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н., Одилов Ё. Давлат тилида иш юритиш. Амалиий қўлланма. – Тошкент: “Ўзбекистон нашриёти”, 2020.

4. Андреева В.И. Делопроизводство.–3-е изд.–М.: журнал “Управление персоналом”, 1996.

IJTIMOIY TARMOQLARDA SAVODXONLIGIMIZGA QANCHALIK E'TIBORLIMIZ?

Abdirimova Intizor Kamilovna,
Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Ochilova Anora,
Chirchiq davlat pedagogika instituti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi savodxonlik, unga bo'lgan e'tiborning qanchalik muhimligi, asosiy sabablari, muammolarga yechim masalalari, davlatimizda o'zbek tilining rivojiga qaratilayotgan e'tibor bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Abstrakt, ijtimoiy hodisa, orfografik, punktuatsion qoidalar, dialekt.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, yutuqlari, xalqining farovonligi, albatta, yosh avlod qo'lida ekanligi barchamizga ma'lum bo'lgan fakt va bu yoshlarning ta'lim va tarbiyasiga qaratilayotgan e'tibor bilan bog'liq. O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri yoshlar masalasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev yoshlarga qilgan murojaatlaridan birida shunday deydi: "**Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat**".

Shunga javoban yoshlar, shiddat bilan rivojlanayotgan zamon bilan birga harakatda, izlanishda bo'lishlari zarur. Hozirda zamon talabi shuni taqozo etadi. Aks holda ko'zlangan maqsadlar, erishishish kerak bo'lgan yutuqlar abstrakt bo'lib qolaveradi. Jamiyatning shakllanishida tilning roli beqiyos. Til jamiyatsiz mavjud bo'la olmaydi til insonlarni jamiyat sifatida jipslashtirib turuvchi buyuk ne'mat. Til taqdiri jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog'liq. Jamiyat a'zolari

tilning yashashi, rivojlanishi uchun mas'uldirlar. Shu munosabat bilan, o‘tgan asrning 70-80-yillardagi o‘zbek tilining ahvolini eslash o‘rinlidir. Bu davrda o‘zbek tilining faoliyat ko‘rsatish doirasi juda torayib, butunlay yo‘qolib ketish xavfi paydo bo‘ldi. Ona tilimizni saqlab qolish maqsadida qilingan amaliy harakatlar natijasida 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi qonun qabul qilindi. Aytish mumkinki, bu qonunning qabul qilinishi istiqlol tomon qo‘yilgan ilk qadamlardan biri bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday deyilgan: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”.

”Davlat tili” tushunchasi boshqa davlat ramzlari qatorida qonun asosida davlat himoyasiga olingani, til bilan bog‘liq masalalar davlat darajasida hal qilinadi, deganidir. Til taqdiri jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog‘liq.

“Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo‘ladi (boshqacha aytganda , “tug‘iladi”, taraqqiy etadi, “o‘sadi”), bir jamiyat yo‘q bo‘lishi bilan til ham asta – sekin iste'moldan chiqa boshlaydi va davrlar o‘tishi bilan o‘lik til bo‘lib qoladi. Masalan, lotin, sug‘d, qadimiy Xorazm tillari kabilar bunga misol. Biroq tilninng paydo bo‘lishi (“tug'ilishi”) taraqqiy etishi (“o‘sishi”) va iste'mol qilinmay qolishi (“o‘lishi”) biologik jarayon emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Shuning uchun til qonunlarini, uning taraqqiyot yo'llarini jamiyat tarixi bilan va shu tilni yaratgan xalqning tarixi bilan bog‘liq holda o‘rgangandagina masalani to‘g‘ri hal qilish mumkin”[2].

Til aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa. Ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari, albatta, birinchi navbatda yoshlarga ta‘sir qiladi, Shu bilan birga, lingvistik kompetentsiya va nutq madaniyati asosan tilning boshqa ijtimoiy tizimlarining rivojlanish yo‘nalishi bilan belgilanadi, shuning uchun ham tilga alohida e'tibor berish lozim. Prezident O‘zbek tilini yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Prezident farmoniga asosan 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillantirish konsepsiyasi hamda asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi. Yangi O‘zbekistonda o‘zbek tilining taraqqiyotiga yangicha yondashilmoqda desak ham bo‘ladi. Ammo tanganing ikki tarafi

bo‘lganidek til va savodxonlik bilan bog‘liq bo‘lgan rivojlanishlar qatorida muammolar ham yo‘q emas.

Bugungi kunda biz yoshlar tilimizga va savodxonligimizga qanchalik e`tibor qaratayapmiz, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda-chi?! Ulardan keng foydalanayotgan bir davrda xabarlarni yozayotganda xatolarga e’tibor beryapmizmi, o‘zbek tilining jozibasini namoyon etaolyapmizmi, ona tilimizning o‘sishida qanchalik hissadormiz?

Yozilgan xabarlarga nazar soladigan bo‘lsak, ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zaro muloqotlarda orfografik, punktuatsion qoidalarga e’tibor berilmayapti. Nega bu holat yuzaga keldi? Bunga sabab yalqovlikmi, ya’ni u yoki bu so‘zning to‘g‘ri yozilishi qanday ekanligiga ortiqcha bosh qotirmaslik, yoki umuman qanday yozilishini bilmaslikmi? Hozirgi kunda aynan shu masalani dolzarb muammolar qatoriga kiritishimiz kerak. Umumiy hisobda interrnet tarmoqlaridan yosh qatlam ko‘proq foydalanadi, aynan ular shu xatolarga yo‘l qo‘yishmoqda. Misol tariqasida turli xil qisqartmalarni “ch” o‘rniga “4”, “sh” o‘rniga esa “w” yozilishi, so‘zlardagi unli harflarning tushirilib qoldirilishi, “siz” o‘rniga “sz” kabi, hamda adabiy tilni chetga surib, xuddi og‘zaki usulda mavjud bo‘lgan dialektda yozishni keltirish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardagi mavjud yozuvdagi xatoliklardan misollar keltirish mumkin. “Bugin 8-sentyabr xalqoro savodhonlik kuni bn hammezni tabrikleman!” Agarda bu holat uzluksiz tarzda davom etadigan bo‘lsa bu oddiy bir holatga aylanadi, biz xatolar bilan yozishda davom etamiz va bunga o‘rganib ham qolamiz. Eng achinarli tarafi shundaki, bu muammo o‘zbek tilidan boshqa tillarda uchratish ancha mushkul. Ba’zida internet tarmoqlarida ruslar bilan bo’lgan o’zaro muloqatlarda biron bir so‘zimizda xatolikka yo‘l qo‘ysak, ular bunga, albatta, e’tibor berishadi va “*” yulduzcha belgisini qo‘yib bu so‘zning to‘g‘ri variantini sizga yozib ko‘rsatadi va bu belgi qayta tiklangan so‘z oldidan qo‘yiladigan belgi hisoblanadi. Agarda siz ingliz tilida xato yozsangiz, ular sizni umuman tushunishmaydi. Hattoki kompyuterda ham rus va ingliz tillarida yozganingizda xato yozilgan so‘z tagiga qizil chiziq chiziladi. Xo‘sh, boshqa tillarda savodxonlikka bu qadar e’tibor kuchli ekan, nega biz o‘z tilimizga

e’tiborsizmiz? Katta reklama peshtaxtalarida xato yozilgan so‘zlarga ko‘zimiz tushadi. Bugun bunga e‘tibor berilmasa, bunga yechim izlab, tashabbus kiritmasa tilimiz taqdirida katta ko‘ngilsizliklar ro‘y berishi mumkin. Buning uchun til bo‘yicha dunyo miqyosida peshqadam bo‘lgan davlatlar tajribasidan foydalanish mumkin. Masalan, Finlandiya davlatida tarmoqlarda xabar yozganda ma’lum bir miqdorgacha xatoga yo‘l qo‘yilsa, o‘sha shaxsning sahifasi bloklanadi. Bu singari ko‘p yechimlarni izlashimiz kerak. Axborot texnologiyalari yuksak darajaga yetgan zamonda yashamoqdamiz. Tilimizda, yozuvimizda bu kabi xato yozishlar, savodsizlik bizga yarashmaydi. Tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbatidir: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgon oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”[3].

Shunday ekan, tilimizga e’tiborli bo’lib, kelajak avlodga go‘zalligi, betakrorligini saqlagan holda yetkazishimiz kerakligi burchimiz ekanligini unutmaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz, -T.: O‘zbekiston, 2016.

2. Azizov O. “ Tilshunoslikka kirish ” T., 1996

3. Abduazizov A.A. Tilshunoslikka kirish. –T.,1999

4. Xolmanova Z.T. “Tilshunoslikka kirish” Toshkent -2005; 2-bet.

ANTONOMAZIYA VA METONIMIYANING O‘XSHASH TOMONLARI

Achilova Risolat A’zamovna,

Buxoro davlat universiteti

Tabiiy yo‘nalishlarda chet tili kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada antonomaziya va metonimiya so‘zining ma’nosi, ularning ta’rifi haqida turli xil ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada Shekspir

ijodida antonomaziya va metonimiyaning semantik ahamiyati olingan misollarda ochib berilgan. Bundan tashqari, yozuvchi o‘z asarlarida antonomaziyadan nima maqsadda foydalanganligi, antonomaziyaning tilshunoslikda tutgan o‘rni va undan samarali foydalanish yo‘llari haqida aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Antonomaziya, kontekst, mifologiya, she’riyat, stilistika, semantika, metonimiya**.**

Antonomaziya, bu ismning o‘tkazilishiga asoslangan, ya’ni nomzodning ma’lum bir harakati namoyon bo‘lishining alohida hodisasidir. Hozirgi kunga qadar antonomaziyani tushunish uni faqat shunday ta’riflash bilan cheklangan edi, va faqat nutqning stilistik hodisasi deb qabul qilinardi. Ammo, antonomaziyani stilistik vosita deb hisoblasa ham, ko‘plab olimlar uning mohiyati to‘g‘risida qarama qarshi fikrlar to‘g‘risida baxslashar edilar. Shunday qilib, antonomaziya ta’rifi bilan bir qatorda tegishli nomdan ko‘chma foydalanish, antonomaziyaning umumiy ismning obrazli ishlatilishi sifatida ta’riflari ham mavjud. Bunday noaniqlik antonomaziyani tushunishda noto‘g‘ri yondashuvlarni ko‘rsatmaydi, balki uning ba’zi jihatlarini yanada keng yoritishni,ya`ni nafaqat tilning stilistik vositasi sifatida o‘rganibgina qolmay yanada kengroq hodisa ekanligini takidlaydi. Antonomaziya lingvistik nominatsiya vositasidir, uning natijasida ulardan foydalanish bilan mutlaqo yangi sinflar tarkibiy, semantik va pragmatik xususiyatlariga ega bo‘lamiz[1.7].

Demak, antonomaziyalarning qaysi biri kontekstdagi ma`nosidan va qaysi biri asosiy leksik ma’nolariga ko‘ra, har xil turlarga ajratish mumkin. Chunki atash ma’nosi - atoqli ma’no uchun xosdir va denotativ-turdosh ma’noni, bular antonomaziyaning ikkita asosiy turga bo‘ladi. Birinchi turdagi antonomasiya, bu ko‘chma ma’noda qurilgan antonomaziyalarning atash nom ma’nosi asosiy hisoblanadi, denotativ ma’nosi esa kontekstdan kelib chiqadi, ya’ni. Atoqli ot ma’nosi qisman turdosh nomga ma’nosiga aylanadi Ikkinchi turdagi antonomasiyalar esa, ko‘chma ma’noda ko‘rilgan turdosh nomlar ma’nosidir.

Unda asosiy ma’no denotativ ma’nodir, atash nom esa kontekstdan kelib chiqadi. Turdosh ot esa qisman atoqli otga aylanadi. Bu turdagi antonomaziyalar yana o‘zing kichik turlariga bo‘linadi [2.45].

Antonomaziya atamasi birinchi marta milodiy 1500-yilda ishlatilgan. Turli davrlarda turli xil antonomazilar kashf etilgan. Antonomaziya ta’riflangan insonga obrazli xususiyat beradi. U nafaqat emotsionallik shu bilan birga baho ham beradi. Rus tili stilistikasi bo‘yicha ishlagan asarlar muallifi I.B.Golub ham antonomaziyani metonimiyaning maxsus turi sifatida ko‘rib chiqadi yoki o‘rganadi. Muallifning ta’kidlashicha, IXX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, qadimgi mifologiyadan kelib chiqqan antonomaziyalar she’riyatda va asarlarda ya’ni ijodda tobora kamroq ko‘llanila boshlangan. I.B.Golub ta’kidlaganidek, hozirgi vaqtda she’riyatda qadimgi ismlarning ishlatilishi o‘tmishda qoldi[3]. Bunga misol qilib Shekspir asarlarini olamiz. Masalan Shekspir o‘z asarlarida afsonalardagi xudolarni ismlaridan foydalangan. Bu esa uning ijodini yanada kitobxonga tez va ta’sirchan yetkazish yordam bergan. Ammo hozirda bu antonomazilardan ijodda deyarli qo‘llanilmaydi. Quyidagi misolga e’tibor beradigan bo‘lsak

Ikkov ko‘rishganimizdan shodman naqadar!

Eshitgil Mars, biz yashirin to‘pladik lashkar.

Yana qayta tushmoqchiydim sening izingga

Qo‘ling qirqib olmoqchidim qalqoning bilan.

Bu misolda Avfidiy o‘zining sobiq raqibini, uning jasoratlari hurmati yuzasidan, urush xudosining nomi bilan ataydi. Bu yerda dushmanning nomini tilga olmasdan uni urush xudosi **Mars** deb murojaat qiliyapti**.** Bu bilan u o‘z dushmanida xudolarga xos jasurlik va engilmas kuch egasi xususiyatlarini ko‘rsatyapti.

Avfidiy Marsiyga qarata aytadi.

Agarda sen **Gektor** bo‘lsang ham.

Yoki uning bir maqtanchoq zurriyodi-tamom,

Mendan qochib qutilishing endi dargumon…

O‘sha davrda Afvidiy Marsiyni o‘sha davrning afsonalridagi **Gektor** Troya janchisi ya’ni jasur va oliyjanob obrazida qo‘llanilgan.

Keyingi misol

Onam, onam, u xotin….yorab, ilohim

Ongsiz hayvon er uchun shuncha shoshilmas

Holbuki er qilgani badbaxt amakim

O‘xshar marhum otamga, **Geraklga men**

Qay daraja o‘xshasam… Voydod, vovaylo.

Bu misolda Gamlet o‘zini Geraklga o‘xshatyapti ya’ni xudoning o‘g‘liga.

Keyingi misol:

Munisi ham munisi – ikkita surat

Suratlarda solinmish og‘a va ini

Buni qarang: qanchalik joziba ko‘rkam.

Zebo peshona , sochlari **Apollonvori**,

Qarashlari **Marsniki** singari mag‘rur

Osmonning elchisi **Merkuriy** kabi

Ulug‘vorlik va savlat bu kishiga jam.

Bu misolda Gamlet o‘z onasini chiroyini afsonaviy xudolar bilan qiyoslaydi.

Odatda Shekspir asarlaridagi antonomaziyalar insonni ma’naviy va jismoniy xususiyatlari jihatidan xarakterlaydi. Shekspir o‘zining asarlarida kamdan kam hollarda antonomaziya yordamida insonning tashqi qiyofasini tasvirlaydi. Ko‘pgina hollarda Shekspir asarlarida qo‘llangan antonomaziyalar ijobiy bahoga ega. Shunday qilib antonomaziya Shekspir asarlarida juda muhim rol o‘ynaydi. U matnning tasirchanligi va obrazliligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каграманов К.Р. Антономасия как средство языковой номинации: Семантика и прагматика. Автореферат. Москва -2007

3. Голуб И. Б. Стилистика русского языка. 4-е изд. М.: Айрис-пресс, 2003. Стр. 448.

4.https://shakespeare.folger.edu/downloads/pdf/coriolanus_PDF_FolgerShakespeare.pdf ACT 4. SC. 5

5. V. Shekspir . Gamlet . “Sharq” nashriyoti. Toshkent -2006. Bet.-96

6. V. Shekspir .Saylanma. ikkinchi jild. “Fan” nashriyoti – 2008.Bet.-525

TOPONIMIKA VA LINGVISTIK TADQIQOTLAR YO‘NALISHLARINING ASOSIY XUSUSIYATLARI HAMDA LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI

Nurbek G‘aniyev,
Navoiy davlat konchilik instituti
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada “O‘zbek nomshunosligi”dagi tahlillar talqini asosida toponimik tahlil jarayoni bayon etilgan. Lingvistikadagi tahlillar bilan nomshunoslikdagi tahlillarning farqi asoslangan. Bugungi kunda toponimlar yuzasida amalga oshiriladigan toponimik tahlillar tilshunoslikdagi tahlillardan tubdan farq qilishi talqin etilgan va ma’lum bir umumlashmaga keltirilgan.

Kalit so‘zlar: toponim; toponimik tahlil; toponimik tahlilga xos me’yor va talablar; lingvistik, izohli, ta’birli, etimologik, tarixiy, geografik, etnografik, geologik, psixologik va falsafiy tahlillar.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng toponimika sohasini o‘rganishda va uning taraqqiyot tamoyillarini tavsiflashda katta burilish davri bo‘ldi. Shu davrdan boshlab toponimlarni o‘rganishda ilgarigiday, faqat bir guruh olimlar emas, balki bir qancha olimlar qatnashdi. Markaziy Osiyo va O‘zbekiston toponimlarini o‘rganishda V.V.Bartold, E.M.Murzayev va boshqalarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston respublikasi toponimlarini, jumladan, Markaziy Osiyodagi toponimlar ham joy nomlarining kelib chiqish tarixini, etnonimlarini hamda

geografik obyektlari terminlarini o‘rganishda o‘zbek olimlari ulkan hissa qo‘shdilar. Bu sohada tarixchilardan Y.G‘.G‘ulomov, V.N.Nabiyev, Q.Rajabov, R.Maqsudov, A.R.Muhammadjonov; tilshunos-lingvistlardan E.Begmatov, T.Nafasov, S.Qorayev, F.A. Abdullayev, S.Ibrohimov, H.Zaripov, H.Doniyorov (etnonimlar), R.Qo‘ng‘urov, T.Nafasov, B.O‘rinboyev; geograf olimlardan H.Hasanov, S.Qorayev va boshqalarning ishlarini keltirishimiz mumkin [1.36-189].

Faqat O‘zbekiston olimlari emas, balki qo‘shni respublika olimlari ham toponimlarni o‘rganishga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar: G‘.Qo‘nqashboyev, A.Abdurahmonov, E.Ko‘ychiboyev, A.G‘afurov, Sh.Ataniyazov va boshqa toponimist olimlarning tadqiqotlari hozir ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas. Mazkur mavzu yuzasidan bir qancha fundamental tadqiqotlarni misol keltirishimiz mumkin. Bu sohada bir qancha ilmiy konferensiyalar tashkil etilgan [1.36-189].

Masalaga lingvistik tomondan yondashadigan bo‘lsak, toponimlar ham til lug‘at fondining bir qismi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, joy nomlari til birliklarining tilning boshqa qatlamlaridan farq qiladigan tomonlari bor. O‘zbek toponimlarning tarkibiy qismida boshqa qardosh tillardagi kabi polikomponentli (ko‘p tarkibli) xususiyatga ega ekanligi tadqiqotimiz obyektida aniqlangan [5.204].

Qiziltepa tarixi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan olimlar, jurnalistlar, tarixchilarning jalb qilinishi, mazkur mavzuni o‘rganishga kirishishda eng asosiy tayanch manba hisoblanadi. Mustaqillikning ilk davrlaridan Rahim Maqsudov respublika tarixiy yogorliklarini loyihalash institutiga xat bilan chiqib, Xoja Hasan Andoqiy ramziy qabrlari ustiga quriladigan maqbara ustiga loyiha tayyorlashni so‘raydi. Bu say-haraktlar natijasida Xoja Boyazid Bistomiy va, keyin esa, Xoja Hasan Andoqiy maqbarasi qurildi. R.Maqsudov va Q.Rajabovlar “Qiziltepa tarixi” kitobida, Qiziltepada bunday ziyoratgohlarning kam emasligini bayon etadilar [6. 176-305].

O‘zbek toponimlarini o‘rganish til tarixi va til nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. O‘zbek toponimlarining regional xususiyatlariga ko‘ra ko‘pgina

joy nomlari juda qadimiydir. Ibtidoiy yozma yodgorliklardan to hozirgacha mavjud toponimlarning nomlanishida geografik nomlarning keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirib, tilning lug‘at tarkibida, so‘zlarning dastlabki shaklda ro‘y bergan o‘zgarishlarni aniqlab, bilib olishimiz, shuningdek, bu manbalarni tadqiq ob’ektiga ilmiy jihatdan kiritishimiz joiz bo‘ladi.

Masalan, hozirgi Nurota toponimi bo‘yicha, uning nomlanish tarixi bo‘yicha bir qancha tadqiqotchilar ish olib borgan. O‘.Oripov, E.Begmatov, R.Nuriddinova va boshqalarning tadqiqotlarida ular mazkur toponimni forscha-tojikcha etimoni bo‘yicha tahlil qilishgan. Buxorolik tadqiqotchilar bu so‘zni(toponimni) mo‘g‘ilcha “nuru” va o‘zbekcha “tov” so‘zlaridan tashkil topganligi haqida ma’lumot beradi. (S.Qorayev, T.Nafasov, va b.). tahlilda bu ikki so‘zlar etimonida, etnografik ma’lumotlarda “tog‘” so‘ziga bog‘lanishini ta’kidlaydi [5.204]. Natijada Nur toponimi bora-bora Nurota yoki Nurato deb talqin qilina boshlagan. Bularga aniq ilmiy mezon kiritish uchun tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarur.

Keyingi davrda toponimiyani tahlili va tavsifida til tarixi, lisoniy (lingvistik) xususiyatlari yuzasidan dalillar ko‘p keltiriladi. Filologiya fanlari doktori, professor T.Enazarov tadqiqotlarida toponimlarning etimologik tarkibini ochishda dialektologiya bilan aloqadorligini ko‘rsatish tavsiflanadi. Olib borilgan tadqiqotlarda toponimlarning ko‘plik shaklida ishlatilish xususiyatlari juda ko‘p uchraydi. Jumladan, Beshko‘prik, G‘ishtko‘prik, Taxta ko‘prik, Eshonko‘prik (Qiziltepa toponimlari) kabi.

Til tarixi bo‘yicha tadqiqotlarda o‘zbek tilida toponimlarda ko‘plik qo‘shimchalari u qadar keng emas.

-lar affiksi

Professor A.G‘ulomov bu affiksni so‘z yasovchi morfemalar qatoriga kiritmagan. Bu affiks kontekstda noma’lum ko‘plikni, hurmatni, biron fikrni ta’kidlashni, mavhum tushunchani aniqlashtirishni, umumiylikni, takrorni bildiradi. Toponimiya bo‘yicha kuzatishlar ko‘rsatadiki, -lar affiksi faqat kishilar bilan bog‘liq toponim yasashi haqida ma’lumot beriladi (M.Ravshanov). Arablar, Beklar, Boylar, Parchalar (Ishtixon tumani) Zargarlar, Shayxlar (Ishtixon

tumani). Ayrim toponimik nomlar orasida Shag‘allar (chiyabo‘ri), Qarg‘alar kabi toponimlar uchraydi. Ishga yuzaki yondoshganimizda hayvon nomlaridan tarkib topgan degan degan xulosa bor. Lekin masalaning mohiyati unday emas, aslida: ko‘ppak, shag‘al (chiyabo‘ri), qarg‘a degan ilgari urug‘, qabila nomlari bo‘lgan [3.67-78].

Fors - tojikcha – on affiksi

Qiziltepa toponimlarini o‘rganishimizda -on affiksli toponimlar ko‘plik ma’nosini anglatilishi Qahramon Rajabov va Rahim Maqsudovning “Qiziltepa tarixi” kitobida juda ko‘p uchraydi**.** Masalan, Arabon, Tojikon, Mang‘iton. Bundan tashqari hunar-kasbga oid toponimlar ham mavjud: Kosagaron, So‘zangaron va boshqalar [3.67-78].

Adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. T.: “Universitet”, 2000, 600 b.

2. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: “Sharq” 2001, 164 b.

3. Enazarov T.J. O‘zbekiston toponimlari: lug‘aviy asoslari, va etimologik tadqiqi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2006, 46-b.

4. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. T.: 1978, 204 b.

5. Rahim Maqsudov, Qahramon Rajabov. Qiziltepa tarixi. Toshkent. “Tamaddun” nashriyoti. 2015.

ТОҒАЙ МУРОД АСАРЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН МЕТАФОРАЛАР СЕМАНТИКАСИНИНГ КОНСТАНТ БИРЛИКЛАРИ

Холназаров Умид Эркинович,
Термиз давлат университети
Ўзбек тилшунослиги кафедраси докторанти

Аннотатция: Мақолада Тоғай Мурод қиссалари лингвомаданий ва лингвокогнитив нуқтаи назардан таҳлил қилиниб, ёзувчининг тили, нутқий манераси ҳамда оламни идрок этишдаги ўзгача нигоҳи метафорик мазмун касб этувчи константбирликлар асосида ёритилган.

Калит сўзлар: метафора, тасвирий восита, фразеологизм, ўхшатиш, лингвомаданий воситалар, маъно товланиши ва нозикликлари, эстетик кайфият, окказионал маъно, концептуал манзара.

Бадиий асарда сўз муҳим элемент сифатида қаралади. Шунинг учун ҳам ҳар бир ижодкор сўздан бадиий имкониятларни яратиш мақсадида тўғри ва аниқ фойдаланиб, асарнинг эстетик таъсирчанлигини оширишга эътибор қаратади. Кўринадики, сўз ижодкор учун фикрни бадиий тарзда ифодаловчи асосий қурол бўлиб, ундан ўринли фойдаланиш ижодкорнинг маҳоратини белгилашдаги муҳим ўлчовдир.

Тилда илгари мавжуд бўлган номнинг муайян ўхшашлик асосида янги маъно учун қўлланиши оддий номинация вазифасинигина бажармайди, балки тингловчига таъсир этиш (експрессив), эстетик завқ улашиш вазифаларини ҳам бажаради ҳамда тилнинг ифода имкониятларини кенгайтиради. Ана шундай кўчимлардан бири метафорадир. Кўпгина тилларда бўлгани каби ўзбек тилида ҳам кўчма маъно ҳосил қилиш усулларининг асосий турлари сифатида метафора, метонимия, синекдоха қайд этилади. Зеро,

метафора дунё тилшунослигида ҳам, ўзбек тилшунослигида ҳам яратилган барча тадқиқотларда сўз маъносининг кўчиши билан боғлиқ лингвистик ҳодисаларнинг марказида туради.

Адабиётимизнинг бетакрор ёзувчиларидан бири Тоғай Мурод насрда самарали ижод қилди. Унинг ҳар бир қиссаси ва романи алоҳида эътирофга, таҳсинга сазовор бўлган. Саид Аҳмад таъбири билан айтганда "ўз она тилини бениҳоя яхши билади. Билгандаям бутун ранглари билан, оҳанглари билан билади"[1.4]. Т. Мурод дастлаб ижодий фаолиятини кичик-кичик ҳикоялар ёзишдан бошлаган бўлиб, у образ яратишда, ўз кечинмаларини, қаҳрамонларининг руҳиятини очиб беришда тасвирий воситалар, фразеологизмлар, ўхшатишлар ва метафоралардан унумли фойдаланган. "Бобоси билан невараси" шундай ҳикояларидан биридир. Ҳикоя "ҳали ғам нималигини билмаган" уч ёшдаги бола тасвири билан бошланади. Ёзувчи қаҳрамонларига ном қўймаган, уларни **бобоси, невараси, отаси** каби яқин қариндошлик маъносини англатувчи эвфемик воситалар билан номлайди. Неваранинг ташқи қиёфасини "оёқларига **қизил ботинка**, устига **кўк иштон-кўйлак**, бошига эски **ола дўппи** кийиб олган", - дея лингвомаданий воситалардан ўринли фойдаланган.

Невара "**одамлар учун энг керакли нарса – шоколад**", - деб ўйлайди ва ҳамма нарсани, аввало, шоколадга таққослашга уринади. Табиийки, уч яшар бола учун энг ширин, керакли нарса бу – шоколад. Бироқ, жамиятда шундай инсонлар борки, ўз яқинлари учун зарур бўлган **"меҳр"** ни вақтида бермайди. Муаллиф шоколад воситасида гўёки, невара учун "энг зарур нарса - яқинларининг эътибори, меҳри" дегандек бўлади. Бобосини "**ҳовлидаги беўхшов нарсалар**" беором қилади. Т. Мурод ҳикоядаги бобонинг "кўзига ёмон кўринган нарсалар" ни таърифлашда, **"ҳовлидаги беўхшов нарсалар"** экспрессив нутқий бирлигидан фойдаланиш орқали нутқ таъсирчанлиги, жозибадорлигини таъминлаган.

Таъкидлаш керакки, тилдаги номинатив бирликларнинг, хусусан, метафораларнинг маъно тузилишини ўрганишда тилшуносликда

семантиканинг коннотатив жиҳати тушунчасига ҳам алоҳида эътибор қаратишимиз лозим. Бу масалани монографик тарзда тадқиқ этган В.Н.Телия таърифича, “коннотация – тил бирликлари семантикасига узуал ёки оккозионал равишда кирадиган, нутқ субъектининг борлиқни жумлада ифодалашида унинг айни шу борлиққа бўлган ҳиссий – баҳолаш ва стилистик муносабатини ифодалайдиган ҳамда шу ахборотга кўра экспрессив қиммат касб этадиган мазмуний моҳият”идир[2.5]. Дарҳақиқат, образли-мотивлашган сўзлар (метафоралар) образлиликни ҳосил қилувчи, тасвирийликни юзага чиқарувчи ҳамда экспрессивлик билан боғлиқ нутқий вазият бўлиб, бу ҳол бадиий нутқ (асар) да ўзига хос услубий маъно хусусиятлари билан кўзга ташланади. Шу нуқтаи назардан қараганда, биз таҳлил қилаётган Т.Мурод қиссаларининг персонажлари нутқида метафораларнинг турли маъно товланишлари ва нозикликлари орқали берилиши, ижодкорнинг ижодий индивидуаллиги, унинг нутқий манерасини ифодалайди. Масалан, Тўйхона ёнидаги ҳовлида эркаклар давра қурди. Бу даврада олиш бўлади. Давра узра ***симчироқлар осилди***... ***Ой қишлоқ узра осилиб қолди. Юлдузлар ғуж-ғуж ёнди.*** Давра айланасига гилам тўшалди, кўрпача тўшалди (Тоғай Мурод. Танланган асарлар. Романлар, қиссалар. «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. Тошкент – 2018, 338 бет).

Тоғай Муроднинг “Юлдузлар мангу ёнади” қиссасидан олинган ушбу парчадан кўринадики, ёзувчи даврада кураш бўлиши ва бу курашнинг кечки пайтда бошланишини – давра узра *симчироқлар осилганлиги* билан изоҳлайди. *“Ой қишлоқ узра осилиб қолди ва юлдузлар ғуж-ғуж ёнди”* метафорик жумларидан эса “*қоронғу тушиб қолганлиги”* семаси англашилади. Шунингдек, симчироқлар+ой+юлдузлар номинатив занжири асосида берилган гаплар кураш тасвирини гавдалантирувчи константтушунчалар сифатида мураккаб семантик муносабатларнинг метафорик оборотли ҳосила номини ифода этади.

“Юлдузлар мангу ёнади” асарида ижодкор ва қаҳрамон ўй-хаёли, руҳияти уйғун тарзда руҳий қийноқлар исканжасида тасвирланган.

Муаллифнинг индивидуал услубий маҳорати ҳамда унинг бадиий асар ёзишда тил тизими имкониятларидан қай даражада фойдалана олганлиги образлар руҳий оламини тиниқ тасвирлашида кўринади. Рус адабиётшуноси ва фольклоршуноси А.А.Потебнянинг фикрича, “атрофни ўраб олган муҳитни инсон онги тартибга солади, бадиий ижод ижодкор руҳий ҳолатининг маҳсули ҳисобланади, шу билан бирга, ижод жараёни инсон руҳий оламини бойитади, чуқурлаштиради” [3.262]. Фикримизни қиссадан келтирилган матн таҳлили орқали асослаймиз: Карим пўстакнинг ***кўнгли кир*** (кек сақлайдиган, ғараз ниятли [4.159]) экан!.. Бўри полвон раис билан ***ош-қатиқ бўлмади*** (ош-қатиқ бўлмоқ – бирор шахс билан борди-келди қилмоқ, яқин муносабатда бўлмоқ [5.175])... Бўри полвон Ўтан полвонни чўнқаймага олиб урди! Сурхондарёнинг ***шон-шарафини кўтарди*** (ор-номусни ҳимоя қилди – У. Х.)! Катталарнинг ***оғзи қулоғига етди*** (оғзи қулоғига етмоқ – беҳад севинмоқ, хурсанд бўлмоқ [4.203]). Баковул полвонлар ***кўнглига қўл солди-қўл солди*** (кўнглига қўл солмоқ – энг яширин фикр-ўйини билишга ҳаракат қилмоқ [4.159]), фавқулодда хатоликка йўл қўйди...Бўри полвон ***ичини ит тирнади*** (ичини ит тирнамоқ – яширин ҳолда безовталанмоқ, ташвишланмоқ [4.116]). Тоғай Мурод. Танланган асарлар. 1-жилд. Қиссалар. «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. Тошкент – 2008, 22 бет.

Тилдаги кўпгина фразема (ибора)лар учун экспрессив-эмоционал бўёқдорлик ажралмас хусусият ҳисобланади, шу билан бирга, ибораларнинг асосий қисми услубий жиҳатдан нейтралдир. Чунки ибора ёрдамида у ёки бу предмет, ҳодиса номланибгина қолмасдан, ўша предмет ёки ҳодисага, шахсга сўзловчининг экспрессив муносабати ҳам ифодаланади [6.7]. Юқоридаги биргина парчанинг ўзида ***кўнгли кир, ош-қатиқ бўлмоқ, шон-шарафини кўтармоқ, оғзи қулоғига етмоқ, кўнглига қўл солмоқ, ичини ит тирнамоқ*** сингари иборалари, жами олтита метафорик оборотли фрезеологизмлар қўлланилган. Булар қаҳрамоннинг феъл-атвори (***кўнгли кир***), одамлар билан муносабати (***ош-қатиқ бўлмоқ, кўнглига қўл солмоқ***), ҳолати (***оғзи қулоғига***

етмоқ, ичини ит тирнамоқ), мақсади (***шон-шарафини кўтармоқ***) ни ифодалаган ва миллий, лисоний манзарани шакллантирувчи эсда қоладиган деталлар "индивидуал олам қадриятий манзарасининг константбирликлари" [7.119] сифатида ўз аксини топган.

Қайд этиш керакки, метафора буюм ва ҳодисаларнинг асосий белгиларини (константаларини) тегишли вазиятга мос тарзда бўрттиради ҳамда бирламчи қайта ишлаб, атов жараёнига оператив равишда сингдиради. Ўхшатишни яратиш билан бир вақтда метафора сўзнинг маъносида ифода топувчи когнитив, аффектив ҳамда перцептив тажрибани намойиш этади [8]. Айниқса, Т. Мурод "Юлдузлар мангу ёнади" қиссасида метафорик оборотли ҳосила семемалардан ўзининг эстетик ниятига мос равишда унумли фойдаланган. Ўзбек тилшунослигининг равнақ топишида муносиб ҳисса қўшиб келаётган проф. Б. Менглиев таъбири билан айтганда, "метафора ҳосила семема ҳосил қилишнинг кенг тарқалган усули сифатида бадиий услубнинг, нутқнинг энг муҳим воситасидан ҳисобланади" [6.156].

Айтиш жоизки, кўчма (мажозий) маъноли, хусусан, метафорик кўчма маъноли сўзларда, кўпинча, ижодкор нутқининг ўзига хос ифодаланиш нозикликлари, йўллари, сўзларнинг бадиий, стилистик, экспрессив, шунингдек, эмоционал, бўёқли ифода усуллари ўқувчининг эстетик кайфиятини белгилашга, туйғуларини бошқаришга хизмат қилади. Демак, "бадиий асарнинг сифати ва қиммати, ёзувчининг индивидуал услуби, биринчи навбатда, унинг мақсад ўқини нишонга бехато урадиган жозибадор тили билан белгиланади" [9.79].

Умуман олганда, "Юлдузлар мангу ёнади" асари тилининг гўзаллиги ва жозибадорлигини таъминлашда фразеологизмлар ва образли-мотивлашган сўзлар, яъни метафоралар "нутқий тузилмаларда матн муаллифининг ўхшатишга асосланган образли тафаккур тарзи тўлиқ вербал ҳолатда, шунингдек, имплицит тарзда" [10.83] ифодаланишида муҳим рол ўйнайди. Фикримизни навбатдаги парча таҳлили орқали изоҳлаймиз: Бўри полвон Исмоилни **кўзга илмай-кўзга илмай** (кўзга илмай - "назарга илмаслик"

иборасининг маънодиши, “менсимаслик”, “писанд қилмаслик” [4.183] маъносини англатади) давра айланди. «**Тайёр ош**-ку» (***тайёр ош*** бу сўз бирикмаси кўринишидаги метафора бўлиб, Бўри полвоннинг ўз рақиби устидан ғалаба қозонишига бўлган ишончини ифодалайди – У.Х.) ... — дея **ўзидан кетди**. (ўзидан кетмоқ – беҳуш бўлмоқ [4.281], аммо бу ерда полвоннинг ўз кучига ортиқча баҳо берганлиги, рақибини менсимаганлигига ишора – У.Х.) Оқибат... Бўри полвон... Полвон номини олгандан буён умрида биринчи марта **елкаси ер кўрди**!” (елкаси ер кўрмоқ – курашда ютқазмоқ) [11.368].

Ушбу парчада “**кўзга илмай-кўзга илмай – ўзидан кетди”** синонимик муносабатдаги фраземалар, **“тайёр ош”** бирикма-метафора, “**елкаси ер кўрди” (**асарда “юлдуз санади” шаклида ҳам қўлланилган**)** каби турғун бирикмали метафорик воситалар кураш манзараси остида шахснинг муайян руҳий ҳолатини матнда метафоралаштириш ва вербаллаштириш учун асос бўлиб хизмат қилган.

Метафора ўзида икки кўламли семантик тўплам ва образли элементни сақловчи билвосита иккиламчи номинациядир [12.12]. Р.Г.Пиотровскийга нисбатан, иккиламчи номинация ёхуд семиозис - мавжуд белгилар учун янги окказионал маъноларнинг татбиқ қилинишидир. Яъни бирламчи лисоний белгининг денотат ва сигнификат соҳасида янги денотат ва янги сигнификат ҳосил бўлади ва улар, ўз навбатида, янги коннотатни шакллантиради [13.52]. Айниқса, Тоғай Муроднинг “От кишнаган оқшом” қиссасида инсон ва ҳайвон ўртасидаги муносабатлар ўзига хос усулда бетакрор акс этган. Асарнинг бош қаҳрамонлари – Зиёдулла чавандоз ва Тарлон. Ёзувчи бу асарида “отни шу қадар меҳр билан таърифлайдики, адиб қўшиқ айтаётибди, деб ўйлайсиз. Адиб кўнгли китобхон кўнглига кўчиб ўтади. От миниб адирларда елдай учгингиз, от ёлларини силагингиз келади… Тоғай Мурод ўз она тилини бениҳоя яхши билади. Билгандаям бутун ранглари билан, оҳанглари билан билади…”[1.4]. У Зиёдулла чавандоз ва Тарлон тимсоллари тасвирида консептуал метафоралардан унумли фойдаланган.

Бадиий асарларда, хусусан, насрий асарларда лингвокультурологияда асосий концептлар ҳисобланган *ҳаёт, ўлим, она, Ватан, муҳаббат, яхшилик, адолат, аёл* [10.67-68], *шунингдек, инсон ва ҳайвон* каби тушунчалар ифодасини кўп учратамиз. Қуйидаги матнга эътибор беринг: Бир эрта уйғониб, калламга **қўл югуртирдим**. Сочларим орасида **ярачақалар уч берди**. **Парвойим фалак бўлди**, юра бердим... Чақалар кун сайин **болалади**... Шунда, қишлоғимиз дўхтирига бордим. Дўхтир фу, дея **афтини буриштирди**. Юрчидаги **калхона**га олиб жўнади (Тоғай Мурод. Танланган асарлар. 1-жилд. Қиссалар. «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. Тошкент – 2008, 65-бет).

Т. Муроднинг “От кишнаган оқшом” қиссасидан олинган мазкур матнда ИНСОН концепти ва унинг руҳиятидаги ўзгаришлар ўз ифодасини топган. Матнда бу концепт лексик ва лексик-фразеологик (***қўл югуртирмоқ; ярачақалар уч бермоқ; парвойи фалак бўлмоқ; болаламоқ***) ҳамда окказионал (***калхона***) характерга эга бирликлар орқали ифодаланган бўлиб, муаллифнинг тили, оламни идрок этишдаги ўзгача нигоҳи метафорик мазмун касб этувчи тасвирий воситалар асосида юзага чиқади.

Инсон – олам лисоний манзарасининг бош субъекти, айни дамда олам манзараси, олам концептуал манзарасининг марказий бирлиги ҳамдир. Ана шу субъектни атовчи номинатлар – лисоний белги ва у англатган маъно ўртасидаги лисоний-мантиқий мувофиқлик метафорик номинация жараёнида муаллиф олами манзарасида ўзига хос маданий-концептуал эврилишга юз тутади: лисоний шахс онгидаги олам тўғрисидаги тасаввурлар метафора эвазига оламни англашнинг қадриятий таянч нуқтасига айланади. Индивидуал олам қадриятий манзарасининг константбирликларини ўзида акс эттира олувчи метафора шу йўл билан қайта ишланган, эмотив жиҳатдан тўйинтирилган, олам ҳақидаги янги ахборотни ўзига хос билиш категорияси сифатида олам концептуал манзарасига мухрлайди, тушунчаларнинг репрезентация натижаларини эса асосий маданий-ментал модель сифатида лисоний манзарага бириктиради [7.148-149].

Маълумки, тилшуносликда концептлар, асосан, лексик ҳамда лексик-фразеологик бирликлар орқали ифодаланади, деган фикр устун. Кейинги даврларда эса фанда синтактик концептлар ҳақидаги назарий қарашлар, шунингдек, ушбу мавзуга бағишланган тадқиқотлар ҳам юзага келди [14.87-90].

“От кишнаган оқшом” қиссасидаги бир неча матнда шахснинг муайян руҳий ҳолатидаги ўзгаришлар халқ мақоллари, турғун ўхшатишлар, метафоралар ҳамда нутқий этикетларнинг энг муҳим лингвомаданий бирликлари орқали намоён бўлади. Улар тавсифий характердаги микроматнлар бўлиб, инсон концепти майдонига кирувчи турли микроконцептларнинг вербал кўринишларидир. Масалан: Калхонада... Уҳ, айтгилиги йўқ. Дўхтир дегани бераҳм экан. **Онамни кўрдим**, биродарлар, онамни... Онамиз **тап-тақир калла**мни ушлаб-ушлаб кўрди. **Ич-ичидан куйди. Айтиб-айтиб йиғлади.**

– **Камбағални туянинг устида ит қопади**, дегани шу-да, - деди.

Катта телпак сотиб олдим. Қишин-ёзин қулоқларимгача бостириб кийиб юрдим. Мактабда-да телпагимни олмадим. Математика муаллимимиз **оёғини тираб** талаб этди:

– Бош кийимингни олмасанг, дарс ўтмайман!- деди.

... Миқ этмадим. Муаллимимиз телпагимни бошимдан юлиб олди. Деразадан ташқарига отиб юборди.

Синфимиз болалар кулгисидан зириллаб кетди. Болалар калламни офтобга менгзаб қийқирди:

– Ура-а-а, **кун чиқди**!” [15.65].

Микроматнлардан кўринадики, уларда инсон шахсиятига хос бўлган *оғир дамдаги изтироб* (***онамни кўрдим***), *ачиниш, оналик сифатлари* (***ич-ичидан куймоқ, айтиб-айтиб йиғламоқ***), *тақдиридан норозилик* (***камбағални туянинг устида ит қопади***), *қайсарлик* (***оёғини тирамоқ***), *хурсандчилик, ўхшатиш* (***кун чиқди***) каби жонли инсоннинг психологик ҳолатлари кўз олдимизда гавдаланади. Бу ҳар бир микроматнда инсон концепти билан боғлиқ ассоциацияларнинг фаоллашувига сабаб бўлган.

Метафорик номлар, В.Н.Телия фикрича, олам манзарасининг ифодалари, сўнг тил соҳибларининг шахсий ёхуд меъёрий тезаурусида мавжуд вербал воситаларнинг ассоциатив потенциялари сифатида мавжуд бўлади [16]. Семантик деривацияни намоён этувчи метафорик кўчим [17] Т. Муроднинг асарларида, хусусан, “От кишнаган оқшом” қиссасида инсон образи ва унинг тақдири тасвирида муҳим аҳамият касб этади. Ушбу асарда иштирок этган башарият қиёфаси жониворлар тасвири асосида яна-да кўркамлашади.

Асар ҳикоячиси Зиёдулланинг от ҳақидаги: ” Биродарлар, бизнинг Сурхонда мана бундай гап бор: от олсанг, Обоқлидан ол, аёл олсанг, Ирғалидан ол!... Биродарлар, от олсанг, **ҳўкиз қорин**дан ол, ҳўкиз олсанг, **от қорин**дан ол! Биродарлар, машина деганлари темир! Жони йўқ! **Жони йўқ темир** одамга эл бўлмайди! Темирнинг юраги йўқ-да! От одамга эл бўлади. Боиси, отнинг жони бор, юраги бор-да!” [15.67-68] ушбу фикр-мулоҳазаларидан шу нарса маълум бўладики, бу асарда инсон ва жонзот, аниқроғи, Зиёдулла чавандоз ва Тарлон от орасидаги биродарлик, уйғунлик ғояси илгари сурилади. Парчада *отга нисбатан* “***ҳўкиз қорин***”, *ҳўкизга нисбатан* “***от қорин***”, *машинага нисбатан* “***жони йўқ темир***” ифодаларининг қўлланиши Т. Мурод бадиий ниятини юзага чиқаришда, шунингдек, асарни эмотив жиҳатдан тўйинтиришда бевосита матнга боғлиқ бўлган индивидуал метафоралардир.

Ўзбек тилшунослигида метафорани тадқиқ қилишга бағишланган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, дастлабки тадқиқотларнинг барчасида метафора асосан икки хусусиятига кўра турларга ажратилган. Биринчи хусусияти лингвистик ёки поэтик ҳодиса эканлиги бўлиб, унга кўра метафора лингвистик ва поэтик турларга ажратилган [18]. Метафорани турларга ажратишдаги иккинчи хусусияти маъно кўчишига асос бўлган ўхшашликка кўра (Метафорани бу асосда турларга ажратиш Европа тилларида кенг тарқалган). Тилшунос олим М.Миртожиев метафорани таснифлаш ва турларга ажратишда ўзига хос бўлган усулни танлайди ҳамда ўзбек тилидаги метафоралар кўчма маъно ҳосил этган объектларнинг ўхшатилиш ҳолатига

кўра: оддий метафора, персонификация ва синестезия (М.Миртожиев метафоранинг бундай таснифланиши немис тилида нутқий метафорага нисбатан қўлланишини таъкидлайди ва уни айрим ўзгартиришлар билан ўзбек тилидаги лингвистик метафорага нисбатан қўллайди) [19.34-37] каби мазмуний турларини кўрсатади.

Дарҳақиқат, *персонификация (жонлантириш)* бадиий нутққа образлилик бахш этувчи метафоранинг муҳим воситалардан бири бўлиб, метафоранинг мазкур шаклида одамларга хос бўлган ҳислатларни жонсиз предметлар, табиат ҳодисалари, ҳайвонларга кўчириш орқали тасвир амалга оширилади. Тадқиқотимиз объекти Тоғай Мурод насрида метафоранинг айнан шу тури кенг қўлланади. Бу ҳолатни, аввало, асарлар учун асосан табиат қўйнидаги қишлоқ ҳудуди хронотоп сифатида танлангани билан далиллаймиз.

Табиатни тўлғоқ тутди...

Саболар вужудларни эркалаб-ўйнади...

Наврўз оламга майсалардан гилам тўшади, бойчечакдан сирға тақди (Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar., www.ziyouz.com kutubxonasi, 31 bet).

Тоғай Мурод асарларини кузатар эканмиз, метафоранинг яна бир тури -*синестетик метафоралар (синестезия)* кенг қўлланганига гувоҳ бўламиз. Синестетик метафораларда бир сезги органи билан идрок этиладиган нарса-тушунча бошқа сезги органи билан идрок этиладиган нарса-тушунчага ўхшатилади, яқинлаштирилади ва шу асосда кўчма маъно юзага келади:

Яхшиларни сассиқ-сассиқ гаплар билан чимчилаб-чимчилаб олади. Яхшиларни заҳар-заҳар гаплар билан ўйиб-ўйиб олади (Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar., www.ziyouz.com kutubxonasi, 34 bet).

Юқоридаги мисолларда келтирилган *сассиқ, заҳар* сифатларида синестетик метафора содир бўлган. Ҳидни билдирувчи “сассиқ” ва маза-таъмни ифодаловчи “заҳар” сўзлари “ёқимсиз” маъносида келган. Метафоранинг такрор тарзда қўлланиши маънонинг кучайтирилишига, шунингдек, кишининг бир гапи эмас бутун нутқи, бу орқали характери шундай эканига ишора қилишга хизмат қилган. Эътиборлиси, мазкур такрор

Тоғай Мурод услубига хос такрор бўлибгина қолмай, тил ташувчилари (халқ) нутқида ҳам шу мазмунда, яъни “гап” га нисбатан юқоридаги метафора аксар ҳолларда такрор қўлланади.

Кўрилганидек, матнга лингвомаданий ёндашув метафоранинг турли қирралари очилишига олиб келади. Айрим ҳолларда метафоранинг грамматик таърифидан (нарса-буюм, воқеа ва ҳодисалар ўртасидаги ўзаро ўхшашликка асосланган маъно кўчиши) узоқлашган, аммо функционал-семантик жиҳатдан айнан метафорик кўчим юзага келишига гувоҳ бўламиз.

Дж.Лакофф ва М.Джонсон назариясига кўра, метафора нафақат нутқ орқали, балки жест ва маданий ҳаракатлар ёрдамида ҳам ифода этилиши мумкин. Шу жиҳатдан, метафораларнинг тадқиқи тил ва маданият ўртасидаги алоқадорликка доир бажарилаётган тадқиқотларга ривож бериши мумкин [20.134]. Яъни, новербал алоқа воситалари ҳам метафора даражасидадир. Сабаби улар қайсидир ҳолат, тушунчага эквивалент саналади ва муҳими коннотатив маъноли тасвирни юзага келтиради. Фикримиз далили сифатида манбадан мисоллар келтирамиз.

*Оймомо онамиз ёмон вазиятда қолди. Нима дейишни билмади. Ерга қаради. Нима қилишини билмади. Чўп билан ер чизди.....(*вазият, диалог*)*

Оймомо онамиз ер чизишни бўлди қилди. Чизилмиш ерга тикилиб қолди... (Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar., www.ziyouz.com kutubxonasi, 44 bet).

Мазкур мисолда “ер чизиш” ибораси, даставвал, ўз маъносида, кейинги ўринда моҳирона тарзда кўчма маънода қўлланилган. “*Ер чизишни бўлди қилди”* фикри орқали муаллиф *“жим туриш, мулзам бўлиш, сукут сақлаш, сабр қилишни тўхтатди”* маъносини беради. Чунки халқда *“ер чизмоқ”* ибораси айни маъноларда қўлланади.

Тоғай Муроднинг “Момо ер қўшиғи” қиссаси ижодида муҳим ўрин тутади. Ёзувчи ўзига хос услубда яратилган бу асарида ҳаётда мутлақо ўз йўлини топа олмаган ижодкорларнинг типик тимсолини яратди. У инсон – Паҳлавон Даҳо (Турсун). У ва бошқа тимсоллар тасвирида ижодкор бадиий тасвир воситаларидан, жумладан, метафоралардан унумли фойдаланган.

Метафоралар улар яшаб келаётган ҳар бир миллий тил қадар қадимийдир [21.20]. Бадиий асарлар тилининг маълум бир қисми бўлган метафораларнинг қўлланишида ўзига хос жиҳатлар бир қанча, яъни улар тилимизда урф-одатлар, маданият ва фандаги, яшаш тарзимиздаги ўзгаришларга алоқадор ҳолда миллий характерни англатади. Масалан: Хумор момога ***кун туғди***. Ёлғиз ўғил аскардан келар бўлди. Остонасидан ***суюнчихўр аримади***... Аскардан қайтмиш ўғилдан дарак бўла бермади. Шунда, момо кўнглига таҳлика тушди. Чин-да, ***йўл азоби – гўр азоби***. Йўлда нималар бўлмайди (Тоғай Мурод. Танланган асарлар. "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Тошкент – 2018, 602 бет).

"Момо ер қўшиғи" қиссаси воқеалари аскар ўғилнинг уйга қайтиши тасвири билан бошланади. Бунда **"кун туғди"** (фраза: кун(и) туғди – кимсанинг кўнглидаги ишини, хоҳлаганини қилиши мумкин бўлган кун, пайт, шароит келди) [22.225]**, "суюнчихўр аримади" (бирикмали), "йўл азоби – гўр азоби" (мақол кўринишида)** тил бирликлари метафорик маъно касб этиб, адибнинг ҳис-туйғу, ўй-кечинмаларини яққол акс эттирган константбирликлардир.

Яна мисол: Кун ***оққанда*** аскар отаси қирдан эниб келди...Отаси ***жонлиқ*** сўйди. Қариндош-уруғлар, гапга етарлар учун тўй қилиб берди. Ўғли ***оёқ олиши*** билан гапларидан улай-булай изза бўлмади. Майли, ҳали-ҳозир ***аскарлик ҳавоси*** бор. Кейин-кейин ***ўзига келади***, дея ўйлади... Аммо аскар ***ўзига келмади***. Мўйсафид отаси ***тоқати тоқ бўлди*****,** отаси ***ёрилди***: – Улим, эрта биров айтган экан, ***отангни кўрдим – аҳмади фориғ, энангни кўрдим – товони ёриқ***, деб. Отанг шул, энанг шул, қўй энди, ўз тилингда гапир... (Тоғай Мурод. Танланган асарлар. "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. Тошкент – 2018, 604 бет).

"Кун **оққанда**" бирикмасининг феъл шакли қисмида, "**жонлиқ** сўйди" бирикмасининг эса от шакли қисмида, "аскарлик **ҳавоси**" сўз бирикмасининг ҳоким сўз қисмида метафорик хусусият бор. "**Оёқ олиши**", "**ўзига келади**", **"ўзига келмади"**, "**тоқати тоқ бўлди**" кабилар фразеологизмлардир;

“отаси **ёрилди**” бирикмасидаги феъл-сўз метафорик тасвирни ифодалаган; “**отангни кўрдим – аҳмади фориғ, энангни кўрдим – товони ёриқ**” матал кўринишидаги гапи, шунингдек, юқоридаги метафорик мазмундаги бирликлар қиёсий тасвир учун хизмат қилиб қолмай, балки Т.Муроднинг ўз ҳаётий кузатишлари, ўйлари ҳамда шахсий “мен” и билан боғлиқ туйғулари метафорик образларда ўз ифодасини топган.

Юқоридаги таҳлиллардан кўринадики, Т.Мурод насрий нутқида метафоралаларнинг турли кўринишларидан константбирлик сифатида унумли фойдаланиб, гўзал образларни яратишда тилнинг нозик семантик хусусиятятларини метафора ва метафорик образларнинг ўзига хос, бетакрор ва енг ёрқин семаларини қўллаш орқали ўзбек тили имкониятларининг янги қирраларини кашф этди. Бу эса метафоранинг “динамик ва интеграцион жараённи намоён этиб, янги – қоришиқ ментал майдонлар яратилишига сабаб бўлувчи ҳодиса” [23] эканлиги, шунингдек, шеърий ҳамда насрий восита, оламни ўзгача кўриш, ҳис ва тафаккур қилиш қуроли эканлигидан дарак беради.

Адабиётлар:

1. Мурод Т. От кишнаган оқшом. “Шарқ” нашриёти. Тошкент – 1994.
2. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М. 1986.
3. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.”Ўқитувчи” нашриёти. Тошкент – 1978.
5. ЎТИЛ. Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2007, 3-том.
6. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili/Darslik – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018.
7. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи. Филология фанлари доктори (DcS) илмий даражасини олиш учун

тайёрланган диссертация. Самарқанд – 2020.

8. Залевская А.А. Проблемы описания значения. – М., 1998.

9. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль – Тошкент: Фан, 1998.

10. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Докторлик диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2015.

11. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. Романлар, қиссалар. «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. Тошкент – 2018.

12. Скляревская Г.Н. Метафора в системе языка. – СПб.: Наука, 1993.

13. Пиотровский Р.Г. Лингвистический автомат (в исследовании и непрерывном обучении). – СПб.: Изд-во РГПУ, 1999.

14. Кузьмина С.Е. Понятие “синтаксический концепт” в лингвистических исследования/Вестник ЧелГУ. – 2012. – № 17 (66).

15. Тоғай Мурод. Танланган асарлар. 1-жилд. Қиссалар. «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. Тошкент – 2008.

16. Бахчоян А.М. Функции метафоры в разных типах дискурса / Инновационная наука. №04-3/2017.

17. Курилович Е. Очерки по лингвистике//сборник статей. – М. Издательство иностранной литературы, 1962.

18. Аликулов Т. Полисемияларнинг ҳосил бўлиши ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти.-1963. 6-сон.-Б.36.; Усмонов С. Метафора// Ўзбек тили ва адабиёти.-1964. 4-сон.-Б.36-40.; Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш.-Т. 1976. -Б.13-14.

19. М.Миртожиев. Лингвистик метафоралар таснифи//Ўзбек тили ва адабиёти. – 1973. 4-сон.

20. Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология.-Т.: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.

21. Каримов С.А. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Самарқанд – 1994.

22. Ўзбектилининг изоҳлилуғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент – 2006. 4-том.

Будаев Э.В. Когнитивная теория метафоры: генезис и эволюция // www.pglu.ru / vestnik / detail / php?/.

TIL TA’LIMIDA NUTQ PSIXOLOGIK VOSITA SIFATIDA

Qodirova Surayyo Do‘stqobilovna,
Surxondaryo viloyati XTXQTMOHM
Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Sanonova Ra’no Qo‘lbashevna,
Termiz shahar 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Til nutqiy faoliyatda yuzaga chiqqani tufayli nutqiy faoliyat tilshunoslikda ham, psixologiya fanida ham tekshirish obyekti sanaladi. Tilshunoslik va psixologiya fanlarining ushbu kesishish nuqtasi mazkur fanlar oralig‘ida psixolingvistika (yoki lingvopsixologiya) yo‘nalishining yuzaga kelishiga olib keldi. Ushbu atama dastlab 1946-yilda amerikalik psixolog N.Pronko tomonidan qo‘llandi va XX asrning 50-yillaridan keng yoyildi. Biroq uning ildizlari XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga kelgan psixologizm oqimiga (asoschisi G.Shteyntal) borib taqaladi. U tilda xalq ruhining ifodalanishini ta’kidlab, sotsial, etnik psixologiyani yaratishga intildi.

Ushbu oqim tarafdorlari o‘z e’tiborlarini tilning ichki tomoniga, jonli nutqqa, bevosita nutqiy jarayonga, so‘z va gaplarning ma’no tomoniga qaratdilar, assotsiativ psixologiya tushunchalarini va amalini kiritishga harakat qildilar.

Psixolingvistikaning o‘rganish obyektiga quyidagilar kiritilgan:

- Nutq faoliyatning vujudga kelish mexanizmini o‘rganish
- Bolalar nutqining shakllanish jarayonini o‘rganish
- Muayyan nutqiy vaziyatlarda so‘zlovchi bilan tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish

III Nutqning axborot tashish funksiyasini o‘rganish va boshqarish.

Hozirgi kunda tilshunoslikning ushbu yo‘nalishi yanada kengaygan bo‘lib, nutqdagi inson omili, individuallik, ichki nutq va tashqi nutq masalalari keng o‘rganilmoqda. Nutqiy faoliyat, ya’ni insonlarning bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bir qancha fanlarning o‘rganish obyekti sanaladi. Xususan, bu jarayon tilshunoslik va psixologiya fanlari tomonidan chuqur o‘rganilgan. Tilshunoslik kishilar o‘rtasida asosiy aloqa vositasi bo‘lgan til va uning uning aloqa-aralashuv jarayonida voqelanuvchi nutqni bir-biridan ajratgan holda, tilning ichki tuzilishi va birliklari, ushbu birliklarning nutqiy jarayonda turli-tuman voqelanishi, psixolingvistikada esa “ichki tuzilish”dan “tashqi tuzilish“ (“tashqi nutq”) qa o‘tishning asosiy bosqichlari, ushbu 2 tuzilishning o‘zaro munosabatlari kabi qator masalalar atroflicha o‘rganiladi.

Insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davri tahlil qilinganda genetik kelib chiqish jihatidan birlamchi qatorida og‘zaki nutqni keltirish joiz. Og‘zaki nutq noverbal turkumdan keyin paydo bo‘lgan nutq turidan biri hisoblanadi va u shartli ravishda quyidagi nutq ko‘rinishlarini qamrab oladi: monologik, dialogik, polilogik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yig‘iq, qatra), affektiv (his-hayajon, jahl).

Ma’lumki, inson yer yuzasidan hayot va faoliyat ko‘rsatish davrining dastlabki pallasida asosiy nutq turi sifatida imo-ishora alohida ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun etnik stereotiplar asosida muayyan kechinmalarni, ma’lum axborotlarni shaxslararo munosabat jarayonida uzatish va qabul qilishda ifodalanuvchi tovushsiz, lekin ma’noli, mazmunli nutq turi imo-ishorali nutq deyiladi. Masalan, o‘zbeklarda fikrni tasdiqlash old tomonga bosh siltash bilan ifodalansa, xuddi shu ma’noni bulg‘orlarda boshni sarak-sarak qilish anglatib keladi. Bir xalqda sanash boshmoldoqdan boshlansa, boshqasida jimjiloqdan, birisida barmoqlar bukilsa, ikkinchisida unday qilinmaydi. Aksariyat hollarda imo-ishora his-tuyg‘usiz namoyon bo‘ladi va shaxslararo munosabatning tub ma’nodagi ham quroli, ham vositasi vazifasini bajarib kelgan. Lekin uni his-tuyg‘usiz deb nomlash ham bu tushunchaning ilmiy-amaliy qiymatini pasayishiga olib keladi, bu holat uning

ijtimoiy funksiyasini o‘zida aks ettiradi, shaxslararo munosabat mag‘zini tashkil etib kelgan, ba’zida hozirgi zamonda ham undan keng ko‘lamda foydalaniladi.

Genetik kelib chiqish jihatidan noverbal nutq birlamchi hisoblanadi, chunki insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval tovushsiz, so‘zsiz nutq turlarini paydo bo‘lgan bo‘lib, u o‘z ichiga shaxs kamolotining yirik sanasini qamrab olgandir. Insoniyatda nutqning hozirgi zamon avlodiga xos artikulyatsion apparati paydo bo‘lgunga qadar imo-ishora negiziga qurilgan. Ma’lumki, qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilarida qanday funksiyani bajarayotgan bo‘lsa, o‘sha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davrlarda axborotlar, ma’lumotlar ko‘lami tor bo‘lganligi tufayli insonlar noverbal nutqdan ko‘p davrlar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar. Avlodlar tarbiyasida ma’lumotlar uzatish noverbal nutq orqali amalga oshirilgan, ijtimoiy va xususiy (shaxsiy) fikr uzatish hamda qabul qilish ana shu tariqa namoyon bo‘lgan, tobora takomillashib borgan.

Bizningcha, nutqning muayyan asoslarga suyangan holda noan’anaviy tasnifini berish uning qiymatini yanada oshiradi, inson-texnika munosabatini amaliy jihatdan namoyish qilgan bo‘ladi (odatda, og‘zaki va yozma turkumga ajratilar edi): verbal va noverbal.

Noverbal nutqni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) tovushsiz: a) imo-ishora, b) mimika, v) pantomimika, g) daktilogik(barmoq nutqi);

2) tovushli: a) exologik (aks sado), b) signifikatsiya (shartli belgilar, signallar, modellar).

Verbal nutq turkumini shartli ravishda quyidagi turlarga ajra-tish mumkin:

1) og‘zaki, 2) yozma, 3) monologik, 4) polilogik, 5) tashqi, 6) ichki, 7) ekspressiv, 8) impressiv, 9) lakonik (qatra, yig‘iq), 10) epik (yoyiq), 11) affektiv (jaxd holatidagi).

Psixologlar tomonidan nutq psixologik muammo sifatida o‘rganilishi ham o‘ziga xoslik, uning qirralari, shakliy tuzilishi, mantiqan izchilligi, tasniflanishi mavjud bo‘lib, ilmiy talqinining tub mohiyati, bayoniyligi bilan o‘zaro tafovutlanadi.

Yondashuvlar tahliliga to‘xtalishdan oldin nutqning psixologik tavsiflari yuzasidan mulohaza yuritish, uning tatbiqiy jihati qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida ma’lumotlarni uzatish va qabul qilish eng ahamiyatli jarayonlardan biridir. Ta’lim jarayoni ishtirokchilarining har biri psixologik o ‘ziga xoslikga ega. Ta’lim beruvchi shaxs, albatta buni inobatga olmog‘i darkor. Bu jarayonda hattoki ovozning ohangi ham ahamiyat kasb etadi. E.V. Belovol (2000) individuallikning rasmiy-dinamik xususiyatlari va nutqning akustik xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatni, xususan, asosiy ohang chastotasini (quloq tomonidan baland ovoz bilan qabul qilingan) o‘zaro bog‘liqligini o‘rgangan. Uning tadqiqotlari davomida:

• har xil temperamentli guruhlarga mansub shaxslar nutqning ba’zi akustik parametrlarining har xil qiymatlarga ega ekanligi aniqlandi (asosiy ohangning o‘rtacha chastotasi, u pasayganda asosiy ohang chastotasining birinchi hosilasining o‘rtacha qiymati); nutqni hammasida ham uning akustik xususiyatlari va shaxsning rasmiy dinamik xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib bermasligi aniqlangan.

• shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari va nutqning akustik xususiyatlari o‘rtasida bog‘liqlik borligi ko‘rsatilgan.

Yuqoridagi empirik ma’lumotlarga asoslanib, E.V.Belovol nutq xulq-atvorning xususiyatlarini temperament turiga qarab subyektiv idrok etish nuqtai nazaridan va sifat jihatidan tavsiflagan.

SANGVINIK – tez va aniq gapiradi. Uning nutqi muvozanatli, barqaror, o‘ziga ishongan. Yumshoq intonatsiya, tezda yangi sharoitlarga moslashadi, odamlar bilan tezda yaqinlashadi va muloyim. Tuyg‘ulari osongina paydo bo‘ladi va o‘zgaradi, hissiy tajribalar, odatda, sayozdir. Mimikaga boy, tezkor, ifodali. U biroz notinch, yangi taassurotlarga muhtoj, impulslarini yetarlicha tartibga solmaydi, ishda belgilangan tartib, hayot, tizimga qat‘iy rioya qilishni bilmaydi. Shu nuqtai nazardan, u teng energiya sarfini, uzoq muddatli va uslubiy keskinlikni, qat‘iyatni, diqqat barqarorligini va sabr-toqatni talab qiladigan vazifani muvaffaqiyatli bajara olmaydi. Jiddiy maqsadlar bo‘lmasa, chuqur fikrlar, ijodiy faoliyat, yuzaki va nomuvofiqlik rivojlanadi.

А.Ысқақов «Қазіргі қазақ тілі» атты еңбегінде қос сөздердің түрлеріне тоқтала келіп, қайталама қос сөздің үстеме буын түрінде қалыптасқан түрі —негізінен алғанда, сын есімдерге тән форма. Бұл үстеме буын сын есімге күшейту мағынасын жамайтын форма түрінде қалыптасқан, өйткені бұл форма тек негізгі сынға я ұлғайту, я солғындату реңкін жамайды»,— деп, үстеме буынның табиғатын әбден дұрыс айқындаған. Ол бір сыңары ықшамдалып қайталанатын қос сөздерді, мысалы: жап-жақсы, қып-қызыл, кіп-кішкене, сап-сары, теп-тегіс сияқтыларды үстеме буынды немесе күшейтпе буынды қос сөздер деп К.Ахановтың пікіріне қарсы келеді. А.Ысқақов бұл сөздерді үстеме буындары әрі ықшамдалып, әрі соңына «п» дыбысы жамалып, бір тұйық я бітеу буынға айналуынан пайда болған дейді.

К.Аханов өз еңбегінде қып-қызыл, қап-қара тәрізділердің сын есімнен басқа сөз таптарынан жасалған қос сөздердің түрлерінде мүлдем ұшыраспайтынын, оның тек сын есімдерге ғана тән екендігін және бірден-бір негізгі қызметі сын есімнің шырай формасын тудыру тәсілдерінің қатарында емес, форма тудыру, соның ішінде сын есімнің шырай формасын тудыру тәсілі деп қараған жөн. Демек, қып-қызыл, қап-қара тәрізділер қос сөздердің қатарында емес, сын есімнің шырай формаларының мағына мен

қызметі жағынан тым қызыл, өте қызыл, тым қара, тіпті қара тәрізді сын есімдердің күшейткіш шырай формаларымен сәйкес келуі дәлелдей түседі, ал тым қызыл, өте қызыл, тым қара, тіпті қара тәрізділерді күрделі сөздер деп қарамайтынымыз белгілі (бұлар торы ала, қара торы тәрізді күрделі сөздерден мүлдем басқаша) дейді. Ол тілдегі құбылыстарды бір-бірінен ажыратуда, әдетте, негізгі үш түрлі өлшемді таяныш етеді: оның бірі – мазмұны екіншісі – форма, үшіншісі – қызметі. Ал жартылай редупликация арқылы жасалған қып - қызыл, қап – қара тәрізділер формасы жағынан ғана қос сөздерге ұқсайды, ал мазмұны мен қызметі жағынан өте қызыл, тым қара тәрізді сын есімдердің күшейтпелі шырай формасымен сәйкес келеді деп қорытындылайды.

А.Ысқақов пен К.Аханов күшейтпе буын тек сын есімнің шырай формасы арқылы туады десе, бұған қазақ тіл білімі тұңғыш профессоры Құдайберген Жұбанов тұжырымы қарсы болады. Мысалы, қап-қара, тіп-тік, қып-қызыл, сап-сары деген қос сөздер күні бүгінге дейін жасалу жағынан осылайша тек «п» дыбысының жамалуы ғана ескеріліп жүрген күшейтпе буынды қос сөздердің Жұбановтың еңбектерінде тағы да бірнеше дыбыстар арқылы жасалатын түрлерін кездестіреміз. Мысалы, қаз-қатар сөзінің тіркестік құрылысын талдай келе былай дейді: «Бұл жерден мен қаз және қатар деген сөзді көріп тұрған жоқпын. Мұнда сап-сары, қып-қызыл сияқты қатар сөзі қаз деген күшейткіш буынмен айтылған». Дәл осындай сөздер қатарына ғалым қаз-қалпы, тас-талқан, тым-тырыс,жым-жырт, қым-қуат сияқты сөздерді туғызады. Бұдан екі түрлі жаңалықты байқауға болады. Бірі – бұрын қос сөздердің күшейтпе буынын жасаушы дыбыс тек қана «п» деп танылатын болса, енді соған «з» (қаз-қатар, қаз-қалпы дегендегі), «с» (тас-талқан дегендегі) және «м» (тым-тырыс, жым-жырт, қым-қуат дегендегі) дыбыстар да қосылады. Сөйтіп күшейтпе буынды қос сөздер жасайтын дыбыстар біреу емес, п, з, с, м болып төрт дыбысқа жетеді. Екінші – буын күшейтпе буындар тек қана сын есім түбірлерден жасалады делініп келсе, енді зат есім (қаз-қатар, қаз-қалпы,тым-тырыс дегендегі қатар, қалпы, тырыс) түбірден де,еліктеуіш сөздер (жым-жырт дегендегі жырт) түбірлерден де,

етістік (қым-қуат дегендегі қу) түбірлерден де жасалуы болып табылады.

Соңғы шыққан еңбектерден қос сөздердің қолданысына қатысты пікір Г.Әзімжановаңкандидаттықдиссертациясындадаайтылды.Ол«Қайталама қолданыстар – оқырманға, тыңдаушыға ерекше эмоциональдық әсер ететін қасиеті бар стильдік әдіс ретінде көркем әдебиетте жиі қолданылады. Сөз зергерлері бұл стильдік амалды психологиялық анализді тереңдету үшін де жұмсайды. Редупликацияланған немесе қосарланған (порно-повторные) лексикалық элементтері тілек (морфологиялық) категория ретінде, ал бір сөйлемде немесе микротексте қайталанып қолданылатын құбылысты стилистика құбылысы (категориясы) деп тану керек» – дейді.

Сондай сөздің бірін ұлы қаламгер М.Әуезовтің «Қараш-қарашынан» кездестіреміз: «Соңғы кездесудегі қуғын әлденеше жақты болуға айналды. Бір жағынан, он шақты кісіні қолдарына мылтық, қару-жарақты сығайлап беріп, күндіз-түні, тау-тастың барлығын кезгізуден басқа, тау ішінде отырған елді де мұның соңына салмақшы болды. Мұндағы сығайлап сөзі – қазіргі «сайла»- ның байырғы нұсқасы. Сығай сөзінің ықшамдалған түрі — сай. Бұл сөздің қазіргі тіл қолданысымызда «лайықты», «мықты», «келісті», деген мағынада жұмсалатындығын мынадай тұрақты тізбектерден байқаймыз: төрт құбыласы сай, сай күлік (сайгүлік), бір түлікке бай болғанша, төрт түлікке сай бол т.б.

Тілімізде түп - төркіні өзара салыстыру арқылы ашылатын бұдан басқа да бірталай қос сөз сырлары бар дей келе құрбы-құрдас деген қос сөзге де талдау жасайды. Бұл сөз дейді Уәлиев: «былайша қарағанда екі сыңары да түсінікті. Жас шамасы қарайлас адамдарды құрбы-құрдас деп атайтындығы байқалады. Әйгілі ғалым М.Қашғари [X ғ.] сөздігінде құр сөзі «дәреже», «лауазым», дегенді білдіреді делінген. Осындай дерекке қарағанда құрдас деп әуелде қарайлас адамдарды емес, дәреже, лауазымы қатар кісілерді атаса керек»,— деген тұжырым жасайды .

Жоғарыда айтылған пікірлердің бәрін қорытындылай келе, қос сөздердің стилистикасы мынадай мәселелердің айналасында болған:

1. Қос сөзді қолданудың сөйлем мағынасына әсері.

2. Қос сөздердің экспрессивті- эмоционалдық мағыналары.

3. Қос сөздерді қолданудың ұтымдылығы.

4. Жеке жазушылардың қос сөздерді қолдану ерекшелігі.

Пайдаланылған әдебиеттер:

3. Аханов К. «Грамматика теориясының негіздері» Алматы, «Мектеп»1998 ж.

4. Байтұрсынов А. «Тіл тағлымы». Алматы «Ана тілі» 1992 ж.

3. Есенғұлов А. «Көне түркі жазба ескерткіштеріндегі қос сөздер және олардың қазақ әдеби тіліне қатысы жайында» «Қазақ әдеби тілінің қалыптасу тарихы мен даму жолдары» Алматы, 1994 ж.

4. Жұбанов Қ. «Қазақ тілі жөніндегі зерттеулер» Алматы. «Ғылым» 1999 ж.

5. Кеңесбаев І. «Қазақ тіліндегі фразалық қос сөздер» Алматы, 1996 ж.

6. Қалабаева Т., «Қайталама қос сөздердің кейбір мәселелері» Қазақстан мектебі. Алматы, 1990 ж. №3.

7. Ысқақов А. «Қазіргі қазақ тілі» А. «Ана тілі» 1991 ж.

ҚАЗАҚ ТІЛІМ БАЙЛЫҒЫМ, РУХАНИ ЖАН ДҮНИЕМНІҢ АЙНАСЫ

Нұркелді Жарасбаев,

Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік

педагогика институтының оқытушысы

Әбдуәлім Алимкулов,

Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік педагогика институтының

Қазақ тілі мен әдебиеті бағытының 2-курс студенті

Ана тілді қадірлеп ұстайтын ұлттың болашағы жарқын. Себебі, тіл қай елде, жерде болмасын ең қасиетті де қастерлі. Тіл-әрбір тәуелсіз елдің мақтанышы, абыройы. Ол атадан балаға сақталатын киелі мұра. Тіл-баға

жетпес қазына. Демек, әр ұлт, әр азамат өз ана тілін көзінің қарашығындай қорғауы тиіс деп білемін.

Менің тілім-қазақ тілі. Мен оның шұбарлануына, аяққа тапталуына әрдайым қасқая қарсы тұруға қауқарлымын. Қазақ тілім байлығым, рухани жан дүниемнің айнасы, Отанымыздың өсіп-өнуіне бірден-бір септігін тигізер мәңгілік мұра. Еліміздің болашағы-оның ана тілі. Ол әрдайым бізбен өмір сүрері әсте белгілі. Тіл біздің бақытымыз болса, тілдің бақыты-оның болашағының жарқын болуы, ұлтының оны қадір тұта білуі деп білемін «Ана тілі-халық боп жасағаннан бері жан дүниеміздің айнасы, өсіп-өніп түрлене беретін, мәңгі құламайтын бәйтерегі»-деп Жүсіпбек Аймауытов айтқандай, патриот азаматтың жүрегі қашанда тілі, діні болып соғуы тиіс. Себебі, ана тілі - Республикамыздың мемлекеттік тілі. Елімізде жүргізілетін іс-шаралар, құжаттар, қағаздар міндетті түрде мемлекеттік тілде болуы қажет. Өйткені өркениетке құлаш ұратын елдің өрісі қашанда білікті де саналы ұрпақ пен көбейетіні бесенеден белгілі. Біздің мақсатымыз-әлемдегі мүйізі қарағайдай елдердің қатарында болу. Бұл көздеген мұратқа жету үшін, сауатты ұл мен қыз тәрбиелеу қажет. Ол дегеніміз - өз ана тілінде яғни қазақ тілінде еркін сөйлеп, оны тереңінен меңгере білген ұл мен қыз.

Әрбір адам өз ана тілінде сөйлеуге міндетті. Солардың қатарында мен де өз Отанымды, Тәуелсіз Өзбекстанымды, қасиетті де қастерлі мекенімді, байлыққа, қазынаға толы жерімді, ең бастысы болашағы айқын, келешегі жарқын қазақ тілімді мақтан етемін.

Адамзат ерте заманнан бастап-ақ өзінің ең қажетті де керекті серігі - тіл сырын, оның ерекшеліктерін білуге, ұғуға тырысты. Соның нәтижесінде өзінің сүйікті серігі, қаруы - тіл туралы ғылым жасалды және жаңа тілдер қалыптаса бастады.

Тіл - адамдардың сәби кезінен-ақ, ананың ақ сүтімен бойға сіңіп, бірге өркендей түседі. Сондықтан шығар, әр елдің өз тілін «ана тілім» - деп, мақтан тұтып, зор мақтанышпен атайтын шығар.

Ана тілі - әрбір жан ол жайлы ойлағанда өзі туып өскен ортасын балалық шақтың қызықтарын еске алып, жүрегі елжіремейтін жан жоқ шығар сірә. Бір ұлттың ана тілінде сөйлейтін, оның алтын қорынан пайдаланатын адамы болмаса, ол тілдің келешегі жоқ. Ол өлі тіл деп есептелінеді.

Тіл - бұл биологиялық құбылыс емес, ол әкеден-балаға, ұрпақтан-ұрпаққа арнайы ген арқылы өтпейді. Алайда тіл - қоғамдық құбылыс болып келеді. Өйткені адамның қай тілде сөйлеуі өскен ортасы, қоғамға, айналадағы құрбы-құрдасында байланысты. Сөйтіп тіл дегеніміз, жоғарыда айтылғандай, адамдардың бір-бірімен қарым-қатынас жасау, пікір алысу құралы болса, сөйлеу дегеніміз - сол тілді қарым-қатынас жасау, пікір алысу құрамын пайдалана білудің әр түрлі амалдары мен жолдары, тәсілдері болмақ.

Ана тіліміз жайлы ой тербегенде еріксіз қазақтың ақыны «Қадыр Мырза Әлідің» мынандай өлең жолдарын еске алуға болады.

Ана тілің арың бұл
Ұятың боп тұр бетте
Өзге тілдің бәрін біл
Өз тіліңді құрметте.

Қазіргі таңда өз ана тілін шұбарлап қорлайтын, өз тілі тұрғанда өзге тілде сөйлегенді жөн көретін, сөз қорына орысша немесе ағылшын сөздерін қоса сөйлегенді сән деп білетін үлкенді-кіші адамдар жетіп жатыр.

Ана тілін жақсы біліп тұрып бөтенше жақсы сөйлесең, бұл – сүйініш; ана тілін білмей тұрып бөтенше сөйлесең, бұл – күйініш. Өз тілінің сұлулығын сезінбеген өзге тілдің қадірін білуі екі талай емес пе ?!

Ана тіліміздің тазалығы үшін ата-бабаларымыз талай еңбек сіңіріп, керек десе, өлімге жүзбе-жүз барды емес пе? Қазақ халқы үш бәйтерек деп атап кеткен Ілияс, Бейімбет, Сәкендер қазақ халқының даму, өркендеу жолына қосар үлесі көп демесек аз емес. Ол кездерде ұлт туралы, дәстүр туралы, тіл туралы ой толғау «ескіліктің, ұлтшылдықтың» белгісіндей, өзіне-өзі қол жұмсаумен бірдей еді. Бірақ, жанын шүберекке түйіп, ұлтының баға жетпес

байлығынан айырылып бара жатқанын біле, көре тұрып үндемей қалуын болашақ ұрпақтың алдында ар санаған, оны айтып қалу өзінің басты парызы екендігін сезіне отырып, бар дауысымен жар салып, шындықты жеткізген батыр, ержүрек арыстарымыз да болды. Оданда басқа талай-талай ағартушы ғалымдар, ақын-жазушылар, ел жанашырлары мерт болды.

Ана тіліміздің тарихына назар аударатын болсақ, алғашқы XIX ғасырдың екінші жартысында Ыбырай Алтынсарин қазақ жазуын орыс графикасына талпыныс жасаса, XX ғасырдың басында Ахмет Байтұрсынов қолданылып келген араб графикасын жетілдіре отырып, қазақ жазуына икемдеді.

Ахмет Байтұрсынұлы: «Ұлттың жоғалуына себеп болатын нәрсенің ең қуаттысы - тіл. Сөзі жоғалған ұлттың өзі де жоғалады» - деп айтып кеткен болатын. Айрандай ұйыған береке бірлігімізді сақтап, тәуелсіз Отанымыздың болашағын жарқын ету үшін, тілімізді қадірлеп, құрметтеуіміз керек.

Тілге айтылғандардың бәрі желге ұшып, қоқысқа айналмасын десе, әр қазақ өз шаңырағында ағарту ісімен айналысса нұр үстіне нұр болмақ. Көкірегі сезімді, тілі орамды, патриот жастарымыз бен ел жанашырлары бір болып, осы мәселені шешуіміз қажет. «Жұмыла көтерген жүк жеңіл» дегендей біз болып, сіз болып тіліміз үшін аянбай еңбек етсек, тіліміздің тұғырын биікке көтере аламыз.

Абай, Ыбырай, Шоқан, Сұлтанмахмұт сияқты ақын жазушыларымыз, қазақ халқының адал ұлдары мен қыздары өз ана тілімен сөйлеп жаза білген. Дегенмен оларда өзге ұлт тілдерін өз ана тілінен кем білген емес.

Тіліміздің тазалығын сақтау үшін біз жастар, бір жағадан бас шығарып, бір жеңнен қол шығарып әрекет етуіміз керек. Қазақтың ақыны Мағжан Жұмабаев келешек жастарға деген сенім, көкірегінде зор мақтанышпен «Мен жастарға сенемін» - деп, бекер айтпағанын дәлелін көрсету біздің борышымыз.

Қазір Елбасымыз көп тілді білуді міндеттеп отыр. Болашақта бұл үлкен мәселе болмақ. Менің ойымша, егер адам өзге тілді білетін болса, ол рухани бай адам деп ойлаймын. Өйткені сол тіл арқылы басқа халықтың мәдениетін,

дәстүрін үйренеді, басқа тілді үйрену арқылы танымы кеңейеді. Сондықтан мен өз замандастарымды «өзге тілдің бәрін біл, өз тіліңді құрметте» деп ақын Қ.Мырзалиев айтқандай, басқа тілді біле отырып, ең алдымен өз ана тілімізді құрметтеуге шақырамын және бәріне:

Мейлі, сен көп тілді біл «қой» демес ем!

Пушкин, Байрон, Шекспир, Гейнеге сен.

Бірақ сені қазақ деп айта алмаймын

Туған ана тіліңде сөйлемесең, – дегім келеді.

Сырдың сыршыл ақыны Ә.Тәжібаев «Біз түгел қазақ бола білейік» деген өлеңінде:

Күркіре, көңілім,

Қобызым, гуле, бұрқыра!

Күн жаңа туды

Ерлікке ғана ұмтылар.

Елдікті қорға,

Елдікті бастар ерлікті айт.

Сарының сенің

Рух берсін жуас жұртыңа

Жырла, тілім, жырла! - дейді.

Қорыта келгенде, Абай әрлеген тіл, Жамбыл жырлаған тіл – қазақ тілі, Мәңгілік елдің Мәңгілік тілі болып қала бермек!

Пайдаланылған әдебиеттер:

1. Аханов К. Грамматика теориясының негіздері. Алматы, 1993.

2.Жұбанов А. Қолданбалы тіл білімінің мәселелері. А.: «Арыс», 2008.

3. Қордабаев Т. Түркология және қазақ тіл білімі. Алматы, 1998.

4. Маманов Ы. Қазақ тіл білімінің мәселелері. А.: «Арыс», 2007.

5. Хасенов Ә. Тіл білімі. Алматы, 2003.

6. Мырзалиев Қ. Таңдамалы шығармалары. Астана. 2009.

7. Жұмабаев М. Таңдамалы шығармалары. Алматы. 2001.

ЛИСОНИЙ БИРЛИКЛАРНИНГ ЎЗАРО МУНОСАБАТИ

Бухорова Махлиё
Навоий давлат кончилик институти
Ўзбек ва чет тиллар кафедраси ассистенти,
Одилова Озода,
21-19НРМ гуруҳ талабаси

Уядошлик муносабати бир сатҳга мансуб бўлган, қиммати жиҳатдан бир хил бирликларнинг маълум умумий белги асосида бир гуруҳга (уяга) бирлашуви уядошлик муносабати саналади. Уядошлик муносабатида бўлган бирликлар учун умумий белги сифатида шу бирликларнинг маъноси ҳам, шакли ҳам хизмат қилиши мумкин. Масалан, *ишчи, ишла* лексемалари ўзакнинг умумийлиги билан ўзаро бирлашса, қўшимчалари билан фарқланади. Ёки аксинча, *ишла, англа, сўзла* сингари лексемалар қўшимчанинг умумийлиги билан бирлашиб, ўзакнинг хилма-хиллиги билан фарқланади. Ҳар икки ҳолатда ҳам уядошликни ҳосил қилади. Лексик сатҳда айрим лексемалар шаклий ўхшашлик умумий белгиси асосида бир уяни, синфни ташкил этади. Бундай лексемалар муносабати лексик омонимларни ҳосил қилади. Ёки баъзи лексемалар маъно умумийлиги асосида бир синфга бирлашади. Бундай муносабатда бўлган лексемалар лексик синонимларни ташкил этади.

Худди шундай хусусият фонологик сатҳдан юқори бўлган барча сатҳ бирликлари учун ҳам хосдир. Масалан, умумий эгалик маъноси асосида барча эгалик шакллари бир уяга бирлашади. Замон маъноси асосида барча замон билдирувчи феъл шакллари бир уяни ҳосил қилади. Шу билан бирга, уя ичида ҳудди шундай умумий маъно асосида яна кичик уяларга бирлашиши мумкин. Жумладан, ўтган замон шакллари, ҳозирги замон шакллари, келаси замон шакллари каби.

Шундай қилиб, маълум уя ўз ичида кичик уяларга бўлиниб, уялар даражаланишини ҳосил қилади. Масалан, *а, э, о, ў, у, и* унлилари муносабати унлилар системасини (парадигмасини) ташкил этиш билан бирга, бу унлиларнинг ҳар қайсиси бевосита кузатишда бир қанча вариантлар орқали юзага чиқади ва вариантлар уясини (системасини) ташкил этади.

Лисоний бирликларнинг уядошлик муносабатини белгилашда кўпроқ маъно умумийлиги белгиси хизмат қилади.

Шуни таъкидлаш керакки, маълум умумий маъно асосида бир уяга бирлаштириш учун асос бўлиб хизмат қилган умумий маъно такрорланиши лозим. Ана шу такрорланувчи маъно (сема) ҳар бир аъзони айни шу уяга (парадигмага) бирлаштириш учун хизмат қилади. Шу билан бирга уянинг ҳар қайси аъзоси бошқа аъзодан маълум белгиларига кўра фарқланиш хусусиятига ҳам эга.

Ана шу фарқланиш белгиси билан уянинг алоҳида бирлиги эканлигини сақлаб туради. Демак, ҳар бир аъзо бирлаштирувчи ва фарқловчи семалар бирлигидан ташкил топади. Бирлаштирувчи сема ҳар бир аъзони маьлум мазмуний уяга (парадигмага) бирлашишини, фарқловчи сема эса уя таркибидаги ҳар бир аъзонинг ўзига хослигини, алоҳидалигини кўрсатиб туради. Англашиладики, уянинг ҳар бир аъзосида умумийлик ва ўзига хослик диалектикаси ўз тажассумини топади. Масалан, *-ган, -ди* шакллари ўтган замон семаси билан бир уяга киради. Шу билан бирга уларнинг ҳар иккиси ўзига хос фарқланиш белгисига ҳам эга. Улар ўтган замоннинг нутқ моментига нисбатан узоқ ёки яқинлигини ифодалаш жиҳатидан бир-биридан фарқланади.Биринчиси нисбатан узоқ ўтган замонни, иккинчиси эса яқин ўтган замонни билдиради.

Нутқ жараёнида иккита бирликни ҳеч қачон бир вақтда талаффуз қила олмаймиз. Олдин биттасини, сўнг иккинчисини, учинчисини ва ҳ.к. талаффуз қиламиз. Лисоний бирликларнинг маълум чизиқда кетма-кет боғланиши икки элементни ҳеч қачон бир вақтда талаффуз қилишга имкон бермайди. Муайян чўзиқликка эга бўлган икки ва ундан ортиқ элементларнинг кетма-

кет муносабати кетма-кетлик (синтагматик муносабат саналади. Масалан, ишчиларга сўз шакли таркибидаги ишчиларга морфемалари бир қаторда кетма-кет жойлашади

Кетма-кетлик муносабати. Бундан кетма-кетлик муносабати фақат нутққа хос деган хулосага келмаслик керак. Кетма-кетлик муносабати имконият ва воқелик диалектикасини ўзида мужассам қилган ҳолда тилга ҳам, нутққа ҳам хосдир. Ҳар қандай кетма-кетлик муносабати маълум тилда амал қилувчи муайян қоидалар, андозалар асосида майдонга келади. Бундай қоида, андозалар ижтимоий моҳиятга эга бўлиб, у ёки бу тилнинг ҳар бир вакили онгида тайёр ҳолда мавжуд бўлади.

Кўринадики, тил эгалари онгида тайёр ҳолда мавжуд бўлган лисоний бирликларнинг ўзаро қўшилиш қоидалари, андозалари тил сатҳига, ана шу қоида ва андозалар асосида бевосита кузатишда намоён бўлган чексиз ҳосилалар, конкрет бирикмалар нутқ сатҳига мансубдир.

Синтагматик муносабат ёрдамида тилнинг бош вазифаси коммуникатив вазифаси амалга ошади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А.Д., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўқитувчи. 1980-448-б.

2. Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Т.,:Ўздавнашр. 1944-565 б.

ЎЗБЕК ВА ҚОЗОҚ ТИЛИДАГИ КЕЛИШИКЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Нурадилова Аселхан Дилшодхўжа қизи,
Низомий номидаги Тошкент давлат
педагогика университети ўқитувчиси

Ҳозирги янгиланаётган жамиятда таълим ва тарбияни тубдан ислоҳ қилиш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди.

Мустақил Республикамизда шундай улкан вазифа ҳал этилаётган бир шароитда таълим-тарбияни жаҳон андозалари даражасига кўтариш педагог олимлар, педагог ва тарбиячилар олдига ҳал этилиши зарур бўлган вазифаларни қўймоқда.

Ўзбек ва қозоқ тиллари туркий тиллар оиласидандир. Бу икки тил бир-бирига тилларнинг акустик ва артикуляция жиҳатидан жуда яқин тиллар сирасига киради. Бу тиллардаги сўзлар, кўпинча, камгина фонетик ўзгаришларга учрайди, аммо сўзларнинг луғавий маъноларида деярли ўзгаришлар бўлмайди. Бу ҳақда тилшуносликга оид илмий изланишларда кўплаб маълумотлар келтирилади.

“Ўзбек тили” дарслигида келишиклар ҳақида қўйидагича таъриф берилади: От (ёки отлашган сўз)нинг бошқа сўзларга бўлган синтактик миносабатини кўсатувчи маънолар ва бу маъноларни ифодаловчи шакллар тизимига *келишик категорияси* дейилади. Келишик категорияси олтита грамматик маъно ва уни ифода этувчи шаклларни ўз ичига олади. Буларга ***бош келишик, қаратқич келишик, тушум келишик, жўналиш келишик, ўрин-пайт келишик*** ва ***чиқиш келишик*** каби грамматик маънолар ҳамда бу маъноларни ифодаловчи *-нинг, -ни, -га (-ка, -қа), -да, -дан* келишик шакллари киради. Ҳар бир келишик ўз номи, ифода шаклига эга ва маълум бир сўроқга жавоб беради.

“Қозоқ тили” дарсликларида келишиклар қўшимчалар билан боғлиқ ҳолда ифодаланади. Сабаби, қозоқ тилшунослигида қўшимчалар икки турга бўлинади: “жўрнақ” (қолдиқ) ва “жалғау”(улаш, боғлаш ёки қўшиш). Жўрнақ – *сўз ясовчи* ва *шакл ясовчи* бўлиб бўлинса, жалғау – *кўплик, келишик, кишилик, эгалик жалғовлари* бўлиб тўрт турга ажралади ва алоҳида тадқиқ этилади. Қозоқ тилида “Жалғов” мавзусини ўтганда *келишик жалғови* ҳақида тўлиқ маълумот берилиб, ҳар томонлама таҳлил қилинади. “От” сўз туркумини ўтганда ҳам (Отларнинг турланиши) “Келишик жалғови” мавзусини ўтганга нисбатан торроқ доирада эътибор қаратилади, сабаби у юқорида айтганимиздек, алоҳида қўшимчаларни ўтганда ўқитилади. Қозоқ

тилидаги жалғовларнинг ичида келишиклар етти турга ажралади: ***атау септігі*** *(бош келишик),* ***ілік септігі*** *(қаратқич келишиги),* ***барыс септігі*** *(жўналиш келиши),* ***табыс септігі*** *(тушум келишиги),* ***жатыс септігі*** *(ўрин-пайт келишиги),* ***шығыс септігі*** *(чиқиш келишиги)* ва ***көмектес септігі*** *(кўмакчилик келишиги)* деб номланган грамматик маънолар ва бу маъноларни ифодаловчи *-ның (-нің, -тың, -тің, -дың, -дің), -ға (-ге, -қа, -ке, -а, -е), -ды (-ді, -ты, -ті, -ны, -ні, -н), -да (-де, -та, -те, -нда, -нде), -нан (-нен, -дан, -ден, -тан,-тен),-мен (-менен, -бен, -бенен, -пен, -пенен)* келишик шакллари киради. Қозоқ тилида ҳам ҳар бир келишик ўз номига ва ифода шаклига эга. Ҳар бир келишик маълум бир сўроққа жавоб беради.

Қозоқ тилшунослигида “септік жалғаулары” орқали исмлар (от, сифат ва сон) гапдаги феъллар билан ҳам, боғловчи (шылау) сўзлар билан ҳам ва ўз-ўзлари билан ҳам боғланаверади. Хуллас, бу жалғовлар гапдаги сўзларни бир-бири билан боғлаб туради. Бундай қўшимчаларни “септік жалғаулары” деб атаймиз. Сўзларнинг жалғовларни қабул қилиб ўзгартириш тизимини сўзларнинг ***келишиши*** *(септелуі)* ёки ***келишиш*** *(септеу)* деб атайди.

Қозоқ тилидаги келишиклар сони ўзбек тили келишиклар сонига нисбатан биттага кўп. Бу келишик ***көмектес септігі*** *(кўмакчилик келишиги)* деб номланади. Кўмакчилик келишиги кўрсаткичлари: *-мен, -менен, -бен, -бенен, -пен, -пенен* жалғовлари (қўшмчалари) ўзак сўз билан биргаликда қўшилиб ёзилади, ўзбек тилида эса ёрдамчи сўз сифатида сўздан ажратиб (*билан*) ёзилади. Масалан, қозоқ тилида – *Университетке* ***машинамен*** *келдім*, ўзбек тилида – *Университетга* ***машина билан*** *келдим;* қозоқ тилида - *Нағашымның баласы* ***кітаппенен*** *дос болды,* ўзбек тилида – *Тоғамнинг боласи* ***китоб билан*** *дўст бўлди.*

Юқоридаги мисоллардан кўриниб турибдики, ўзбек тилида кўмакчи келишиги учрамайди, унинг ўрнига ёрдамчи (кўмакчи) сўз қўлланилади. Ўзбек тилида бу боғловчи кўмакчи бўлганлиги учун ўзак сўзга қўшилмасдан алоҳида ёзилади. Бу билан қозоқ тилида кўмакчилар ўзак сўзга қўшилади деган фикр туғилиши керак эмас, қозоқ тилида ҳам кўмакчи сўзлар:

Ўзбек тилида			**Қозоқ тилида**		
Номланиши	Мисоллар	Сўроқлари	Номланиши	Мисоллар	Сўроқлари
Бош келишик	*Маржона, дафтар, Самарқанд.*	*Ким, нима, қаер.*	Атау септігі	*Маржан, Дәптер, Самарқан.*	*Кім, не.*
Қаратқич келишиги	*Маржонанинг, дафтарнинг, Самарқанднинг.*	*Кимнинг, нимaнинг, қаернинг.*	Ілік септігі	*Маржанның, дәптердің, Самарқанның.*	*Кімнің, ненің.*
Тушум келишиги	*Маржонани, дафтарни, Самарқандни.*	*Кимни, нимани, қаерни.*	Табыс септігі	*Маржанды, дәптеоді, Самарқанды.*	*Кімді, нені.*
Жўналиш келишиги	*Маржонага, дафтарга, Самарқандга*	*Кимга, нимага, қаерга.*	Барыс септігі	*Маржанға, дәптерге, Самарқанға.*	*Кімге, неге, қайда.*
Ўрин-пайт келишиги	*Маржонада, дафтарда, Самарқанда.*	*Кимда, нимада, қаерда.*	Жатыс септігі	*Маржанда, дәптерде, Самарқанда.*	*Кімде, неде, қайда.*
Чиқиш келишиги	*Маржонадан, дафтардан, Самарқандан*	*Кимдан, нимадан, қаердан.*	Шығыс септігі	*Маржаннан, дәптерден, Самарқаннан.*	*Кімнен, неден, қайдан.*
-	-	-	Көмектес септігі	*Маржанмен, дәптермен, Самарқанмен.*	*Кіммен, немен.*

Ўзбек ва қозоқ тилларида келишик қўшимчалари қуйидагича фарқланади:

Ўзбек тилида			**Қозоқ тилида**		
Номланиши	Мисоллар	Қўшимча-лари	Номланиши	Мисоллар	Қўшича-лари
Бош келишик	*Маржона, дафтар, Самарқанд.*	*Ø*	Атау септігі	*Маржан, Дәптер, Самарқан.*	*Ø*
Қаратқич келишиги	*Маржонанинг, дафтарнинг, Самарқанднинг*	*-нинг*	Ілік септігі	*Маржанның, дәптердің, Самарқанның*	*-ның, -нің, -дың, -дің, -тың, -тің*
Тушум келишиги	*Маржонани, дафтарни, Самарқандни.*	*-ни*	Табыс септігі	*Маржанды, дәптерді, Самарқанды*	*-ны, -ні, -ды, -ді, -ты,-ті, -н*
Жўналиш келишиги	*Маржонага, дафтарга, Самарқандга*	*-га (-ка, -қа)*	Барыс септігі	*Маржанға, дәптерге, Самарқанға.*	*-ға, -ге, -қа, -ке, -а, -е*

Ўрин-пайт келишиги	*Маржонада, дафтарда, Самарқанда.*	*-да*	Жатыс септігі	*Маржанда, дәптерде, Самарқанда.*	*-да, -де, -та, -те, -нда, -нде*
Чиқиш келишиги	*Маржонадан, дафтардан, Самарқандан*	*-дан*	Шығыс септігі	*Маржаннан, дәптерден, Самарқаннан*	*-дан, -ден, -тан,- тен*
-	-	-	Көмектес септігі	*Маржанмен, дәптермен, Самарқанмен*	*-мен, -менен, -пен, -пенен, -бен, -бенен*

Юқоридаги жадвалдан кўринадики, ўзбек тилидаги келишикларда қўшимчаларнинг *жўналиш келишиги* қўшимчалардан ташқари *(-га, -ка, -қа*) қўшимчаларнинг фақатгина бир вариантлари келтирилган бўлса, қозоқ тилида бир нечта вариантлари келтирилган[1]. Қозоқ тилидаги келишик қўшимчаларнинг бир нечта вариантлиги тилдаги сингармонизм ва ассимиляция қонуниятларига боғлиқдир. Қозоқ тилида унлилар айтилишга кўра *жуан* ва *жіңішке (йўғон* ва *йингичга)* бўлиб бўлинади. Шунга кўра сўзнинг сўнгги бўғини йўғон бўлса, унга қўшиладиган қўшимчалар ҳам йўғон, ингичга бўлса, қўшимчалар ҳам ингичга қўшилади. (*Қы**дыр**+**дың**, Мән**сұр**+**дің**, Тал**а**с+**тың**, Тер**е**к+**тің**, қал**а**м+**ның**, жи**е**н+**нің***). Шу билан бирга қўшимчаларнинг ундош товушларнинг ассимиляция ҳодисасига кўра ўзгариши ҳам кузатилади. (Мара**т**+**т**ың, Үмі**т**+**т**ің, на**н**+**н**ың, сә**н**+**н**ің, Ора**л**+**д**ың, діріл-**д**ің).

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.Исқақов. Қазіргі қазақ тілі (морфология). Алматы. 1991 жыл.

2. К.Аханов. Тіл білімінің негіздері. Алматы. 2010 жыл.

3. М.Хамраев, Д.Шодмонкулова. Она тили (дарслик). Тошкент. 2017 йил.

4. S.Ahmedov, R. Qo’chqorov, Sh.Rizayev. 6-sinf adabiyot darsligi. Toshkent. “Ma’naviyat”. 2017 yil.

1 А.Исқақов. Юқорида келтирилган манба. 186-бет

NOMLASH TEXNOLOGIYASI MUAMMOLARI

Sabirova Go‘zal,
Toshkent shahridagi 272-maktab
o‘qituvchisi

Nomlash texnologiyasi o‘zbek tilshunosligida endigina shakllanayotgan yo‘nalish hisoblanadi. Turli obyektlarni nomlashning lingvistik xususiyatlarini o‘rganuvchi mazkur soha dunyo tilshunosligida ***neyming*** termini bilan ataladi. Milliy qadriyatlarimiz va milliy tilimizga muhim masalalardan biri sifatida qaralayotgan hozirgi davrda nomlash texnologiyasining nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining zaruriy muammolaridan biri hisoblanishi tabiiy. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yilning 16-martida e’lon qilingan “Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 144-sonli qarori ushbu mavzuning dolzarbligini yanda oshirdi. Mazkur qarorni qabul qilishdan maqsad “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish”[2]dan iborat ekanligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Ta’kidlash lozimki, bu o‘z vaqtida qabul qilingan, shuningdek, o‘zbek tili milliy nomlarini takomillashtirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Unda turli obyektlarga nom berish masalasi bilan bog‘liq vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, qarorda shunday deyiladi:

“Davlat tili qoida va me’yorlariga muvofiq keladigan, milliy qadriyatlarga mos hamda obyektlarga qo‘yish tavsiya etiladigan nomlar zaxirasini onlayn rejimida shakllantirish hamda uni doimiy yangilab borish;

“...nomlash, nom yaratish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlik qilish, ularga maslahat yordamlari ko‘rsatish.”

Aytish joizki, tilshunosligimizda nomlash texnologiyasi bo‘yicha, ayrim maqolalarni hisobga olmaganda [3] hali jiddiy tadqiqotlar yuzaga kelgan emas. Biz ushbu muxtasar maqolamizda o‘zbek tilidagi ayrim inglizcha o‘zlashma ergonimlar (tashkilot, korxona, muassasa nomlari) xususida o‘z mulohazalarimizni bildirmoqchimiz.

D.Lutfullayeva hamda M.Saparniyazova obyektlar nomlari xususida mulohaza yuritib, shunday yozadilar: “Har qanday ishlab chiqarish obyekti yoki mahsulot, uning brendi nomlanar ekan, unda milliy-madaniy qarashlar, tasavvurlar, psixologik omillar, ijtimoiy voqelik o‘z ifodasini topishi ma’lum. Neym (nom) orqali inson tafakkurida muayyan savdo mahsuloti, ishlab chiqarish obyekti, kompaniyalarga xos eng muhim jihatlar tasavvuri shakllanadi. Bunday tasavvurlar yig‘indisi inson ongida mahsulot, uning brendi yoki ishlab chiqarish obyekti obrazining shakllanishiga olib keladi. Albatta, muayyan mahsulot yoki ishlab chiqarish obyekti, savdo markalarining bu tarzdagi obrazi milliy-madaniy qarashlar, dunyoqarash, tasavvurlar, subyektiv munosabat bilan boyitilgan obraz hisoblanadi. Ishlab chiqarish, savdo-sotiq obyektlari, korxona, firma, mahsulotga nom yaratishga innovatsion yondashuv nomlarning informativlik jihatini, nutqiy ta’sir kuchini oshirishda, iste’molchi bilan aloqasini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi”[4.24].

Mamalakatimizda tadbirkorlik faoliyatiga doir amalga oshirilgan muhim islohotlar natijasida ko‘plab ishlab chiqarish korxonalari, maishiy savdo-sotiq, xizmat ko‘rsatish obyektlari shakllandi. Buning natijasida juda ko‘p nomlar ham paydo bo‘ldi. Ularni o‘z va o‘zlashgan qatlamga ko‘ra tahlil qilganimizda ayrim sohalarning, masalan, xususiy ta’lim tizimidagi muassasalar, ta’lim markazlarining nomlari aksariyat xorijiy nomlardan iborat ekanligi ayon bo‘ldi. Masalan, **“Audit forward”** o‘quv markazi nomi (Toshkent) inglizcha *audit* (moliyaviy hisobot taftishi) va *forward* (*olg‘a; ilg‘or, kelajakka doir*) so‘zlari birikuvidan hosil qilingan. *Audit* so‘zining yana bir ma’nosi esa *ta’lim*ni anglatib, bunda o‘quvchi o‘z xohishi va qiziqishi asosida boradigan darslar yoki o‘quv kurslari nazarda tutiladi. Mazkur nom o‘zbek tilida *ilg‘or ta’lim* ma’nosini anglatadi. **Uni o‘zbek**

tilida Ilg‘or ta’lim shaklida ifodalash mumkin. Bu har jihatdan nomlash texnologiyasi tamoyillariga muvofiq keladi.

“Bright future education” nomli o‘quv markazi (Toshkent) ham inglizcha nom hisoblanadi. O‘zbek tilida “yorqin kelajak ta’limi” ma’nosini anglatadi. Ushbu nomni o‘z tilimizda ifodalash imkoni mavjud, albatta. Uni “**Istiqbolli ta’lim**” tarzida shakllantirish mumkin. Mazkur nom ham nomlash texnologiyasining milliylik tamoyillariga mos.

“Profi edication” o‘quv markazi nomi (Toshkent) inglizcha *profi* **(***professional)* so‘zining qisqartilirilgan ko‘rinishi) hamda *edication* **(***ta’lim***)** so‘zlari birikuvidan hosil bo‘lgan. Uni o‘zbek tiliga ***Yuqori malakali ta’lim*** shaklida tarjima qilish mumkin. Nomlashning milliylik tamoyiliga mos ravishda o‘quv markazini **Professional ta’lim** deb atash maqsadga muvofiq.

“Siti kids stady” o‘quv markazi (Toshkent) “Bolalar ta’limi shaharchasi” ma’nosini anglatadi. Mazkur nomdan ko‘zlangan maqsadni o‘zbek tilida turli variantlarda shakllantirish mumkin: Bolalar ta’limi, Ilm makoni, Ta’lim shaharchasi kabi.

Hozirgi vaqtda *ta’lim markazi* birikmasi o‘rnida asossiz ravishda inglizcha *edication senter birikmasi qo‘llanmoqda. Masalan:* **Dilbar *edication senter* (Dilbar o‘quv markazi).**

Umuman, aytish lozimki, obyektlarga nom berishda chet el so‘zlariga ruju qo‘yilayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Bu, nazarimizda, nom beruvchilarning nomlash texnologiyasi tamoyillaridan yetarli darajada xabardor emasliklaridan dalolat beradi. Shu bilan birga mazkur holat nom beruvchilarning psixologiyasi bilan ham bog‘liq: obyektni xorijiy so‘z bilan nomlash uning samarali reklamasiga xizmat qiladi, degan qarash, afsuski, turg‘unlashib bormoqda. Ta’lim markazlarini xorijiy tilda nomlash yoshlarimiz ongida ham mana shu qarashning shakllanishiga olib keladi. Bu esa ona tilimiz imkoniyatlariga bepisandlik bilan munosabatda bo‘lishdek salbiy oqibatni keltirib chiquvchi omillardan biridir.

Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o‘z milliy manfaatini ta’minlash, bu borada avvalo

o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”[1]. **Shunday ekan, turli tashkilot, muassasa va korxonalar nomlariga ham jiddiy yondashmog‘imiz lozim. Bu milliy brendlarimiz takomilida muhim ahamiyat kasb etadi.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони// www.lex.uz

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Савдо, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш объектларига ном беришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 144-сонли қарори.Тошкент, 2021 йил 16 март. // www.lex.uz

3. Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Ўзбек тилида ном яратишнинг лингвистик асослари.// Илм сарчашмалари. – Урганч, 2019. – №11. – Б.54-57; Shu mualliflar. Нейминг технологияси: тилда неймларнинг яратилиши //«O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Тошкент, 2019-yil 29-oktabr. –Б.36-38; Лутфуллаева Д. Нейминг лингвистикасининг назарий масалалари.// Таълимда «Устоз – шогирд» тизими – сифат ва самарадорлик кафолати. Республика илмий-амалий онлайн конференцияси материаллари. – Навоий, НавДПИ, 2020. – Б. 281-283.

4.Lutfullayeva D.E., Saparniyazova M. Neyming texnologiyasi: neymlarning informativlik, kommunikativ natijaviylik va nutqiy ta’sir ko‘rsatish funksiyasi.//«O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent , 2020-yil 19-20-oktyabr. – 24-28.

ONA TILI DARSLIKLARIDA O‘QUVCHILARNING LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRISHGA SAMARALI YONDASHILMOQDA

Ra’no Xayrullayeva,
Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada ona tili darsliklarida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, nutqini o‘stirish hamda savodxonligini shakllantirishga qaratilgan samarali yondashuvlar haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: darslik, axloqiy tarbiya, o‘quvchi nutqi, lug‘at boyligi, nutq madaniyati, mumtoz asar tili, mumtoz matn, aruz vazni qoidalari, mantiqiy fikr, obrazli fikr, mumtoz so‘z, ma’rifat, ma’naviyat, qadriyat.

Maktabda ona tili darslari o‘quvchilar fikrini va nutqini o‘stirish, axloqiy tarbiyani amalga oshirish, hamda o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlari bilan boshqa o‘quv predmetlari orasida alohida o‘rin tutadi. Ona tili darslari jarayonida o‘quvchilarning ona tili malakalari takomillashib, to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qish, ona tili, badiiy asar g‘oyasini tushunish qobiliyatlari o‘sib boradi.

Bugungi kunda maktab o‘quvchilari o‘qib-o‘rganishlari uchun mo‘ljallangan maktab darsliklari ham o‘quvchilarni kelajakda yetuk shaxslar bo‘lib yetishishlarida yetarlicha bilim berishga mo‘ljallangan. Jumladan, darsliklarni tuzishda o‘quvchilarning dunyoqarashi, fikrlash doirasini kengaytirish hamda ularning lug‘at boyligini oshirishdek maqsadlar ruhida yondashilgan.

Fikrimiz dalili sifatida esa 5-sinf uchun ona tili darsligi N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Safarov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopovlar hammuallifligidagi hamda M.Qodirov, H.Ne’matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev hammuallifligidagi 8-sinflar uchun ona tili darsligi kitoblarini keltirishimiz mumkin. Bulardan tashqari boshqa darsliklar ham ona tilimizning sir-asrorlari haqidagi bilimlarni oshirish uchun xizmat qilib kelmoqda.

Ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash o‘quvchilar nutqini o‘stirishga, lug‘at boyligini oshirishga, savodxonligini shakllantirishga, nutq ma’daniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda birinchi sinfdan boshlanadi va butun o‘quv jarayonida davom ettiriladi.

O‘quvchilarning o‘rganilishi ko‘zda tutilgan bilimni egallashlarida ularni amaliyotda qo‘llashlarida tilning lug‘at boyligini o‘zlashtirishlari va uni o‘z mulklariga aylantirishlari muhim sanaladi.

Shunday ekan, 5-sinf uchun darslik o‘quvchiga murojaat bilan boshlanadi. Dasturga muvofiq tarzda ona tili haqidagi boshlang‘ich umumiy tushunchalarni shakllantirish uchu mo‘ljallangan nazariy lavha bilan boshlangan. Darslikning kirish qismida tilning ijtimoiy ahamiyati topshiriq sifatida To‘ra Sulaymonning fikrlari bilan yoritilgan.

Darslik bolalarning yosh xususiyatlari bilan, qiziqishlari, adabiy tayyorgarlik darajalarini e’tiborga olgan holda bir necha ruknlarga bo‘lib mavzulashtirilgan. Har bir mavzularda matnlar mavjud bo‘lib o‘quvchilar ushbu matn mazmuni va lug‘atlar haqida fikr-mulohaza yuritish imkoniga ham ega. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar matn va lug‘at ustida ishlash jarayonida so‘zning ma’nosini tushinib, anglab oladilar.

M.Qodirov, H.Ne’matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev hammuallifligidagi 8-sinflar uchun ona tili darsligida esa maktab o‘quvchilarining mumtoz adabiyot namoyondalari asarlarini chuqur anglashlari, o‘zlashtirishlari, o‘z ta’sir imkoniyatlarini kengaytirishlari uchun tug‘iladigan ehtiyojlarni qondirish talqinida tuzilgan. O‘quvchilarning mumtoz matnlardagi so‘zlarni izohlay olish qobiliyatini shakllantirish, oshirish, takomillashtirish, o‘quvchining mumtoz lug‘atlarni izohlay olish qobiliyati kengayishi, mumtoz adabiyot namoyondalari asarlarining purma’no salohiyatini anglashiga zamin bo‘la oladi. Ushbu darslikda mumtoz matn va lug‘at bilan ishlashda Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridan “Talab vodiysi” matni berilgan. Unda matnni aruz vazni qoidalariga mos holda ifodali o‘qish, matndagi ajratilgan so‘z ma’nosini aniqlash va izohlash talab etiladi. So‘ngra har bir band mazmunini nasriy bayon qilishga tayyorlanish

topshiriladi. Talab vodiysi haqida xulosa chiqarish va xulosani sinfda muhokama qilish, matn yuzasidan yangi so‘zlar ma’nosini sharhlash, sinfda mumtoz matndan eng ko‘p so‘zni izohlay olgan o‘quvchi va guruhni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu topshiriqlar ustida ishlash uchun lug‘atlardan foydalanish, matnni she’riy va nasriy bayon qilish o‘quvchilarga topshiriladi.

Matndagi ajratilgan so‘zlar ma’nosini aniqlashda “Alisher Navoiy asarlari uchun qissqacha lug‘at” hamda Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarining nasriy bayoni manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa darsda mumtoz matnlarni o‘rganishni osonlashtiradi. O‘quvchilarning qiziqishini oshirib fikrlashga, izlanuvchanlikka undaydi.

To‘g‘ri mumtoz asarlar tili bugungi o‘quvchilar uchun ancha murakkablik qiladi, ko‘pchilik o‘qituvchilar ham bu borada qiynalishlari sir emas. Ammo, bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni mumtoz matnlardagi so‘zlarni izohlay olish qobiliyatini shakllantirish, oshirish, takomillashtirish o‘quvchining mumtoz lug‘atlarni izohlay olish qobiliyati kengayishi, mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarining purma’no salohiyatini anglashga zamin bo‘la oladi.

Jumladan, shuni ham ilova qilish mumkinki, filologiya fanlari doktori, professor B.Menliyev ta’biri bilan aytganda, bu sinfda ona tili darslari “Ona tili. Mumtoz so‘z” deya nomlanib, o‘quvchilar mumtoz matnlar mazmunini o‘rganishlari, ma’no “mag‘iz” larini chaqishlari zarur hisoblanadi. Bu esa quyidagi jihatlar bilan e’tiborga molik bo‘ladi: birinchidan, o‘quvchilar mumtoz adabiyotga ongli ravishda oshno bo‘ladilar; ikkinchidan, ularning so‘z xazinasi, jumladan, nutqi muttasil boyib boradi; uchinchidan, o‘quvchilarning savodxonligi avtomatik ravishda oshib boradi; to‘rtinchidan, mumtoz so‘zlar ma’nosidagi ma’rifat, ma’naviyat, qadriyatarimiz avlodlar ongiga singib boradi; beshinchidan, o‘quvchilarimizda mantiqiy, obrazli, assotsiativ fikrlash tafakkuri yukalib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh. Safarov, Sh.Toshmirzayeva, D. Mannopov Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf uchun darslik.- T.:G‘afur

G‘ulom nomidagi NMIU, 2020.

2. M.Qodirov, H.Ne’matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf uchun darslik.- T.:Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2020.

3. B.To‘qliyev, Sh.Yusupova, T.Ziyodova, O.Oxunjonova, D.Jumashev. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent, 2012

4. Til va adabiyot jurnali. 2021-yil 2-son

NAZARIYADAN AMALIYOTGA

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
magistranti

Yaqin yillarga qadar ona tili ta’limiga faqat nazariy jihatdan qaralar edi. Fanda asosiy e’tibor faqat grammatik qonun-qoidalarni yod olishga qaratilgan, nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun bir nechta mashq va topshiriqlar berilar edi. Bu esa fanni amaliyotdan uzib qo‘ygandi. Vaholanki, ona tili fani ham xuddi fizika, kimyo fanlari singari tabiiy va amaliy ahamiyatga ega. Ona tili darslarida o‘z ona tilimizda fikrni aniq va ifodali tuza olish, uni tinglovchiga tushunarli tarzda yetkazib bera olish bilan bog‘liq masalalar o‘rganilishi bugungi kunda fan oldiga qo‘yilgan muhim masalalardan biridir. Bu borada so‘nggi yillarda darslik yaratish va uni keng o‘quvchilar ommasiga havola etish yuzasidan sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Fikrimizning isboti sifatida, darsliklarga o‘quvchi uchun foydali bo‘lgan ma’lumotlarning kiritilishi, ularni qiziqtira oladigan zamonaviy mavzudagi matnlar ko‘lamining ortgani, mashq va topshiriqlardagi shartlarning bir xillikdan voz kechib, turli shakllarda berilayotganini keltirish mumkin. Sohada olib borilayotgan yangilanishlarga qaramay, hamon darslikda ayrim chalkashliklarning mavjudligi kishi ko‘nglini xira qiladi.

Darsliklar silsilasidagi ayrim o‘zgarishlar o‘quvchilarni, hatto o‘qituvchilarni

ham chalg‘itishi bor gap. Darsliklarda berilayotgan ayrim ma’lumotlar bir-biriga mutlaqo zid. Masalan, 8-sinf ona tili darsligida gaplar ifoda maqsadiga ko‘ra darak gap, so‘roq gap, buyruq gap va istak gap turlariga ajratilgan. Xuddi shu ma’lumot 10-sinf ona tili darsligida darak, so‘roq va buyruq gap tarzida uchraydi. “Bu turlarning barchasi kuchli his-hayajon, emotsionallikka ham ega bo‘lishi mumkin, bunday holatlarda ular undov gaplar ham deyiladi”[1], -deya izoh beriladi darslikda. Yuqoridagi ma’lumotlarga tayangan holda o‘quvchi 8-sinfda gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini 4 ta, 10-sinfda esa 3 ta deb o‘rganadi. Bu esa o‘quvchining haqli e’tiroziga sabab bo‘ladi.

Darsliklarda takrorlar ko‘p. Masalan, urg‘u mavzusi 5-sinf, 8-sinf va 11-sinf darsliklarida uchraydi. Barchasida urg‘uning ahamiyati haqida so‘z boradi. Uning ikki turi: so‘z va gap urg‘usi farqlanib, ulardan nutqda to‘g‘ri va maqsadli foydalana olish yo‘llari o‘rgatiladi.

Matn va uning turlariga ham ikki darslikda turlicha yondashuv mavjud. 6-sinf ona tili darsligida matnning turlari uchta: hikoya matni, tasviriy matn va muhokama matni turlariga bo‘linsa, 8-sinf darsligida matn ikki turga: ma’lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matnlarga bo‘linadi.

Fan dasturida berilgan nazorat ishi turlariga ham alohida ahamiyat berish lozim. Nazorat ishlarining hajmini oshirish orqali o‘quvchilarning mavzularni qay darajada o‘zlashtirayotganini bilib olish, og‘zaki va yozma nutqi ustida ko‘proq ishlashimiz mumkin. Chunki ayrim o‘quvchilarning xotirasi barqaror emas. Ular mavzuni dars jarayonida tushunishlari va uni amalda o‘qituvchi yordamida qo‘llashlari mumkin. Lekin mustaqil qo‘llash ko‘nikmasi to‘la shakllanmagan bo‘ladi. O‘quvchi o‘rgangan bilimini qancha ko‘p qo‘llasa, shuncha undan foydalanish texnikasi ham ortib boradi. Birgina sinonim so‘zlarni olaylik. O‘quvchi bu mavzuda bir so‘zning kamida uch-to‘rtta ma’nodoshini bilib oladi. Lekin nutqda ulardan eng keng tarqalganinigina qo‘llaydi, xolos. Nutq vaziyatiga mos ravishda shu so‘zlarning boshqa variantlarini qo‘llash nutqni ta’sirchan qiladi, fikrni aniq va lo‘nda ifodalashga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning ko‘pchilik qismi ona tili fanidan berilgan test topshiriqlarini

darslik asosida konkret ma’lumotlarga tayangan holda hech qiynalmay yecha oladi. Lekin ijodiy bayon yoki insho yozishga to‘g‘ri kelsa, o‘quvchi bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. O‘quvchilarning juda ko‘pchiligida ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutqda aniq va maqsadli ifodalay olish, tinglovchiga og‘zaki va yozma nutq shakllarida to‘g‘ri va ravon yerkazib bera olish ko‘nikmalari hamon shakllanish bosqichida. Uni rivojlantirish va kompetensiya holiga keltirish esa, avvalo, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, so‘ngra darsliklar zimmasiga tushadi. Chunki o‘quvchi nafaqat ona tili yoki adabiyot darslarida, balki barcha fanlarda, maktabdan tashqarida ham, oilasida ham o‘z ichki his-tuyg‘ularini so‘z orqali ifoda etadi. Nutqning qanchalik ta’sirli va muvaffaqiyatli chiqishi so‘zlovchining lug‘at boyligiga, so‘z qo‘llash mahoratiga bog‘liq. Ona tili ta’limining asosiy maqsadi hozirgi kunda o‘z mustaqil fikri va so‘ziga ega bo‘lgan, ongi teran, nutqi ta’sirchan avlodni tarbiyalashdir.

Darslik yaratishda tilshunos olimlar psixologlar yordamidan foydalansa ijobiy natijalarga erishish imkoniyati sezilarli darajada oshgan bo‘lar edi. Chunki psixolog o‘quvchining yoshi va ruhiyati bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimi, yosh xususiyatidan kelib chiqib ular uchun qiziq bo‘lgan mavzular, mashg‘ulotlar haqida yetarlicha va atroflicha ma’lumotga ega. Bu esa darslikni yanada qiziq va o‘quvchi uchun qadrli bo‘lishini ta’minlaydi.

Darsliklar sifatini yaxshilash faqat uning dizayni ustida emas, balki mavzu mundarijasini ham tubdan isloh qilishni taqozo etadi. So‘nggi yillarda darsliklar yaratishda muhim o‘zgarishlar ko‘zga tashlanayotgani quvonarli hol. Bu borada tinmay izlanayotgan tilshunos olimlarimizga chuqur minnatdorchilik bildirgan holda, ularga amaliyotchi o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilishni taklif etgan bo‘lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir N.U, 2017.

2. Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. –T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019.

3. Mahmudov N., Sobirov A., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

4. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S., Mannopova D. Ona tili. Umumiy o`rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. –T.: O`qituvchi NMIU, 2020.

5. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

6. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. –T.: O‘qituvchi NMIU, 2020.

TASVIRIY IFODA VA UNING LINGVISTIK TAHLILI

Turg‘unpo‘latov Diyorbek Ro‘zmamat o‘g‘li,
Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada tasviriy ifodaning barcha xususiyatlari haqida ma’lumotlar berishga harakat qilingan. Uning ma’no nozikliklari to‘laligicha badiiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tasviriy ifoda, lingvistik xususiyat, o‘xshatish, metafora, ijtimoiy holat, nutqiy zaruriyat, birikma, ikkinchi nom, ma’nodoshlar qatori.

Ma’lumki, quyi sinflarda tasviriy ifoda, uning nutqda qo‘llanilishiga o‘quvchilar turli xil sharoitlarda duch kelgan bo‘lsalar-da, uning ahamiyati, hayotiy zaruriyat ekanligi, ijtimoiy ahamiyat kasb etishi, nutq ko‘rki ekanligi haqida tushunchaga ega emaslar.

Tasviriy ifoda – shaxs-narsa, voqea-hodisa nomining bo‘yoqdor muqobili bo‘lgan ikki yoki undan ortiq so‘zning birikuvidan hosil bo‘lgan birikma. U o‘zi tavsiflayotgan narsani tasvirlash yo‘li bilan bildiradi.

Zangori olov - *gaz alangasi*

Qanotli do‘stlar - *qushlar*

Mo‘yqalam sohiblari - *rassomlar*

Dala malikasi - *makkajo‘xori*

Charm qo‘lqop ustasi - *bokschi*

Tasviriy ifoda voqea-hodisa, shaxs-narsalarning ikkinchi nomi bo‘lgani uchun o‘ziga xos ma’no nozikliklarini yuzaga keltiradi. Ikkinchi nomni topish jarayoni o‘quvchi yoshlarda chuqur mushohada qilish ko‘nikmasini hosil qiladi, teran o‘yga toldiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. “Dala malikasi” degan tasviriy ifodada nimani tushunamiz? Dalada ham malika bo‘ladimi? Malika bo‘lsa, unda u kim?

Hammamizga ma’lumki, dala, ekin paykallarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiriladi: kartoshka, piyoz, qovun, tarvuz, loviya, mosh, sholg’om ... Bularning ichida o‘zining momiq tukchalari bilan mashhur makkajo‘xori o‘simligi bor (uning malikalarga o‘xshatib bunday nom berilishiga asosiy sabab: makkajo‘xorining uch qismida momiq tukchalarning bo‘lishi va bu uzun tukchalarning sochga nisbat berilishidir).

Tasviriy ifodaning tub mazmun-mohiyati ham metafora (o‘xshatish) asosiga quriladi. Yuqorida keltirilgan tasviriy ifoda ham go‘zal o‘xshatish bilan qiyoslangan. O‘z navbatida, ma’no nozikliklarini keltirib chiqarganiga guvoh bo‘lamiz.

Tasviriy ifoda nechta so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat bo‘lishidan qat’iy nazar, ma’nosi bir so‘zga teng bo‘ladi. Lekin bo‘yoqdorligi va uslub jihatdan farqlanadi.

Tasviriy ifoda uslubiy jihatdan chegaralangan bo‘ladi. Badiiy, ko‘proq publitsistikaga xos. Boshqa uslublarda qo‘llash noo‘rinlikka, umuman olganda, g‘alizlikka olib keladi. Rasmiy uslubda foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Ilm kaliti - *kitob*

Xalq oqsoqoli - *Prezident*

Kunchiqar davlat - *Yaponiya*

Oq oltin tog‘lari - *paxta uyumlari*

Yashil boylik - *o‘rmon*

Po‘lat ot - *traktor*

Islom markazi - *Saudiya Arabistoni*

Po‘lat etak - *bunker*

Kumush choyshab - *qor*

Samo lochini - *samolyot*

Dunyo tomi - *Pomir*

Yomg’ir mamlakati - *Angliya*

Qora qit’a - *Afrika*

Kumush tola - *pilla*

Ekinning qoni - *suv*

Yashil vodiy - *Farg‘ona*

Tasviriy ifodalarda ham shakldoshlik xususiyati mavjud :

- **Aql gimnastikasi** - shaxmat va matematika;
- **Asr vabosi -** OITS (Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi) va giyohvandlik;
- **Qora oltin** - neft va ko‘mir.

Zangori ekran, oynayi jahon so‘zlari - televizor; otalar so‘zi, hikmatli so‘z, so‘z ko‘rki - maqol; po‘lat ot chavandozlari, zangori kema kapitanlari so‘zlari mexanik-haydovchilar so‘ziga teng keladi va ma’nodoshlar qatorini hosil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy ifoda nutqda juda katta vazifani bajaradi. Nutqni ko‘rkam va jozibali qiladi. Bir so‘zni qaytaraverishdan, buning ortidan keladigan g‘alizlikdan saqlaydi. Tasviriy ifodaning asl tub mohiyatini tushunib borgani sari ma’no nozikliklarini, betakror jozibasini anglab borilaveradi.

Tasviriy ifodaning mohiyati, uning nutqiy zaruriyat ekanligini o‘rganish tilshunoslik fanining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 A. Qodiriy nomidagi Jizzaz davlat pedagogika instituti. Tasviriy ifodalarni o‘qitish metodikasi. 2020.

2. Erkaboyeva, N. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. “Yosh kuch” - Toshkent, 2021. A. Qodiriy nomidagi Jizzaz davlat pedagogika instituti. Tasviriy ifodalarni o‘qitish metodikasi. 2020.

3. Turg‘unpo‘latov, D.R. (2021). Bugungi yangilanayotgan ta’lim tizimida klaster tushunchasi. Студенческий вестник, 23(168).

4. Turg‘unpo‘latov, D.R (2021). Xalq maqollarida uchraydigan qarama-qarshilik xususiyatining o‘ziga xos poetik tamoyillari. Scientific progress, 2(1).

IMLO QOIDALARI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

Yorbulova Dildora
Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

Yozuv deb tilning matn orqali ifodalanishiga aytiladi. U kishilik jamiyati o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. U insoniyatning muhim madaniy yutuqlaridan biridir. Yozuv bu nutqni mustahkamlash uchun sun’iy ravishda yaratilgan tizim bo‘lib, u grafik elementlardan foydalanib nutqni uzatish va tuzatish imkonini beradi. Bir so‘z bilan aytganda, yozuv - fikriy tajribamizni yozma mahsuli sanaladi. Yozuvni qay darajada qog‘ozga tushirish shuningdek, uni o‘z ta’sir doirasidagi tartib-qoidalar asosida shakllanishi imlodir.

O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari 1995-yil 24-avgustdagi 339-sonli qaror bilan mustahkamlab qo‘yildi. Hatto ularning birida quyidagicha ta’rif uchraydi: “Respublika vazirlik idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.” Guvohi bo‘lganimizdek, imlo qoidalari qonun doirasida ham izohlangan.

Yurtboshimiz tomonidan kitob mutolaasi, kitobxonlik targ‘iboti bo‘yicha qabul qilingan qarorlar bizni barkamollikka chorlashini yaxshi bilamiz. Qancha ko‘p kitob o‘qisak, jamiyatga, nafaqat jamiyatga balki butun bir dunyoga o‘z

nigohimizda mukammal boqamiz. Bu hodisa o‘z - o‘zidan imloga taqaladi. Nega deysizmi? Chunki badiiy, shuningdek ilmiy kitoblarda so‘zlar tartib - qoida asosida yoziladi. Uni o‘qiganimizda esa unga amal qilishga majburmiz, negaki o‘zimiz xohlamagan tarzda so‘zlar ko‘z tasvir xotirasida gavdalanadi. Ya’ni so‘zlarni xotiramizga tayanib imlo asosida yozamiz. Demak, imlo qoidalari har jihatdan, ham ijtimoiy, ham ma’naviy jihatdan o‘zlashadi va mustahkamlanadi.

Imlo arabcha, ”to‘g‘ri yozish” degan ma’noni anglatadi. Bu o‘z navbatida orfografiya termini asosida izohlanadi. So‘z qismlari va gaplarning turli vositalar yordamida to‘g‘ri yozilish qoidalar majmui orfografiyadir. Bu qoidalar o‘z navbatida bo‘g‘in ko‘chirish, qo‘shib yozish, bosh harflar imlosi, ajratib yozish, asos va qo‘shimchalar imlosi kabi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. Demak, har bir bo‘limda o‘zgacha uslubda tartib va tasnif bor.

Bu tasniflardan esa hozirgi kunga kelib samarali foydalana olmaslik, zamonamiz ma’naviy hayotidagi ulkan xatolardan biridir. Bu masala xalqimiz ijtimoiy hayotida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Imlo, to‘g‘ri va tartib bilan yozish ekanligini bot-bot takrorladik. Amal qilish joyiga kelsak, ancha oqsash bor. Oddiygina misol qilib, hammaga tanish va yaqqol namoyon bo‘layotgan reklama qog‘ozlari, e’lonlar, ommaviy axborot vositalaridagi xatoliklar dilni xira qiladi. Biz o‘z qarash maydonimiz doirasida bunday xatolarni tegishli ravishda quyidagicha ifodalash mumkin.

1. Bizga, ya’ni chin ma’nodagi o‘zbek xalq hayotiga tashlanayotgan bunday qo‘shtirnoq ichidagi to‘g‘ri e’lonlar – u, reklama qog‘ozlarining krill alifbosida ifodalanishi.

Ostonadan bir qadam tashqariga chiqing, uzoqqa emas, yaqin atrofdagi do‘kon, ko‘cha bozorlari, ijtimoiy ehtiyojlarni qo‘llab - quvvatlovchi maskanlar, jumladan sog‘liqni saqlash, huquq-tartibot binolariga ilingan afishalarga e’tibor qaratsangiz xatolar ko‘zga tashlanadi. Bular o‘z doirasida krill alifbosida “qoyillatib” yozib qo‘yilgan nomlar. Istiqomat qilayotgan hududimiz O‘zbekiston, tilimiz lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tili. Xo‘sh, nima turtki bo‘lyapti, krill yozuvini ko‘klarga ko‘tarishga? Agar biz buni lotin yozuvini ko‘pchilik bilmaydi,

ularga krill yozuvi qulay va oson deb izohlasak, jamiyatimizga noto‘g‘ri baho bergan bo‘lamiz. Mayli, krill yozuvida o‘qigan yurtdoshlarimizga ko‘zimizni yumsak, yoshlarchi? Biz ularni bu xatolarni qilmasliklari uchun harakat qilmog‘imiz darkor. Yaqinda bir e’loniga ko‘zim tushdi. Quyidagicha yozilgan edi: ”ШОЩИЛИНЧ ЭР СОТИЛАДИ .” Aslida, bu so‘zlarini krill yozuvida ifodalashni o‘zi xato. Yana bir holatga nazar tashlasak, yer (joy, tomorqa) so‘zi “ep” tarzda ifodalangan. Keling, ko‘pchilikning nigohi bilan qaraymiz, demak “er sotiladi.” Nima biz imlomizni ustidan kulishga majburmizmi? Bunaqangi xatolarni yo‘qotishga qaratilgan chora-tadbirlardan biri krill yozuvini, yozuv doiramizda qo‘llamaslik bo‘ladi.

2. Bu xatolik turini “qorishma” xatolik turi deb aytsak, yanglish bo‘lmaydi. Yoinki, bir fikrni, jumlani ifodalanishida yarim chet el so‘zlari, yana bir qismini o‘zbekcha so‘zlar qo‘llanishi. Agar o‘zbek tilini mukammal tarzda bilsak, bu kabi ommaning nigohi qaratilgan holatlarda boshqa tilni qo‘shmas edik. Misol uchun, ”Europe oshhonasi” keling izohlaymiz, birinchidan, ingliz tilidan o‘zlashgan so‘z to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zbek tilidagi so‘z bilan birgalikda ya’ni “qorishma” uslubda bitta birikmani ifodalayapti. Ikkinchidan, oshhona so‘zining ikkinchi bo‘g‘ini bo‘g‘iz undoshi emas, chuqur til orqa undoshi (x) bilan ifodalanishi kerak. Ko‘rinib turibdiki, bunday xatoliklar imloga putur yetkazadi.

3. O‘zbek tilidagi so‘zlarining ko‘p hollarda xato yozilishi. Yuqoridagi kabi e’lon va reklamalarga e’tiborimizni qaratamiz. Misol uchun “Baht” to‘yxonasi, axboratnoma va e’lonlar deb yozilgan peshtaxta, hatto Toshkent shahri bannerlardan biriga “Choqonni zabt etgan” deb yozib qo‘yibdi. O‘z-o‘zidan bunday sayqallanmagan so‘zlar jamiyatimiz ma’naviy hayotiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Imlo haqida gap ketganda, bizni kim ekanligimizni tasdiqlovchi ism-sharifimizning xato yozilishi e’tiborga molik. Bizning ismimiz hayotda beriladigan ulug‘ ma’naviy ne’matlardan biridir. O‘zbekona har bir ism zamirida olam-olam ma’no mujassam. Yaqin o‘tmish tariximizga nazar tashlasak, bu ismlarning xato yozilishi va noto‘g‘ri talqin etilishini guvohi bo‘lamiz. Bunga

bir qatoq misol keltirish mumkin, Oyniso, hozirgi kunga kelib Aynisa shaklida yoziladi. Bu kabi ismlar ko‘plab uchraydi, Ahmad (Ahmed), Raim (Rayim yoki Rahim), Zuhra (Zuxra), Bahouddin (Baxovuddin) yoki familiyalardan Djo‘rayev (Jurayev), familiyalarimizga ham e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Muratov va Yorbulova . Aslida, Muratov Murodov shaklida, Yorbulova Yorqulova shaklida yozilishi kerak. Negaki, Murat yoki Yorbul degan ismning o‘zi yo‘q, balki Yorqul va Murod degan ismlar mavjud . Ko‘rinib turibdiki, familiyalarning to‘g‘ri yozilishi ismlar imlosiga borib taqaladi. Bu kabi xunuk holatlarni kimning aybi deb izohlaymiz? Dunyoga kelganimizda tug‘ilganlik guvohnomasini bergan mutasaddilarning befarqligimi yoki imloviy savodxonligi past ekanligi bilanmi? Yoki yurtimizda imloviy savodxonlikning kerakli darajada tatbiq etilmaganligidanmi?

Bilamizki, aslida avval og‘zaki nuqt shakllangan, keyin esa sekin-sekin yozma nutqqa aylangan. Yozma jarayonni to‘g‘ri va aniq bir tartibda ifodalash uchun, og‘zaki nutqqa ham e’tibor qaratishimiz lozim. Abdulla Qahhor aytib o‘tgan: “Biz yo‘l qoidasini buzgan shaxsga jazo chorasini qo‘llaymiz, nega til qoidasini buzganlar uchun bunday jazo qo‘llaymiz”. Darhaqiqat, o‘z ona tilimizga hurmat - e’tiborni shuningdek, uning istiqboli uchun, avvalo, o‘zimiz jon chekishimiz darkor.

Aslini olganda imlo har bir xalqning saviyasini belgilab beradi. Shuning uchun bu masalaga panja orasidan qarab bo‘lmaydi. Har bir fuqaroning imlo me’yorlariga qay darajada amal qilishi, uning tiliga bo‘lgan hurmat - e’tiborini ko‘rsatib beradi. Bizning yagona maqsadimiz ham shundan iborat. Axir aytishganku, “Agarda sen yonmasang, agarda men yonmasam, agarda biz yonmasak, qayerdan chiqamiz yorug‘likka…” Shunday ekan, jamiyatda sodir bo‘layotgan bunday xato va kamchiliklarga ko‘z yumish haqiqatan ham bizning nazdimizda johillik bilan teng holat. Maqoladan xulosa shundaki, imlo qoidalariga to‘liq ravishda rioya qilishimiz maqsadga muvofiq. Shundagina biz ko‘zlagan maqsadimizga erishamiz. Boy tilimizni kelajak avlodga asl holicha yetkazishga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanmasi. 1-qism. – T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004.

2. Jamolxonov H.A. Grafika va orfografiya. Ma’ruzalar matni. –T: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 1999.

3. Mirtojiyev M.M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I jild. O‘zMU. - T., 2004.

4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2006. – 391 b.

5. O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. –T.: “FAN”, 1956.

6. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. –T.: “O‘qituvchi”, 1995.

7. O‘zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug‘ati. – T.: “Sharq”, 1999.

ФРАНЦУЗ ТИЛИДАГИ ИБОРАЛАРНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИГА ТАРЖИМА ҚИЛИШ МАСАЛАСИ ЮЗАСИДАН МУЛОҲАЗАЛАР

Аширова Маҳбуба
Ўзбекистон жисмоний тарбия ва спорт университети ўқитувчиси

Таржимашуносликда ифода этиш мураккаб бўлган масалалардан бири ибора масаласи ҳисобланади. Иборалар муайян бир халқнинг маданияти, тицнати, келиб чиқиши ҳамда фикрлаш тарзидан келиб чиққан ҳолда юзага келади. Халқнинг маданияти билан боғлиқ бўлган бу масала ўзга тиллар учун, айниқса, тил оиласи бошқа-бошқа бўлган, маданияти бир-биридан йироқ бўлган миллатлар орасида яққол сезилади.

Француз тилини ўрганувчилар учун мазкур тилдаги баъзи ибораларнинг изоҳини келтирамиз. Зеро, ҳар иккала тилда қўлланувчи ибораларнинг мазмун ва шаклий жиҳатдан тафовутларни кўришингиз мумкин. Француз тилида «un

coup de langue est pire qu'un coup de lance», яъни «til zarbasi nayza zarbidan qattiqroq» ибораси халқ ичида тез-тез учраб туради. Мазкур бирикмани ўзбек тилидаги иборалар билан қиёслар эканмиз ҳар икки халқ учун ҳам тил етказган жароҳат бирдек оғриқли эканлигининг гувоҳи бўламиз. Бу ибора ўзбек тилида: "тиғ яраси битади, тил яраси битмайди" каби ифода билан ишлатилади. Кўриниб турибдики, иккита ўзаро бошқа оилага мансуб бўлган миллатлар орасидаги тафаккур тарзининг ўхшаш жиҳатлари ибораларнинг мазмунан яқин бўлишига хизмат қилган. Ёхуд, бу каби мисолни "Tenir sa langue en bride" ибораси орқали ҳам кўришимиз мумкин, мазкур ибора сўзма сўз таржима қилинганда , "tilini bog'ichda tutmoq" ибораси ўзбек тилидаги айнан "тилини тиймоқ" иборасини ифода этади. Демак, бу ибора орқали ҳам биз ибораларни ўзаро муштарак жиҳатлари мавжудлигини длиллашимиз мумкин.

Аммо халқларнинг ўзига хос жиҳатлари, фақатгина шу миллатга хос бўлган тафаккур тарзи натижасида ҳам иборалар юзага келганлигини таъкидлаш мумкин. Масалан, Avoir un boeuf sur la langue – "Тил устида ҳўкиз бор" дея таржима қилинувчи мазкур иборанинг маъноси қадим юнон мақолларидан кўчирилган. Бунда "ҳўкиз тасвири туширилган танга" назарда тутилган бўлиб, метонимик маъно кўчиши орқали гўзал ибора ҳосил қилинади. Бу иборани ўзбек тилида бир қанча маънодошларини келтириш мумкин, хусусан, тилини тишламоқ, лом-мим демоқ, шунингдек, "Ўрага сичқон тушди гулдур-гуп", "Ёпиғлиқ қозон ёпиғлигигача қолсин" маъноларини ифода этади.

Шуни таъкидлаш жоизки, У ёки бу тилнинг фразеологик фонди шу тил вакилларининг мифологик, эмперик ва ҳиссий тасаввурлари, тарихий ҳодисалар ҳақида муҳим маълумотларни ифодалайди. Дарҳақиқат, фразеологизмлардаги образли миллий хусусиятлар ҳолатлар, ҳаракат-жараёнлар, ҳис-туйғуларни ҳам ифодалайди.

Фразеологизмлар семантикасидаги миллий хусусиятлар икки аспектда: а) синхрон йўналиш ва б) диахрон йўналишда ўрганилади. (Абдуллаев 2011: 9-11)

Фразеологизмларни синхрон йўналишда ўрганган В.Н.Телияниг фикрича, лировомаданий йўналиш тил ва маданиятнинг ўзаро алоқасини синхрон тарзда ўрганади ҳамда тавсифлайди (Телия, 1996, 217).

Рус тилшуноси В.А.Маслованинг фикрича, «мифлар асосида шаклланган фраземаларда этномаданий ахборотни кўриш ва тушуниш мумкин» (Маслова, 1997, 84). Таҳлил жараёнида синхрон ва диахрон йўналишларни бир-биридан фарқлаш асосли тадқиқот натижаларини олишга ёрдам беради. Бир тарафдан фраземаларнинг лингвомаданий таҳлили тарихий-этимологик таҳлилга ўхшаб кетади. Тарихий-этимологик таҳлилнинг мақсади маданий атамаларнинг номланиш сабаблари ва этимологик келиб чиқишини текширишдан иборат бўлса, лингвомаданий таҳлил эса ундан фарқли равишда нафақат фраземаларинг тарихий келиб чиқишини, балки уларнинг маданий макон билан ўзаро узвий алоқасини аниқлашга ёрдам беради.(Йўлдошев, Рашидова, Йўлдошева2016:29.) Масалан, Масалан, “à l’oeil droit de Philippe” фразеологизми семантикасида яширинган прагматик ахборот Македония шоҳи Филлипнинг ўнг кўзига пайкон отиб яродар қилган камончи Астернинг мерганлиги ҳақидаги тарихий ахборотни ифодалайди ва бугунги кунда “мўлжални аниқ урмоқ, моҳир мерган бўлмоқ” каби коннотатив ахюоротни ифодалайди. Табиийки бундай тарихий ахборотдан бехабар бўлган таржимон бу фразеологизмни “Филлипниг ўнг кўзига” дея таржима қилиши мумкин.

Бинобарин фразеологизмларни синхрон аспектда ўрганиб, диахрон аспектда таҳлил қилиш, лингвомаданий жиҳатдан фраземаларнинг шаклланиши, уларни идрок этиш жараёни осонлаштиради. Passer qn au fil de la langue- giybat qilmoq

Хулоса қилиб айтганда, бу каби ибораларнинг ўрганилиши икки халқнинг дунёқараши, тафаккури тийнатидаги ўзига хосликларни ифода этади. Бу халқлар тилини янада чуқурроқ англаш, бу орқали таржима асарларда мазмунни тўлиқ англаш ва ўзбек тилида мазмунни имкон қадар аниқ ифода этишга ёрдам беради.

2-SHO‘BA: ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

ДАДА АЛИАСҚАР – ОЗАРБАЙЖОН БАХШИЧИЛИК МАКТАБИНИНГ ЧЎҚҚИСИ

Алмаз УЛВИ БИННАТОВА,
филология фанлари доктори, профессор,
Озарбайжон Миллий Илмлар академияси
Низомий Ганжавий номидаги Адабиёт институти
“Озарбайжон-Туркманистон-Ўзбекистон адабий алоқалар»
бўлимининг мудираси.

Улуғ устоз Дада Алиасқар 1821 йилнинг айни Наврўз кунлари йирик Гўйча вилоятининг Оғкилса кентида таъби назм соҳиби Али Муҳаммад оиласида дунёга келган. Оилада туғилган илк фарзанд бўлгани учун ҳам Алиасқар ота-онасига бир олам нур, ёруғлик, севинч бағишлади. Кейинчалик Али Муҳаммад яна уч ўғил ва икки қиз кўради. Оиланинг тўнғичи Алиасқар ўзи туғилган кентда – Карбалойи Қурбон ёнида иш бошлайди. Мазкур иш унинг ҳаётида янги саҳифалар очди. У Карбалонинг ёлғиз қизи Саҳнабануга кўнгил қўяди. Йиллар ўтади, бироқ бу муҳаббат савдоси омадсиз кечади. Беш йиллик изтироблардан сўнгра Алиасқар надоматлар ичида отасининг ҳузурига қайтади.

Юқорида таъкидланганидек, Али Муҳаммаднинг ўзи ҳам шоиртабиат инсон бўлганлигидан Алиасқарнинг шоирлик қобилиятини эрта илғайди ва ўғлининг истеъдодини мукаммал даражада юзага чиқаришга саъй қилади. Алиасқарнинг юрак-юрагидан сизган дардли шеърлари илк эшитилгандаёқ ёд олиниб, жуда оз фурсатда қўлдан қўлга, овуллардан овулларга тарқалди. Отаси олиб берган соз эса Алиасқарнинг кўнглига ўтиради ҳам бармоқларига таслим бўлади.

Али Муҳаммад ўғлини ўша маҳалларда ном чиқарган Қизилвангли устоз Али бахшига шогирд қилиб берди. Алиаскар устага беш йил хизмат қилгач, устозининг розилиги билан мустақил равишда бахшичиликни бошлади. Устозидан алоҳида бўлганда Алиаскар бахши аллақачон соз-у сўз билимдони ўлароқ севилиб, танилиб улгурганди.

У замонларда Гўйчанинг хонадон ва овулларида, тўй-тантаналаридан ташқари бахшиларнинг айтишув йиғинлари, достонхонлик кечалари ҳам ўтказилган. Устозлар бундай йиғинларда бир-бирлари билан мусобақалашишган [15, с.258-270]. Нақллардан ёзилганларга кўра, Алиаскарнинг устози Али бахши ана шундай мажлислардан бирида ютқазган. Лекин устозининг қаватида сознинг сирли-сеҳрли дунёсига ошно бўлар экан, классик бахшичилик поэзиясини, чолғу асбобининг турфа нағмаларини ўрганар экан, маърифат, одоб-ахлоқ қоидаларига, муаллимга ҳурмат-иззат сабоқларини ҳам ўзига сингдирган эди. Буларни эслатишимдан мақсад шуки, Алиаскар устози Али бахшига ўзини тан олдириш учун қасддан мот қилмаган эди.

Аввало, бу айтишув устозларнинг айтишув йиғинида бахшиларнинг таклифи билан бўлган, иккинчидан эса, у ер-бу ерда тарқалган гап-сўзлар (гўё Алиаскар бахши Али бахшини ёқтирмас эмиш) Али бахшини даврага – баҳсга чиқишга ундаган.

Улар Гўйчанинг Қизилбулоқ кентида (кейинчалик 1988-йилгача Чахирли деб номланган қишлоқ) ташкил этилган бахшилар йиғилишида яна бақамти келадилар. Аллақанча шеърий айтишувдан кейин Алиаскар бахши «А ёға-ёға» дудоқтегмас тажниси□ни айтади. Устоз мағлуб бўлади, зотан, жавоби йўқ эди. Бироқ, Алиаскар бахши бу воқеадан ғурурланмайди, аксинча:

Bir şəyird ki, ustadına kəm baxar,

1. *Onun gözlərinə ağ damar, damar* [Aşıq Ələsgər. Əsərləri / tərt. ed.: Ə.Axundov, M.N.Təhmasib; red. H.Araslı; Azərbaycan 22 SSR EA Nizami adına Ədəbiyyat və Dil İnstitutu. – Bakı: Azər.SSR EA, 1963. – 488 səh.

2. Aşıq Ələsgər. Əsərləri / topl. Hümmət Əlizadə; red. S.Hüseyn. – Bakı: Azərnəş, 1935. – 233 s.

3. Aşıq Ələsgər. Əsərləri // Tərtib ed., ön sözün və qeydlərin müəl: İslam Ələsgər. – Bakı, "Şərq-Qərb", 2004. – 400 səh.

4. Aşıq Ələsgər. Əsərləri. 2 cilddə. C.1. / topl. İ.Ələsgərov; tərt.ed.:Ə. Axundov, M.Təhmasib; red. H.Araslı; AzSSR EA. Nizami ad.Ədəbiyyat İns. – Bakı: Elm, 1972. – 326 səh.

5. Aşıq Ələsgər. Əsərləri. 2 cilddə. C.2. / topl. İ.Ələsgərov; tərt.ed.:Ə. Axundov, M.Təhmasib; red. H.Araslı; AzSSR EA. Nizami ad.Ədəbiyyat İns. – Bakı: Elm, 1972. – 326 səh.

6. Aşıq Ələsgər. Seçilmiş əsərləri / tərt. ön söz və qeydlərin müəl. İ.Ələsgərov. – Bakı: Yazıçı, 1988, 182 səh.

7. Aşıq Ələsgər. Seçilmiş əsərləri. Şeirlər. – Bakı, Yazıçı, 1988. – 184 səh.

8. Aşıq Ələsgər. Şeirlər / topl. Hümmət Əlizadə. – Bakı: Azərnəşr.- 1934. – 183 səh.

9. Aşıq Ələsgər. Şeirlər / topl. və tərt. ed. İslam Ələsgərov; müq. O.Sarıvəlli. – Bakı: Azərnəşr, 1956, 200 səh.

10. Aşıq Ələsgər. Şeirlər. III çapı / topl. Hümmət Əlizadə. – Bakı: Azərnəşr, 1937. – 264 səh.

11. Aşıq Şəmşir. Səməd Vurğun və Aşıq Şəmşir dastanı. Dastan. – Bakı, "Elm və təhsil", 2014. – 160 səh.

12. Ələsgər, İslam. Haqq Aşığı Ələsgər (Monoqrafiya). – Bakı, Maarif, 1999. – 264 səh.

13. İsmayılov, H. Göyçə aşıq mühiti : təşəkkülü və inkişaf yolları: monoqrafiya /red. N. Q. Cəfərov ; AMEA Nizami adına Ədəbiyyat İnstitutu. – Bakı, Elm, 2002. – 404 səh.

14. İsmayılov, H.Göyçə aşıqları və el dastanları. II cild. – Bakı, Nurlan, 2010. – 594 səh.

15. Namazov, Q. Aşığın sazı və sözü // elmi red., M.Seyidov. – Bakı: Yazıçı, 1980. – 153 s.

16. Ülvi, Almaz. Müharibə ağrılarım. Sənədli publisistik düşüncələr, ədəbi qeydlər» - I kitab. – Bakı: Nurlan, 2005. – 546 səh.

АЛИШЕР НАВОИЙ ШЕЪРИЯТИДА ҲАЁТ ФАЛСАФАСИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ

Жабборов Нурбой,
филология фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети
Ўзбек адабиёти тарихи ва фольклор кафедраси мудири

Шахс камолотида тарбиянинг ўрни беқиёс экани аён. Кўҳна Шарқда тарбияга ҳаёт-мамот масаласи сифатида қаралгани боиси шу. Модомики авлодлар камоли тарбия билан чамбарчас боғлиқ экан, жамият тараққиётини ундан айри тасаввур этиб бўлмайди. Мутафаккир аждодларимиз шунинг учун ҳам бу масалага алоҳида эътибор қаратган. Уларнинг жаҳон бадиий тафаккури хазинасидан муносиб ўрин олган асарларида тарбиянинг шахс камолоти, эл равнақи, юрт истиқболида тутган ўрни юксак баҳоланган. Ҳазрат Алишер Навоийнинг “ҳам маъно, ҳам суратда баркамол, улуғ маърифий ва тарбиявий аҳамиятга эга бўлиш билан бирга бадиий жиҳатдан юксак даражадаги асарларида” [1.45] барча замонлар учун долзарб саналган бу муаммо, айниқса, оҳорли поэтик образ ва тимсоллар воситасида бетакрор бадиий талқин этилган.

Таъкидлаш керакки, тарбия мавзусининг поэтик ифодаси буюк мутафаккир фалсафий-ахлоқий концепциясининг асосини ташкил этади. Зеро, ҳазрат Навоий асарларида “...ишқий тематикадан ташқари, фалсафий-дидактик ва социал проблемалар ҳам муҳим мавқени эгаллайди, лирик қаҳрамон эса фақат ошиқ сифатида эмас, балки фалсафий, социал қиёфага эга бўлган мукаммал тип сифатида намоён бўлади” [2.22]. Навоийшунос Ё.Исҳоқовнинг бу фикрлари гарчи ғазалиёт мисолида айтилган бўлса ҳам, улуғ шоирнинг барча асарларига бирдай тегишлидир. Мана, буюк

мутафаккир “Ҳайрат ул-аброр” достонида муҳим ижтимоий муаммо ҳисобланган тарбиянинг аҳамиятини қандай васф этади:

Қатраға чун тарбият этти садаф,

Эл бошиға чиққуча топти шараф.

Халқимизда “Садафсиз дур бўлмас, тикансиз – гул”, деган нақл бор. Ушбу байтда қатранинг гавҳарга айланиши ва бошга қадалиш даражасига етиши садафнинг тарбияси туфайли экани бетакрор поэтик ифодасини топган. Садаф – устоз, қатра эса – шогирд тимсоли. Садафнинг тарбиятисиз қатра ҳеч қачон гавҳарга айланмайди. Яъни устоз таълимини олмаган шогирд камолга етмоғи маҳол. Фақат бунинг учун муайян муддат тақозо этилади. Гавҳарни қўлига олган ёки бошига қадаган одам унинг кўзни шунчалик қувонтирадиган, қимматбаҳо ашёга айланмоғи учун қандай жараёнларни бошдан кечиргани хусусида ўйлаб ҳам ўтирмайди одатда. Ҳаётда ҳам шундай. Комил инсонни кўрганда ҳамма ҳавас қилади. Лекин у ана шу даражага қандай машаққатлар билан, қай бир фидойи устозлар тарбияси эвазига эришгани ҳар доим ҳам мушоҳада этилавермайди. Буюк шоир бу образли тасвир орқали шахс тарбиясида устознинг хизмати беқиёс эканига урғу беради.

Қуёшдин тарбият гар топса хоро,

Қилур ёқут ила лаъл ошкоро.

Ёқут – турли рангда, лаъл эса, қизил тусда товланадиган қимматбаҳо маъдан. Хўш, улар кўзни қувонтирадиган, одамларга эстетик завқ уйғотадиган бу рангларни қаердан олади? Ҳазрат Навоийнинг фикрича, бу – уларнинг қуёшдан тарбият топгани самараси. Агар қуёшдан ранг олмаса эди, улар оддий тошлигича қолар, одамларнинг қизиқишига сабаб бўлолмас эди. Табиийки, бу ўринда ҳам улуғ мутафаккир ёқут ила лаъл ҳақида сўз юритар экан, байт замирига шахс камолоти хусусидаги теран фикрларини жойлаган. Яъни инсон камолотини белгиловчи асосий мезон – тарбия. Чинакам тарбиягина одамнинг имкониятларини оширади, жамиятга наф етказиш борасидаги салоҳиятини юксалтиради.

Буюк ижодкор тарбиянинг аҳамиятини ана шундай оҳорли талқин этиш баробарида ушбу фазилатларни тажассум этган бетакрор образлар яратди. Бу образлар, беш ярим асрдан ошяптики, авлодларга камолот сабоқларини бериб келади. Ҳазрат Алишер Навоий асарларида бадиий талқин этилган шахс тарбиясида муҳим саналган фазилатлардан айримлари таҳлилига мухтасар тўхталиб ўтишга ҳаракат қиламиз:

Ватанпарварлик. Буюк ижодкор қарашича, Ватанни севмоқ – комилликнинг, иймоннинг муҳим шарти. Бу ҳақдаги машҳур ҳадис мазмунини гўзал бадиий талқин этар экан, улуғ шоир авлодларга: “Ватан ҳубби иймон нишонидурур”, дея таълим беради. Шундай бўлгач, Ватанни ғанимлардан ҳимоя қилмоқ, зарур бўлса, бунинг учун курашмоқ ҳар бир фарзанд учун бурчдир. Бу ғоя “Садди Искандарий” достонида қуйидагича ифодаланган:

Иёлу ватан узра то жони бор,

Киши ҳарб этар токи имкони бор.

“Иёл” сўзига “Навоий асарлари луғати”да: “Хотин, бола-чақа; оила”, дея изоҳ берилган. Демак, улуғ бобокалонимиз фикрича, ватанпарварлик оила осойишталиги, Ватан тинчлиги учун бор имконни ишга солиб, жон борича курашмоқдир. Барча замонлар учун долзарб бундай фикрлар буюк ижодкор асарларида кўп учрайди. Мана, шундай фикрлардан яна бири:

Ватан таркини бир нафас айлама,

Яна ранжи ғурбат ҳавас айлама.

Ватандан айри тушмоқ – улкан фожиа. Ватанни тарк этмоқ ўзини машаққатлар гирдобига ташламоқ билан баробардир. Буни ҳазрат Навоий “ранжи ғурбатни ҳавас айлаш”, дея ифода этади. Тарих шоҳид, не-не тақдирлар гувоҳлик беради: инсон Ватандан йироқда ҳеч қачон бахтиёр бўла олмайди. “Ҳайрат ул-аброр”да шоир айни шу моҳиятни *“Ғурбат аро ҳоли ёмондин ёмон, Ҳар не йўқ андин ёмон, андин ёмон”*, дея талқин этгани бежиз эмас.

Ҳазрат Алишер Навоийнинг мана бу ўгити ҳам авлодлар учун алоҳида қимматга эга:

Мусофир бўл, аммо Ватан ичра бўл,

Тила хилвату анжуман ичра бўл.

Маълумки, бу байтда нақшбандийлик таълимотининг асоси бўлган “Сафар дар ватан”, “Хилват дар анжуман” рашҳалари моҳияти назмий талқин этилган. Академик Азиз Қаюмов мазкур тасаввуфий моҳиятни эътироф этган ҳолда, ушбу мисраларнинг яна икки маъноси борлигини айтади: “Биринчидан, умуман, ватан, унинг аҳамияти, ундан узилмаслик тўғрисидаги умумий хулосаларни баён қилади. Иккинчидан, Навоийнинг беҳуда юришлар, шуҳратпарастлик, ҳокимиятпарастлик мақсадида қилинадиган турли интилишларни қоралаши, ватанда нашъу намо қилиш афзаллигини таъкидлашидадир” [3.372]. Навоийшунос Ё.Исҳоқов фикрича: “Бу танбиҳда фақат “тила хилвату анжуман ичра бўл” ибораси ўзининг истилоҳий маъносида ишлатилган. “Мусофир бўл, аммо Ватан ичра бўл” мисраи тасаввуфий эмас, балки ҳаётий – оддий маъно (макон)да келади ва сафар иштиёқида ҳар доим ватанни, дўстларни тарк этабериш одати қораланади... Бу ўринда ватан тасаввуфий тор маъносида эмас, балки кенг ижтимоий маънода келган деган хулосани тамсил сифатида келтирилган ҳикоят тўлиқ тасдиқлайди” [4.68].

Бу фикрлар буюк шоир асарларида Ватанга муҳаббат туйғуси бетакрор бадиият ва теран фалсафий тафаккур уйғунлигида таъсирчан ифодаланганидан далолат беради.

Элпарварлик. Ўзи мансуб бўлган улуғ элга меҳр қўйиш, эл-улус бахтини ўз бахти, ғамини ўз ғами деб билиш шахс камолотининг муҳим шартларидандир. Комиллик тимсоли бўлган ҳазрат Навоий асарларида бу ғоя етакчи мавқеда туради. Зеро, буюк шоир бутун салоҳиятини юрт равнақи, миллат шаъни ва ор-номуси ҳимояси ҳамда давлат қудратини юксалтириш ишига сафарбар этди. Энг муҳими, шоир элпарварликка оид теран ахлоқий-эстетик қарашларини гўзал бадиий шаклда, кўнгилларга етиб борадиган, чуқур таъсир қиладиган тарзда ифода этди. Биргина мисол:

Эрур чун олам ичра жоҳ фоний, яхши от боқий,

Бас эл комин раво айла ўзунгни комрон кўргач.

Яъни мансаб-мартабаю мол-дунё – вақтинчалик, яхши ном эса абадий. Шундай бўлгач, ўзингни комрон кўрганингда, яъни баланд мавқега эришган чоғингда ўзгалар ҳожатини раво айламоқни одат қил – мана, улуғ донишманд нима демоқчи! Аслида, ҳақиқий элпарварлик ҳам шуни тақозо этади. Лекин одамзод ҳаёти бир текисда кечмайди. Ҳазрат Навоий ҳар доим ана шундай фикрлаган, мудом айни шу туйғуни ҳис этган десак, тўғри бўлмас. Ҳаёт деганлари анчайин мураккаб, зиддиятларга бой. Улуғ мутафаккир гарчи ҳаммага баравар яхшилик қилишни орзу этган, имкон қадар бунга эришган бўлса-да, аксар қилган яхшилиги эвазига ёмонлик кўрган. Табиийки, бундан изтироб чеккан, руҳан эзилган, қарама-қарши туйғулар гирдобида қолган. Мана бу мисралар ушбу фикрни тасдиқлайди:

Онча юзсизлик улустин кўрмишам, гар берса даст,

Истарамким, кўрмасам ҳаргиз бани одам юзин.

Ҳатто бир шеърида улуғ шоир “Парим бўлса учиб қочсам, улусдин то қанотим бор”, дейишгача боради. Лекин ҳазрат Навоийнинг буюклиги шундаки, оний кайфиятдаги бундай кечинмаларни ирода кучи, матонат қуввати билан енга билган; ҳаёт синовларига ҳикмат назари билан қарай олган. Айтишга осон, бунга эришмоқ ўз-ўзидан бўлмагани аён. Буюк мутафаккир зиддиятли кечинмалар гирдобидан чиқиш учун ҳикматни наинки топган, теран мазмун ва бетакрор бадиият уйғунлигида шеърга айлантирган:

Давр элида гар вафо йўқ, сен вафо қилғил, валек

Кимни хушҳол этсанг, андин тут ўзунгга юз малол.

Вафо кўрмаганинг ҳолда вафо қилмоқ осонми? Сендан кўп яхшиликлар кўриб, хурсандчиликдан неча бор кўзларида ўт чақнаган одамдан юз малол келса, буни қандай қабул қилиш керак? Бу саволларга жавоб бермоқ анчайин мушкул экани рост. Ҳазрат Алишер Навоий неча бор ана шундай қийин вазиятларга тушгани ҳолда “*Давр элида гар вафо йўқ, сен вафо қилғил*”, деган

тўхтамга келган. Таъкидлаш керак, фақат буюк сиймоларгина бундай хулоса чиқариши мумкин. Фақат улуғларгина ҳеч бир эвазсиз яхшилик қилмоққа қодир. Юрак ёлқини билан битилган мана бу сўзлар бунинг исботидир:

Улусқа ўт солур эрсанг мени бурун ўрта,

Нединки ўтни туташтурғоли керак хошок.

Элпарварликнинг бундан ҳам юксакроқ даражаси бўлиши мумкинми? Улусга фидойиликнинг мезони бўла оладиган бундай фикрга келиш учун элга муҳаббатнинг миқёси қанчалар баланд бўлиши керак ахир! Ҳазрат Навоий бу сўзларига ҳаётда ҳам тўлиқ амал қилгани маълум. Тарихчи Хондамир "Макорим ул-ахлоқ"да ёзишича, бу улуғ сиймо "...шафқат ва марҳамат одатларини ўзига шиор қилиб олган эди ва ҳамиша унинг меҳрибонлик ва илтифот қаноти олам аҳлларининг устига ёйилиб, дармондаларнинг куйган диллари унинг шафқат шарбати билан ором олар ва ситам кўрганларнинг кўксиларидаги жароҳат марҳамат малҳамлари билан тузаларди" [6.87]. Муаррих бунга кўплаб ҳаётий мисолларни келтиради. Жумладан, ҳазрат Навоийнинг ўз хусусий мулкини эл-юрт манфаати йўлида сарф этган, 60 дан ортиқ бино, 20 га яқин ҳовуз, 16 кўприк, 9 ҳаммом, 20 масжид ва бир қанча мадрасалар, хонақоҳлар барпо эттирган. Халқ устига солинган солиқларни аксар ўз маблағи ҳисобидан тўлаб юборган. Ул зотнинг саховати боис "Ихлосия" мадрасаси қаршисидаги "Халосия" хонақоҳида ҳар куни мингдан ортиқ заифалар ва мискинлар зиёфат қилиниб, лазиз таомлар билан тўйдирилган, ҳар йили муҳтожларга 2 мингга яқин пўстин, босма чакмон, кўйлак-иштон, тақия ва кафш улашилган. Машҳаддаги Дор-ул-ҳуффозда ҳар куни фақат заиф ва етимларга овқат бериш учун ғалвурхона қурилган ва ҳ.к.

Мана бу мисралар ҳам буюк шоирнинг эл ғамини ўз ғами деб билганидан, бор куч-салоҳиятини унга жафо етмаслиги йўлида сафарбар этганидан далолат беради:

Юз жафо қилса манга, бир қатла фарёд айламон,

Элга қилса бир жафо, юз қатла фарёд айларам.

Ўзи мансуб бўлган халққа меҳр қўймоқ қандай бўлишини ҳазрат

Навоийдай улуғлардан ўрганиш керак. Элпарварлик бобида ҳам буюк бобокалонимиз авлодларга мудом сабоқ бериб келаётир.

Маърифат. Шахс камолоти ва маърифат тушунчалари шу даражада боғлиқки, уларнинг бирини иккинчисидан айри тасаввур этиб бўлмайди. Ҳазрат Навоийнинг "Лисон уттайр" достонида қушлар сафари тимсолида инсон камолотининг етти босқичи ҳақида сўз юритилади: талаб, ишқ, маърифат, истиғно, тавҳид, ҳайрат, фақру фано. Достоннинг махсус боби "Маърифат водийсининг васфи" деб номланган. Маърифат водийсини "дашти бепоён"га қиёслаган ҳазрат Навоий унда "ҳоллар мухталиф" *(*ихтилофли, бирбиридан кескин фарқ қилувчи – *қавс ичидаги барча изоҳлар бизники* – Н.Ж.*)* эканини таъкидлар экан, "Водиедур юз туман минг онда йўл" дея одамларнинг маърифий даражаси турлича бўлишига ишора қилади. Улуғ шоирнинг "жузв ила кулл" – бўлак ва бутун, тараққий ва таназзул ихтилофи ҳақидаги фикрлари ҳам буни тасдиқлайди.

Муаллиф фикрича, бу водийда "юз туман раҳрав"ни (йўловчини) кўриш мумкин. Пашша ҳам, фил ҳам, Жибрил ҳам йўлда. Мусою Фиръавн, Маҳдийу Дажжол, Аҳмад ва Абу Жаҳл ҳам раҳрав. Шундай бўлгач, улуғ шоир таъбири билан айтганда: *"Мухталиф бўлмай не бўлсун мунда иш"*. Ушбу мулоҳазалари тасдиғи учун ҳазрат Навоий Ҳаққа элтувчи йўллар сони халойиқнинг нуфуси билан баробар экани ҳақидаги ҳадисни келтиради. Бошқача айтганда, маърифати даражасига кўра, ҳар бир одам ўз йўлини тўғри деб билади. Улар ўртасидаги ихтилофнинг сабаби ҳам шунда. Танлаган йўллари эгри ёки тўғри, яқин ёхуд йироқ, кўпраги дурд (қуйқа), озроғи соф бўлса-да, аслида ҳаммасининг мақсади, тўғрироғи, даъвоси бир – ҳақиқат.

Гар сулук атворида тағйир эди,

Мақсади лекин боринг бир эди.

Достоннинг мазкур бобида ҳазрат Навоий бир ҳикоят келтиради. Унда ёзилишича, бир неча кўзи ожиз кимса маълум муддат мусофирлик сабабми, асир тушибми, Ҳиндистонда бўлади. Тақдир иноятн билан ўз юртларига қайтиб келганида бир киши улардан сўрайди: "Филни кўрдиларингми?"

Кўрлар тасдиқ ишорасини қилади. Бунга далил келтиринг, дейди. Табиийки, улар филни кўрмаган, у ҳақда сўраб ҳам олмаган эди. Кўрларнинг ҳар бири филнинг қайси аъзосини пайпаслаган бўлса, шунгагина асосланиб жавоб бера кетади. Оёқларини силагани фил бу – "сутун" деса, қорнини пайпаслагани "бесутун" дейди. Хартумини ушлаб кўргани филни аждаҳога, тишларига қўли теккани уни суякка менгзайди. Қуйруғини силагани илонга, бошига қўл ургани қиянинг тумшуғига, қулоғини ушлагани эса елпиғичга қиёслайди.

Гарчи кўрларнинг сўзи фил ҳақида эмас, унинг муайян аъзолари хусусида эканини билсада, "пилбонлиғ шевасида устод" бўлган ҳакими комил уларнинг сўзини рад этмайди.

Деди: "Ҳар бир улча воқиф эрдилар,

Пил ҳолидин нишоне бердилар".

Қиссадан ҳисса шуки, маърифатда комил бир мақомга эришмаган киши бамисоли ўша кўрларнинг ҳолига тушади. Ўзи "ушлагани"нигина ҳақ деб билиб, бошқалар билан ихтилофга боради, мунозара қилади.

Ҳаёт – инсонга чинакам маърифатга, камолотга эришмоқ учун берилган имкон. Ҳар ҳолда, мутафаккир аждодларимиз шундай деб ҳисоблашган. Камолга эришмай, "жаҳондин нотамом ўтмак"ни ҳазрат Навоий бамисоли ҳаммомга кириб нопок чиқиш билан тенг кўради. Камолга эришмоқ эса юксак маънавий-маърифий тарбия самарасидир. Ҳазрат Алишер Навоийнинг шарқона тарбияга оид қарашлари наинки улуғ мутафаккир яшаб ижод қилган давр ёхуд бугунги кунда, балки узоқ истиқболда ҳам ҳаётбахш манба бўлиб хизмат қилиши шубҳасиздир.

Адабиётлар:

1. Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. - Т.: "Маънавият", 2003.

2. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. - Т.: "Фан", 1983.

3. Қаюмов А. Асарлар. I жилд, 2-китоб. - Т.: "Мумтоз сўз", 2008.

4. Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. - Т.: Халқ мероси, 2002.

5. Хондамир. Макорим ул-ахлоқ (Форсчадан М.Фахриддинов, П.Шамсиев таржимаси). - Т.: Бадиий адабиёт, 1967.

ОГАҲИЙ ИЖОДИДА МАВЪИЗА

Эргаш ОЧИЛОВ,
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти
катта илмий ходими, филология фанлари номзоди

Дунёда санъаткор шоиру ёзувчилар кўп ўтган бўлса-да, улардан жуда оз қисмигина мутафаккир адиб деган шарафли номга лойиқ кўрилган. Зеро, қалам аҳли асосан кўнгил одами бўлиб, улар орасида Умар Хайём, Шайх Саъдий, Жалолиддин Румий, Алишер Навоий, Мирзо Бедил каби ўз ижодида тафаккур ва туйғуни ўзаро уйғунлаштира олгани кам.

Мутафаккир сўзининг маъноси тафаккур соҳиби, кенг ва чуқур фалсафий мушоҳада юритиш истеъдодига эга бўлган киши дегани. Мутафаккир адиб, биринчидан, чуқур билим, кенг дунёқараш, катта ҳаётий тажрибага эга бўлиши, иккинчидан, ҳаёт, инсон ва умрнинг маъно-мазмуни, эзгулик ва ёвузлик, муҳаббат ва нафрат, ҳалол ва ҳаром, фано ва бақо, нафосат ва қабоҳат, дўстлик ва душманлик, диёнат ва хиёнат каби азалий ва абадий тушунчаларнинг моҳиятини теран англаб етиши ва фалсафий нуқтаи назардан таҳлил қила олиши, учинчидан, фикр-мулоҳазаларини турли бадиий тасвир воситалари ёрдамида аниқ, лўнда ва таъсирчан ифодалаш маҳоратини эгаллаши керак. Бу эса ҳар юз ижодкордан биттасига насиб этадиган буюк мақом.

Биз Алишер Навоийни мутафаккир шоир деб улуғлаймиз. Шамс ул-миллатдан кейинги мутафаккир шоир сифатида эса Муҳаммадризо Огаҳийни кўрсатишимиз мумкин. Чунки ўзбек адабиётида Навоийдан кейин Огаҳий ижодида Оллоҳ – Олам – Одам муносабати, ҳаёт моҳияти ва инсон

умрининг маъно-мазмуни, бани башар табиатига хос фазилат ва иллатлар ҳар томонлама кенг ва чуқур фалсафий мушоҳадалар, нозик ва теран ҳаётий кузатишлар, кучли билим ва катта тажриба асосида юксак маҳорат билан бадиий талқин қилинган мавъиза шеърлар ва ҳикматли сўзларга кўп дуч келамиз.

Мавъиза арабча сўз бўлиб, панд, ўгит, насиҳат, ваъз, даъват ва тавсия (диний суҳбатларда) маъносини билдиради [4.616]. Шеъриятда эса у панд-насиҳат руҳидаги, фалсафий мушоҳадалар, ҳикматли сўзлар асосига қурилган шеърларга нисбатан қўлланади. Мавъиза шеърлар деярли барча шоирлар ижодида учрайди. Лекин мутасаввиф ва мутафаккир шоирлар ижодида улар нисбатан кўп учрайди. Жумладан, Огаҳий ижодида ҳам қиркка яқин ана шундай ғазаллар, яна қатор қитъа, рубоий, мухаммас, мусамман, таржеъбанд ва маснавийлар мавжуд. “Таъвиз ул-ушшоқ” (“Ошиқлар тумори”) девонига ёзган дебочасида Огаҳийнинг ўзи ҳам баъзида мавъиза шеърлар яратганини қайд этиб ўтади [2.31–32]. Жумладан, “сўз”, “ганж”, “эҳтиёж”, “арзимас”, “абас”, “руҳ”, “талх”, “қаноатдур”, “ёлғуз”, “ўлмас”, “қуш”, “халос”, “ихлос”, “файз”. “ғараз”, “ихтилот”, “шарт”, “на ҳаз”, “тама”, “шодлиғ”, “садаф”, “бўлмоқ”, “ишқ”, “қил”, “эй кўнгул”, “била”, “хилъатдур” радифли, “Кишиким, толеъи фархундаву бахти ҳумоюндир”, “Хароб ўлсун, илоҳи, гунбази даввори чархи дун”, “Даҳр қасриким, ҳақиқатда қўҳан вайронадур”, “Бўлса ҳар одам қаноат нуридин равшанзамир”, “Даҳр бир майхонадурким, кулфат онинг жомидур”, “Навбаҳор айёми бўлса ҳар ким айшу боғсиз”, “Тонг эрмас чарх жавридин гар этсам нолау афғон”, “Гар эрурсен мард, қил ишқ ўтидин бағрингни су(в)”, “Кел, эй маҳзун кўнгул, хўй эт ғаму андуҳу кулфатға”, “Эй кўнгул, толиб эсанг мақсад майи ошомиға” мисралари билан бошланадиган ғазаллари, қатор қитъа, рубоий, мухаммас, таржеъбанд ва маснавийлари шулар жумласидандир. Биргина мавъиза ғазаллар “Таъвиз ул-ошиқин” девонида қиркка яқин бўлиб, шунинг ўзи ҳам Огаҳийнинг мутафаккир шоирлигига далолат қилади. Масалан, Огаҳийнинг ижодий дастуриламал характеридаги “сўз” радифли ғазали бор. Унда сўз кенг маънога

эга бўлиб, нутқ, гапдан тортиб, шеърият, умуман адабиётгача қамраб олади. Сўзнинг инсон ҳаётидаги ўрни, жамиятдаги мавқеидан тортиб бадиий сўзнинг аҳамиятига қадар бўлган кенг мавзуда фикр юритилади. Айтиш мумкинки, бу ғазал мутафаккир шоир бадиий-эстетик қарашларининг ўзига хос назмий талқинидир. Ғазалда шоирнинг сўзга муносабати, сўзга муҳаббати, сўзга эътиқоди, сўз қаршисидаги масъулияти ва сўз олдига қўйган талаблари – ҳамма-ҳаммаси у ёки бу даражада ўз аксини топган дейиш мумкин.

Маълумки, Шарқда сўзнинг мақоми ниҳоятда баланд бўлган. Чунки забардаст сўз санъаткорлари сўзни инсонни ҳайвондан ажратиб турувчи асосий восита деб билишган. “Инсонни сўз айлади жудо ҳайвондин” [1.32], - дейди бу ҳақда Алишер Навоий. Огаҳий наздида ҳам “Сўздур инсон кўнглида бир гавҳари қийматбаҳо”. Шоирнинг комил ишончига кўра, сўз – гавҳар, кўнгил – унинг садафи, – тил эса ғаввоси. Шунинг учун ҳам у ёзадики, одам деб ўйлаб, нодонга гапириб ўтирма, сўзни фақат инсон тушунади ва қадрлайди – шунинг учун фақат инсонгагина сўзни раво кўриш мумкин:

Эй кўнгул, одам хаёл айлаб, дема нодонға сўз,

Чунки ул инсон эмас, топсанг, дегил инсонға сўз [2.180].

Кўпни кўрган ва билган донишманд мақомига етгани учун ҳам шоирнинг кўплаб байту мисралари ҳикматдай, халқ мақолларидай жаранглайди. Чунончи, қуйидаги байтида: “Илм инсон фарзанди учун шундай фойдали бир бойликдирки, ким бундай бойлик соҳибига айланса, унинг ҳар икки дунёси обод бўлади”, – деб илмни улуғлайди:

Илм андоқ ганжи нофеъдур бани одамғаким,

Кимда ул бўлса, ики олам бўлур обод анга[2.57].

Қуйидаги байтида эса “Эрта уйғониш – инсон учун саодат кафолатидир. Тонгда ухлаган киши, у шоҳ бўладими ёки гадоми, бахтсизликка маҳкумдир”, – дейди:

Тонгда уйғонмоқ саодатдин нишон инсон учун,

Бахтсиз айлар уйқуда бўлса гадоу шоҳ субҳ [2.115].

Маълум бўладики, мавъиза ғазаллари, рубоийлари, қитъалари, айни

жанрдаги, шунингдек, мухаммас, мусамман, таржеъбанд, маснавийларидаги фалсафий, таълимий характеридаги ҳамда панд-насиҳат йўналишидаги байт ва мисралари, дебоча ва тарихий асарларидаги ҳикматли сўзлари асосида Муҳаммад Ризо Огаҳийнинг мутафаккир адиб сифатидаги мавқе-мақомини тайин этиш, унинг нафақат ўзбек мумтоз сўз санъати. балки бадиий-эстетик тафаккур ривожига ҳам ўзининг салмоқли ҳиссасини қўшганлигини ҳар томонлама кенг ва чуқур тадқиқ этиш ўзбек адабиётшунослиги олдида турган кечиктириб бўлмас долзарб вазифаларидан ҳисобланади. “Таъвиз ул-ошиқин” девони асосида шоирнинг ҳикматли сўзларини сўзбоши ва изоҳлар билан чоп этиш орқали биз бу йўлда дастлабки қадамни қўйдик [3]. Бу йўналишдаги ишларни давом эттириб, айни пайда унинг мавъиза шеърларини шарҳу талқинлар билан нашрга тайёрлаш устида иш олиб боряпмиз.

Адабиётлар:

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик, 10-жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.

2. Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин (Нашрга тайёрловчи: Хуршид). – Тошкент: “Фан”, 1960.

3. Огаҳий. Ҳикматлар (Тўплаб нашрга тайёрловчи, сўзбоши муаллифи ва изоҳларни тузувчи Э.Очилов). –Тошкент: Шарқшунослик университети, 2021. – 224 бет.

4. Фарҳанги забони тожики. Иборат аз ду жилд. Жилди 1. – Москва: “Советская энциклопедия”, 1969.

МУҚИМИЙ ШЕЪРИЯТИ МАТНИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Қўлдош ПАРДАЕВ,
Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети
филология фанлари доктори, доцент

Муҳаммад Аминхўжа Муқимий асарлари ҳар доим мутахассислар диққат марказида бўлган. Маълумки, шоир ижод намуналари юзасидан кўплаб тадқиқотлар яратилган. Таассуфки, уларда Муқимий асарлари шўро даври мафкураси талабига кўра бир томонлама талқин қилинган. Натижада шоир назмий мероси ўзининг асосий моҳиятидан узоқлаштирилди. Яъни асарлари таҳрирга учради, қисқартирилди, манбаларда қолиб кетди. Бу эса, ўз навбатида, шоир адабий меросини янгича мезонлар асосида холис ва ҳаққоний ўрганиш заруратини тақозо этади.

Шўро даври мафкурасига кўра муқимийшунос олимлар тадқиқотларида шоир ижодининг қуйидаги жиҳатлари атайлаб бузиб кўрсатилди. Биринчидан, шоирнинг диний-тасаввуфий руҳдаги аксарият шеърий асарлари нашр этилмай қолди. Иккинчидан, Муқимийни бой, савдогар, қозиларга қарши қилиб кўрсатиш тадқиқотлар учун устувор вазифа этиб белгиланди. Учинчидан, Муқимийнинг “Сарой адабиёти” ва анъаналарига бўлган муносабати нотўғри талқин қилиниб, улардан синфий кураш аломатлари изланди.

Шоирнинг турли жанрлардаги лирик шеърлари сингари “Дариғо мулкимиз”, “Ҳажви Бектурбой”, “Дар мардуми Оқжар батариқи мухаммас”, “Дар мазаммати замона”, “Ҳўқандлик бир бойнинг шаънига Муқимий шоирнинг айткон шеъридур”, “Уруғ”, “Вексил”, “Дар мазаммати қурбақа”, “Саёҳатнома” каби кўплаб ижтимоий-сиёсий мавзулардаги ҳажвий асарларининг таҳрир қилиниб, қисқаришлар билан нашр этилиши бунинг исботидир. Жумладан, Муқимийнинг “Туркистон вилоятининг газети” 1903 йил 15 январ, 2-сонида 31 байтли “Ҳўқандлик бир бойнинг шаънига

Муқимий шоирнинг айткон шеъридур” сарлавҳали ҳажвий асари берилган. Негадир, барча Муқимий асарлар нашрида шеърнинг номланиши “Воқеаи кўр Ашурбой ҳожи” деб номланган. Муқимий асарлар нашрида шеърнинг 2-, 7-, 15-байти қуйидагича берилган:

Ашурбойдин эшитинг қиссае,

Аё эй бу Фарғонада номдор.

Кўруб дедилар: бой экан, қочиринг,

Ашур кўр ўзи ҳам бўлуб беқарор.

Секинроқ гапир, мен Ашурбой – деди.

Қочиб ўлтурибман, сенга интизор.

Мазкур байтларни “Туркистон вилоятининг газети”да эса бу тарзда ўқиймиз:

Эшитинг ўшал бойдин қиссае,

Аё эй бу Фарғонада номдор.

Кўруб дедилар: бой экан, қочиринг,

Оёғида кишан қочурурға озор.

Секинроқ гапир, мен фалонбой – деди.

Қочиб ўлтурибман, сенга интизор.

Кўриниб турибдики, бирон жойда Ашурбой образи йўқ. Шеър мисралари ноширлар томонидан таҳрир қилиниб ўзгартирилган. Шундан сўнг, ҳажвий шеърга “Воқеаи кўр Ашурбой ҳожи” деб сарлавҳа қўйилган. Шеърнинг 26-байти шўро даври мафкурасига кўра қуйидагича қайта ёзилган:

Ҳақорат қилинган кишилар қолиб,

Топиб бой сўзи бунда зўр эътибор.

Байт ҳақида адабиётшунос А.Абдуғафуров бундай ёзган эди: “Ушбу сатирада алоҳида диққатга сазовор яна бир байт бор. Унда шоир “бой сўзи” “зўр эътибор” топишининг асл сабабларидан бирига – пул, олтиннинг у тузумда ҳал қилувчи ролига аниқ ишора этади. Ашурбой ҳожи “ғубор”ни ювиш учун барча амалдорга “ниҳоний” олтин-кумушлар (“сийму зар”)ни “сув каби” ишлатади, пора беради” [1.14]. Бошқа муқимийшунослар фикри

ҳам шунга мутаносиб. Аслида “Туркистон вилоятининг газети”да байт бундай эди:

Эшонлар қолиб дукчини айбиға,

Бу одам уятиға аҳли тужжор.

Бундай таҳрир қилиниб, мисралари қайта ёзилган шеърий асарлар Муқимий асарлар нашрида кўплаб учрашини таъкидлаш керак. Бундай ҳолни шоирнинг “Дар мазаммати замона” сарлавҳали ижтимоий-сиёсий мавзудаги шеъри мисолида ҳам кузатиш мумкин. Афсуски, шеър матни Муқимий асарлари табдил нусхаларида 10 байт ҳолда бўлиб, 7 байти ташлаб кетилган. Бу эса шоирнинг чор мустамлакасига бўлган танқидий қарашининг яширилишига олиб келган. Мисол учун, нашрлардан тушириб қолдирилган шеърнинг 2-, 3-бўлиб келувчи байтлари Муқимийнинг 1325-рақамли дастхат баёзида (120 [a] – саҳифа) қуйидагича келади:

Тўлиб черкас, қизилбош, арманилар шаҳримиз ичра,

Мусулмонлар таҳипо[1]*яхшилар кўздин ниҳон бўлди.*

Ҳамият айлаб Аҳмаджон туриб тужжор аҳлидин,

Шижоатдин танида ҳар сари муйи синон бўлди.

Муқимий ижодига бирёқлама ёндашувни шоирнинг туркум ижтимоий-сиёсий мавзулардаги шеърий асарлари талқинида кўрамиз. Бу эса, Муқимийни бой, савдогар, қози ва дин пешволарига қарши қилиб кўрсатишда кузатилади. Мисол учун, шоирнинг “Саёҳатнома” асари талқини бунинг исботидир. “Саёҳатнома”нинг “Қўқондан Шоҳимардонга” қисмининг 8-банди барча Муқимий асарлари жорий нашрларида қуйидагича берилган:

Унда бўлус Ғози деди,

Ҳам муфти, ҳам қози деди,

Юрт барча норози деди,

Қилғон иши озор экан.

Мазкур банд талқини ҳақида дастлаб адабиётшунос Ҳ.Ёқубов бундай ёзган эди: “Шоир бу ердан Дўрманча мавзуига ўтади. Бу ернинг бўлуси ҳам Исо саркордан сира қолишмайди. У, эртаю кеч кўкнори ичиб, бадмаст

1 Оёқ ости бўлиш.

ҳолда юради ва бир неча мансабни ўз қўлига киритиб олган.” [2.99]. А.Абдуғафуров фикри ҳам худди шундай: “Қишлоқдаги барча мансабларни эгаллаб олган амалдорларнинг золимлиги, “озор” бериши, “юрт”нинг эса “норози”лиги каби катта ижтимоий мазмун қуйидаги бандда тўғридан-тўғри яхлит ва дангал ифодаланган”. [1.65]. Профессор Ғ.Каримов эса мазкур банд талқинига батавсиллироқ тўхталади: “Дўрманча қишлоғининг ҳокими ҳам ярамас феъл-атвори билан Ҳожи Исодан қолишмайди. Шунинг учун у ҳам Муқимий танқидидан омон қолмайди. Дўрмончада волостъ ҳокими (“бўлис бошлиғи”) бўлиб турган Ғози исмли киши золимлик билан шуҳрат қозонган, эл-юрт нафратига учраган эди.” [3.121].

Кўринадики, деярли муқимийшунос олимлар фикрлари бир хил. Қандай қилиб бўлмасин қози, муфти, ҳожиларга салбий муносабат билдирилиш керак. Энди мазкур банднинг аслиятга яқин *(*6352- рақамли баёз, 181^{б}) бандини келтирамиз:

Анда бўлус ҳожи деди,

Ҳам муфти ҳам қози деди,

Юрти ҳамма рози деди,

Бечора беозор экан.

Умуман, давр талаби нуқтаи назаридан банднинг барча мисралари таҳрир қилинган. Натижада муаллифнинг муфти, ҳожи ва қозилар ҳақидаги рост гаплари ёлғонга дўнган, матн аслиятдан мутлақ йироқлашган. Аслида эса мазкур бандда Ғози образининг ўзи йўқ.

Муқимийшунослар тилга олган бадкор Ҳожи Исо ким? Бу саволга жавоб топиш учун мазкур асарнинг 5-бандига эътибор қаратамиз. Муқимий асарлари жорий нашрларида банд қуйдагича келади:

Мингбошилик кимнинг иши,

Десам, деди бедониши,

Бир “Қўштегирмонлик киши,

Хўжа Исо бадкор экан.

6352- рақамли қўлёзма баёз(181^{б}-саҳифа)да:

Мингбошилик кимнинг иши,

Десам, деди бир дониши,

Бир "Қўштегирмонлик" киши,

Хўжа Исо бекор экан.

Таъкидлаш жоизки, Муқимий асарлар нашрининг (Ғафур Ғулом. Муқимий. (Танланган асарлар). –Т.: Ўздавнашр, 1942. –Б.149) баъзиларида 4-мисраси "Хўжа Исо саркор экан" шаклида учрайди. Кўринадики, бандниг 2-мисрасидаги "*бир дониши"* сўзининг *"бедониши"*га айлантирилиши муаллиф бадиий нияти бутунлай тескари талқин этилишига олиб келган. 4-мисрадаги *"бекор"* сўзи *"бадкор", "саркор"* тарзида таҳрир қилиниши мисралар мазмунига мос эмас. Банд мисралари мазмунидан маълумки, Муқимий сўраяпти. Бу жойнинг мингбошиси ким? Шунда бир дониш одам бир *"*Қўштегирмонлик*"* киши эканлигини айтиб, Хўжа Исо мингбошилик лавозимидан бўшагани таъкидланмоқда.

Муқимийнинг динга муносабати бир томонлама ўрганилди, шоир ижоди динга қарши қўйилиб талқин қилинди. Натижада шоирнинг диний мавзудаги шеърий ва насрий асарлари, ҳаёти ва ижодига доир диний руҳдаги маълумотлар китобхонлар эътиборидан четда қолди. Профессор Ғулом Каримовнинг Муқимий "Асарлар тўплами" ҳақидаги мулоҳазалари ҳам бу фикрни тасдиқлайди: "...Бу шеърлар Муқимий қолдирган лирик мероснинг ҳаммаси эмас. Чунки маълум мулоҳазалар билан бир қисм шеърлар икки томликка киритилмади" [4.138]. Муқимийнинг тасаввуфий мазмундаги "Ё раб" радифли ғазали онгли равишда ўзгартирилиб, китобхонлар эътиборига ҳавола қилинган. Муқимий асарлар тўпламининг совет давридаги энг сўнгги нашрида (44-саҳифа) 9 байт, №1325- рақамли Муқимийнинг дастхат (151[a] -саҳифа) баёзида эса 10 байт ҳолда учрайди. Жорий нашрдаги шеърнинг9-байти қуйидагича:

Ҳарими қурбига мендек гадони етмаки мушкул,

Муқимийға ўзингдан ўзга йўқдур муттако, Ё раб.

Мазкур баёзда ғазалнинг 9-, 10-байтлари:

Ҳарими қурбига мендек гадони етмаки мушкул,

Аниким даргоҳида бўлса султонлар гадо Ё раб.

Ики оламда бўлғил дастигиру малжау ҳомий,

Муқимийға ўзингдан ўзга йўқдур муттако, Ё раб -

шаклида учрайди. Хўш, ғазал қандай таҳрир қилинган? Шеърнинг аслиятдаги 9-байтидан 1-мисраси олиниб, жорий нашрдаги 9-байт яратилган. Жорий нашрдаги 9-байтнинг 1-мисраси аслиятдаги 10-байтга тегишли. Натижада ғазалдан бир байт чиқариб ташланган. Муқимий асарларининг жорий нашрларидатасаввуфий мазмундаги мухаммаслар ҳам таҳрир қилинган ва шундан сўнг жорий нашрларга киритилганини таъкидлаш керак. Бу хусусда адабиётшунос Отабек Жўрабоев бундай ёзади: "...Шоир, аввало, ўз даврининг фарзанди, мадраса таҳсилини кўрган фозил киши, қолаверса, юксак эътиқод соҳиби сифатида диний-тасаввуфий мазмундаги асарлар ҳам яратгани табиийдир. Муқимий ижоди билан мафкуравий тазйиқ остида шуғулланган устоз олимлар шоир шеъриятининг айнан шу қирраларини четлаб ўтган. Масалан, Абдураҳмон Жомийнинг "Мекуни ё не?" радифли ғазалига Муқимий боғлаган мухаммас яхши маълум. Қўлёзма манбаларда бу мухаммас олти банддан иборат. Аммо жорий ёзувда нашр этилган Муқимий асарларининг барча тўпламларида у беш банд ҳолида берилган. Тушириб қолдирилган сатрларга назар солайлик:

Барои бар бишу нуқсу камолам ду малак ойад,

Паи фарқи ҳарому то ҳалолам ду малак ойад,

Башоми тийра баъди заволам ду малак ойад,

Накиру Мункар аз баҳри саволам ду малак ойад,

Забонро дар жавобаш "Рабби!" гуён, мекуни ё не?

Мазмуни: менинг нуқсону камолимни билиш учун икки фаришта келади; ҳалолу ҳаром ишларимни фарқлаш учун икки фаришта келади; заволимдан (ўлимимдан) кейин икки фаришта келади; мени савол-жавоб қилиш учун Мункар-Накир – икки фаришта келади; тилимни "Раббим!" деб жавоб беришга қодир этасанми ё йўқми?

Кўриниб турибдики, Муқимийнинг тахмиси Жомий байтига уйғун ва ҳамоҳанг. Фақат диний замирда битилгани учунгина мазкур бандни китобхонларга тақдим этиш лозим топилмаган” [5.81].

Худди бундай ҳолни шоирнинг “Толеим” радифли шеъри мисолида ҳам кўриш мумкин. Ғазал Муқимий асарлар тўпламининг энг сўнгги нашрида (138-саҳифа) 5 байт бўлиб келса, 7521-рақамли Муқимий дастхат баёзининг 51[a]-саҳифасида эса 6 байт. Тушириб қолдирилган мисралар қуйидагича:

Соғиниб Ҳазрат афандин кўргали борсам агар,

Соате, суҳбатларин қилмас муяссар толеим.

Бу байтда Муқимий Соҳибзода Ҳазрат афандини кўзда тутган. Маълумки, шоир яшаган Қўқондаги “Ҳазрат” мадрасаси шу киши номига қурилган. Шоир ижодини динга қарши қўйиб талқин қилинганини эътиборга олсак, бу байтнинг тушириб қолдирилиши сабаби ўз-ўзидан маълум бўлади.

Хуллас, бундай таҳрирлар натижасида шоир лирик ва ҳажвий асарлари нашрларида кўплаб матний тафовутлар юзага келган. Бу эса асар талқинига ҳам жиддий таъсир кўрсатган. Умуман, шоирнинг бутун меросини аслият билан қиёсан ўрганиш матншуносликнинг галдаги долзарб вазифаларидандир.

Адабиётлар:

1. Абдуғафуров А. Муқимий сатираси. – Т.: Фан, 1976.

2. Ёқубов Ҳ.Демократ шоир. //Шарқ юлузи, 1953.№9.

3. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1987.

4. Каримов Ғ. Муқимий ҳаёти ва ижоди. (Монография). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.

5. Жўрабоев О. Фитрату фазлу балоғат бўлғусидур шунчалар. // Тафаккур. 2003, 3-сон.

ЎТКИР ҲОШИМОВ ҲИКОЯЛАРИДА ЎЗБЕК МИЛЛИЙ МУЛОҚОТ ХУЛҚИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

С.МЎМИНОВ,
Фарғона давлат университети профессори
Ў.ОРИПОВА,
Фарғона давлат университети магистранти

Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилгандан кейин, айниқса, кейинги беш йилликда ўзбек тилига, ўзбек мулоқот хулқига бўлган эътибор тобора ортиб бормоқда.

Ўтган 31 йил мобайнида мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш борасида кўплаб фармон ва қарорлар эълон қилинди, уларда белгилаб берилган вазифаларни амалга ошириш учун бир талай ишлар амалга оширилди. Аммо бу соҳадаги энг буюк тарихий ҳодиса – бу, Президент Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош ассамблеясининг 75- ва 76-сессияларида ўзбек тилида сўзлаган нутқи бўлди, деб айтиш мумкин.

Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг 29 йиллиги муносабати билан ўзбек халқига йўллаган байрам табригида Президентимиз Ш.Мирзиёев, жумладан, шундай деган эди: **“Бугунги кунда биз янги Ўзбекистонни, янги Ренессанс пойдеворини барпо этишдек эзгу мақсадимизга эришишда, ҳеч шубҳасиз, она тилимизнинг ҳаётбахш қудратига таянамиз”** [1, 1].

Тилшуносликнинг тилнинг ижтимоий яшаш ва ижтимоий тараққиёт шароитини ўрганувчи соҳаси сифатида юзага келган, социологлар ва тилшуносларни тобора бир-бирига яқинлаштираётган замонавий социолингвистика шу фан соҳасидаги ўта назарийлик, ноаниқлик ва айнан шунинг оқибатида юзага келаётган айрим нуқсонларни кўрсатиб бермоқда. Зеро, анъанавий тилшунослик тилда ҳар бири ўзига хос такрорланмас олам бўлган инсонлар мулоқот жараёнининг руҳий, миллий, ижтимоий, ҳудудий,

хусусиятларига эътибор қаратмади. Бунга мулоқот жараёнининг ўта мураккаб ва серқирра эканлигини ва худди шунинг учун ҳам алоҳида бир фаннинг ўзи бу муаммони яхлит тадқиқ этишга ожизлик қилганлигини сабаб қилиб кўрсатиш мумкин.Шунинг учун бўлса керак, асримизнинг бошларида аниқ ва табиий фанларнинг, иккинчи ярмидан бошлаб эса ижтимоий фанларнинг ҳам муайян жабҳада ўзаро яқинлашуви кузатилмоқда. Натижада, социолингвистика, этнопсихолинвистика, сотсиопсихолингвистика каби янги соҳа ва йўналишлар юзага келдики, инсон нутқини айнан фанларнинг мана шундай туташ нуқтасида тадқиқ этиш ўта мураккаб жараён бўлган мулоқотнинг асл моҳиятини очиб беради. Умуман, бугунга келиб мулоқот жараёнини комплекс, яъни ижтимоий-лисоний аспектда тадқиқ этишга жиддий эҳтиёж пайдо бўлди [2,13-14].

Чин маънодаги халқ ёзувчиси ЎткирҲошимовнинг барча асарларида, айниқса, қисса ва ҳикояларида ўзбек халқининг миллий мулоқот хулқи жуда ҳаётий акс эттирилган. Қуйида катта-кичик новеллалардан иборат “Дунёнинг ишлари” асаридан олинган айрим парчаларга эътиборингизни қаратамиз:

“Дунёдаги ҳамма оналар фарзандларига муносабат бобида бир-бирига жуда ўхшайди. Бас, шундай экан, бу асар сизларга бағишланади, азиз Онажонлар!.. [6,3].

“Эрмон буванинг тилаги” ҳикоясида болалар Эрмон бувани ҳам, сигирини ҳам қаттиқ ҳурмат қилишларини айтиб ўтишади. Ҳатто жўрабошимиз ҳам Эрмон бувани кўриши билан ювош тортиб қолади, икки **қўлини кўксига қўйиб**:

– **Ассалому алайкум**, буважон, – деб салом беради.

– **Ваалайкум ассалом, мулло бўлинг, тасаддуқ**, – дейди Эрмон бува салмоқлаб [6,66].

Қўлни кўкракка қўйиб саломлашиш саломлашишнинг энг маъқул шаклларидан бўлиб, эркаклар ўртасида кенг тарқалган. Одам ўзига яқин, севган, ҳурмат қилган, меҳрибон, қадрдон бўлган, дўст кишисини учратганда юраги “жиғ” этиб кетади. Ўнг қўлини чап кўкракка, яъни юрак устига қўйиб

саломлашиш шундан келиб чиққан. Бу новербал ҳолат астойдил (форсча-арабча: аз тахи дил) яъни чин юракдан деган маънони англатади.

– Энди, **ўргилай**, – деб гап бошлади атлас кўйлакли хотин, узоқ ҳол-аҳвол сўрашгандан кейин, агар тақдир қўшган бўлса қариндош бўлармиз, деган умидда эшигинггизни супургани келдик.

Ойим индамадилар.

– Олиб ўтиринглар, – деди анчадан кейин дастурхонга имо қилиб.

– Эшитдик, ўзим **ўргилай**, - деди пакана хотин, таг-зотли одамлар экансиз. Болалар ката бўлгандан кейин ота-онанинг зиммасидаги қарзини узгиси келиб қоларкан. Бизнинг ўғлимиз ҳам яхши, мўмин-қобил йигит. Муаллим…

У, “энди сиз гапиринг” дегандек атлас кўйлакли аёлга секин бурилиб қараган эди, сочининг учигача тақилган сўлкавойлари жиринглаб кетди.

– Бизлар ҳам ҳурмат кўрган одамлармиз, -атлас кўйлакли хотин қалин билагузук таққан қўллари билан ўзи келтирган тугуннинг боғичини еча бошлади.

– Овора бўлманг, **айланай**, – ойим унинг қўлидан оҳиста тутиб. – Насиб этса, ҳали кўп бориш-келиш қиламиз [6,53].

Ўзбек аёллари нутқига мансуб **“айланай”, “гиргиттон”, “қоқиндиқ”** сингари сўзлар ижобий маъно нозиклигини ифодаловчи лексик воситалар ҳисобланади, улар кўпроқ кекса аёллар томонидан нутқий одатнинг турли вазиятларида қўлланади.

Хотин-қизлар нутқининг индивидуал хусусиятларини **“вой”** ундовининг қўлланиши асосида ҳам ойдинлаштириш мумкин: маълум бўлишича, “вой” ундови ўндан ортиқ маъно нозикликларини ифодалайди. Севиниш, эркалаш, ачиниш, қўрқиш, ҳавас, саросималаниш, койиш, алам сингари қатор ички ҳолатларнинг юзага чиқишида маълум даражада аҳамиятга ега... [5,19].

– **Вой** энди нима қиламан! – **Вой**, болам ўлиб қолади.

Ўзбек лингвомаданиятида нон жуда қадрланади. Ўзбек кундалик турмушида нон муҳим озуқа ҳисобланади. Нонга ҳурмат-эҳтиром болаларга

ёшликдан ўргатилади, уларга ноннинг ушоғини ердан йиғиб олиш, оёқ ости қилмаслик заурлиги уқтирилади:

Товоқни нари сурдим.

– Емайман!

Ойим товоқни яна мен томонга сурди:

– Ол болам, ширин бўпти.

– Керакмас! Керакмас! Керакмас! – Товоқни қўлим билан бир урган эдим, учиб аввал супага, ундан ерга тушди. Толқон ер билан бита бўлиб сочилди-да, тупроққа қоришиб кетди.

Бирдан ойимнинг кўзида ғазаб чақнади. Шапалоғини ёзиб қулоч-чаккамга яқин келтирди. Қўрқувдан кўзимни юмиб олдим. Йўқ урмади. Бироқ лаби титраб пичирлади:

– **Нон-ку**, бу, аҳмоқ! **Гуноҳ** бўлади-ку! [6,71].

Инсон руҳияти, миллати ва яшаш жойи, маънавияти ва маданияти, эътиқоди ва урф-одати, ёши ва жинси, касб-ҳунари ва ижтиомий ўрни каби қатор социал умумлашмаларни ўзида зуҳур этадиган мулоқот хулқи муаммоси инсоннинг ўзи каби ранг-баранг ва серқирра бўлиб, дунё олимлари – социолог, психолог, этнограф, маданиятшунос, тилшунос ва бошқа фан соҳаси мутахассислари эътиборини бирдай ўзига жалб этмоқда. Зеро, бу муаммо билан шуғулланиш барча дунёвий илмларнинг асосий тадқиқот мавзуси – инсоннинг ўзлигини англаш каби муҳим ва аҳамиятлидир.

Мулоқот хулқи муаммосини миллий характер, миллат аҳолисининг ўзига хос урф-одатлари, қадрият ва анъаналарини ҳисобга олмасдан туриб мутлақо ўрганиш мумкин эмас. Чунки мулоқот хулқи миллат характерининг узвий бир қисми бўлиб, улар бир-бири билан чамбарчас боғлиқдир.

Ўзбекистон халқ ёзувчиси Ўткир Ҳошимов асарларида ўзбек халқининг руҳияти, сажияси, умуман, миллий менталитетига оид лисоний бирликлар маҳорат билан қўлланган. Хусусан, адибнинг ҳикоя ва қиссаларида тилимизнинг лингвомаданий табиати яққол намоён бўлган. Ҳикоялар матнида учрайдиган миллий реалиялар, қарғиш, дуо ва қасамлар,

ибора, мақол, ўхшатиш ва метафора каби лингвомаданий бирликлар ўзбек кишиларининг миллий психологияси ва миллий турмуш тарзи тасвирининг ҳаққоний ва таъсирчан бўлишини таъминлаган.

Ў.Ҳошимов асарларида ўзбек халқининг образли тафаккури, дунёқараши, турмуш тарзи, қадриятлари, феъл-атвори, эътиқод ва анъаналари акс этган ўринларни кўплаб учртишимиз мумкин.

Хуллас, ўзбек насрига ўз муносиб ҳиссасини қўшган адиб Ўткир Ҳошимовнинг барча асарларида ўзбек халқи миллий мулоқот хулқининг ранг-баранг қирралари ўз аксини топган. Ёзувчи ўз халқининг миллий қиёфасини сўзлар ёрдамида моҳирона чизиб бера олган.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон халқига байрам табриги //Халқ сўзи, 2020-йил, 21октябрь

2. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Фарғона: Classic, 2021.

3. Тоирова Г. Прагмалингвистика. – Тошкент: Академнашр, 2016.

4. Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропосентрик талқини. Докт.дис.автореф. – Тошкент, 2015.

5. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дис. автореферати. – Самарқанд, 1993.

6. Ҳошимов Ў. Дунёнинг ишлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015.

АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ “ЛИСОН УТ-ТАЙР” ДОСТОНИДА ИЙҲОМ САНЪАТИ

Сабитова Тожихон,
Чирчиқ давлат педагогика институти
филология фанлари номзоди
Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси доценти

Минг йилдан ортиқ тарихга эга бўлган мумтоз адабиётимизда бадиият масаласи ҳар доим шеър аҳлининг диққат марказида бўлиб келган. Ижодкорларни шеърий санъатлардан қандай маҳорат билан фойдаланганликлари бўйича баҳо беришган.

Бу масалада буюк мутафаккир шоиримиз Алишер Навоий ўз асарларида бадиий санъатлардан ниҳоятда унумли фойдаланганликларини гувоҳи бўлганмиз.

Биз ушбу мақоламизда Алишер Навоийнинг “Лисонут-тайр” достонида ийҳом санъатини қандай қўллагани ҳақида айрим нуқталарига тўхталмоқчимиз.

Бизга маълумки, ийҳом санъати лафзий санъат турига мансубдир. Мумтоз адабиётда ийҳом хақиқий ва мажозий маъноларга эга, ёҳуд шаклан бир, маъно жиҳатдан ҳар хил бўлган (жинсдош) сўз ёки сўз бирикмасини шеъриятда қўллаган ҳолда бир байтда икки хил маънони ифода этиш санътидир.

Ийҳом ўз хусусиятлари жиҳатидан тажнис санъатига яқин туради.

Сўз гўзаллиги, ийҳом санъати унинг турли маъно товланишлари бадиий асарнинг мазмунан ранг-баранг бўлишини таъминловчи асосий манбадир. Тил нафосатига асосланиб сўз ёки иборанинг бир вақтнинг ўзида икки ва ундан ортиқ маънода (биринчи маъно очиқ иккинчиси яширин) келишиклассик адабиётда ийҳом санъати деб юритилади.

Бу санъат асарнинг бадиий қимматини оширишда, фикрни ихчам ва жозибали тасвирлашда муҳим услубий восита ҳисобланади. Буюк

мутафаккир Алишер Навоий ўзининг “Муҳокамат-ул-луғотайн” асарида бу шеърий санъатга алоҳида тўхталагани бежиз эмас: “яна шеърда барча табъ аҳли қошида равшан ва мажмуъ фусаҳо олдида муборҳамдурки,тажнис ва ийҳом бағоят куллийдир. Ва бу фархунда иборат ва ҳужаста алфоз ва ишоратда… тажнисомиз лафз ва ийҳомангиз нуқта борки, назмға мужиби зеб ва зийнат ва боиси такаллуф ва санъатдур”. [1.39]

Ийҳом санъати поэтик восита сифатида сўз ёки иборанинг мажозий ва омоним хусусиятлари асосида вужудга келади. Бу санъат тури тарихий даврларда яшаб ўтган улкан сўз санъаткорлари ижодида мохирона қўлланган. Айниқса, Алишер Навоийнинг поэтик асарларида мазкур санъатнинг ноёб намуналари товланиб ўзига мафтун этади.

Инчунин, “Лисон-ут-тайр” достонида ҳам лафзий санъат турларидан бири ийҳом санъати моҳирона нақшланган. Ажойиб қуйма “ийҳомангиз” байтлар, улар мазмунидаги оҳангдор, образли ва эмоционал шодаси бундан далолат беради.

Асарнинг «Шоҳи моҳжабин» ҳикоясидан келтирилган ушбу байтларда ийҳом санъати ошиққа ўхшаш ва телбанамо маъноларида келган “*девонаваш”* сўзи орқали яралади:

Ҳукм човушларга қилдиким, юрунг,

Ул икки девонавашни келтурунг.

Алишер Навоий мазкур байтдаги “девонаваш” сўзини биринчидан, уларни ташқи кўриниши жиҳатидан жинси, телбага ўхшатиб тасвирланган бўлса, иккинчидан шоир ҳикоятнинг умумий маъносига асосланиб, уларни ўзлигидан кечган хақикий ошиқ сифатида таснифлайди. Билъакс, “девонаваш” сўзига ошиқларча ошиққа ўхшайди деб берилган изоҳ унинг ҳақиқий ва бош маъносини англатади. Аммо, айни бир пайтнинг ўзида уни телбанамо, жиннига ўхшаган, деб тушуниш ҳам ҳикоятнинг умумий мавзусига тўғри келади.

Ушбу келтирилган изоҳларни ийҳом санъати талабидан келиб, чиқиб, биринчисини очиқ, иккинчисини яширин маъно тарзида тушуниш лозим.

Яна юқоридаги ҳикоятнинг мазкур байтига эътибор берайлик:

Дардманде айлади бир кун савол,

Ким - келур онага бу меҳнат ичра ҳол.

Бунда Алишер Навоий бир вақтнинг ўзида форсча "дардаманде" сўзини ҳам дард чекувчи, ҳам ошиқ маъноларида қўллаб, ийҳом санъатининг юксак намунасини чизади. Зеро, бу байтни шу тариқа шарҳлаш мумкин: *"Дардманде"* агар ошиқ маъносини берса, у ҳолда "ошиқ бир кун савол қилди". Мисрадаги *"дардманде"* сўзида зиндонга тушган кишига нисбатан ишора ҳам бор. Биринчидан *"маҳбуси зиндон", "дардманде"* - дард чекувчидир, иккинчидан зиндонга *"ҳибс"* этилганларнинг барчаси ошиқ кишилар. Зотан, подшоҳнинг ўғли шаҳзода хусндa тенгсиз, уни кўришга интилганлар, зиндон азобига дучор бўлган ошиқлардир. Хуллас, *"дардманде"* сўзи ийҳом санъати маъноларига баб-баробар хизмат қилади. Асарнинг *"Хаста ошиқ"* ҳикоятидаги арабча *"хаста"* сўзи ҳам бир вақтнинг ўзида ҳам ишқ оловида ёнган ошиқ, ҳам кучсиз, мажолсиз, касал кимса маъноларида ишлатилган:

Нозанин чун келди айлаб турктоз,

Айлабон ул хастага зоҳир ниёз.

1. Агар "хаста" сўзининг ҳам ошиқ маъносида келганлигига эътибор берилса, мисранинг изоҳи қуйидагича:

Ул, яъни нозанин ошиқ(хаста)қа қараб ширин сўзлади.

Бунда икки ошиқнинг бир-бирига бўлган муносабати ҳикоя қилинган. Шунингдек, шоир ошиқнинг ўз маҳбубасига ҳақиқий, ўзлигини йўқотган ошиқ эканлигини ҳам баён этган.

2. Агар *"хаста"* сўзининг кучсиз, ҳолсиз, касал маъноларида келганлигини ҳисобга олсак, мисра қуйидагича шарҳланади.

"маҳбуба беҳол ётган беморга ачиниб, унга юмшоқ муомалада бўлди".

Бу ерда шоир ўша *"бадмеҳр"* - раҳмсиз, шафқатсиз маъшуқанинг бағри тошлигидан азобланган ошиқнинг беҳол, кучсиз, ўлар ҳолатга келганига *"хаста"* сўзи орқали ишора қилади.

Баски, *“хаста”* сўзига берилган икки хил изох “хаста ошиқ” ҳикоятининг умумий маъносига ҳар икки жиҳатдан муносибдир.

Достондаги қушларнинг савол-жавоб эпизодидан олинган ушбу *“дам”* сўзи ҳам ийҳом санъати учун энг мақбул мисоллардан биридир:

К-эй, дамнинг жонбахшу нутқунг дилписанд,

Иккиси жону кўнгулға орзуманд.

Мазкур байтнинг биринчи мисрадаги «дам» сўзини Алишер Навоий нафас маъносида қўллаб, унга қуйидагича маъно юклаган:

“Нафасинг руҳлантирувчи, нутқинг эса ёқимли”.

Шу билан бирга шоир уни сўз, гап маъноларида ҳам қўллаган.

“сўзларинг жон киритувчи, нутқинг эса ёқимли”.

Ниҳоят, шоир *“дам”* сўзига учинчи маъно жойлаб, оғизтушунчасида ҳам беради. Ана шу нуқтада сирли сўз ўйинига гувоҳ бўласиз: *“оғзинг ширин, жон бағишловчи, шунинг учун гапинг, нутқинг дилга ёқади”.*

Достоннинг *«Қақнус тимсоли»* ҳикоятидан келтирилган ушбу байтдаги «сўз» калимасини, шоир икки маънода ишлатади:

Сўнгра ондин нима топмай менча сўз,

Бўйла муҳруҳ шуълаи гетифуруз.

Агар шу жиҳатни ҳисобга олсак, байтни қуйидагича шарҳлаш мумкин: *«Мен (Навоий)чалик Шайх (Фаридидин Аттор)дан кейин ҳеч ким яхши сўз айтолмаган.»*

Алишер Навоий ийҳом санъатини бир сўз орқали яратиб қолмасдан балки сўз бирикмалари асосида ҳам шакллантирган. Достондаги “ишқ водийсининг суръати” ҳикоятидаги ушбу байтга тўхталиб ўтсак:

Капалакда гарчи бўлгай рангу ҳол,

Бўлмағай парвона янгилиғ орзуҳол.

Шоир мазкур мисолнинг иккинчи мисраларида ҳол бирикмасини ийҳом санъатидан фойдаланиб, икки маънода ишлатади. Хоссатан, дастлаб эътибор бермаслик ва яхши сўз демаслик маъносида киритилган. *«Капалак қанчалик шам атрофида айлангани билан унинг аҳволига ҳеч ким эътибор бермайди,*

у ҳақда бирор яхши сўз ҳам айтмайди». Сўнг форсий ўзаги сифатида куйиш маъноларида кўлланган: *«Гарчи капалак жуда чиройли, товланувчи бўлса ҳам, шам атрофида қанчалик айланмасин парвонага ўхшаб ўзини куйдиролмайди.»* Валлоҳ, Навоий мазкур мисра орқали ўзўз фикрини янада образли ва эмоционал бўлишига эришган.

“Лисону ут-тайр” бир неча ҳикоятларни ўз ичига қамраболган. Асар ҳикояларидан бири “шатранжи кабир” бўлиб, унда ҳам ийҳом санъатига хос фрагментлар мавжуд:

Ул иковдин бири Рум аҳлига шоҳ,

Ен бири Занг аҳлига кишварпаноҳ.

Мазкур байтдаги *«рум аҳли»* ва *«занг аҳли»* сўз бирикмаларини икки ҳилда шарҳлаш хато эмас: илк мисрадаги *«рум аҳли»* бирикмаси «шоҳ» сўзи билан мазмунан боғланиб, *«рум аҳолисининг подшоси»* мазмунини берса, иккинчидан ҳикоятдан келиб чиқиб, *«шахматдаги оқ доналар»* маъносини билдиради. Байтнинг иккинчи мисрасидаги *«занг аҳли»* ҳам икки ҳил шарҳни ўзида ниҳон этган. Бу сўз бирикмалари *«кишварпаноҳ»*(подшо) сўзига боғланиб, *«қора танлилар подшоси»* маъносини ифодаласа, иккинчи маънода эса, шахматдаги *қора доналарга* ишоратдир.

«Шатранжи кабир» ҳикоятида давлатлараро зиддиятлар, жамиятдаги келишмовчиликлар, кибр ва ғазаб ийҳом санъати воситасида тасвирланган. Икки мамлакат подшоҳининг олиб борган жанги шахмат ўйинига қиёслаб кўриб чиқилади.

Алишер Навоий барча поэтик асарларида бир вақтнинг ўзида бир сўзни икки ҳилдан ортиқ маънода ишлатиш асосида ийҳом санъатининг бебаҳо дурдоналарини яратар экан, аввалambор, бадиий мукаммалликка, шакл ва мазмун ранг-баранглигига астойдил интилади. Чунончи, буюк ижодкор «Лисон ут-тайр» достонида кучли эмоционаллик ва юксаклик ҳамда стилистик иҳчамлик, бадиий равонликка эришди. Қолверса, «Лисон ут-тайр»да моҳирона қўлланилган ийҳом санъати Алишер Навоий тафаккурининг рангбаранглигини намоён этади. [2.4]

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ийҳом турлича ҳосил қилинади:

1. Ийҳом кўпинча бир ёки икки сўз, шунингдек, сўз бирикмасини ўз ва кўчма маъноларида қўллашга асосланади. Ўқувчи дастлаб бу сўз ёки сўз бирикмасининг ўз маъносини англайди, диққат қилсагина унинг яширилган кўчма маъносини илғай олади. Ёхуд аксинча, кўчма маъно юзада бўлса, унга тушуниб етади-ю, ўз маъносини байт мазмунига чуқурроқ кириб борсагина топа олади.

2. Кўпинча ийҳом санъати сўзларни икки ёки кўп маънолигига асосланади. Маълумки тилимиздаги кўп сўзлар икки ёки ундан кўпроқ маънони ифодалаши мумкин. Шоир бир сўзнинг икки ёки уч маъносини назарда тутган ҳолда улардан бирини аниқ ифодалаб, иккинчисини ва учинчисини яширин қолдиради.

3. Баъзида бир аниқ маънони ифодаловчи сўз икки шахсга ёки нарсага тааллуқ қилиб олинади, бу шахслардан (нарсалардан) бири яққол билиниб туради-ю, иккинчисини илғаб олиш қийинроқ бўлади.

4. Баъзан шоир икки хил маъно ташувчи сўз ёки сўзлар бирикмасидан фойдаланар экан, байтнинг сохта ва хақиқий (Шоир назарда тутган) маъносини ифодаловчи мисралар майдонга келади.

5. Баъзан тажнис санъати қўлланган байтларда жинсдош (шаклан монанд) сўзларнинг бири қайси маънони англатиши яққол кўзга ташланмай, ийҳом ҳосил қилиб, ҳар икки маънони ифодалаши хам мумкин. Ийҳом санъати хусусиятларидан муаммолар тузишда кенг фойдаланилган.

Адабиётлар:

1. Алишер Навоий . Асарлар. 14 том, - Тошкент, 1967, -Б. 39.

2. А.Ҳожиаҳмедов. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия, Шарқ, -Тошкент, 1998, -Б. 4

3. Д.Юсупова. Алишер Навоий «Хамса»сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги, Мумтоз сўз, - Тошкент, 2011.

4. Т.Сабитова. Навоий ижодида бадиий санъатлар, ARES, - Чирчиқ, 2021, -Б. 1074.

“РАНГЛАР ВА ОҲАНГЛАР” ТУРКУМИ АБДУЛЛА ОРИПОВ ИЖОДИНИНГ АЛОҲИДА БОСҚИЧИ СИФАТИДА

Давлатова Адиба Раҳматовна,
Чирчиқ давлат педагогика институти
доценти, ф.ф.н.

Муайян инсоннинг ўз услуби, шахсий кечинмалари, дунёни идрок этиш ва қабул қилиш жараёни бўлгани каби, ижодкорнинг руҳияти, шахсияти асарлари орқали икки карра намоён бўлади. Санъаткор (ёзувчи, шоир, бастакор, рассом, ҳайкалтарош)нинг асарини таҳлил қилиш натижасида унинг “мен”ига кириб бориш ниҳоятда мураккаб ва қизиқарли жараёндир. Яъни ижодкорнинг давр, жамият, инсонлар, замондошларига бўлган муносабати, ички ва ташқи таъсирлар натижасида пайдо бўлган ҳиссиётлари образлар, рамзлар, шаклларга трансфер қилинади. Масалан, ижобий руҳий кечинмалар ёрқин ранглар, шўхчан ноталар, самимий сатрларга; салбий автопсихологик ҳолатлар эса аксинча маҳзун, абстракт тарзда инъикос этади. Демак, асар мазмун-мундарижасидаги ижодкор ҳиссиётларининг зарраларини илғай олиш унинг фалсафаси ва нозик руҳий жиҳатларини тўғри талқин қилишга асос бўлади.

Айниқса лирик асарни бадиий таҳлил этиш анча мушкулроқ. Негаки, адабиётшунос камида шоир даражасида фикрлаши, ўрганилаётган асар яратилишидаги ҳолатини руҳан идрок этиши керак. Ҳақиқий ижод маҳсули шоир тафаккури, руҳий эҳтиёжи, собит эътиқод ва фалсафасини акслантириши билан ажралиб туради. Шундай қилиб, лирик асарни бадиий таҳлил қилиш энг аввало уни тўлақонли идрок этишни, қолаверса, шоир ижодий жараёнини қайта ҳис эта олишни талаб этади.

Абдулла Орипов лирикаси ана шундай нозик илғамларни талаб этадиган шеърият. Бу катта АДАБИЁТда кўнгил, муҳаббат, ғурур, орзу, нафрат, руҳий

изтироблар, мазлумлик, чорасизлик, ўкинч, ўтинч, умид каби туйғуларни мужассам этган ОДАМ бор.

Шунинг учун инсон ёшидан қатъи назар Абдулла Орипов шеъриятидан илҳомланади, ҳаяжонланади, фалсафий қарашларидан улгу олади.

Психолог олимлар катарсисни “ҳаракат катарсиси” ва “интеграция катарсиси” тарзида икки турини таъкидлашади. Биринчиси муаллифнинг кечинмалари бўлса, иккинчиси шоир, ёзувчи асарини мутолаа қилиб китобхонда пайдо бўладиган руҳий ҳолатдир. Яъни ўқувчи маълум бир асарда, лирик қаҳрамонда ўз кечинмаларини тасаввур қиладики, бу ўша образни, жараённи, ҳолатни перцептив идрок этиши билан белгиланди. Бу ўқувчи руҳиятига таъсир қилади, у ўзи каби инсонлар мавжудлигига иқрор бўлади. Қалбидаги оғриқ босилгандек бўлади. Абдулла Орипов ижодида алоҳида ўрин тутадиган “Ранглар ва оҳанглар” тўплами ана шундай катарсис маҳсули десак янглишмаймиз. Яъни шоир айнан мана шу туркуми орқали руҳиятидаги аффектлардан халос бўлишга ҳаракат қилган. Абдулла Орипов ҳеч бир тўпламига кириш сўз ёки муносабатини ёзмайди. Лекин айнан “Ранглар ва оҳанглар”да истисно тариқасида ўқувчига айрим “сирлар”ини айтишга жазм қилади. Ижодкорнинг ўзи ҳам руҳият ва асар яратилиши борасида мулоҳаза юритар экан қуйидаги изҳорларни баён этади. “Инсон руҳияти ғоят сирли, ниҳоятда мураккаб бир оламдир. Руҳият доимий иқрорлар, тубсиз армонлар, чексиз орзулар диёридир. “Ранглар ва оҳанглар” деб номланган шеърий туркумда эса ёйиқ, воқеабанд ифода шаклига мурожаат қилдим. Кўпгина мавзулар хусусида ўз мушоҳадаларимни, кузатишларимни, кўнглимдан кечганларини фақатгина ёздим эмас, “ижро” қилдим десам тўғрироқ бўлар” [1.5]. Санъаткор кечинмаларини ижро этиши, “тўкилиши” учун медитация ҳолатида бўлиши керак. Онги, қалби, вужуди суфийнинг жазбаси каби сирли коинот билан бирлашмоғи даркор. Акс ҳолда уни руҳ эмас, ақл ва онг бошқарган бўлади.

Аввал-охири йўқ мажҳул дунёнинг

Суврату сийратин чиза олган ким?!

Синаб кўражак у сени ҳам албат.[1.23]

Шоир дунёга кўнгил бермасликни, уни мутлақлаштирмасликни хулоса тарзида ифодалар экан, тафаккурга таянган инсонгина нажот топишини таъкидлайди. “Ҳатто энг оддий шакл ёки ранг - бу коинотнинг асл воқелигининг табиатини ва инсон руҳиятининг тузилишини очиб берувчи рамз бўлиб, унда бу универсал ҳақиқат акс этади”.[2]. Ранг ва товуш (оҳанг) руҳий жараённинг бевосита ифодаси бўлиб, уларни идрок этиш, моҳиятини аниқлашга интилиш ҳар доим ҳам тўғри ечим бўлмаслиги мумкин. Шунинг учун ҳам шоир туркум аввалида ёзиш атамасидан чекиниб, ижро этганига ишора қилади. Демак, шоир чизган ранглар унинг ички кечинмалари,руҳият қатламларининг моҳиятини оҳанглар орқали кўрсатади.

Қара, наъматакнинг қуруқ шохида
Бир қуш сайраб турар саҳардан то кеч.
Сергак бўлолсайдик ўша қуш каби.[1.23]

“Шеър – руҳий ҳолат маҳсули. Руҳ ва тафаккур бирлашган жойда шеър пайдо бўлади. Шеърнинг туғилиши акс-садога боғлиқдир. Мияда мувозанат бузилдими, унинг акси ё ижобий, ё салбий шеърни яратади. Физика фанидаги мусбат ва манфий зарядларга ўхшаш бўлади. Адибда таассурот, қарама қаршилик кучли бўлганда ажойиб шеърлар туғилади”[3]. Бу сатрларни биз авлодларга етказиш аслида шоирнинг маънавий ҳаққи эди. Биз эса улардан ибрат олишимиз, хулоса чиқаришимиз керак.

Туркум 15 та алоҳида мавзуга бағишланган, ҳар бири 15 банддан иборат бўлган ва энг асосийси моҳиятига кўра яхлит фалсафий шеърий асардир. Шоир ижодий концепциясида бу янги жанр, янгича ифода тарзига эга асар сифатида кенгроқ тадқиқ этилиши керак албатта. Зеро туркум мазмунида ижодкор психобиографияси, фалсафаси, ҳаётий хулосаси ва огоҳликка даъвати мужассам этган.

Адабиётлар:

1. Орипов А. Ранглар ва оҳанглар. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – Т.: 2012.152 Б.

2. Лама Анагарика Говинда. Творческая медитация и многомерное сознание. - М., 1993, с.137-153.

3. Гўзаллик қасри// “Совет Ўзбекистони”, 1989 й. 20 сентябрь.

ИБРОҲИМ ҲАҚҚУЛ – ЯССАВИЙШУНОС

Сирдарёхон ЎТАНОВА,

ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институтининг катта илмий ходими, филология фанлари номзоди

Йирик шахсиятларнинг тақдир йўли, тафаккур йўсини ва маънавий олами қамрови ила улкан чинорларнинг илдизидан сув ичган, томир ёйган, муайян нуқталарда кесишган бўларкан. Бундай шахсларнинг тафаккурини чархлаган илм, қалбидаги шижоат ва ғайратни кучлантирган завқ, Ватан ва миллат ишқини ёлқинлантирган маёқ манбаи миллий заминдан озиқланган бўлади. Тарихда бир-биридан анча узоқ вақт масофасида яшаб ўтсалар-да, руҳоний олами ила муштарак тақдирларни, уйғун ғоялар яловбардори сифатидаги бирликни ҳосил қилган миллат ойдинлари кўп ўтган.

Гарчи Ислом дини VIII асрда Мовароуннаҳрга кириб келган бўлса-да, орадан уч-тўрт юзйиллик ўтиб бораётганига қарамай, у ҳали оддий аҳоли ўртасида чинакам эътиқодга айланиб улгурмаган эди. Аниқроғи, оддий халқ араб тилида нозил бўлган дин арконларининг моҳиятини ва унга бекаму-кўст риоя қилишнинг йўлларини тўла-тўкис англамас, англаёлмас эди.

XII асрда Пири Туркистон номи ила дунёга танилган Хожа Аҳмад Яссавий мусулмон дунёсида чинакам бурилиш ясади: унинг ҳикматларини ўқиган ва эшитган кишилар Исломнинг Ҳақ дин эканлигига қатъий иймон келтирди, унинг замиридаги комил инсонликка даъватни шуурига жойлай олди, Ўзликни англаш, нафсни таниш сари чақириққа қалби ила юзланди ва умуминсоний ахлоқ меъёрлари мужассам Қуръони карим мағзини туйди.

Кичик Осиёдан тортиб Олд Осиё, Кунчиқар мамлакатлари томон узайган чексиз ҳудудда қарийб етти аср давомида маънавий муршид ўлароқ

яшаб келган Яссавийни таниш, унинг ҳикматларини ўқиб-ўрганишга XX асрнинг бошларида Советлар мафкураси томонидан тақиқ қўйилди. Асрнинг етмишинчи йилларига келиб вазият янада таранглашди. Қуйида куйиниб ёзилганидек, "*Натижада, саксонинчи йилларнинг иккинчи ярмигача "Девони ҳикмат"нинг нашри у ёқда турсин, Яссавий ҳақида тўрт жумла ижобий фикр айтишга ҳам имкон берилмаган*" [11.4]. Яссавийшунос олим Н.Ҳасан докторлик диссертациясининг бир фаслини "Ўзбекистонда яссавийшунослик" деб атайди ва унда XX асрнинг 90-йилларигача мазкур мавзуда қилинган ишлар кўлами ва Фитрат домла, И.Мўминов, Э.Рустамов сингари муаллифлар саноғи тўрт-беш кишидан ошмайди [4.13].

Ҳаққулов домла ўтган асрнинг 70-йиллари аввалида илмга кириб келган бўлса, дастлабки изланишлари мумтоз адабиёт назарияси, аниқроғи, рубоий жанрининг шаклланиши, генезиси, назарий жиҳатлари ва ғоявий-бадиий хусусиятлари, шунингдек, ғазал ва қитъа каби шеърий шаклларнинг мавзу мундарижаси тадқиқига бағишланди. "Ўзбек халқ мақоллари" [8.215] нинг тузувчиларидан бири сифатида миллий фольклоршуносликнинг хазинасини бойитишга ҳам муносиб улуш қўшди.

Шундан сўнг қатор йиллар давомида Мавлоно Лутфий, Мавлоно Атойи, Мавлоно Гадоий, Алишер Навоий, Мирзо Бобур, Жаҳон отин Увайсий, Аваз Ўтар сингари классик шеърият карвонбошиларидан тортиб замонавий лириканинг улкан чинорлари бўлмиш Ғафур Ғулом, Абдулла Орипов, Усмон Азим, Тилак Жўралар ижоди юзасидан тадқиқий мақолалар эълон қилиб борди. Бу ишлар илм оламига қайтариқлардан ҳоли, фикрлари илмий асосланган, энг асосийси, ўз мустақил қарашларига эга олимнинг кириб келганидан дарак берарди.

Мумтоз ва замонавий шеър завқи ва халқ мақолларининг ёркин зиёсидан тафаккури теранлашган Иброҳим домла 80-йиллар охирида нафақат Ўзбекистонда, балки бутун Ўрта Осиё давлатларининг олимлари орасида биринчи бўлиб улкан илмий жасорат кўрсатди. Ҳали совет тузуми иқтидорда бўлган йилларда "Ёшлик" журналида домланинг "Навоий азиз билган..."

[7.67-72] деб аталган мақоласи чоп этилди. Бу советлар мамлакатида туркий халқларнинг энг машҳур сиймоларидан бири – Хожа Аҳмад Яссавий ҳаёти ва ижод йўли ҳақида илк марта қилинган холис илмий тадқиқот эди. Мақоланинг сарлавҳаси асли бошқачароқ бўлган. Журнал бош муҳаррири мақолада Ҳазрат Яссавий номи сарлавҳада турса, чоп этилмаслиги мумкинлигидан ўйлаб, уни юқоридаги ном билан алмаштиради.

Маълумки, ҳазрат Навоий ўзининг "Насойим ул-муҳаббат" тазкирасида бу буюк зот ҳақида қуйидагиларни айтган эди: "*Аҳмад Яссавий – Туркистон мулкининг шайхул машойихидир. Мақомоти олий ва машҳур, каромати маталоий ва номахсур эрди. Мурид ва асҳобға ғоятсиз ва шоҳу гадо анинг иродат ва ихлоси остонасида ниҳоятсиз эрмиш*" [1.560]. Навоийнинг асрлар оша тасдиғини топиб келаётган ушбу ҳақли эътирофи, инчунин, унинг адабиётшуносликда муайян мезонларни келтириб чиқарган ижодкорлар меросига бўлган баҳоси сабаб бўлса керак, мақолага мавзу қилиб олинган юқоридаги ном бир ўқишдаёқ зукко китобхонга гап ким ҳақида кетаётганини илғаш имконини бергани, шубҳасиз.

"Ёшлик" журналида эълон қилинган мақола олиму ижодкорлар, оддий ўқувчилар орасида қизғин баҳсу мунозараларга сабаб бўлди. Ҳеч кимни лоқайд қолдирмади. Кейинроқ домланинг "Менинг ҳикматларим дардликка дармон..." [9.12-17] номи остида "Муштум" журналида эълон қилинган мақоласи ҳам катта шов-шувларга сабаб бўлади. Табиийки, домланинг бу чиқишлари унинг илмий тақдири, ижтимоий мавқеига салбий таъсир қолдирди. Ёш олимга ўзгача кўз билан қарашлар, уни умумий оқимга бегона санашлар кучаяди.

Коммунистик мафкура ҳукмрон бўлган шароитда адабиётшунослик майдонида жасорат кўрсата билган Иброҳим домланинг кўнглини, ақл-у идрокини Яссавий маърифатининг зиёси ёритиб, илмий изланишларида янги йўл очилишига сабаб бўлган дейиш мумкин. Яратганнинг ўзи Ҳақиқат ва Эрк йўлида собит турган эранларни ярлақаши ҳақ экан-да!!! Қисмат Домлани латвиялик Улдес билан учраштиради. Латиш Улдес ҳанузгача

Яссавий ҳикматлари девонини нашр қилдирмаётгани учун Иброҳим домладан ёзғиргандай бўлади. Болтиқбўйилик қўноқнинг куйиниши туртки бўлиб, юқоридаги чиқишлари учун тазйиқ ва таъқиблар ҳали тўхтамаган эса-да, домла ишга киришади. Атоқли турк олими Камол Эраслоннинг Туркияда нашр қилинган Аҳмад Яссавий ҳақидаги сочмаларини [2.512] қўлга киритади. Яссавий ҳикматлари жамланган қўлёзма устида ишлаб, 1991 йил 256 саҳифадан ибора салмоқли девонни сўзбоши ва изоҳлари билан чоп эттиради.

Ота-боболарининг танглайи яссавийхонлик, бедилхонлик, машрабхонлик ила кўтарилган, аммо маънавий буҳронлар оғушида инқирозга юз тутиб, ўтмишини унутаёзган миллат учун бу китоб, албатта, юксак қийматга эга совға бўлди. 300 000 нусхада ёйинлаган китоб тез орада халқнинг севимли асарига айланиб улгурди. Қардош ўлкаларда ҳам қизғин қаршиланган “Ҳикматлар” 1995 йилда Истанбулда Эрхан Сезайи Тўплу томонидан турк тилига ўгирилиб, нашр қилинди [3.330].

Бевосита Иброҳим домла раҳбарлигида яссавийшунослик бўйича илмий тадқиқотлар олиб бораётган ғайратли шогирди, филология фанлари доктори Нодир Ҳасан ҳам Устозга муносиб издошлик қилмоқда. Дастлаб Султон Аҳмад Ҳазинийнинг “Жавоҳир ул-аброр” асари ва унинг яссавийшуносликдаги илмий-тарихий қиммати” мавзусида номзодлик ишини ёқлаган (1999) олим 2016 йилда “Яссавийшуносликка доир манбалар ва “Девони ҳикмат” мавзусида докторлик ишини якунлади.

Иброҳим домла 2001, 2004, 2006, 2018 йилларда “Девони ҳикмат”ни тўлдириб, янги топилган намуналар билан бойитиб, китобнинг нашрдан нашрга мукаммаллаша борган нусхасини китобхонларга тақдим этди. Бу ишларнинг юзага чиқишида Нодир Ҳасаннинг ҳам хизматлари таҳсинга лойиқ. Табиийки, илмнинг қаттиқ нонидан насиба олишни ният қилган, йўлга чиққан ғўр ўқувчининг баланд марраларни эгаллаши узоқни кўра била биладиган, “хом”ни пиширишда меҳнати сингган, ўз вақтида бағрикенглик ва бардош кўрсата олган домланинг меҳнатлари мевасидир.

Домла бошчилигида 2001 йилда Мумтоз адабиёт тарихи бўлимида “Хожа Аҳмад Яссавий: ҳаёти, ижоди ва анъаналари” номли анчагина катта тўплам чоп қилинди. Шайх Аҳмад Яссавий ҳаёти, адабий мероси, издошлари ҳақида энг сўнгги тадқиқотлар мужассам бўлган мажмуа алоҳида аҳамиятга эга бўлди [11.4].

Ҳикматларнинг турли йиллардаги нашри орасида 2011 йилда “Ўзбекистон” нашриётида “Ҳикматлар куллиёти” номи остида Аҳмад Яссавий ва унинг маслакдоши Сулаймон Боқирғоний шеърлари жамланган китоб алоҳида илмий-эстетик қиммат касб этади[1]. Ундан Иброҳим домланинг куллиёт ҳақидаги жиддий фикр-мулоҳазалари, шунингдек, “Ихлос ҳадяси” номли ихчам сўзбошиси ўрин олган. Олим кириш сўзи учун танланган номда ҳам ўзгача рамзийлик бордек.

Ҳали талаба экан, Иброҳим аканинг университетдаги муаллимлари орасида юксак эҳтиром ила ёдлайдиган раҳматли устози Тожи Қораев шогирдининг тафаккур ойнасини ёритди. Тожи Қораевнинг мумтоз адабиёт бўйича берган сабоқлари, томири бақувват миллатимизнинг тарихи, улар қолдирган мероси борасидаги меҳр-муҳаббат, ғурур тўла айтган сўзлари Иброҳим ака қалбига чўғ солади. Айниқса, унинг Яссавий, Навоий, Бобур сингари миллий шахсиятлар борасидаги суҳбатлари домланинг ақл-у шуурида янги иқлим пайдо қилганди.

Эҳтимол шунинг учун бўлса керак, шижоатли, илмга ташна ёш йигит қалбига тушган ирфон уруғи Иброҳим домланинг айни ақлга тўлиб, тобланган 40 ёшида гуркираган тафаккур боғида тотли мева бергандир. Дарҳақиқат, домланинг “Ҳикматлар”нинг илк нашридан кейинги изланишларида чуқурлашиш, қамров, тасаввуф тили билан айтганда, илми қолдан илми ҳолга ўтиш босқичини кузатиш мумкин.

Мустақиллик даврида яссавийшунослик бўйича кўплаб ишлар амалга оширилди. Аммо домланинг ўз вақтида бажара олган жасоратли ишлари

1 Йилдан йилга саноқ ортидан қувиб, бири бирини такрорлайдиган, кўчирмакашлик қозони тобора қайнаб, сифатдан йироқлашиб кетаётган илмий анжуманлар тўпламига масъул бўлаётган соҳа эгалари учун ҳам у бир кўзгу, бир намунадир.

мумтоз адабиётшуносликда Яссавий ҳикмат мактаби ва ҳикматнавислик йўналишининг шаклланиши ўзига хос ҳодиса эди.

Иброҳим домланинг 1995 йилда ёқланган “Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар олами)” номли докторлик диссертациясида ҳам туркий тасаввуф шеъриятининг тамал тошини қўйган Аҳмад Яссавийнинг ҳаёти, ижоди ва тариқати илк марта тадқиқ этилганди. Домланинг яссавийшунослик борасидаги ишлари хориждаги илмий анжуманлар материаллари ва турли илмий тўпламларда чоп қилиниб, юксак эътирофларга сабаб бўлмоқда[5].

Иброҳим домланинг “Яссавий ва маломатий маслаги”, “Тариқат ва шеърият муносабатига доир” сингари мақолалари эса келгусида жиддий текширилиши лозим бўлган мавзуларнинг илк чизгиларидир.

Домла яқин ўттиз йилдан буён Пири Туркистон Аҳмад Яссавий ва ҳазрат Навоийнинг маърифати чашмасидан баҳраманд бўлмоқда, бу икки улуғ сиймо ижоди сирларини илмий тадқиқ қилиб, уларни илм аҳли ва кенг жамоатчиликка яқинлаштириш йўлида тер тўкиб келмоқда. Икки буюк пир домланинг илмий парвозига қўш қанот бўлиб келмоқда.

Домла бундан роса ўттиз йил олдин шундай деб ёзган эди: “*Аҳмад Яссавий ҳикматлари учун кўп овозлилик ҳам хос хусусиятлардандир. Унинг ҳикматларида орифнинг овози ҳоким. Улардан шайхнинг овози эшитилади. Баъзан бир ҳикматда ҳам ошиқ, ҳам дарвеш, ҳам донишманднинг овози янграйди. Лекин булар орасида изчиллиги ва фаоллиги билан яна икки овоз алоҳида ажралиб туради. Улардан бири − гуноҳ “фалсафаси”ни тасдиқлайди. Бу − гуноҳкорлигини теран тушунган кишининг овози. У − шафқатсиз. Бу овоз хотирага бамисоли тиғ бўлиб санчилади, Юрак оромини бутунлай бузади”* [10.21].

Синчиклаб кузатилса, илмий иқтидори ва чуқур фалсафий мушоҳадага эга шахсият сифатида Иброҳим домла табиатида, ёзганларида ўзи уқтирганидек, кўп овозлилик яққол сезилади.

Ҳикматлар сирини англашга уринишлар йўлида домла машаққатли меҳнатни зиммасига олиб, охир-оқибат ўқувчиларини ўзига, ўз қалбининг энг чуқур жойларига назар ташлашни ўргатди. Уларни одам руҳиятидаги энг инжа туйғуларни илғашга одатлантирди. Иброҳим домла узоқ йиллик машаққатли меҳнатлари сабаб иймон тили билан муҳаббатни улуғлаган Яссавий ҳазратларини ўзбек халқига севдира олди.

Адабиётлар:

1. Алишер Навоий А. Насойим ул-муҳаббат. Тўла асарлар тўплами. 9-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 560 б.

2. Аҳмад Яссавий. “Девони Ҳикмат”дан сочмалар. Нашрга тайёрловчи Камол Эраслон. – Анқара, 1983.

3. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. Нашрга тайёрловчи И.Ҳаққулов. – Истанбул(Туркия), 1995. – 330 бет.

4. Бу ҳақда қаранг: Ўзбекистонда яссавийшунослик/китобда: Н.Ҳасан. Яссавийшуносликка доир манбалар ва “Девони ҳикмат”. Монография. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 13.

5. Бу ҳақда қаранг: Ҳаққулов И. Девони Ҳикматнинг 20-юз йилликда Ўзбекистонда тарқалиши ва тадқиқ этилиши. Uluslararasi Hoca Ahmed Yesevi Sempozyumi materiallari.\Истанбул, 2012. 198-200-бетлар.; Қул Ҳожа Аҳмад Яссавий. – Анқара, 2018. 536 бет.

6. Хожа Аҳмад Яссавий: ҳаёти, ижоди ва анъаналари/Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: И.Ҳаққул, Н.Ҳасан ва А.Бектош. Тўплам. – Тошкент, 2001.

7. Қаранг: Навоий азиз билган... (Аҳмад Яссавий ҳақида)//Ёшлик, 1988 йил № 4. – 67-72-бетлар.

8. Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчи И.Ҳаққулов. – Т.: Фан, 1978. – 215 бет. (Б.Саримсоқов, А.Мусақулов, Р.Зарифовлар билан ҳаммуаллифликда).

9. Ҳаққулов И. “Менинг ҳикматларим дардликка дармон...”// “Муштум”, 1989, №12. – 12-17-бетлар.

10. Ҳаққулов И. Шеърият − руҳий муносабат. − Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 21.

11. Ҳаққулов И. “Ҳар киши комил эрур...”/Китобда: Н.Ҳасан. Яссавийликка доир манбалар ва “Девони ҳикмат”. – Тошкент: Академнашр, 2012.

МАКТАБДА ГЕРМЕНЕВТИК МЕЗОНЛАР БИЛАН ЛИНГВОПОЭТИКА САНЪАТИНИ ЎРГАНИШ

Таджибаев Мусажан Сабирович,

Чирчиқ давлат педагогика институти доценти

Аннотация. Мақолада поэтик тилнинг санъат яратиш имкониятлари ҳамда бу борада ижтимоий-сиёсий фактор мезонлари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: сўз санъати, миллий тил, индукция, дедукция, индивидуализм, ғоя, ёлқин, оммавийлик, бадиий ижод.

Санъат инсон ҳаётининг мазмуни. Санъатсиз ҳаёт ваҳшийлик, деган гап аксиома. Бироқ санъатни эгаллаш, уни эшитиш, кўриш ва ҳис қилиш ҳамда ундан завқланиш баробарида уни тушуниш, уни тўлақонли ўзлаштириш муаммоси ётади. Санъатнинг замирида оддий инсоний маданият туради. Маданият эса, инсонлар ва халқлараро толерантликнинг таянч нуқтаси. Санъатни тушуниш борасида инсон ҳиссиётнинг олий шакли-сўз воситасидаги ёлқиндан фойдаланади.

Бадиий адабиёт эса, сўз санъатидир. Сўз тил демакдир. Тил эса турли шаклларда реаллашади:

* инсон тили,

* ҳайвон тили,

* ўсимликлар тили.

Тилнинг бу шакллари ундан фойдаланувчилардаги ижтимоий муҳитга муносабат воситасида вариантлашади.

Бу ўринда биз ижтимоий - сиёсий алоқа воситаси ҳисобланган инсон тили хусусида фикр юритар эканмиз, тилнинг этник-географик категорияларини ҳам фарқланишимиз даркор:

* миллий тил,

* давлат тили,

*халқаро тил.

Миллий тилнинг ўзи ҳам турли шаклларда намоён бўлади:

*умумхалқ тили,

*адабий тил,

*расмий тил,

*илмий - публицистик тил,

*китобий тил,

*сўзлашув тили,

*кўча тили,

*маҳаллий тил,

*турли табақа ва гуруҳлар тили,

*бадиий тил.

Қўлланиши кўлами ҳолатига мувофиқ:

*қўлланиш доираси чегараланган тил,

*қўлланиш доираси чегараланмаган тил.

Тилнинг бу каби классификациялари серқирра ва улар орасидаги бўлиниш ҳозирда ҳам давом этмоқда. Бироқ, биз бу ўринда тилнинг ҳар қандай шаклларини умумлаштира оладиган шакли ҳақида фикр юритмоқчимиз: бу тил - бадиий тил, бадиий адабиёт тилидир.

Бадиий адабиёт тили умумлаштирувчи характерга эга, чунки бадиий асар мавзу доирасида воқелик ва персонажларнинг реал инъикоси жараёнида ижтимоий ҳаётнинг ҳар қандай соҳасига даҳлдор бўла олади. “Ёзма адабиёт ўз тараққиётида сон-саноқсиз авлодларнинг коллектив ижоди бўлган фольклордан доноликни, образ яратиш соҳасида тўпланган тажрибаларни, тил бойлигини ва хаёл уфқларининг кенглигини ўрганди” [1.45].

Ваҳоланки, бадиий асар муаллиф шахси ва образли лисоний масштаб воситасида тилнинг ҳар қандай ифода услубига бевосита мурожаат қилиши мумкин. Илмий, расмий, китобий, оммавий, диалектал, чегараланган ва чегараланмаган тил унинг ифода аспектлари ичида бўлади. Шу боис бадиий адабиёт тили – бадиий тил, бадиий адабиётнинг ўзи каби оммавий характерга эга. Айнан мана шу оммавийлик бадиий адабиёт герменевтикасини ижтимоий ҳодисага айлантиради (Биз бадиий ижоднинг оммавий характери ҳақида қуйида тўхталамиз).

Бадиий асар матни герменевтик таҳлили жараёнида бадиий адабиётнинг энг муҳим атрибутларидан бири унинг бадиийлигини, аниқроғи, бадиийликнинг инсон тафаккуридаги фалсафий-эстетик фантазияга муносабатини назарда тутиш лозим. Бу ўринда бадиийлик *“ўзига хослик”, “истиснолик”, “ишланганлик”, “сайқалланганлик”, “меъёрланганлик”* маъноларига яқин ва айнан шу ҳодиса санъат мавжудлик белгисининг энг биринчи талаби. Бу маънолар бадиий адабиёт намунасининг шакли ва ғояси бинобарида юзага чиқади. Шакл ва ғоя эса мантиқ – билишнинг ўзига хос қирралари. **Билиш – тафаккур фаолияти, тафаккурнинг бу фаолияти эса, тилда намоён бўлади**. Бадиийлик бадиий адабиётда сўзда намоён бўладиган алоҳида хусусият сифатида унинг тили ҳам демакдир: **бадиийлик бу – бадиий тил**.

Бадиий адабиётнинг яна бир муҳим хусусияти – унинг индивидуал ижод намунаси эканлиги. Бадиий адабиётда энг муҳим ҳодиса – индивидуализм – ижодкорнинг ўз ғояси, унинг ўз асари орқали инсониятга айтмоқчи бўлган сўзи, гапидир. Гап, сўз - тил бадиий асар намунасининг борлиғи, унинг мавжудлик ҳолатидир. Бу тамойил ижоднинг, асарнинг барча мавжудлик категорияларини қамраб олади. **Оламнинг мавжудлиги ғоя экан, ғоя сўз билан ифодаланар, сўз эса, тилнинг намоён бўлиш шакли экан, онг, ғоя - тил, сўз эса, нутқдир. Бадиий асар эса, бадиий нутқнинг реаллик касб этган варианти.**

Тил, умумхалқ тили онгнинг мавжудлик ҳолати.Ҳар бир инсон ўз онгини тил орқали реаллаштиради. Тил - бу ўринда онгнинг реаллик

калити. Нутқ эса, тилнинг ёзма, оғзаки, ички туйғуда реаллашган шакли. Сўз эса, нутқнинг, амалдаги тилнинг товушда либосга эга бўлган кўриниши. Буларнинг ҳаммаси умумхалқ тилида умумий, айрим ижодкорда хусусий, индивидуал кўринишга эга. Индивидуал ижод индивидуал тилни, аниқроғи тилнинг янги воситаларини талаб қилади. **Индивидуал тил – ижодкорлик.**

Бадиий асарда ижодкор икки шаклда намоён бўлади: янги ғоя ижодкори ёки мавжуд ғоянинг янги шакли ижодкори сифатида. Биринчисида у даҳоликка даъвогар, иккинчисида мавжуд даҳоликнинг давомчиси. Бадиий ижод даҳолари ёки унинг давомчилари ўз ғоялари билан ҳали башарият тасаввури уфқлари илғамаган қирраларни кашф этишга интиладилар.

Борлиқни билиш – англаниш меъёри ҳозирги мутафаккирларнинг тадқиқотларига кўра 36 даражани ташкил этади. Ердаги мавжудот шундан бор – йўғи 3 даражасини истифода эта олади. **0 дан 1 гача ўсимлик, 1 дан 2 гача ҳайвонот, 2 дан 3 гача инсоният.** Албатта, буларнинг ўзи ҳам чексиз ички бўлинишларга эга. Шу боис бу шаклдаги классификация жуда нисбий характерга эга бўлиб, фақат материалистик таълимот нуқтаи назардан талабга жавоб бера олади. Ваҳоланки, уфология илмида борлиқнинг мавжудлик ҳолатини ўзаро тортишув, мувозанат натижаси билан белгилайдилар. Бутун олам мувозанати илмда гравитация деб номланган. Гравитация борлиқ бирлигининг энг муҳим ҳолатики, усиз борлиқнинг мавжудлик инъикоси ҳақида гап бўлиши мумкин ҳам эмас. Қолаверса, гравитация ҳар бир мавжуд нуқтанинг борлиқда ўз ўрни ва аҳамияти борлигининг зарурий шарти ҳисобланади. Бинобарин, ўша нуқтани истисно қилиш борлиқда мувозанатнинг бузилишига олиб келади. Мувозанатнинг бузилиши эса, борлиқнинг ҳалокати демакдир. Герменевтика жамиятдаги гравитациянинг мавжудлик ҳолатини ўрганишга қаратилган фан. У борлиқнинг (Ер сайёрасида) мавжуд ҳар бир воқеа-ҳодисасининг ўрни ва ролини меъёрлаштиришга қаратилган таълимот. Герменевтиканинг предмети ва таълимоти бу-тушуниш назарияси, яъни олам ва одам борлиғи ва бирлигини тушуниш муаммоси. Тушуниш бу-геометрик фикрлаш демакдир.

Ваҳоланки, Аллоҳ томонидан яратилган ҳар бир нарса ва мавжудотнинг ўрни ва аҳамияти борлигини тушуниш, унинг мавжудлиги билан келишиш, ўзаро нифоқ, айниқса, интиқомга ўрин йўқлигини тушуниш ва атрофдагиларга шу тушунилган ғояни етказиш ҳақидаги таълимот. Бу борада Ўрта асрларда тасаввуф таълимоти қатор эътиборга молик ғояларни илгари сурган.

Бадиий адабиёт, бинобарин, конкрет бадиий асар бадиий ғоя, бадиий тафаккур сояси эканлигини ҳисобга олган ҳолда ғоянинг реал шаклини истисно қилиб, биз бу каби бўлинишларни бадиий ғоя мавжудлигининг фақат бир шакли билан боғлиқ эканлигини эътироф қиламиз. Санъат ёки бадиий адабиёт борлиқнинг образли инъикоси бўлганлиги боис бундай реалистик моддий жараёнларни ғояга айлантиради ҳамда уларнинг мавжудлик ҳолатини образларда инсон табиатига мутаносиб тасвирлайди. Бундай тасвир индивидуал ижодкорнинг ўз менталитети ва дунёқараши ҳамда худо берган таланти бинобарида ижодга, борлиқнинг оригинал кўринишига айланади. Бадиий адабиётда бу каби ҳодисалар сўзнинг лексик-семантик ёки стилистик имкониятлари ичида ётади. Герменевтика санъатнинг образли инъикосини инсоният борлиғи ижтимоий гравитациянинг қонуний кўринишларини яратишга қаратилган таълимот сифатида санъат воситасида борлиқ ҳодисаларининг образли изоҳини унинг барча қонун-қоидалари доирасида тушуниш, тушунтириш ҳамда уни ҳис қилиш методларини яратади.

Ижод индивидуаллиги бадиий ғоя индивидуаллигининг асосида ётади. Борлиқнинг изоҳи беҳад, бироқ бу ҳол ундаги тинимсиз оригиналликнинг энг одми ҳолати холос. Олам ҳодисаларинингичида абадийликка фақатғоягина дахлдор. Ҳар қандай материаллик эфемерликка маҳкум. Ҳар қандай эфемер ҳодисалар ўртасида қандайдир умумий боғланиш - дедукция кузатилади.

Дедукция бизни силлогизмга етаклайди. Инсон тафаккурининг энг заиф жойи унинг мана шу силлогизмлар – инкорни инкор ёки сабаб-натижалар домида қолганлигидадир. Шу ҳол материализм, шу ҳол реализм.

Ижоднинг индивидуаллиги кўп ҳолларда айнан шу қобиқни ёриб чиқишга интилган даҳолар фаолиятининг тўлқинидир. Соя моддий ҳолат, тўлқин эса, ички туйғу, шаклсиз фаросатга бўйсунмас ёлқин. Ёлқин категорияси табиат ва жамият қонунларини тушуниш борасида инсон менталитетининг мавжудлик ҳолати. Инсон нималар биландир тарих ва келажакни ҳозирги ҳолатга боғлай олиши, улардаги воқеа-ҳодисаларни ёдда сақлаши, тасаввур қилиш ва қайта ишлаши, энг муҳими улардан ўзига хос хулоса, тушунчалар ярата олиши лозим. Унга бундай имкониятни тақдим қила оладиган ҳодиса ёлқин бўлиб, инсоният унинг воситасида борлиқ ва жамият мавжудлик категориялари устидан ўз тушунчаларини ярата олади. Ҳар қандай ёлқин инсонда аввало тасаввур орқали гавдаланади. Тасаввур эса, образлар билан ишлайди. Айнан шу ҳодиса санъатни борлиқнинг мавжудлигини тушунишнинг энг муҳим шарти сифатида тасдиқлайди.

Мутафаккирларнинг тафаккур ёлқинлари нутққа айланганда, умуминсоний борлиқ касб этганда тафаккур дурдоналари бўлаоладилар. Ҳар бир тафаккур дурдонасининг мантиққа эгалиги унинг силлогизм натижаси эканлигини тан олиш демакдир. Агар ғоя инсон тафаккури доирасига сиғмаса, у янгилик, ижод. Ҳар бир инсон индивидуал дунё, унинг борлиғи ўзига хос замин, унинг ўз ўрмонлари, мамлакатлари, миллат-халқлари, уммон-тоғлари қўйингки, Ер сайёрасидаги барча мавжудликлар инсонда унинг менталитетига мувофиқ у ёки бу даражада мавжуд. Бас, шундай экан, ҳар бир инсон ўзига хос дунё. Шу дунёнинг адабиётдаги инъикоси ижод демакдир.

Герменевтик индивидуализм асар яшаш тарзининг энг муҳим шарти. Борлиқни индивидуал кашф этган ёки билишнинг, тафаккурнинг индивидуал ҳолатини кашф этган асаргина унинг муаллифига шуҳрат келтиради, кейинги авлод учун классик намуна сифатида яшайди. Шуҳрат – машҳурлик, машҳурлик – таниқли бўлмоқ. Таниқли инсон - мавжуд материал, реал қобиқни, ғоя – тафаккур ёлқини билан ёриб чиққан одам. Бундай бахт талантларга, салоҳиятлиларгагина насиб қилади. Талант ва салоҳият эгалари

даҳолар, даҳолар эса ижодкорлардир. Ижодкор ягона, индивидуал кўринишга эга. Ғоя – индивидуал тафаккур ёлқини. Оммада ғоя фақат материаллашади, реалликнинг қулига айланади, ижодийликни йўқотади. Шу боис ижод – ғоя – тафаккур олий заминий кўринишдир.

Заминнинг олий кўриниши унинг ўзидан йироқлашади. Тўгарак жаҳонда ҳамма геометрик томон само, фазо - космос. Шу боис заминдан узоқлашган, кўтарилган тафаккур, у қайси томонга қаратилган бўлмасин самовий ҳисобланади.

Индивидуал тафаккур ёлқини самовий, самовийлик - оригиналлик, оригиналлик - янгилик, янгилик - бетакрорлик, бетакрорлик - ижодийлик. Ижодийлик билан индивидуаллик бу тизимда бирлашмоқда.

Юқорида кўриб ўтилганидек, ҳар қандай индивидуаллик ҳозирча ижтимоий тафаккур билан боғлиқ, чунки унинг маъно - моҳияти жамият томонидан англаниши керак. Агар жамият ундаги индивидуализмни англай олмаса, бундай индивидуализм соҳиби ақлдан ташқари ҳисобланади, жамият уни қабул қилмайди. Индивидуаллик, ижодийлик фақат тилнинг ўзига хос шакли билангина жамиятга тушунарли бўлади. Биз бу ерда тафаккурни, онгни борлиқнинг реаллик калити деб ҳисобланган ҳолда фикр юритмоқдамиз. Бироқ, таъкидлаш лозимки, реализм ижодийликка тўсқинлик қилади. Индивидуализмни ижодийлик ва ҳиссиёт билан боғлаш романтизм методи талабалардан бири (Англия XIX аср романтизми). Ҳиссиёт ақлни, мантиқни, рационализмни инкор қилади. Борлиқ воқеа – ҳодисаларини ақл - идрок (ҳисоб-китоб) йўли билан эмас, балки эҳтирос, ҳиссиёт, қалб даъвати, юрак туйғуси билан бошқаришни тарғиб қилади. Бу ўринда юрак, қалб, кўнгил онг, ақлга қарши қўйилади. Бу категориялар тасаввурда намоён бўлади, бинобарин, тасаввур борлиқнинг мавжудлик ҳолати сифатида қайд қилинади. Тасаввурда борлиқнинг ҳар қандай кўриниши муаллиф хоҳиш-истаги босими остида қайта ишланиши мумкин. Ижоднинг мавжудлиги талантли шахсларда инсониятга борлиқнинг оригинал кўринишларини ҳис қилиш, тасаввурга киритиш имкониятни

беради. Айнан шу ҳодиса Белинскийга “Шекспир асарлари инсониятнинг ақлан бир-икки поғона юқори кўтарилишига восита бўлган”, деб тан олиши учун асос бўла олади.

Бадиий тилнинг асар ғоясига мувофиқ шаклланиши методикаси жараёни юқоридаги талаблар асосида намоён бўлади. Бадиий тил реаллиги кўп ҳолларда герменевтика воситасида шаклланаётган ғояни қандай лингвистик ва лингвопоэтик воситалар билан яратилишининг таъминланишини кузатишдан иборат. Сўзларнинг маъно хоссалари, асар архитектоникасига мувофиқ равишда хоҳ алоҳида, хоҳ қуршов ҳолатида бўлсин ижодкорнинг руҳий, ботиний қалбий ёки онгли, ақл - фаросат фаолиятига бўйсуниши даркор. Бу ҳол асар жанрига мувофиқ турли даражада бўлади: шеъриятда кичик ва қисқа кўламда, эпосда кенг ва батафсил, драмада кенг, бироқ даврий жиҳатдан оз муддат ичида тезлик билан юз берадиган воқеалар тизимида. Аристотель силлогизм назариясида индуктив ва дедуктив методлар борлиқда бутун ва қисмларнинг ўзаро гравитациясини яратар экан жамиятда ҳам бир инсон: у хоҳ катта ёки ақлли, кучли, хоҳ кичик ёки ақлан, жисмонан заиф бўлса ҳам ўз ўрнига эга бўлиши лозимлиги ҳақида айтган эди. Бадиий адабиёт бундай одамлар ўртасида юзага келиши мумкин бўлган воқеа-ҳодисаларни ўша давр ижтимоий психологиясидан келиб чиқиб ижод қилади. Инсонпарварлик шахснинг ҳар бир мавжудлик ҳолатини унинг шахсий менталитетидан келиб чиққан ҳолда тўғри тушунишни, унга адекват муносабатда бўлишни талаб қилади.

Асарда ижодкор айтмоқчи бўлган ғоя сўзларнинг ўз ва ҳаттоки кўчма маънолари ҳосиласи бўлмаслиги ҳам мумкин. Ижодкор яратган ғоя афористик шаклда бутун асар заминида мужассам қилинади. Асар ғоясини ўқувчи - китобхон унинг сюжетидан, образлар ва воқеалар динамикаси, уларнинг психологияси ҳаракатидан излаши лозим. Кўпинча муаллиф ўзи айтмоқчи бўлган гап бошқа ёқда қолиб, умуман бошқа мазмун, сюжет, ҳатто ғояни ҳам яратиши мумкин. Бу ҳам, албатта, асар сюжети, қаҳрамонлар психологияси, воқеалар ривожининг муаллифга боғланмаган

ҳолдаги тараққиётига боғлиқ. Бу тасодифийлик онг маҳсули идрок билан белгиланади. Ғоя ҳар доим ва ҳар қандай ҳолатда бир умумий қобиққа эга. У асарнинг кўламида бошдан охиригача воқеа – ҳодиса, ҳаракат, сўз, образ, бадиий - тасвирий воситаларнинг умумий ёки хусусий инъикосларида ёлқин воситасида сезилиб туради. Ижодкор ғояни лингвистик воситалар семантикаси жараёнида эмас, балки ёлқин билан етказади ўқувчига. Ёлқин бизнинг назаримизда шундай универсал психологик ҳодисаки, унда нафақат инсоният жамияти ёки менталитетига боғлиқ ҳодисалар, балки умумборлиқ воқеа-ҳодисаларнинг ҳам тасавввурий акси намоён бўлади. Бу ҳодиса энг аввало ҳар инсоннинг шахсий фазилатлари борасида, у дунёга келган ва яшаб турган ижтимоий муҳитнинг менталитети билан ҳам боғлиқ. Биз ҳеч қачон бир шароитдаги одамдан у шахсий тасаввурига сиғдира олиши мумкин бўлганидан ортиқроқ нарса талаб қила олмаймиз. Чунки у шундай яралган ва фақат ўз муҳитида муносиб борлиқ. Бироқ бундай митти оламлар ўзаро бирлашиб, яхлит жамиятнинг борлиғини ташкил қилар эканлар ҳамда макон ва замонда мавжуд эканлар улар ўз мавжудлиги доирасида борлиқ ва инсониятнинг маълум (ўз имкониятидан келиб чиқиб) билим ва ғоялар запасини истифода этадилар ҳамда ҳар бир воқеа-ҳодисага шу позициядан туриб шахсий муносабатини яратадилар. Бундай психологик жараён ҳозирда нафақат инсонларда исботланган, балки ҳайвон ва ўсимларга ҳам хос эканлиги аниқланган.

Борлиқдаги ҳар бир мавжудлик митти олам экан, унинг мавжудлиги мана шундай ёлқинни истифода қилиш орқали борлиқ қонуниятлари ва воқеликни бевосита иштирокчисига айланиши учун имкон яратади. Демак борлиқ, унинг мавжудлик қонуниятлари реал ва абадий воқелик экан, уларнинг ёлқини ҳам абадий, шунингдек, уларнинг инсон психологиясида менталитетига муносиб акс этиши ҳам реал воқелик. Санъатнинг оммавийлиги шартида энг муҳим нуқта мана шу. Энди мана шу ўринда асар ғоясини шакллантиришда ҳисобга олиниши зарур бўлган бадиий адабиётнинг муҳим хусусияти – оммавийликка тўхталиб ўтиш зарур.

Оммавийлик – бадиий асар мавжудлик функциясининг, унинг герменевтик шароитда шаклланишининг муҳим шарти. Бадиий асар фақат кенг омма тамонидан қабул қилингандагина адабиёт, санъат намунаси бўла олади. Омма – халқ асарни уч муҳим хусусиятга таянган ҳолда қабул қилади: биринчисида бадиийлиги учун, ўзининг эстетик эҳтиёжини қондириш мақсадида, иккинчисида алоҳида даҳо тамонидан яратилган индивидуал ижод намунаси сифатида ва ниҳоят, унинг янги, инсон учун номаълум бўлган, унга янги дунё сирларини очадиган бадиий ғоя ташиганлиги учун. Бу ўринда бадиийлик ва ижодийлик худди ягона денгизга бирлашган дарёлар каби бир манзил ва ғояда-оммавийликда бирлашадилар.

Бу уч хусусият оммага бадиий асарни реаллаштирган нутқнинг мавжудлик ҳолати – сўз орқали етиб боради. Сўз ва унинг маъно хусусиятлари бадиий асар умумий ғоясининг реаллиги калити сифатида онг билан англаниб, тилга айланади. Бадиий асар ғоясининг лисоний - тил хусусияти айнан шу шаклда намоён бўлади.

Оммавийлик бадиий асар ғояси тилидан ташқари, унинг ифода – шакл тилига ҳам боғлиқ. Асарнинг эстетик эҳтиёжга мувофиқлашуви айниқса, шеърий асарларда янги лингвопоэтик материал яратишни ёки мавжуд материални янги архитектоникада - шакл ва маънода истифода этишни талаб қилади. Омма ижодкордан янги асар, бинобарин, янги сўз кутади. Бу ўринда янги сўз жумласидаги “сўз” калимаси “ғоя” маъносини англатади. Ҳозирги вақтда “сўз” калимасининг бошқа маънолари ҳам шаклланмоқда. Унинг “китоб”, “бадиий асар” “таълимот” маъноларидан ташқари матбуотда “спортда ғалаба”, “устунлик”, сиёсатда “қатъийлик”, “ваъдага вафо қилиш”, ижтимоий ҳаётда “менлик” каби маъноларда қўлланмоқда.(Бу борада яна юқорида айтилган бой ва камбағал сўзлар гуруҳига эътибор беринг). Инсон мавжудлиги борлиқни тушуниш, тушунтириш орқали намоён бўлар экан, инсон уни сўз билан тушунтиради, талқин ва тақрир қилади. Демак, борлиқ асосида сўз ётади. Бутун борлиқни битта ягона “сўз” билан изоҳлаш мумкин.

Бу ҳол оммавий ҳолатда бадиий асар ғоясининг мавжудлик шакли сўз

- тил билан боғлиқ эканлигини исботламоқда. Дунёнинг асосида ғоя – сўз ётади. Ҳар қандай ҳаракат, ҳолат - реаллик, реаллик эса, ғояга эга, ғоя эса сўз билан реаллашади, яъни оммалашади. Сўз ҳар қандай ҳаракат ва ҳолатнинг реаллашган қобиғидир. Ҳаракат ва ҳолатнинг, воқеа-ҳодисаларнинг ранг-баранглиги инсоният луғавий имкониятлари ичида ётади. Инсоният онги фаҳмламаган воқеа - ҳодиса онг ҳодисасидан ташқари ҳисобланади, яъни ўзининг моддий қобиғи – сўзга айланмайди. Демак, у тил ҳодисаси эмас. Бадиий ижод ҳаёт ранг - баранглигини кашф этиш жараёнида кўп ҳолларда айнан мана шу англанмаган ҳодисаларни номлайди, яратади, инсониятга тақдим қилади. Табиатдаги индуктивлик, яъни марказга интилиш, кўп воқеа – ҳодисаларни умумлаштиришнинг энг муҳим ролини таъкидлайди, яъни уларни сўзда - тилда реаллаштиради, умумлаштиради.

Оммавийлик сўз - тилнинг мана шу хусусияти билан боғлиқ. Айтилган ғоя сўз – тил - оммавийлик. Чунки бадиий асар шу шаклда инсоният оммасига етиб боради. Ўтган асарнинг бошларида европалик олимлар товушларнинг ҳам худди нур каби рангоранг белгилари бор эканлигини исботлашди. Ваҳоланки борлиқнинг пайдо бўлиши асосида нур ётади. Нур эса, турли рангларда зоҳир бўлади. Демак, товуш рангли экан, товуш асосида яралган сўз, оҳанг, уларнинг негизи ва ҳосиласида ётган ғоя ҳам рангли бўлиши керак. Бадиий ёлқин кучи ва қудрати мана шундай ранглар спектрининг даражаси билан белгиланади.

Бадиий тилнинг бадиий адабиёт специфик хусусиятларига муносабати юзасидан олиб борилган қисқача таҳлил шуни кўрсатадики, бадиий асар шахс ижодийлиги ва асарда акс этган маълум ғоянинг омма онгидаги ёлқинидан иборатдир.

Ёлқин индивидуал инсонда ҳиссиёт ва жамиятда тил – сўз воситасида реаллашади. Ёлқиннинг реаллик қобиғи адекват равишда ҳис ва тилдир. Бадиий матннинг герменевтик шароитда ёлқини унинг тил орқали ўзлаштирилишига асосланади. Бадиий асар муваффақияти у яратган ёлқиннинг рангоранг товланиши ва ёлқин ранглари спектрининг

оригиналлиги билан боғлиқ. Халқнинг асрлар мобайнида тўплаган бой ҳаётий тажрибаси қисқа матнларга-мақолларга, бадиий асарда умумий ғояни шакллантира оладиган афоризмларга айланади ва келажак авлодга мерос қилиб қолдирилади. Мақоллар халқнинг дунёқараши, миллий маънавиятини белгиловчи мезонлардан бири ҳисобланади. Мақолларда инсон турмуш тарзи, орзу интилишлари унинг ҳаётий тажрибасига қиёсан акс этади, шу боис мақол рационал ёки сентиментал билишдан кўра кўпроқ бадиий тилнинг эмпирик фаолияти самараси сифатида баҳоланади.

Бадиий тилнинг мукаммал, теран, жозибадор ва нафис бўлиши бадиий асар муваффақиятининг энг муҳим гарови. Инсоният бадиий асарни мана шу хусусият гарови воситасида қабул қилади, ўзлаштиради, оммавийлаштиради.

Бадиий адабиёт-бадиий асар бадиий тилда акс этган поэтик образли борлиқ сифатида олам ҳақидаги индивидуал инсон тасаввурини герменевтикада ёлқин воситасида оммалаштириш демакдир. Жамиятнинг ҳар бир вакили ўз менталитети ва худо берган имкониятларидан келиб чиқиб, асар воситасида табиат ва жамиятдаги муносабатларни тақдим қилинган образларда кўради, эшитади, ҳис қилади ҳамда улардан хулоса, тушунчалар яратади. Охир-оқибат ўзининг руҳий-психологик дунёсини қайта яратиш бинобарида жамиятнинг тўлақонли аъзоси бўлишга интилади. Катарсис-бадиий адабиётда ижтимоий тушунишнинг калити сифатида мана шундай тарбиявий аҳамиятга эга.

Адабиётлар:

1. Адабиёт назарияси. 2 жилдлик. 2-жилд.-Т.: Фан. 1979. 45-бет.

2. Тисельтон Э. Герменевтика. – Черкасси: 2008.

3. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида.-Т.: Маънавият. 2010.

4. Михайлов А.А. Современная философская герменевтика. –Минск: 1984.

5. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. –Москва: 1986.

6. Шпет Г.Г. Герменевтика иее проблемы // Контекст. Литературно-теоретические исследования.-Москва:1989-1992.

7. Султонов И. Адабиёт назарияси. –Тошкент: 1982.

8. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: 1968.

БАДИИЙ АСАР ПОЭТИК ТАҲЛИЛИДА СЎЗНИНГ МАЪНО СТРУКТУРАСИ ВА БАДИИЙ ТИЛ МУНОСАБАТЛАРИНИ ЎРГАНИШ

Таджибоев Мусажон,

Чирчиқ давлат педагогика институти

Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси доценти, ф.ф.н.

Аннотация: Мақолада сўз маъноси ва унинг бадиий адабиёт тилини шакллантиришдаги имкониятлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: сема, денотатив, коннотатив, функционал, прагматика, окказионал прагматик маъно, коммуникатив маъно, пресуппозиция, ядро, периферия, репрезентация, лингвопрагматик контекст, тилсим.

Тилшуносликда сўзнинг маъно томонларини ўрганиш борасида маълум тажриба кузатилади. Хусусан, систем тилшуносликда сўзнинг мазмун ва маъно томонлари семалар билан ажратилади ва семалар уч турга бўлинади: 1) аташ семалари (денотатив семалар); 2) ифода тасвир, қўшимча маъно семалари (коннотатив семалар); 3) вазифа семалари (функционал семалар) [32.121]. Азнаурова Э.С. ўзининг тадқиқотларида шундай хулосага келадики, “агар семантика сўзнинг маъносини билдирса, прагматика унинг сўзловчиси мақсади, сўзланиш шароити ва мақсадли нутқнинг таъсирчанлиги самарасини очиб беришга интилади.... Сўзнинг вазифа бажариш имкониятлари муаллиф мақсадига бўйсундирилганда сўз белгисининг тўрт типи ажратилади: ядро, периферия, ахборотли ва прагматик семалар”. Азнаурова тадқиқотларида лингвопрагматик контекст муаммоси ҳам назарда тутилган. Хусусан, у ёзадики, “шундай қилиб, лингвопрагматик контекст бу-нутқ занжирининг бўғинидир. Унда фаол бирликларнинг прагматик мазмуни намоён бўлиши

учун керакли вербал сигналлар мужассам бўлади. Сигналлар сифатида сўзнинг маъно – мазмуни прагматик компонентининг ёки окказионал прагматик маъно шаклланиши жараёнида (уларнинг эксплицит лисоний репрезентацияси ҳолатида) контекстда ўзининг коммуникатив – прагматик параметрларнинг ўзини акс эттирувчи ҳолатлар пайдо бўлиши мумкин [29.7].

Прагматик ахборот сигналлари ўзининг вербал репрезентациясидан ташқарида ҳам бўлиши мумкин. Бундай ҳолатларда прагматик контекст экстралингвистик факторларни: “шароит ҳолати”, “фонли” ёки “маданий савия” кабиларни ҳам ўз ичига олади. Ваҳоланки, бундай шароитда контекст фонли коммуникатив билимнинг суммаси (мағзи)ни ўз ичига олган ҳолда ҳамда маълумотнинг барча билвосита кўринишларининг кодини очиш орқали, бинобарин, уларни ақл доираси имкониятлари ва матн тил маркерлари ёки тил сигналларидан ташқаридаги пресуппозиция базасини ҳам мужассам қилади”. Бадиий асар тилини шакллантиришда сўзнинг прагматик –семантик қирраларини таҳлили алоҳида аҳамият касб этади. Мақолада биз тилнинг айрим функционал – семантик компонентлари таҳлилини шарҳлаш, уларни бадиий тилнинг ифода имкониятлари билан қиёслаш жараёнида айрим жаҳон адабиёти намуналаридан таржималарни фикрларимизни далиллаш учун келтирамиз.

Тилнинг ижтимоий ҳодиса эканлиги унинг жамоада, жамиятда яратилганлиги унга фикр ифодалаш, алоқа воситаси сифатида хизмат қилишидадир. Тилнинг ижтимоий хусусияти табиий хусусиятидан принципиал фарқ қилади. Бу фарқ шундаки, тил фақат бутун бир система сифатидагина ижтимоий функция бажаради. Унинг айрим бирликлари – фонемалари ҳам, якка сўзлари ҳам, грамматик воситалари ҳам ўз ҳолича кишиларнинг борлиқ ҳақидаги ҳукмларини ифодалай олмайди – ниманидир тасдиқлай ёки инкор қила олмайди. Тилнинг элементлари бутун тил системаси ичидаги “ички функция”нигина бажаради. Масалан, фонемалар маълум шароит ва позицияда маъно ажратади, морфемалар сўз формаси ичида функционал қисмлар сифатида қўлланади, сўзлар гапда гап бўлаги

вазифасини – грамматик эга, кесим ёки иккинчи даражали бўлаклар вазифасини бажаради.

Тилнинг функциясини унинг фақат–битта элементигагина асосланиб белгилаш мумкин эмас. Тилни ишоралар (белгилар) системаси деб ҳисоблаш керакми, йўқми эканлиги ҳам худди шундай масалалардан бири. Сўз ҳамма вақт ҳам товуш ва маънодан иборат бўлган бутунлик деб ҳисобланмаган. Кўпинча, сўз деганда товуш комплексининг ўзигина англаниб, уни тил маъносида ҳам тушунганлар. Шунинг учун мадомики, сўз товуш комплексидан иборат бўлган ишора экан, демак, тил ҳам ишоралар системасидан иборат, деган хулосага келинган.

Тил ва тафаккур бир-бири билан узвий боғлиқ ҳодиса. Немис олими В.Либкнехт шундай дейди:" Тил- тафаккур қуроли. Тилга пала-партиш муносабат ноаниқ, тахминий, эҳтимол билан фикрлаш демакдир. Тилдаги равшанлик аниқ фикрлаш натижасидир. Равшан фикр, турган гапки, равшан ифодани талаб этади" [31.67]. Шундай экан, мустақил, ижодий тафаккур ривожида она тилининг ўрни беқиёс. Бу борада бадиий адабиёт тили борасидаги тадқиқотларга мурожаат қилайлик.

Бадиий тилнинг ўрганилиш объекти кунимизга қадар бадиий адабиёт ва адабиётшунослик соҳасида яратилган бадиий ва бадиий - публицистик асарлар ҳамда уларнинг тил хусусиятлари ва бадиий нутқ шаклида намоён бўлишидан иборатдир. Предмети шу ўрганиш объектида намоён бўлган бадиий тилни унинг критериялари асосида тадқиқ қилиш, ўрганиш ҳисобланади. Мақсад – вазифаси эса, бадиий тилнинг умумхалқ тили, нафақат тил, балки тил воситалари орқали унда ифода этилган ғоялари воситасида инсон дунёқараши ва миллий менталитет ошувига хизмат қилишининг тадқиқидан иборатдир.

Бадиий асар тили таҳлили ҳамда унда сўз ва унинг прагматик имкониятларини ўрганиш учун қуйидагиларни асос қилиб келтириш мумкин:

1. Бадиий асар яратилиши жараёни индивидуал ижод билан боғлиқ, бинобарин, у ижодкор таланти, шахсий қобилияти, унинг ижодий ғояси

ва бадиий тафаккурининг меваси. Бадиий асар алоҳида инсон ижодий фаолиятининг меваси сифатида ҳали умумхалқ тили, адабий тил доирасига кирмайдиган сўз ва сўз маъноси орқали ғояларини ҳам қамраб олади. Бу ҳол бадиий асар архитектоникаси ижодийлигининг энг муҳим мезони сифатида белгиланиши лозим.

2. Янги давр бадиий адабиёти инсоният жамиятининг кўзгуси сифатида ўзининг функционал доирасини тубдан ўзгартирган. Унинг аввалги фақатгина санъат намунаси сифатидаги функцияси бадиий адабиёт функцияларидан бирига айланиб қолган, холос.

3. Ижодкорнинг лисоний имкониятлари жамиятнинг бошқа аъзолари имкониятидаги тилдан тубдан фарқ қилади. У ижодкор сифатида жамият аъзоларининг онги ва умуман ҳиссиёт органларида пайдо бўлмаган ва ҳаттоки, биз ҳали уларни бирор-бир категорияга киритишимиз мумкин бўлмаган номаълумликларни ҳам яратади. Яъни инсон тафаккурида туб ўзгариш ясайди. Жамият ва ижодкор психологиясидаги мана шу дифференцияни бартараф қилиш, асарнинг нафақат ижодкорга хос индивидуал қирралари, балки китобхонда ҳам ёлқин орқали пайдо бўладиган тафаккур фантазиясини шакллантириш учун герменевтик шароит таҳлили тамойилларини мукаммал ўзлаштириш зарур. Бу ўринда бадиий асарларда акс этган тил ва тафаккурнинг алоҳида муносабатларини эътиборга олиш лозим.

Таниқли ҳинд ёзувчиси, халқаро Нобель мукофоти лауреати Рабиндранат Тагорнинг “Нур ва соялар” ҳикоясини жафокаш ҳинд халқини қулликда ушлаб туришга интилган ажнабий мустамлакачилар ва уларга зулм тиғини қайраб берган маҳаллий амалдорлар ҳақида битилган айбнома сифатида қабул қилиш мумкин. Бунинг учун асардаги лингвопоэтик воситалар ўз вазифасини мукаммал бажарган ҳамда бу вазифа таржимада ҳам ўз ифодасини топган. Асарнинг тили равон, шеърлари кучли ҳис-ҳаяжон билан ўқилади. Ҳикоя таржимони унда миллий ва бадиий – эстетик колоритни сақлаш ҳамда тилнинг ифодавийлигини таъминлаш мақсадида қатор сўзларни ўз ҳолича келтиради.

Асар таржимасида ҳинд миллатига мансуб кийим, чолғу асбоблари, Турли мансабдаги кишиларга мурожаат кабиларга алоҳида эътибор берилган. Масалан, ***сари*** ─ ҳинд хотин-қизларининг устки кийими, ***соҳиб*** ─ жаноб (асарда инглиз суд раиси кўзда тутилган), ***тўрт шеър*** ─ оғирлик ўлчови, 900 грамм; ***бабу*** ─ жаноб (ҳинд амалдорларига нисбатан ишлатилади), ***гарупат*** ─ дарслик, ***гапкон*** ─ тантанали маросимда кийиладиган тўн, ***вишнийт*** ─ бир диний мазҳаб қавми, ***гипижонтира*** ─ мусиқа асбоби***, заминдор*** ─ катта ер эгаси, ***конгресс*** ─ йиғин, миллий конгресс. Ушбу асар таржимони бу сўзларни ҳинд тилида қандай ишлатилса, шундайлигича берган. Бу билан матндаги миллий руҳни сақлаб қолишга муваффақ бўлган. Юқорида келтирилган сўзларни мисоллар таркибида кўрайлик:

1. Охири у ноибдан:” Шоши **конгресс** аъзоси эмасми? -деб сўради[33.131].

2. Қизнинг қўлида эски **гарупат**, сиёҳ билан ҳамма ёғи ёзилган дафтар[33.124].

3. Шоши **бабу,** шу ишни овоза қилмай, ўзаро ҳал қила қолсак, яхши бўлмасмикин?[33.54]

Кўринадики, мисоллар мазмуни бу матннинг ҳиндлар ҳаёти ҳақида эканлигидан дарак бериб турибди.

Машҳур рус шоири Сергей Есениннинг шеърлари таржимасида ҳам сўз маъноси ва бадиий тилнинг прагматик имкониятлари мутаносиблиги ўрганилади. “Хуросонда бир дарбоза бор” шеъридан ўқиймиз:

Хуросонда бир дарбоза бор

Остонаси гулга кўмилган.

Куйлаб ўтай сени ўлкамда

Хайр энди, хайр, паризод! [30. 65]

Шеърдаги “остона”, “дарбоза”, “пари рухсор”, “паризод” каби сўзлар шарқона руҳ меваси, муаллиф эса рус миллатига мансуб, буни қуйидаги мисрадан англаб оласиз:

Сочларимдан олтин ранг олган.[30.121]

Бироқ бу шеър Есениннинг “Форс тароналари” туркумига киргани учун, таржимон такрорлардан, таъсирчанликни кучайтириш учун ўзбекона сўзлардан фойдаланган. Ёки рус йигитининг Эрон гўзалига севгиси куйланган “Доғлар кетмуш мажруҳ кўнгилдан” шеъридаги “чойхона”, “чой”, “тонг юзли дилдор”, “шохи рўмол”, “оҳу кўз”, “лолагул” каби сўз-тилсимлар ҳам Шарқни эслатиб туради. Демак, тил шоир руҳиятини, кайфиятини, фикрини ифодалашда энг муҳим ўрин тутувчи ижтимоий ҳодисадир.

Бадиий тил поэтик имкониятлари таҳлили жараёнида тилнинг прагматик ва белги хусусиятларини ўрганиш муҳим аҳамият касб этгани ҳолда нутқнинг таъсирчан ва ифодали бўлишига ҳамда ижодкорнинг индивидуал руҳий характеристикасини яратишга хизмат қилади. Бадиий асар поэтикасини таъминловчи муҳим қирралардан бири - бадиий тилнинг нутқ шароитида окказониал ҳолатлар ярата олиш имкониятларини пайқаш ва уларни тўғри изоҳлашдан иборат. Бунинг учун асар таржимони тил ва нутқдаги сўзнинг функцоинал – семантик имкониятларини тўла эгаллаши ҳамда ҳар икки (асар яратилган ва у таржима қилинаётган) тилнинг миллий ва поэтик колоритли нуқталарини муаммал ўрганиши лозим.

Адабиётлар:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият. 2008.

2. Арутюнова Н.Д. “Язык и мир человека” Москва: Языки русской культуры. 1998.

3. Вежбицкая А. “Язык. Культура. Познания” Москва: Русские словари,1996

4. Ирискулов М.Т. “Тилшуносликка кириш” Тошкент: 2008.

5. Богин Г.И. Обретение способности понимать: введение в филологическую герменевтику. -Москва: Психология и бизнес. Онлайн. 2001.

6. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Т.: 2005.

8. Каримов С.Ўзбек тилининг бадиий услуби.–Самарқанд. 1992.

9. Кузнецов В.Г. Герменевтика и гуманитарное познание. - Москва: 1991.

10. Шарафуддинов О. Маънавий камолот йўлларида. - Т.: 2001. 85-бет

ОЙДИН ҲОЖИЕВА ШЕЪРИЯТИДА ШОИРА ТАСАВВУРИ

Дилнавоз Салимова Акмаловна,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Жиззах давлат педагогика институти катта ўқитувчиси

Ижодкорнинг ҳаёт ҳодисалари асосида шахсий табиатини намоён эта олиши, оламни тафаккур ва идрок қилишдаги ўзига хос ёндашуви ва тасаввури бадиий асарни яратишидаги асосий омиллардан саналади. Чунки таъсирчанлик, кузатувчанлик, тасаввур ҳамда идрок ижодкор тасаввурини юзага келтирибгина қолмасдан, шунингдек, маълум даражада бойитиб боради ва шу аснода асар муаллифи ҳақидаги китобхон тасаввурини ҳам уйғотади. Китобхон наздида шоир ёки адиб қиёфасини инкишоф этади. Ҳақиқий лирика “самимият билан ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган омиллардан биридир. Шунинг учун ҳам ҳар бир лирик шоирнинг ўз қалбини самимий ифодалаш қобилиятини ҳар қанча ардоқласа ва қўллаб-қувватласа арзийди” [5.76].

Ўзбек шоираларининг (хусусан, ўтган аср ва ҳозирги замон) ижодига мансуб бўлган мавзулар турфалиги шоираларимиз шеъриятининг умумийлик ҳамда ўзаро муштараклик хусусиятидан гувоҳлик берса-да, бироқ ҳар бир ижод соҳибаларининг бир-биридан ажратувчи ўзига хослик – индивидуаллик қирралари намоён этилади. Ушбу алоҳида кўзга ташланиш қалам соҳибалари тафаккур оламининг қай йўсинда бадиий намоён бўлгани боис ўзига хосликни юзага келтиради. Чунончи, шеърият бўстонида кўплаб шоираларга ибрат ва маҳорат мактабини ўтаган Зулфияхоним ижодининг гултожиси саналган муҳаббат, вафо-садоқат руҳидаги манзумалар

Ҳалимахоним, Зулфия Мўминова, Қутлибека Раҳимбоева, Фарида Афрўз, Сайёра Тўйчиева, Шаҳло Аҳророва каби нозик қалб эгаларининг кўнгил мулкида бетакрор тараннум қилиниб, янги қиёфа ва мушоҳада касб этади. Айтиш жоизки, ўзбек шоиралари бадиий олами умумий поэтик полотнода кўнгил изҳорлари бир юртнинг, бир даврнинг фарзандлари экани ўлароқ муштарак жиҳатлари шоиралар тазкирасини ташкил этади, бироқ, уларнинг тафаккурий оламлари ҳар бири алоҳида бир бадиий ҳодиса сифатида бири иккинчисини такрорламайдиган шеърий тадқиқот вазифасини ҳам ўтайди. Гўё ушбу поэтик тафаккур меваси турли рангларда омухталанган, камалакни эслатади. Дарҳақиқат, шоир қалбидаги тафаккурий олам у эгаллаган ҳаёт материалининг поэтик мушоҳадаси ва бадиий тадқиқи, деб ўйлаймиз. Фикрларимиз асоси сифатида Ойдин Ҳожиеванинг шеърларига мурожаат қиламиз. Ўзбек шоираси Ойдин Ҳожиева шеъриятига баҳо бераркан, адабиётшунос В.Зоҳидов:“...Ойдин ижтимоий воқеликдаги деярли барча муҳим соҳаларнинг тегишли поэтик тадқиқоти - ифода ва акс-садоси бор”[2.338], дея таърифлайди.

Сир эмаски, лирик қаҳрамони – дунё аҳволидан хабардор, юз бераётган ижтимоий воқеалар моҳиятини англаган, ўзгарган шароитда яшаш ва равнақ топиш шароитларини биладиган, миллатнинг ҳолига бефарқ қарамайдиган юрт ташвиши учун қайғурадиган инсон тараннуми Ойдин Ҳожиева шеъриятига хосдир. Шоиранинг ишқий шеърларини оламизми, ёки ижтимоий поэзия намуналариними, анъанавий, бироқ ўз услубида ёзилган шеърлари ёки янгиланиш изланишларими - поэтик талқинларида “лирик мен”ининг қалби суратланиб туради. “Назокат” шеърий тўплами муқаддимасида Ойдин Ҳожиеванинг тафаккурий идроки бадиий-эстетик ифода этилган сатрлари биз таҳмин қилган шоира поэтик тадқиқотига гўё эпиграф вазифасини ўтаётгандек таассурот қолдиради:

Ўзин ўтга урган парвонадурман,
Парвона феълимдан афсонадурман.
Найқамиш дилимни агар ошиқлар

Чалсалар бир дардли таронадурман.

Эл меҳрин айладим жонга кўзмунчоқ,

Юртимда бир Ойдин нишонадурман [4.8].

Биз юқорида санъаткор учун муҳим саналган кузатувчанлик ва таъсирчанликнинг ўта муҳим омиллардан эканини таъкидлаб ўтган эдикки, ҳар қандай назм навоси санъаткор кузатуви ва ҳаёт ҳақиқатидан тасирланиш асносида юзага келади. Ана шу таъсир оний лаҳзаларда осмон чақмоғидек бир ярқ этади-ю, ўзининг борлигини кўрсатади. Ушбу кўзга кўринмас, аммо оний лаҳзада барчани эътиборини тортган табиат ҳодисаси наздимизда санъаткор илҳомида ҳам шундай содир этилади. Жумла шоир қалбида яратганнинг инъом этган ушбу ноёб ҳодисаси илҳом деб аталади. Эътиборга молик масала – ана шу илҳомнинг ҳам муҳаббат, вафо-садоқт мавзулари сингари шоиралар ижодида албатта тилга олинмасдан қолмайди. Илҳом – образ, ҳар кўнгилда ҳар ифода тарзида намоён бўлгувчи, назм саройига олиб кириб, фақат эзгулик сари чорлайдиган сирли ҳолат Ойдин Ҳожиева шеърида ҳам акс этади:

Қайлардасан, камнамо илҳом,

Кийик бўлиб чўлларга қочдинг?

Ё мен билмай қолдим: намозшом

Марваридинг кўлларга сочдинг?

Дўсту душман орасин очиб,

Ҳабиб айла, дўст айла бир йўл.

Тандан жондай юрмагил қочиб,

Кел, Ҳизрдай, чўзгил менга қўл!

Панд-насиҳат руҳидаги назм намуналари Ойдин Ҳожиева ижодининг маънавий мукаммаллик даражасини белгилаши билан ҳам эътиборимизни тортади. Чунончи, “Танбеҳ”, “Теша бобо айтар ривоят”, “Бу саҳар, бу саҳар мунаввар” сингари шеърларида шоира тафаккурий дунёсининг ҳикматларга мойил анъанавий бадиий чизгилар замона руҳида қайта тикланади:

Шоирлар ўлса, Ватан деб ўлгандир,

Ватан ҳажрида паймонаси тўлгандир.

Муқаддас дарахтдир аслида Ватан,

Яшил баргидай шоир ўз шоҳида сўлгандир...

Шоиранинг панднома туркумига монанд шеърлар шодасида диний маънавиятга дохил мавзу-моҳият китобхонни умр қадри-қиммати ҳусусида теранроқ фикр юритишга ундайди, яъни “Қадр кечаси”нинг савоб олиш фурсати-имконияти эканининг ўзи бир улкан қадр эканлиги яратган бир инъомидир дея идрок қилинади:

Юрагинг тубига қарагил:

Аллоҳдан мўъжиза бу манзил

Айт, ҳою ҳавасми ё ҳасад,

Инсофми, меҳрми, диёнат,

Озормн, эҳсонми ё хислат,

Не бор бу мулкатда омонат?

Эй ғафлат бандаси кўзни оч

Ўзингга ўзингсан тилмоч:

Иймонни маҳак тош қилурсан,

Мисмисан, кумушсан – билурсан...

Фикр ҳаққонийлиги, ҳаётийлиги,мазмундорлиги, кўтаринки руҳни ва албатта таъсирчанликни ошириб юборувчи шеърлари, шунингдек, “Алмисоқдан қолган бу дунё”, “Эътиқодимсан, халқим”, “Топган ноним она сутим каби ҳалолдур” деб номланувчи ва бошқа шеърлари лирик қаҳрамони эл-юртига меҳр-муҳаббати билан боғланган Ойдин Ҳожиеванинг - ўзининг қиёфасида гавдаланади. Чунки, Ойдин Ҳожиева тафаккурий оламида шоиранинг кучли, қудратли иродаси ва одамларга нечоғли керак эканлигини ҳис қиламиз. Шоира ўзи эътироф этганидек: “Шеърият – одамларнинг юрагидан кимё излашга ўргатди” [4.8].

Фикрларимиз хулосасида айтмоқчимизки, шеъриятга хос устувор жиҳатлар фикр ва туйғу бирдамлиги ўлароқ китобхон юрагига бориб

қуйиларкан, санъаткорларнинг туйғу тажассумида нафосат, назокат, ҳайрат торларини чертишга бел боғлайди, фикрий ифода эса ҳикмат, дунёқараш сарҳадларини кенгайтириш кучига эга бўлади. Шу боис, шоира тафаккурий оламини туйғу билан қоришиқ бадиий тадқиқот дейишга арзийди.

Адабиётлар:

1. Бўтаева Фарида Афрўз. 7 тасбеҳ ёҳуд 1001 кеча. – Т.: Pravo-press., 2020. – 336 б.

2. Зоҳидов В. Ойдин “Навос”си. / Адабиёт ва замон.-Т.: Адабиёт ва санъат, 1980. – 360 б.

3. Ойбек. Танланган асарлар. Шеърлар, поэмалар. –Т.: Бадиий адабиёт., 1957. – 376 б.

4. Ойдин Ҳожиева. Назокат. Шеърлар, достон, қасида, бадиалар, ўйлар. – Т.: Шарқ, 2007. – 160 б.

5. Шарафиддинов О.Гўзаллик излаб. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1985. –226 б.

6. Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. Шеърлар. 1925-1944. – Т.: Фан

СУЛТОН ИСКАНДАР ШЕРОЗИЙ ШЕЪРИЯТ КЕЧАЛАРИ

(Алишер Навоий ва унинг замондошлари асарлари маълумотлари асосида)

Шерхон Қораев,

филология фанлари бўйича фалсафа доктори,

Самарқанд давлат университети тадқиқотчиси,

Аннотация: Мақола Амир Темурнинг набираси, Форс вилояти ҳукмдори, Шерозий тахаллуси билан шеърлар ёзган Султон Искандар Мирзо ижоди ва унинг ҳузурида ўтказилган адабий кечаларга бағишланади. Султон Искандар Мирзо саройида Ҳайдар Хоразмий, Ҳофиз Хоразмий каби

туркигўй шоирлар иштирокида адабий мажлислар, мушоиралар ўтказилган. Мазкур мушоираларда шоҳлар шоири Искандар Шерозий ҳам ўз шеърларини ўқиган, шеърий баҳслар уюштирган.

Калит сўзлар: ҳукмдор шоирлар, сарой адабиёти, туркигўй шоирлар, қўлёзма, қасидагўй.

Ўзбек адабиёти тарихини ўрганиш ва уни янги маълумотлар билан бойитиш, айниқса, собиқ иттифоқ даврида синфийлик нуқтаи назаридан ўрганилмаган сарой адабиёти ҳамда ҳукмдорлар ҳузуридаги адабий мажлислар тарихини тадқиқ этиш, адабиётни умумадабий жараён билан боғлаб, муайян тарихий аспектда холис ўрганиш устувор вазифалардан биридир. Мамлакатимизда ҳам мустақиллик йилларида ўзбек мумтоз адабиётини тадқиқ этишда улкан муваффақиятларга эришилгани ҳеч кимга сир эмас, жумладан, ҳукмдор-шоирлар ва сарой адабиёти вакиллари ижоди кенг кўламда ўрганилди, ижодкорларнинг девонлари нашр этилди. Албатта, ўзбек мумтоз адабиётининг катта қисми саройда яратилганидан ҳамда адабий йиғинлар миллий адабиётни ривожланишида муҳим омил бўлганлигидан келиб чиқсак, сарой адабиёти ва адабий йиғинларни чуқур ва ҳар томонлама ўрганиш пайти келди. Бинобарин ўзбек мумтоз адабиёти тарихи, адабий йиғинлар ҳамда мумтоз адабиёт вакиллари қолдирган адабий мерос ҳозирги кунда ҳам маънавиятимизни юксалтириш, ёшларимизни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялашда ҳамда Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган таълим ва фан соҳасини янада ривожлантириш билан боғлиқ вазифалар ижросини таъминланишига ҳам хизмат қилади.

Жаҳон ва ўзбек шарқшунослиги ва адабиётшунослигида темурийлар даври адабиёти ва маданиятини ўрганиш борасида муайян ишлар амалга оширилган. Аммо ўзбек адабиёти тарихида Султон Искандар Шерозий ҳузуридаги адабий мажлислар мавзуси татқиқ этилмаган.

Маълумки, Умаршайх ибн Амир Темурнинг ўғли **Искандар Шерозий**

(1384-1415) шоиртабиат ва адабиётсевар ҳукмдорлардан бири бўлган. Искандар Мирзонинг қисқа муддатли Форс вилоятидаги ҳукмронлик даврида Шероз шаҳри илм-фан, адабиёт, маданият марказига айланган. Бу пайтда Шерозда форсийгўй адиблар қатори туркийгўй шоирлар ҳам ижод қилган. Мирзонинг ўзи ҳам Искандар Шерозий тахаллуси билан ғазаллар битган [1.80].Ғулом Каримий “Мунтахаб ут-таворихи муиний” китоби сўзбошисида Мирзо Искандар олиму шоирларга ҳомийлик қилгани жиҳатдан Амир Темур авлодларидан Шоҳрух, Улуғбек, Бойсунқур, Иброҳим Султон, Ҳусайн Бойқаро, Заҳриддин Муҳаммад Бобурлар қаторида туришини, илму фан ва адабиёт марказига айланган Шерозда нафақат форс тилида ёзадиган адиблар, муаррих ва шоир Муиниддин Натанзий каби форсийгўй сўз санъаткорлари, балки Ҳайдар Хоразмий, Ҳофиз Хоразмий каби туркигўй шоирлар ҳам ижод қилганини айтиб ўтган:Мирзо Искандар Исфаҳонни пойтахт қилгач, унинг саройидаги олиму шоирларнинг кўпчилиги бу шаҳарга кўчиб ўтишган.

Замонасининг улуғ хаттоти Маъруф Боғдодий Султон Аҳмаддан юз ўгириб, Исфаҳонга Мирзо Искандар ҳузурига келган ва унинг кутубхонасига масъул қилиб тайинланган.

Мирзо Искандарнинг хаттотларга ҳомийлик қилганидан, у китоблар кўчиртириш ва кутубхона бунёд этишга катта эътибор қаратгани ҳақида хулоса қилиш мумкин. Лондондаги Британия музейида Мирзо Искандар буйруғига биноан кўчирилган қарийб 546 варақдан иборат катта қўлёзма китоб сақланади. Китоб дебочасида Мирзо Искандар *“султонлар султони, Оллоҳнинг ердаги сояси, жалол уд-дунё ва-д-дин”* каби дабдабали сўзлар билан таъриф-тавсиф қилинади. Қўлёзмага битилган дастлабки асар Низомий Ганжавий “Хамса”сидир. Навбатдаги асар – “Мухтасар дар илми ҳайъат” (“Астрономия оид қисқача рисола”) муаллифи Ғиёсиддин Жамшид Коший муқаддимада рисолани *“жалол уд-дунё ва-д-дин амирзода Искандар Баҳодурхон”* буйруғига кўра ёзганини таъкидлайди. Демак, Ғиёсиддин Жамшид Коший Ҳиротга, сўнгра Самарқандга- Улуғбек ҳузурига келишдан олдин Мирзо Искандар саройида бўлган.

Қўлёзмада астрономияга оид яна бир асар “Равзат ул-мунажжимин” (“Мунажжимлар боғи”) номли асар ҳам бор. Кимёга оид “Рисолайи кибрити аҳмар” ва Ғиёс Кирмонийнинг “Ойинайи Искандарий” асарлари ҳам Мирзо Искандар буйруғига кўра ёзилган. Қўлёзмада бундан ташқари кўплаб шоирлар шеърларидан намуналар ва бошқа турли мазмундаги асарлар ҳам бор. Бу Мирзо Искандарнинг қизиқиш доираси нақадар кенг бўлганини кўрсатади.

Мирзо Искандарнинг тасаввуф арбобларига ҳам ҳомийлик қилиб, Язд шаҳри яқинидаги Тафт қишлоғида мутасаввуф шоир Шоҳ Неъматуллоҳ валийга масжид ва хонақоҳ қуриб бергани маълум.

Барча ҳунар даврида топти камол,

Урди ҳунар тарбияти бирла бол.

-деб ёзган эди Мирзо Искандар ҳақида Ҳайдар Хоразмий. Дарҳақиқат, тожу тахт талашувлар оқибатида юз берган фожиали ўлимига қадар кечган бир неча йил ҳокимлик даврида Мирзо Искандар анчагина хайрли ишларни қилишга улгурган. Бироқ унинг фаолиятининг бу қирраси ўзбек тилидаги адабиётларда деярли ёритилмагани учун кўпчиликка маълум эмас. Ўзбекистон Миллий энциклопедиясида ҳам Амир Темур набираларидан Мирзо Улуғбек, Иброҳим Султон, Бойсунғур Мирзоларнинг фан ва маданиятга ҳомийлик қилишгани таъкидлаб кўрсатилган ҳолда, Мирзо Искандар ҳақидаги мақолада бу ҳақда ҳеч бир маълумот берилмаган. Аксинча, ғарб тилларидаги мақола ва тадқиқотларда унинг ҳаёти ва ҳомийлик фаолияти анча кенг ёритилган [2.14-16.]”

Султон Искандар Шерозий ҳузуридаги адабий мажлисларда Ҳайдар Хоразмий каби шоирлар қатнашган ва Навоий бу борада шундай ёзган: *“Салтанат тажаммулини дерларким, салотиндан ози онча қилмиш бўлғай. Етти ё саккиз йиллик салтанатида гўёки уч ганж топибдур. Мавлоно Ҳайдар туркигўй, анинг модиҳи экандур*[3.412]”. Ҳукмдорнинг маддоҳи, қасидагўй шоир Ҳайдар Хоразмийнинг “Гулшан-ул-асрор” асари Искандар Шерозийга бағишланган:

Тўрт бўлинг, етти улус султони,

Олти жиҳат икки жаҳоннинг хони.

Подшо Искандар Доро ҳашам,

Даври даврон шоҳи, соҳиб карам.

Разм кунида шаҳр или иқлимгир,

Базм туни лутф ила хизматпазир.

Ҳар не камол ичра десам беназир,

Барчаси бири-биридин беназир.

Малак нишон бермади бу шоҳдек,

Даҳр кўзи кўрмади бу моҳдек[4.218]**.**

Фахрий Ҳиравий “Равзат ус-салотин”да Искандар Шерозий ва қасидагўй Ҳайдар Хоразмий тўғрисида жумладан шундай деган*: “Махзани асрор” ва “Гул ва Наврўз”нинг муаллифи бўлган Мавлоно Ҳайдар (Хоразмий) туркийгўй у(Искандар Шерозий)нинг назмгўйи эди ва ўша китоб(“Гулшан ул-асрор”)ни яхши айтган ва унинг номига битган”*[5.44]. Демак, Фахрий Ҳиравий фикрларига асосланса, мумтоз адабиётимизда Лутфийга нисбат бериб келинган “Гул ва Наврўз” достони аслида Ҳайдар Хоразмий қаламига мансуб экан.

Искандар Мирзо ўз мажлисларида туркийгўй шоирларга эргашиб, ўзи ҳам ўзбекча шеърлар ўқиган. *“Султон Искандар дерларким, табъи назм эрди. Ва бу туюқни андин нақл қилурларким:*

Тўлун ойға нисбат эттим ёруми,

Ул хижолатдин кам ўлди ёруми.

Тори мўюнгнинг закотин мен берай,

Ё Мисрни, ё Ҳалабни ё Руми [3.412]**.**

Султон Искандарнинг шеъриятга мойиллиги бир томондан адабий мажлисларнинг мунтазам ташкил этилишига туртки бўлган бўлса, иккинчи томондан шеърхонлик кечаларини қизитган, деб тахмин қилиш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, мумтоз адабиётимиз тарихида шу пайтгача ўрганилмаган Искандар Мирзо даври адабий муҳитини тадқиқ этиш муҳим

вазифа ҳисобланади. Бу эса келгусида мумтоз адабиётимиз тарихини янги маълумотлар билан бойишига хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Дадабоев Ҳ. Амир Темур даврдошлари. Т. “Навоий университети” НМУ, 2018.

2. Муиниддин Натанзий. Мунтахабут-таворихи муиний. Т. “Ўзбекистон”, 2011.

3. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Тўққизинчи жилд. Т. Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2012.

4. Муборак мактублар. Ҳайдар Хоразмий. Гулшан-ул-асрор. Т. Ғ.Ғулом номидаги АСН, 1987.

5. Фахрий Ҳиравий. Равзат ус-салотин. Т. Мумтоз сўз, 2014.

НОДИРА ИЖОДИГА ҚЎҚОН АДАБИЙ МУҲИТИНИНГ ТАЪСИРИ

Сурайё Эшонқулова,
филология фанлари номзоди,
Жиззах давлат педагогика институти
доценти

Ўзбек мумтоз адабиёти тараққиётида Бухоро, Хива адабий муҳити қандай катта аҳамият касб этса, Қўқон адабий муҳити ҳам улар қаторида турадиган даражада юксакдир. Дарҳақиқат, Қўқон адабий муҳитини мумтоз адабий меросимиз хазинасига, кўзга кўринган кўплаб ижодкорлар: Гулханий, Увайсий, Нодира, Махмур, Фазлий, Адо, Фурқат кабиларни етказиб берганлигининг ўзиёқ, уни адабий муҳитлар аро ўзига хос ўрни борлигини белгилайди.

Қўқон адабий муҳитининг ўзига хос вакиласи Моҳларойим – Нодиранинг бадиий маҳоратини ўрганишдан олдин, назаримизда, ҳассос шоирани тарбиялаб, уни шоира даражасига кўтарган муҳит ҳақида сўз ёритмоқ жоиз.

Қўқон адабий муҳити XVIII аср I ярмида Қўқон хонлиги таассаруфида ташкил топган бўлиб, бунга хонликни бошқарган шахсларнинг халқнинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий даражасини кўтариш мақсадида ижодкорларга раҳнамолик қилиб, адабиёт ва санъат ривожланишига имкон яратишгани сабаб бўлган. Бу ҳақида "Ансобус-салотин..." асари муаллифи Мирзо Олим Қўқон хони Абдулкаримхон (1732-1733) даври ҳақида ёзган [5.41], [2.18–6 варақ].

Қўқон адабий муҳити ва уни гуллаб яшнашига улкан ҳисса қўшган Амир Умархон ҳам Қўқон хонларидан бўлиб, Нодира бадиий оламини шаклланишида, ҳассос шоира бўлиб етишишида унинг ўрни беиёс. Шу ўринда адабиётшунос олима И.Адизованинг қуйидаги фикрлари диққатга сазовор: *"Унинг ўзи шоир бўлгани сабабли ижод аҳлига имконият яратиб берган. Уларга ҳомийлик ва раҳнамолик қилган. Миён Бузрукнинг 1930 йилда Тошкентда чоп этилган "Ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш" китобида бу давр Қўқон адабий муҳитини "Олтин бешик даври адабиёти" деб атайди. Бу таъриф, биринчи навбатда, Сарой тарихчилари томонидан келтирилган "Олтин бешик" ва Бобур ҳақидаги воқеа билан боғлиқ. Иккинчидан, адабий муҳитда яратилган қулай ижодий шароит ва жараён ҳам назарда тутилган"* [1.125]. Юқорида адабиётшунос олима келтирган "Олтин бешик" воқеасига келсак, биз бу тўғрисида номзодлик диссертация ишимизда тўхталганмиз [7.73-92].

Жумладан, А.Қаюмов: *"Қўқон хонларининг Бобур авлоди экани улар учун аён эди. Шу билан фахр этар эдилар. Қўқон хони Умархоннинг рафиқаси Моҳлар ойим Нодира бу тўғрида ёзган"* [4.14],– деб таъкид этади.

Бугунда ҳеч кимга сир эмаски, XVIII аср I ярмида Қўқон хонлиги таассаруфида юзага келган Қўқон адабий муҳити Амир Умархон даврига келиб тараққиёт чўққисига кўтарилди, бир сўз билан айтганда гуллаб яшнади.

Демак, Моҳларойим – Нодира мана шундай тараққий топган Қўқон адабий муҳитида ижод қилди, шу билан биргаликда кейинчалик, бу муҳитга

ўзи ҳам раҳнамоллик, ҳомийлик қилди. Хўш, Моҳларойим–Нодира Қўқонга келгунга қадар ким эди? Қандай оилада дунёга келган ва адабиёт билан, хусусан шеърият билан қай даражада ошно эди? Уни шу даражада етук шоира бўлиб етишига ким ёки нима сабаб бўлди? Бу каби саволлар жуда кўп адабиётшунос олимларни қизиктириб келган. Ўз даврида Ҳакимхон тўра булар ҳақида шундай ёзади: *"...У вақтда Анжижон ҳукумати Раҳмонқулбий амир Олимхонни тоғаси эрди, анга тааллуқ эрди, Раҳмонқулбийни қисматида бир қизи бор эрди, исми Моҳлар ойим эрди. Амир Олимхон хоҳладиким, ул маҳдурани амир Умархонни иқди никоҳига киргузса. Маъсудхон тўрани бениҳоят ҳадя бирла юбордиким, Умархонни Андижонга олиб бориб, иқди никоҳ қилиб, Марғилонга келтириб қўйиб келгил, деб рухсат берди. Маъсудхон тўра Марғилонга келиб, шаҳзода Умархонни ломодлиққа таклиф қилиб, Андижонга олиб яхши соатда ул инжи салтанатни тоҳиди руҳга иқд боғладилар"* [3.161 а-варақ].

Нодира ижодий маҳорати Қўқон адабий муҳити, турмуш ўртоғи Амирийнинг саъй-ҳаракатлари, Жаҳон отин Увайсий сабоқлари таъсири остида такомил топиб тараққий қилди. Бу ҳақида адабиётшунос олима Маҳбуба Қодирова шундай ёзади: *"– Сиз энди форсийни ҳам яхшироқ ўрганиб олсангиз мақбул бўлади. Бу тилда ҳам муҳаббат шеърлари бирмунча. Шеърият олами ичида ғаввос бўлиб, ширин хаёлларга берилиб турган Моҳларнинг кўнглига ғашлик тушди:*

– Мен форсча ёзишни ҳам ўқишни ҳам биламан–деди у уялгансимон, – айрим машқий ғазалларимга Комила ва Нодира, деб лақаб ҳам қўйганман.

– Ғазалларнинг Нодираси, Комиласига офарин...

Умарбек Моҳларга марғилонлик бир шоира ҳақида хабар эшитганлиги,Жаҳон исмли бу аёлнинг Увайсий унвони билан шеърлар ёзишини эслади. Ҳатто унинг:

Забонингни кетургил, эй шакарлаб тўра, гуфтора,

Нечукким, марҳамат бўлсин неча мендек дилафгора,

– шеърини ҳофизлар куйлаганда алланечук завқ билан эшитганлигини

гапириб берди. Кейинчалик... "сўз гулшанида хушнаво булбул" деб ном таратган Увайсий ва Моҳлар опа-сингил тутиниб қолдилар. Увайсий ва Моҳлар ёлғиз қолган вақтларида мароқ билан суҳбатлашар, ёзганларининг ютуқ ва ноқис ўринларини кўрсатишиб, бир-бирларидан хушнуд бўлар эдилар. Шундай қилиб ғазал ва мухаммасларга қоғозлар бўлиб борарди. Уларнинг табъи назмларини кузатиб юрган Умарбек шеърий санъатлар ҳақидаги рисолаларни кўпроқ ўқишларини маслаҳат берарди. Устоз шоирларнинг ғазалларига назира ёзиш, мухаммас боғлашни ўргатар эди" [6. 45-46].

Кўриниб турибдики, шеърият оламига эндигина ташриф буюрган Нодира учун Қўқоннинг адабий муҳити унинг давр шоираси, яъни диди ва завқи баланд шоира сифатида етишишида муҳим омиллардан ҳисобланади. Хусусан, унинг эри Амир Умархон ва Увайсийнинг таъсири катта бўлган. Унинг лирикасини кузатар эканмиз, шоира диний-маърифий, диний-илоҳий, фалсафий-тасаввуфий ва ахлоқий-маънавий тушунчаларни яхши билганини таъкидлашимиз мумкин. Шунингдек, Нодира ижоди ва унинг шоиру шоираларга раҳнамолиги ҳеч иккаланмай айтиш мумкинки, таҳсинга лойиқ. Шоира ижодига назар ташлар эканмиз, шунга шоҳид бўлдикки, унинг лирикасини муҳаббат, садоқат мавзуси тасвирида гўзал ташбеҳлар эгаллар экан, улар замирида инсонпарварлик, адолат, иймон-эътиқод ғояларини заргарона сингдиради ва бу билан Қўқон адабий муҳитига муносиб ворис эканлигини исботлайди.

Адабиётлар:

1. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. (XYI–XIXаср I ярми). –Т.: Фан, 2009. .

2. Ансоб ус-салотин. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, 18–6 варақ.

3. Мунтаҳаб ут-таворих. ЎзРФА ШИ қўлёзмаси, № 594 в.161а-варақ.

4. Қаюмов А. Асарлар. 5-жилд. –Т.: Мумтоз сўз, 2009.

5. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. –Т.: Фан, 1961.

6. Қодирова М. Давр Нодираси. –Т.: Фан, 1991.

7. Эшонқулова С. Нодира шеъриятида образлар талқини. Филол. фанлари номзоди … дис. –Т., 2011.

POYONIGA YETMAGAN AFSONAVIY ISHQIY DOSTON

Safiya Karimova,
Samarqand davlat chet tillar instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

Zukko olima, hassos shoira bo‘lmish go‘zallar go‘zali Zebunnisobegimga umr yo‘ldoshi bo‘lishni istagan kishilarning son-sanog‘i bo‘lmagan. Biroq, Zebunnisobegim ularning hech birini o‘ziga munosib topmagan. Zero, Zebunniso begimga ilhaq bo‘lganlarning aksari shahzodalar, amirzodalar, bekzodalar va yirik mulkdorlar edi. O‘z zamonasining shoirlaridan ham Zebunnisobegimga yostiqdosh bo‘lishga orzumandlar ko‘p bo‘lgan.

Ko‘pgina tarixiy asarlarning guvohlik berishicha, Zebunnisobegim yoshligida Oqilxon Roziy ismli shoirtabiat bir yigitga ko‘ngil qo‘yadi. Oqilxon Roziy ham Zebunnisobegimga ishqiy misralar yo‘llab turgan. Shoh Avrangzeb oshiq-ma’shuqning maxfiy uchrashuvlaridan xabar topgach, ularni ta’qib ostiga oladi. Rivoyatlardan birida aytilishicha, kunlardan bir kun Zebunnisobegim bilan Oqilxon Roziy bog‘da uchrashib turganlarida boqqa shoh Avrangzeb kirib keladi. Darhol oshiq-ma’shuqlar o‘zlarini panaga oladilar. Oqilxon shohning g‘azabidan cho‘chib, berkinish uchun biror panaroq joy izlaydi. Bog‘ning bir chetidagi katta ziyofatlar uchun qazilgan yerda o‘choqqa o‘rnatilgan katta dosh qozon mis qopqog‘i bilan turardi. Oqilxon ana shu qozon ichiga tushib olib, ustidan qopqog‘ini yopib oladi. Albatta, uning bu shoshilinch harakati shoh Avrangzebning nazaridan chetda qolmaydi. Shoh Avrangzeb qizi Zebunniso begimga bog‘dan chiqib ketish haqida amr qilgach, to‘g‘ri yurib kelib, dosh qozon qopqog‘i ustiga chiqadi va bakovulni chaqirib, o‘choqqa olov yoqishni buyuradi. O‘choqqa olov yoqilgach, qozon qiziydi. Qopqoq ostidan jizg‘anak hid bilan tutun chiqadi-yu, ammo,

hech qanday nido eshitilmaydi. Avrangzeb qopqoqdan tushib, bakovulga qozon qopqog‘ini ochishni buyuradi. Qopqoq ochilganda qozon ichida yarim qoraygan Oqilxonning jasadi ko‘rinadi…

Bengal klassik adabiyotining bilimdoni va hozirgi zamon bengal adabiy tilini yaratuvchilaridan biri Bonkim Chondor Chottopaddxayning (1838-1894) «Radj Singx» nomli tarixiy romanida Zebunnisobegimning sevgan mahbubi Oqilxon Roziy – Muborak Ali nomi bilan talqin qilinadi. Muallifning hikoya qilishicha, Muborak Alining Zebunnisobegimni yaxshi ko‘rishi va usiz yashay olmasligini o‘z og‘zidan eshitgan shoh Avrangzeb Muborak Alini ushlatib, maxsus jazoga mustahiq qiladi. Muborak Ali oldiga ko‘z oynakli ilon (kobra) solingan ikkita temir qafasni keltirib qo‘yadilar. Muborak Ali bu jazoning tartiblarini avvaldan bilardi. Chunonchi, bu dahshatli jazodan qutulishning chorasi yo‘qligiga ishonchi komil bo‘lgani tufayli, o‘limni bo‘yniga olib, darhol etikni yechib, oyog‘ini qafasga yaqinlashtiradi. G‘azablangan ilon yashin tezligida oyoqni tishlaydi. Muborak Ali dahshatli og‘riqdan ingrab, jallodga boqadi. Jallod ilon zahrining zo‘rligidan yuzlari ko‘kara boshlagan Muborak Aliga qarab, ikkinchi qafasga ishora qiladi. Qoidaga muvofiq, birinchi qafasdagi ilon chaqqan oyoqni ikkinchi qafasdagi ilonga ham chaqdirish lozim edi. Bundan maqsad, birinchi qafasdagi ilon yaxshi chaqa olmagan bo‘lsa yoki yetarli darajada zahari bo‘lmagan bo‘lsa, ikkinchi qafasdagi ilon me’yoriga etkazardi. Binobarin, Muborak Ali yaralangan oyog‘ini ikkinchi qafasga tegizadi. Shu lahzada ilon chaqib, hushdan ketadi va olamdan o‘tadi.

«Tazkirati shoiroti urdu»da naql qilinishicha, Oqilxon Roziyni qatl qilayotganlarida, u quyidagi g‘azalni o‘qigan ekan:

Ba’d az murdan zi jafoyi tu agar yod kunam,

Az kafan dast berun oram va faryod kunam.

Mazmuni: Agar sening jafolaringni eslasam, o‘lganimdan keyin ham kafandan qo‘limni chiqarib, faryod chekaman.

Yuqoridagi rivoyatlardan ko‘rinib turibdiki, Zebunnisobegimning har holda sevgan kishisi bo‘lgan. Ammo, shoh Avrangzeb bu yigitni o‘ziga kuyov qilishdan

or qilib, uning bo‘yniga tuhmat toshini osib, qatl qildirgan. Oqilxonning o‘limidan so‘ng, Zebunnisobegim qalbida yangi yor uchun o‘rin qolmaydi. U poyoniga etmagan ishqiy dostonini kuylab o‘tadi. Zebunnisobegim kamtarlik ila o‘zi haqida quyidagi misrani yozgan:

Har matoero xaridor ast dar bozori husn,

Pir shud Zebunniso o‘ro xaridore nashud.

Mazmuni: Husn bozorida har matoga bor xaridor, ammo, Zebunniso qaridi-yu unga xaridor topilmadi.

«Olami Islom»da yozilishicha, eron shahzodalaridan biri Zebunniso begimning husn-latofatda tanholigini eshitib, uni g‘oyibona sevib qoladi. Uning firoqida kuyib, oshiqona g‘azallar yozib, ulardan bir misrani Zebunnisobegimga yuboradi.

Turo, ey gulbadan, beparda didan orzu doram,

Latofathoyi husnatro rasidan orzu doram.

Mazmuni: Ey gulbadan, seni pardasiz ko‘rish, husnu latofatlaringga etishish orzusidaman.

Bunga Zebunnisobegim quyidagi javobni yozadi:

Bulbul az gul biguzarad gar dar chaman binad maro,

Vutparasti kay kunad gar baraxman binad maro?

Dar suxan pinhon shudam monandi bo‘ dar bargi gul,

Mayli didan harki dorad, dar suxan binad maro.

Mazmuni: Agar bulbul meni chamanda ko‘rsa, gul bahridan kechardi, agar barahman meni ko‘rib qolsa, butga sajda qilmasdi. Gul o‘z hidini yaproqlariga yashirganday, men ham so‘zda yashiringanman, kimning xohishi meni ko‘rmoq bo‘lsa, meni so‘zda ko‘rsin.

Bu bayt Zebunnisobegimning Eron shahzodasiga mohirona bergan javobi edi.

«Hunar va mardum» (Eron) oynomasida hikoya qilinishicha, Avrangzeb Olamgirning yetti vaziri bo‘lib, shulardan biri Oqilxon Roziy edi. U yosh, sho‘x, yetuk suxandon, shoir tabiatli yigit bo‘lgan. Taqdir taqozosi bilan Zebunniso

begim Oqilxon Roziyni yoqtirib qoladi. Nihoyat, har ikki dildor bir-birlari bilan maxfiy ravishda uchrashib, ahdu paymon qiladilar. Ammo, shoh Avrangzeb qizi Zebunnisobegimni uncha-muncha odamga ravo ko‘rmas, shahzodalar-u, aslzodalardan kuyov qilishni niyat qilardi. Zebunnisobegim bilan Oqilxon Roziy ko‘pincha bir-birlariga mushoira tarzida she’r yozishib, so‘zlashardilar. Ularning bir-birlariga ko‘ngil qo‘yganlari va maxfiy uchrashuvlari hasadchi va ig‘vogarlar nazaridan chetda qolmadi. Ular bu voqeani shoh Avrangzebga yetkazadilar. Shoh Avrangzeb avvaliga qattiq g‘azablanadi va Oqilxonga nisbatan jazo chorasini qo‘llashni o‘ylaydi. Biroq, xabarchilar keltirgan mish-mishdan boshqa qo‘lda amaliy dalil-isbot yo‘qligi tufayli, jazoni bir oz kechiktirishga qaror qiladi. Zero, bu sohada shoh Avrangzeb uzoqni o‘ylab ish tutadi. Chunki Oqilxonga beriladigan jazoning bir uchida o‘zining suyukli qizi Zebunniso turardi, shuning uchun jazo berishda shoshilmasdan, avval ularning xatti-harakatlarini tekshirib ko‘rishga jazm qiladi hamda vazirlariga quyidagicha ko‘rsatma beradi: har bir vazir bir kecha-kunduz, ya’ni 24 soat davomida saroyda bo‘lishi kerak. Haftaning etti kunini etti vaziriga taqsimlaydi. Ushbu taqsimotda Oqilxonga ham bir kecha-yu kunduz saroyda saltanat ishlari bilan shug‘ullanishga farmon beradi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, Oqilxon navbatchilik qiladigan tunda Zebunnisobegim bilan Oqilxonning diydor ko‘rishmaklariga imkon tug‘ilardi. Ammo, shoh Avrangzeb o‘zining voqeanavislarini (josus) yig‘ib, shu bir hafta davomida kechasi-yu kunduzi Oqilxon Roziyning xatti-harakatidan voqif bo‘lishni hamda kim bilan nima haqda so‘zlashganini nazardan qochirmaslikni tayinlaydi.

Oqilxon Roziy fahm-farosatli, har ishning oqibatini o‘ylaydigan aqlli yigit edi. U navbatchilik shohga nima uchun zarur bo‘lib qolgani sababini farosat yuzasidan o‘ylab topadi. Ishning oqibati yaxshi bo‘lmasligiga ko‘zi etgan Oqilxon o‘zini kasallikka solib, o‘sha kun va tun o‘z manzilidan tashqariga chiqmaydi. Zebunnisobegim esa Oqilxon Roziyning navbatchilik kechasini zo‘r ishtiyoq va sabrsizlik bilan kutadi, zero, o‘sha kecha mahbubining visolini ko‘rishga musharraf bo‘lishdan umidvor edi…

Zebunnisobegimning hayot yo‘li afsonaviy voqealarga boy. Uning nasli ota tarafidan ham, ona tarafidan ham Bobur podshohga borib tutashadi. Demak, shoh qizi, boz ustiga aql va idrokda tengsiz, yuksak she’riy iste’dod sohibasi, nazm mulkining malikasi, malikalar ichra go‘zali… Zebunnisobegim husnu latofat va malohatda benazir, fazilatda beqiyos bo‘lsa-da, o‘zining 63 yillik umri davomida o‘ziga munosib, hamdard yor topa olmadi. Zebunnisobegim 1702-yilda o‘zi tug‘ilib o‘sgan Dehlida vafot etadi va o‘sha yerdagi «Zarzari» qabristoniga Nizomiddin Avliyo, Amir Xusrav Dehlaviy yonida dafn etiladi.

«Olami Islom»da yozilishicha, Zebunnisobegimning vafotiga bag‘ishlab, abjad hisobida quyidagi g‘azal bilan ta’rix yozganlar:

Oh, Zebunniso ba hukmi qazo nogahon az nigoh maxfiy shud.

Manbai ilmu fazl va husnu jamol, hamchu yusuf ba choh maxfiy shud.

Soli ta’rix az hirad justam, guft hotif ki moh Maxfiy shud.

Mazmuni: Oh, Zebunniso, qazo hukmi bilan nogahon ko‘zdan yashirindi. Ilmu fazl va husnu latofat manbai Yusuf kabi chohga yashirindi. Ta’rix (vafot) yilini aqldan qidirdim, oy yashirindi deb g‘oyibdan ovoz keldi. G‘azalda «Zebunniso bu hukmi qazo» ta’rixi bo‘lib, arab alifbosida harflarning raqami 1132 ni tashkil qiladi. Unda «zeb» harflari – 19 dir, demak 1132 dan 19 olib tashlansa, 1113 qoladi. Bu son hijriy yilda Zebunnisobegimning vafot qilgan yilidir. Hijriy 1113-yil milodiyga o‘girilsa – 1702- yil kelib chiqadi.

Adabiyotlar:

1. Jalolov T. O‘zbek shoiralari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1980.

2. Ibrohimov A. Boburiylar merosi. – Toshkent : Fan, 1998. – 63 b.

3. Nizomiddinov N. F. Qadimgi Hindiston tarixi, diniy e’tiqodi va madaniyati. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2014. – 461 b.

ПОЭТИК МАТН СИСТЕМ-СТРУКТУР ТАРКИБИДА УЗВИЙЛИК ВА МАНТИҚИЙЛИК

Бердиев Ҳусан Холназарович,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори
Самарқанд давлат университети
Ўзбекистон-Финландия педагогика институти ўқитувчиси

Ҳар қандай матнда мавзуга олиб чиқилган масалага муносабат – муқаддима, асосий мақсад ифодаланган қисм ва хулосавий фикрлар у ёки бу даражада акс этган бўлади. Муқаддима ва мақсад мазмунидаги қисмлар эса, боғловчи қисм сифатида асарда бирор лисоний восита орқали ифода этиладики, бу кенгроқ кузатишни талаб қиладиган масалалар сирасига киради. Шу нуқтаи назардан олганда, Сирожиддин Саййиднинг “Ватан бўлмас Ватандан ташқарида” туркуми таркибида эълон қилинган “Сомон йўли сомонлари” шеъри характерлидир.

Дастлаб, қофиядош сўзлар маъноси ва матн мазмуни муштараклигини *Сомон* ва *осмон* қофиядошларига алоқадор бўлган сўзлар мисолида олиб қарайдиган бўлсак, қуйидагиларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

Сомон йўли

дашт

Осмон йўли

+

Адир, буғдойпоя, тун, сув, соя, вақту замон, даврон, болалик,

дашт, шамол, буғдойзор, бошоқ, хир-[***Сой*** юлдузлар, чархи даввор, монжой, қўш ҳўкиз, гаврон ***Ой***] ғам ҳўкизи, замин ҳам замон

Сомон дон Совурдинг // Қовурдинг

+ =

аждод авлод Болалигим қайда қолди, отам қайдалар?

Фалак, бизнинг донимиз, ерлар

+ =

БЕЛГИЛОВЧИ СЎЗЛАР

Сомон дашт бошоқ

Осмон + шамол + хирмонжой

Дон сой қўш ҳўкиз Совурдинг = “Майда, ҳо, майда…”

ой гаврон

вақту замон Қовурдинг = “Қайда, ҳо, қайда?”

даврон

юлдузлар

чархи даввор

Бадиият мазмун билан муштарақликда алоҳида аҳамият касб этар экан, унинг асосини лисоний бирликларнинг муайян мантиқий изчилликдаги тизими таъминлайди. Шу маънода, ҳар қандай бадиий санъат серқирра услуб билан чамбарчас боғлиқдир. Матн бошланишидан охиригача бўлган мантиқий алоқа занжири айнан бадиий воситаларда кўпроқ намоён бўлади. Қуйидагилар фикримизнинг далилидир:

Тарду акс қофияда ҳам бўлади:

Бизлар сомон ташир эдик сомон йўлидан –

Адирларга тегиб турган осмон йўлидан.

----------с+о----------

----------о+с----------

ёки

Адирларга тегар эди осмонларимиз,

Тўкилдилар, сочилдилар сомонларимиз

----------о+с---------

----------с+о---------

Матн доирасида зидланиш ҳосил қилган мазкур тарду акс луғовий эмас,

балки фонетик асосга эга. Зеро, шу товушлар иштирок этган сўзларда биз тескари такрорни кузатмаймиз.

Муайян сўз кейинги сўзлар таркибида бўғин сифатида келади ва оҳангнинг ўзига хослигини таъминлайди:

Ой нурида ярқирарди буғдойпоялар

Ойдин тунлар, сувлар ойдин, ойдин соялар.

Ой---------- ++++ ой++ ой (+а)

Ой---------- ой+++ ой +++++ ой (+а)

Шундай қилиб, шеър қуйидаги таркибий қисмлардан иборат:

1.Муқаддима

2.Асосий қисм (дастлабки)

3.Боғловчи қисм

4.Асосий қисм (мақсад)

5.Хулосавий фикр

Муқаддима ва унга тегишли асосий қисм қофиядош сўзлари – *сомон + осмон, буғдойпоялар + соялар, беармон + нофармон, безавол + шамол, ёшроқлар + бошоқлар, сой + ой, осмонларимиз+сомонларимиз.*

Кўринадики, шеърнинг ушбу қисми *сомон* ва *осмон* сўзлари билан бошланган ва шу сўзлар билан ниҳояланган. Фақат сўзларнинг қўлланишидаги алмашинишда парадигматик йўналишдаги тарду акс ҳосил бўлиши киши диққатини тортади:

…… Сомон …….,

…… осмон ……...

…….. осмонларимиз,

…….. сомонларимиз.

Бу шунчаки шаклий ёки тасодифий ҳодиса бўлмай, бевосита мантиқ тақозоси, дейиш мумкин. Зотан, кейинги байт мазмуни шундай фикр юритишимизга асос бўлади:

Хирмонжойда чарх урарди бутун бир олам,
Айланардик қўш ҳўкизу биз яна отам.

Хирмонжойда (гўё) бутун бир олам чарх уриб, қўш ҳўкиз, болалар ва отанинг айланиши билан вақту замон, давроннинг айланиши ўхшатилади-қиёсланади. Бундан олдинги байтда биринчи мисрадаги адирлар ва осмон – хотирот белгилари. Бинобарин, шоир “Тўкилдилар, сочилдилар сомонларимиз” сатрини келтирадики, бу ҳам, ўз навбатида, мантиқий асосга эга.

“Хирмонжойда…” деб бошланувчи байт боғловчи қисмга ўтиш учун муқаддима вазифасини ҳам ўтайди. Чунки шеърдаги фикр алмашиниши худди шу байтдаги “айланардик” сўзи орқали ифодаланган. Боғловчи қисм эса, табиийки, айланишлар маркази. Шу байтга келиб, олдинги сатрдаги “айланардик” ва “айланади”лар “айланди” тарзида тугал хабар ифодалаши ҳам шундан далолат:

Айланарди ҳўкизларни юргизиб гаврон,
Вақту замон ***айланарди, айланди*** даврон.

Шунингдек, биз шартли равишда “боғловчи қисм” деб атаётган байтдаги *гаврон* ва *даврон* қофиядошлиги ҳам ўзига хос хусусиятга эга. Айнан шу сўзлар шоир мақсад мазмунидаги асосий қисмда баён этмоқчи бўлган фикрларга замин ҳозирлайди. Албатта, мавзуга доир фикрларнинг анъанавий талқинлари айрим адабиётларда [“Адабиётлар” рўйхатига қаралсин] ёритилганини ҳам таъкидлаб ўтмоқ жоиз.

Адабиётлар:

1. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: «Фан» нашриёти, - 1977.

2. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.

3. Рождественский Ю.В. Введение в общую филологию. – М.: Высшая школа, 1979.

4. Мирзаев И.К. “Девону луғотит турк” - илк лингвопоэтик манба сифатида.//XXI аср ва ўзбек филологияси тараққиёти муаммолари (проф. С.Н.Иванов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган илмий-назарий анжуман материаллари) – С.: СамДУ, 2002

5. Ҳусайний А. Бадойиъу –с – санойиъ. – Т., 1981.

6. Асаллаев А., Раҳмонов В., Мусурмонқулов Ф. «Бадиий санъат жозибаси»–Т.: «Янги аср авлоди», 2005.

7. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999.

8. Сулаймонов Ш., Тўхсонов Қ. Адабиётшунослик атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Б.: «Бухоро» нашриёти, 2009.

9. Зиёвуддинова М. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг “Мафотиҳ ал-улум” асарида поэтика (Аруз, қофия, бадиият илми истилоҳлари тарихига оид). – Т., 2001.

10.Сирожиддин Саййид. Ватан бўлмас Ватандан ташқарида//Тафаккур, 2007, №4, 16-17 – бетлар.

ШУҲРАТ АДАБИЙ МЕРОСИ ХУСУСИДА

Нодира Соатова,
Жиззах давлат педагогика институти
доценти, ф.ф.н

Миллий мафкуранинг асосий тамойиллари шаклланган ҳозирги шароитда XX аср ўзбек адабиёти ва кўплаб намояндалари ижодига ҳам янгича қарашлар асосида ёндошишнинг зарурати туғилади. Зероки, адабиёт инсон руҳияти, маънавияти, дунёқараши билан бевосита алоқадор бўлган жараён сифатида миллатнинг ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида ўз ўрнига эгадир.

Шу ўринда Абдулла Ориповнинг “Адабиётимиз тоғлари силсиласида бошини оппоқ қор чулғаган чўққи сингари Шуҳрат сиймоси ҳар доимо кўзга ташланиб тураверади”- деган сўзлари Шуҳрат ижоди учун берилган ҳақиқий эътироф.

Истеъдодли шоир, ширинзабон адиб Шуҳрат ўзининг шеърлари, достонлари, қисса ва ҳикоялари, драматик асарлари, айниқса, кенг кўламли романлари билан минглаб китобхонлар эътиборини қозонган қалам соҳиби эди. Шуҳратнинг прозамиздаги салмоқли ўрни бўлганидек, шеъриятимиз тараққиётига қўшган ҳиссаси ҳам беқиёсдир. Шу вақтгача, унинг ижоди ўзининг тўла баҳосини олмаган эди. Маънавият ва адабиётга катта эътибор берилаётган бир пайтда Шуҳратдек ижодкорлар ҳаёти ва ижодини чуқур ўрганиш ва унинг XX аср ўзбек адабиёти тарихидаги ўрнини белгилаш муҳим аҳамиятга эга.

Президентимиз Фармони билан бир гуруҳ ижодкорларнинг “Буюк хизматлари учун” ордени билан мукофотланиши, улар орасида Шуҳратнинг ҳам борлиги адибнинг ўзбек адабиётини ривожлантириш йўлидаги хизматларига берилган адолатли баҳодир. Халқимизнинг севимли адиб Шукрулло таъкидлаганидек, “Адиб ижодда ҳам, ҳаётда ҳам ўзига содиқ қолди. Унинг ибратли фазилати шундаки, таъма билан ижод қилмади. Мукофот, унвонлар кетидан қувмади. У амал-мартабаси, раҳбарларнинг

муносабатига қараб дўст танламади. Виждони буюрган ишни қилиб ўзини эркин тутди. Шундан ором олди”.

Шуҳрат ўзбек адабиётидаги энг сермаҳсул ижодкорлардан бири ҳисобланади. Жумладан, “Меҳрол”, “Орзу ва қасос” поэмалари (1940), “Бизнинг кўча” (1947), “Ҳаёт нафаси” (1948), “Қардошлар” (1950), “Сенинг севгинг”(1961),“Ишқингдаёниб”(1964),“Лирика”(1973)шеърийтўпламлари, “Шинелли йиллар» (1959), “Олтин зангламас” (1965), “Жаннат қидирганлар” (1971) каби романлари китобхонлар ва тадқиқотчилар томонидан самимий қабул қилиниб, бир неча бор нашр килинган. Юқоридагилардан кўриниб турибдики, Шуҳратдан салмоқли адабий мерос қолган.

Шуҳрат ижоди юзасидан ўзбек адабиётшунослигида бир қанча тадқиқотлар амалга оширилган. Жумладан, Мақсуд Шайхзода шоирнинг шеъриятини биринчилардан бўлиб ўрганиб, каттагина мақола ёзган [7]. У.Норматов Шуҳрат тўғрисида илк адабий портрет ёзиб, унинг роман, достон ва шеърларидаги уруш ва инсон, ватан ва халқ мавзуларини ўрганган ва улар юзасидан ўз хулосаларини билдирган [6]. А.Азимовнинг номзодлик диссертациясида Шуҳратнинг “Олтин зангламас” романида ижобий қаҳрамон масаласи ва асар бадиияти қирралари ёритилади[1]. О.Шарафиддинов[8], Н.Каримова[5], Жамол Камол[2], О.Икромов[3], Н.Худойберганов[9], Б.Файзиев[10], Ж.Ҳожиматов[11] сингари олимларнинг мақолларида ижодкор асарларининг баъзи қирралари юзасидан фикрлар баён қилинган.

Шуҳрат поэзиясининг муҳим фазилати шундаки, у ҳаётни фақат ўзига хос нигоҳ билан, бой ва сермаҳсул ҳаётий тажрибага эга кишининг кўзи билан кўрган. Унинг шеърларида эҳтиросли, ёниқ қалбнинг ҳарорати сезилиб туради. Шеърларида ҳаётнинг сир-асрори ҳақидаги теран ўйлар ифодаланган. Биламизки, Шуҳратнинг ҳаёти ва ижоди бир текис, силлиқ кечмаган. Қамоқ азобларидан ташқари, ён-атрофидаги “дўстлари” ҳам улкан ижодкорга гоҳ ошкора, гоҳ пинҳона туҳмат тошларини отиб борган. Лекин мард ва бағри кенг шоир ҳамма- ҳаммасини яхшилик билан, яхши асарлари билан енгиб яшаган.

Шаънимга отилган таъна тошлари
Охири йиғилиб улкан тоғ бўлди.
Мен унинг устига чиққаним сари,
Ғурурим ошди-ю, кўнглим чоғ бўлди.
Мен унинг устидан мағрур, тик боқиб,
Ҳаётнинг уфқини ёркинроқ кўрдим.

Шуҳрат шеъриятига хос ҳаққонийлик, самимийлик ва бадиий мукамаллик унинг насрий асарларига ҳам хос. Дарҳақиқат Шуҳрат шеърияти ва насри ўртасида умумий бир бутунлик ва мустаҳкам бирлик мавжуд. Бу бутунлик ва бирлик мавзулар ва ғоявий мазмун таркибида ҳам, образлар силсиласида, ички мантиқ ва услуб уйғунлигида ҳам очиқ кўринади. Ёзувчи шеъриятида бўлгани каби насрий асарларида ҳам асосий эътиборни янги замон воқеа-ҳодисаларини тасвирлашга, кишилар онги-дунёқарашидаги ўсиш—ўзгаришларини кўрсатишга хилма-хил образлар яратиб, халқимизнинг ўзига хос феъл-атворини, фазилатларини очиб беришга қаратади. Ватанпарварлик, инсонпарварлик, қаҳрамонлик, меҳнатсеварлик, бунёдкорлик, вафодорлик ва садоқат сингари миллий характер белгиларини ўз асарларининг мағиз-мағизига сингдириб юборади.

Адибнинг “Олтин зангламас” романида шахсга сиғиниш давридаги адолатсизликлар, оқни қора деб бегуноҳ кишиларни қамашлар, асоссиз жазолашлар акс эттирилиб, бир сўз билан айтганда мустабид тузумнинг ҳалол бир ўзбек зиёлиси ҳаётидаги жонли инъикоси десак, “Жаннат қидирганлар” романида эрксевар халқларнинг куч-қудрати ҳаққоний тасвирлашга катта аҳамият берилган.

Шуҳрат шеърияти ва насрига хос бўлган асосий ғоявий-бадиий хусусиятлар унинг саҳна асарларига ҳам хосдир. У ўз ижодий фаолияти давомида “Беш кунлик куёв”, “Қўша қаринглар” каби комедия жанрига оид асарлар ҳам яратган. Бу саҳна асарларида халқимизнинг миллий урф-одатлари, ажойиб фазилатлари улуғланган. Ҳаётдаги ижобий хислатлар севгига содиқлик, маънавий-ахлоқий нопоклик ҳажв қилинган.

Хуллас, Шуҳрат кўп қиррали истеъдод соҳиби, ўз халқи, ватанига содиқ ижодкор. Унинг асарлари тили содда, равон, халқ тилига яқин, аниқроқ айтганда халқнинг орзу-умид, ўй-кечинмаларини бадиий тасвиридир. Шу сабабдан, Шуҳратнинг адабий мероси XX аср ўзбек адабиётининг сара намуналари қаторида туради ва ёш авлодни эзгулик руҳида тарбиялашга бевосита хизмат қилади. Сўзимизни мухтасар қилиб, ўзбек халқ ёзувчиси Ўткир Ҳошимов эътирофини келтирамиз: “Шоир, адиб, драматург Шуҳрат замон азобларидан йиқилиб, тўшакка ёпишиб қолган чоғида ҳам титроқ қўллари билан ҳақиқат олдида титрамайдиган асарлар ёзди. Ҳаётда ҳам, ижодда ҳам ўз номини қолдирди. Бу ном узоқ йиллар яшайди, деб умид қиламан”.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Азимов А. Шуҳрат ижодида ижобий қаҳрамон проблемаси. ф.ф.н.илмий даражасини олиш ёзилган диссертация .- Самарқанд, 1975;
2. Жамол Камол.“Шуҳрат шеъриятининг услубий хусусиятлари”. Лирик шеърият-Тошкент.: Фан. 1986
3. Икромов О. Шуҳратнинг “Олтин зангламас” романи Улуг Ватан уруши даврининг бадиий ифодаси сифатида. Самарқанд проф-ўқитувчиларнинг II илмий конференция материаллари Самарқанд, 1963
4. Тоғаев О “Олтин зангламас”. “ Гулистон” журнали, №8, 1967.
5. Каримова Н. Шуҳрат ижодида ижобий қахрамон.“Ўзбек тили ва адабиёти”журнали, №2, 1972.
6. Норматов У. Шуҳрат.- Т.: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969
7. Шайхзода. М. Қалам ва бурч. “Шарк юлдузи” журнали, №5, 1967.
8. Шарафиддинов О. Якун ва дебоча. “ Шарқ юлдузи журнали”, №2, 1962;
9. Худойберганов Н. “Яшашнинг маъноси”. “Шарк юлдузи” журнали, №5 1960

10. Файзиев Б. Балоғат. “Шарк юлдузи” журнали, №12, 1960.

11. Ҳожиматов Ж. Ҳаётнинг бадиий инъикоси. “ Шарк юлдузи” журнали, №8, 1967

ҚАРАҚАЛПАҚ АЙМАҒЫ ҚАЗАҚ АҚЫН-ЖЫРАУЛАР ШЫҒАРМАЛАРЫНДАҒЫ ОРЫНДА УШЫЛЫҚ ЕРЕКШЕЛІКТЕР

Т.Торткүлбаева,
Әжініяз атындағы Нөкіс мемлекеттік
педагогикалық институты
Қазақ тілі және әдебиеті кафедрасы,
филология ғылымдары бойынша
философия докторы (PhD), доцент

Аннотация. XIX ғасырдың екінші жартысы мен XX ғасыр басындағы қарақалпақ аймағы қазақ фольклоры мен әдебиетінің орындаушылары және шығарушыларының сөз өнерін айтқанда, негізгі бағдарлар мен жалпылық және даралық дәстүр сөз болады. Қарақалпақ аймағы қазақ ақын-жырауларының қазақ әдебиетіндегі өзіндік ерекшелігі мен сипаты даралық, жалпылық атқату үлгісінде көрінеді. Бұл халық мұрасының сақталуы мен дамуында ақындық, жыршылық, жыраулық ортаның Қарақалпақ аймағында қалыптасқанын көрсетеді.

Кілт сөз. Қарақалпақ аймағы қазақ ақын-жыраулар мұрасы, фольклорлық халық мұрасы, жалпылық мұра мен жеке шығармашылық, жалпылық шығармашылық, социалдық-психологиялық эталон, ақын-жыршылар репертуары.

Қарақалпақ аймағы қазақ ақын-жыраулар мұрасының пайда болу және қалыптасу деректері мәселесін сөз еткенде, дәстүр және мұрагерліктің орны айрықша. Шындығында да, XIX ғасырдың екінші жартысы мен XX

ғасыр басындағы қарақалпақ аймағы қазақ фольклоры мен әдебиетінің орындаушылары және шығарушыларының сөз және саз өнері фольклор мен жазба әдебиетті жалғаушы алтын көпір есебінде эстетикалық жүйе қызметін атқарғаны үшін оның дамуының негізгі бағдарларын да осы екі арнадан іздеуге тура келеді.

Бұның бірі фольклорлық халық мұрасы – жалпылық шығармашылық екендігіне дау жоқ. Сондықтан да жалпылық шығармаларда халықтың көркем ойы мен санасы басым көрінеді. Ой мен сана белгілері көркем образ арқылы танылады, сол арқылы беріледі.

Көпшіліккебелгіліпікіргежүгінетінболсақ,жалпылықшығармашылыққа тән образын жасау фольклордың өзіне тәнерекшеліктерінің бірі.

1. Жалпылық мұра мен жеке шығармашылықтың ара қатынасын диалектиканың даму заңымен түсіндіру белгілі ғалымдардың көбінде болды. Академик А.Веселовский «Жалпылық шығармашылық» -Азимов А. Шуҳрат ижодида ижобий қаҳрамон проблемаси. ф.ф.н.илмий даражасини олиш ёзилган диссертация. - Самарқанд, 1975;

2. Жамол Камол. “Шуҳрат шеъриятининг услубий хусусиятлари”. Лирик шеърият-Тошкент.: Фан. 1986

3. Икромов О. Шуҳратнинг “Олтин зангламас” романи Улуғ Ватан уруши даврининг бадиий ифодаси сифатида. Самарқанд проф-ўқитувчиларнинг II илмий конференция материаллари Самарқанд, 1963

4. Тоғаев О. “Олтин зангламас”. “ Гулистон” журнали, №8, 1967.

5. Каримова Н. Шуҳрат ижодида ижобий қаҳрамон. “Ўзбек тили ва адабиёти”журнали, №2, 1972.

6. Норматов У. Шуҳрат.- Т.: Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969

7. Шайхзода М. Қалам ва бурч. “Шарқ юлдузи” журнали, №5, 1967.

8. Шарафиддинов О. Якун ва дебоча. “Шарқ юлдузи журнали”, №2, 1962;

9. Худойберганов Н. “Яшашнинг маъноси”. “Шарқ юлдузи” журнали, №5 1960

10. Файзиев Б. Балоғат. “Шарқ юлдузи” журнали, №12, 1960.

11. Ҳожиматов Ж. Ҳаётнинг бадиий инъикоси. “Шарқ юлдузи” журнали, №8, 1967

МЕКЕМБАЙ ОМАРОВ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫНДАҒЫ ХАЛЫҚТЫҚ ИДЕЯНЫҢ ОҚУШЫЛАРҒА ҰЛТТЫҚ ТӘРБИЕ БЕРУДЕГІ РӨЛІ

Оразов Бағдат Төлепбергенұлы,

Гүлстан Мемлекеттік университеті

Орыс тілі және әдебиеті кафедрасының оқытушысы

Өзбекстанда туылып, қазақ тілінде қалам тебіренткен Өмірзақ Қожамуратов, Аширмат Мусаев, Файзолла Жұмақулов, Мекембай Омаров, Құлназар Ибрагимов, Мұрат Бекей, Бөрібай Оразымбетов, Үсен Өмірзақов, Ешмағанбет Көбеев, Лала Жұманова, Қаһраман Бегежанов, Боран Қыдыров, Айтуар Сабыров, Құлмахан Дүйсенов, Нұрлан Тотанов сияқты ақын-жазушылардың даңқы көпшілікке таныс. Бұлардың шығармаларында Отанға деген махаббаты мен ел-жұртқа деген сенім-сезімдері бейнеленеді.

Өзбекстандық қазақ ақын-жазушыларының арасында өзіндік ерекшелігімен ажыралып тұратын қаламгерлердің бірі - Өзбекстан жазушылар Одағының мүшесі, «Халық тәлімінің үздігі», үлкен талант иесі – Мекембай Омаров.

Мекембай Омаров – аса көрнекті ағартушы-педагог, әдебиеттанушы, аудармашы, әрі суырып салма ақын, сатирик, сондай-ақ «Төрткүл дүние», «Махаббат», «Атамекен», «Таудай бол», «Қазақтың 1001 мақал-мәтелі», «Шанышқылы шежіресі» сияқты тағы басқа кітаптардың авторы ретінде оқырмандарымызға кеңінен танылған сегіз қырлы, бір сырлы жан.

Халықтық идея Мекембай Омаровтың әдебиет, психология, педагогика және әдістемелік нұсқаулары, оқу құралдары мен оқулықтарында және көптеген мақалаларында кеңінен баяндалған, ал оны зерттеу және тәлім-

тәрбиелік жұмыста пайдаланып, кәдеге асыру – қазіргі кезде кезек күттірмейтін мәселенің бірі.

Мекембай жас ұрпақтың жан қуаттары мен ой жүйесінің дамуында бірнеше пәннің, әсіресе, «Оқу» пәнінің ықпалы әдебиетте екендігіне тоқталады.

Сонымен Мекембай Омаровтың тәлім-тәрбие тағлымдары арқылы мектеп оқушыларын қоғам талабына сай тәрбиелеп, олардың ұлттық сана-сезімін қалыптастыруда ерекше орын иелейді. Оның халықтың идея тұрғысындағы мұраларындағы басты мәселелер: адам мен оның іс-әрекеті; олардың бойында кездесетін асыл да жақсы ұлттық қасиеттері; ата-ананың ұлттық тәрбие берудегі орны; мектеп пен ұстаздар ұжымының оған ықпалы; жалпы білім, ғылым, ақыл-парасат, тіл, сөз өнері т.б.

Мекембай Омаровтың кітабындағы тақырыптар табиғат құбылыстарын бейнелі де бедерлі суреттеп, өмір жырын, уақыт сырын шертеді. Бұл кітапты жас буынның ой танымын байытып, ұлттық тәлім-тәрбие мен бағыт бағдар беруде орны бөлек еңбек деуге болады.

Мекембай Омаровтың халықтың идеясын газет пен журнал беттерінде жарық көрген көптеген мақалаларынан да аңғаруға болады.

Мекембайдың 2002 жылы жарық көрген кітабы «Кітабым шуағым» деп аталады. Бұл бастауыш сынып оқушыларына арналған хрестоматиялық үлгіде жазылған еңбек. Бұл еңбек балалардың ұлттық психологиялық ерекшеліктері ескеріле отырып жазылған.

Сонымен қатар Мекембай Омаровтың қазақ халқының тәрбиелік даналығы мен тәжрибесі оның ауыз әдебиетінде екенін сезіп, Ташкент маңынан ауыз әдебиетінің үлгілерін жазып алумен шұғылданып, оларды жинап, олардың негізінде «Шанышқылы шежіресі» (2000), «Қазақтың 1001 мақал-мәтелі» (2006) кітаптарын бастырып шығарады. Оның фольклортану саласындағы еңбектерінің ішінде ең оқшау тұратыны Ташкенттегі «Зарқалам» баспасынан жарық көрген «Қазақтың 1001 мақал-мәтелі» атты еңбегі. Бұл еңбегінде ол халқымыздың мағынасы терең мақал-мәтелдері

тарихи бір кезеңнің, белгілі бір дәуірдің еншісіне тиесілі етпей, ел ішінен жинаған мақал мен мәтелдердің қыры мен сыры оқыған сайын ашыла түседі, оқырманды толғандырып, ой-өрісін кеңейтеді, көңлін көтеріңкі ойлармен байытады. Ол еңбек туралы Өзбекстан Республикасы «Достық» орденінің иегері Тұрсымат Қалбаев былай дейді: «Мақал-мәтелдердің қай-қайсысы да оқырманды адамдық пен өмір сүруге, бір-біріне қиянат жасамауға, төңірегіндегілерді қадірлеуге, инабатты, әдепті, мейрімді, жомарт болуға, табиғатты сүюге шақырады, жарамсыз мінез бен жаман қылықтардан сақтандырады. Дидактикалық – пәлсапалық сарындағы бұл қанатты сөздерді ата-бабамыздың сөзі және көзі ретінде ардақтағанның аузына май, астына тай. «Білгенім – тоғыз, білмегенім – мың тоғыз» дейді ел мәтелі. Сол айтпақшы, жинап болдық, зереттеп қойдық деп ауыз толтырып айтқанымызбен, «Ел іші - өнер кешімі» екенін ұмытпағанымыз жөн», - деп мақал-мәтелдердің тәрбиелік жағын сөз етеді.

2009 жылы «Жазушы» баспасынан қаламгердің «Ең тәтті алмалар» атты әңгіме-қиссалар жинағы шықты. Бұл кітапқа автордың «Ең тәтті алмалар», «Дүниенің істері», «Жезде мен балдыз», әңгімелерімен «Жәмила», «Құйрықты жұлдыз», «Таңғажайып дүние», «Құрманғазы, Барлас және Құмайтазы» атты қиссалары енген. Аталмыш туындылардың кейіпкерлері – кешегі және бүгінгі ауыл адамдары. Сондай-ақ онда туған жер, Отан, махаббат, мейірім, достық, қоршаған орта сияқты киелі мәселелер сөз етілген.

Қорыта айтарымыз, Мекембай Омаровтың еңбектері ұлттық сана-сезімді, ұлттық намысты, тарихи сананы қалыптастыруда алатын орны мен маңызы ерекше. Сондықтан да М.Омаров халықтық идеяны насихаттауға ерекше еңбек еткен нағыз халық педагогы деуге болады. Оның еңбектері мен ой-пікірлерін жас ұрпақты қазақ халқының ұлттық рухында тәрбиелеу негізіне алынуы, ол үшін оның сол ұлттық тәрбие беру туралы көзқарастары жан-жақты зерттеліп, оқу-тәрбие жұмысында кең қолданыс табуы тиіс. Сонда ғана ұлттық тәрбие – ұлт болашағының негізі бола алады.

Пайдаланылған әдебиеттер тізімі:

1. Кітабым-шуағым: 1-сыныпқа арналған сыныптан тыс оқу кітабы. Омаруқлы М., Адамбаев Т. – Т.: «Ўзбекистон», 2002. – 143 бет.

2. Мекембай Омаров /“Жалын” журнали, №6, 1979. 127-бет.

3. Моминқулов М. Қазақ халық тәрбиесінің педагогикалық негіздері.– Қарағанда. 2005.

4. Омаров М. Махаббат. –Т.: «Шарқ», 1999. – 79 бет.

5. Омаров М. Атамекен. – Алматы: «Нұрлы бейне», 2008. – 182 бет.

6. Омаруқлы М. Таудай бол. Т.: «Чўлпон», 2009. – 112 бет

7. Омаруқлы М. Қазақтың 1001 мақал-мәтелі. Т:2006

8. Омаруқлы М. Ең тәтті алмалар. Т:2008

ALISHER NAVOIY IJODIDA XUROSON USLUBINING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Rasulova Rayxon Baxritdinovna,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi,
Jovliyeva Yulduz,
Chirchiq davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Adabiyot – ummon kabi keng. Ummon tubidan bebaho durlarni topish biz bo‘lajak pedagoglarning eng muhim maqsadimizdir. Shu maqsadni amalga oshirish, ya’ni badiiy adabiyot va adabiyot tarixini chuqur o‘rganishda badiiy asar uslubiga alohida to‘xtalib o‘tishimiz joiz. Chunki, uslub badiiy adabiyot dagi eng muhim hodisalardan biri

Uslub – ijodkorning dunyoqarash, fikrlash va tasvir usuli bo‘lib, g‘oyaviy-estetik qarashlar majmuyidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uslub tushunchasi kam o‘rganilgan masalalardan biridir. Bunga sabab manbalarda uslubning ikki ma’noda qo‘llanishida. Bulardan birinchisi individual uslub, ikkinchisi uslubiy oqim. Individual uslubda ijodkorning dunyoqarashi, xarakteri, hayot tajribasi u

yashagan davr va davr muhiti yaqqol koʻzga tashlanadi.

Baʼzan bir davrda yashab ijod qilgan ijodkorlar asarlari oʻrtasida ham uslub jihatidan tafovutlar uchratishimiz mumkin. Bunda davr va davr muhiti hech qanday asosga ega boʻlmaydi. Masalan, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Choʻlpon, Abdurauf Fitratlar bir davrda yashab ijod qilgan. Ammo ular uslubi bir-biridan farq qiladi. Keyingi avlod vakillari Oybek bilan Abdulla Qahhor asarlari ortasidagi farq ham yer bilan osmoncha.

Adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov oʻzbek adabiyotidagi adabiy uslublarni bunday ikkiga boʻlish oʻta shartli ekanligini taʼkidlaydi. Negaki u Movarounnahrda yashasa ham, Navoiy taʼsirida Xuroson uslubiga izdosh boʻlgan Nodira, Uvaysiy, Xorazmda Nishotiy, Munis, Ogahiy kabi ijodkorlar koʻp boʻlgan. Baʼzan buning aksi yuz berib Movarounnahrdan chiqqan Mashrab kabi oʻzbek shoirlari Xuroson shoirlariga oʻz taʼsirini koʻrsatganligini ilmiy asoslab bergan.

Mumtoz adabiyotda yuksak (balandparvoz, dabdabador), oʻrtacha (moʻtadil) va jaydari uslublar boʻlganligi maʼlum.

Bundan tashqari uslub istilohi tor va keng maʼnolarda ham qoʻllaniladi. Keng maʼnoda maʼlum davr yoki biror-bir xalq adabiyotiga xos uslub tushuniladi. Bunga misol qilib oʻzbek xalq ogʻzaki ijodidagi dostonlarni keltirish mumkin. Ular xalqimizning tarixi, maʼnaviyati, anʼana va qadriyatlarini oʻzida namoyon etib oʻziga xos milliy uslubni tashkil etadi. Davr muhiti ham uslubiy taraqqiyotga taʼsir koʻrsatadi Alisher Navoiyning beqiyos badiiy merosi asosida Navoiy davri adabiyoti va uslubi vujudga keldi. Bu uslub yana “uslubi oliy” deb ham yuritiladi.

Tor maʼnoda esa uslub maʼlum bir yozuvchi ijodiga nisbatan (Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lutfiy, Ogahiy, Mashrab) nihoyat alohida bir asarga nisbatan ham (Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi yoki Boborahim Mashrab gʻazallaridagi uslub) ishlatiladi.

Mumtoz adabiyotdagi badiiy uslubga tarixiy taraqqiyot va shart-sharoit ham taʼsir koʻrsatadi. Adabiy uslublarni nomlashda joy nomlarini qoʻllash koʻp kuzatilgan. Turkiston uslubi, Xuroson uslubi, Hind uslubi, Iroq uslubi kabi nomlanishlar fikrimizning yorqin dalili. Xuroson uslubiga alohida toʻxtalib

o‘tamiz. Xuroson uslubi XV asrning 2-yarmida vujudga kelgan va uning asoschisi so‘z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiydir.

Xuroson uslubida an’anaviy mavzular va timsollar keng o‘rin tutadi. Navoiy, Ogahiy, Munis, Nishotiy ijodlarining asosini Xuroson uslubi tashkil etadi. Xuroson uslubi Turkiston uslubidan keyin vujudga kelgan, ammo juda keng tarqalgan va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan uslub sanaladi. Bu uslubning o‘ziga xos tomonlaridan biri shuki, ushbu uslubda oddiy xalq ham ijod mahsuliga ega bo‘lgan. Bunga misol qilib Oybekning “Navoiy” romanidagi qahramonlardan biri To‘g‘onbekning Hirotga bergan ta’rifini keltirishimiz mumkin: “Ajab Hirot ekan!.. Halvofurushi ham shoir, kabobpazi ham shoir...”

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, Hirotda o‘ziga xos adabiy-ijodiy muhit shakllangan. Bu muhitning shakllanishida Hazrat Mir Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyosdir.

Navoiy uslubida ham turkona uslubda bo‘lgani kabi didaktika yetakchi o‘rinni egallaydi. Hech narsa Navoiyning teran nigohidan chetda qolmagan.

Mutafakkir shoir insoniylik mohiyatini uning ijtimoiy faoliyatida—jamiyatga foydali kasb bilan shug‘ullanishi, xalqqa manfaati tegishli, odamlarning og‘irini yengil qilishida deb biladi. Uning xalq g‘amini o‘z g‘ami deb bilmaydigan odamni odam qatoriga qo‘shmasligi bejiz emas.

Odami ersang, demagil odami
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Bu Navoiyning inson haqidagi qarashlari tizimida eng muhim nuqta. Zero, shoirning o‘zi ham xalqqa qancha ko‘p foydang tegsa, o‘zingga ham foydasi ko‘pdir degan aqida bilan yashagan:

Naf’ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf’ o‘zungga ko‘prakdurur.

Sharq mumtoz so‘z san’atida nafaqat yangi gap aytish, teran fikni ifodalash, balki ana shu yangi gap, kerak fikrdan qanday shakl, qaysi badiiy san’atlar vositasida aks ettirish ham muhim sanalgan. Bunga misol qilib Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhodga ism qo‘yilishi tasvirini ko‘rsatish mumkin.

Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,

Biror harf ibtidodin aylabon fard.

Bu san'at mumtoz adabiyotda kitobot san'ati deyiladi. Kitobot—arab alifbosi harflari yozuvi asosida o'ziga xos tashbeh (o'xshatish) yaratishni yoki aytilayotgan fikrni ifodalashni ko'zlaydigan she'riy san'at.

Baytdagi "firoq" so'zidan "f", "rashk" so'zidan "r", "hajr" so'zidan "h", "oh" dan "o", "dard" so'zidan "d" harflardan jamlab, donani chaqaloqqa "Farhod" ismini beradilar.

Shoir har qanday fikr, kechinma, manzarani go'zal badiiy san'atlar vositasida yuksak mahorat bilan ifodalaydi.

Navoiy asarlarida tashbehlarning go'zal namunalarni ham yaratadi.

O'yla bahri falak misol ichra,

Kavkabe yer tutub hilol ichra.

Ya'ni:

Go'yo dengiz falak misol-u, ya'ni dengiz osmonga o'xshar,

U (Mehr) hilol – yarim oy shaklidagi kema ichidagi yulduzdek edi.

Shu bir baytda uchta tashkil qo'llanilib, ular yaxlit bir syujetni hosil qiladi.

Mumtoz adabiyot tahlili bilan shug'ullanadigan olimlari bir ovozdan Alisher Navoiyning shaxs ichki kechinmalarini badiiy ifodalashda tengi yo'q ijodkor deb biladilar. Bu jihatdan shoir ruhiy vaziyat ifodasida benazir iqtidor egasi sifatida shuhrat topgan. Uning qalamiga mansub she'rlarda shaxs ruhiy holati tasviri hamisha o'zining eng oliy darajadagi ifodasi o'lchoviga muyassar bo'ladi. Shoir yozadi:

Qatra qonlarkim tomar ko'ksumga urg'an toshdin

Zaxmindur demakim, qon yig'lar ahvolimg'a tosh.

Shoir she'rlari nafaqat mazmunining chuqurligi-yu falsafasining quyuqligi, balki shaklan go'zalligi, hassos ruhi va yoqimli ohangi bilan ham kishini o'ziga tortadi. U o'zbek tilini ulug'labgina qolmay, ayni paytda o'zbek adabiyotini, badiiy so'zni yuksakka ko'taradi. Navoiy asarlarining hamisha, hamma davrlarda avlodlar uchun havas etgulik cho'qqi bo'lib qolayotganligining sababi shunda.

Hayot yozuvchidan o‘ziga muvofiq muqobil uslubni uslubiy izohlanishlar orqali topib olishni taqozo qiladi. Har bir yozuvchi uslubi individual bo‘ladi, ammo u davrning umumiy uslubiga ham moslanadi. U dastlab o‘z muxlislarini topolmay qiynalishi ehtimol, ammo oxir o‘z yo‘lini, o‘z kitobxon va tomoshabinlarini albatta topib oladi, bunda estetika hosil qilish fazilatiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abadiyat gulshani: maqolalar, she’rlar/ loyiha muallifi O‘.Rahmatov, to‘plab nashrga tayyorlovchi M. Jonixonov, – T.: “Sharq”, 2013-128 b

2. Alisher Navoiy. Hikmatlar. –T.: “Sharq”, 1998. 2013.

3. Jumaxo‘ja. N, I.Adizova. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). –T.: “Noshir”, 2019.

4. Madayev O. Navoiy suhbatlari. –T.: “O‘qituvchi”, 2018

5. Quronov D.H. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: “Noshir”, 2019.

6. Sariyev Sh. Adabiyot fanidan yaxlit o‘quv-didaktik qo‘llanma. –T.:”Sharq, 2014.

7. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – “Sharq”, 2008.

8. www.ziyouz.com

MUMTOZ ADABIYOTDA TURKISTON USLUBI IJODKORLARI

Rasulova Rayxon Baxritdinovna,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi,
Jumanazarova Umida
Chirchiq davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Bugungi kunda yoshlarimizda adabiyotga muhabbat uyg‘otish uchun pedagog sifatida adabiyot namunalarini kengroq o‘rganish va o‘quvchilarga yaxshiroq yetkazib berish uchun adabiyotdagi har bir narsaga alohida e’tibor qaratish kerak. Jumladan, adabiyotdagi ajralmas bo‘laklardan bo‘lgan har bir uslub o‘ziga xos

xususiyatlarga ega. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimiz juda katta adabiy merosga ega bo‘lganligi sababli uslub tushunchasining ahamiyatini mumtoz adabiyotda yaqqol ko‘ra olamiz.

Uslub tushunchasining istilohiga alohida to‘xtalib o‘tamiz. Negaki badiiy uslubni to‘liq tushunmay turib adabiyotn mukammal o‘rganish mumkin emas degan fikrdaman.

Uslublar muayyan asarning butun badiiy tuzilishida namoyon bo‘ladigan g‘oyaviy o‘ziga xoslik sifatida tushunganda, ular o‘sha asardagi yoki yozuvchining butun ijodidagi belgilarning oddiy yig‘indisi deb qarash mumkin emas. Aksincha, uslub deganda tanlangan mazmunning muayyan shaklda ifodalashga yordam qiluvchi barcha badiiy vositalarning uzviy munosabatini, o‘ziga xos chatishuvini tushunish lozim.

Ko‘pchilik uslub metod tushunchalarini bir xil tushuncha deb hisoblaydilar. Biz bu ikki tushunchaning farqini ko‘rsatib beramiz:

Uslub – ijodkor asarlarida koringan uning individualligi, o‘ziga xosligi.

Metod – ijodkor asarlardan namoyon bo‘lgan xususiyatlarning umumiy ko‘rinishi.

Bir so‘z bilan aytganda, metod – umumiylikka, uslub – xususiylikka tayanadi.

Bir kishining ovozi boshqa bir kishining ovoziga yoki bir kishining qiyofasi, yuz-ko‘zlari, og‘iz-burunlari boshqa bir kishining qiyofasiga o‘xshamaganidek, yozuvchining uslublari ham turlicha boladi.

Ijodkorning bilim salohiyati va temperamenti ham uning uslubini belgilaydi. Jumladan, ijodkor hayoti davomida xalq og‘zaki ijodi bilan hamnafas bo‘lsa, uning asarlarida ham bu ko‘zga tashlanib turadi.

Uslub yozuvchining ijodiy individualligini belgilaydi, ijodiy individuallik esa u yaratgan asarning barcha jabhalarida birdek namoyon boladi. Ya’ni uslub asardagi shakl unsurlarining o‘z holicha emas, balki muayyan qonuniyat asosida yaxlitlikka birikishini ta’minlaydi, har bir unsurning butun tarkibidagi mohiyati va funksiyasini belgilaydi. Allomalarimiz ham bilib aytishgan, qadimdan “Uslub—odam” degan qarashning ommalashgani bekorga emas, ya’ni asar o‘zida ijodkor

shaxsini ifodalar ekan, bular eng avvalo uslubda namoyon bo‘ladi.

Uslublar asosan joy nomlari bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Bunga misol qilib Turkiston uslubini keltirish mumkin. Turkiston uslubi haqida alohida to‘xtalib o‘tish kerak deb o‘ylayman. Chunki bu uslub adabiyotimizda ilk paydo bo‘lgan uslublar sirasiga kiradi.

Ahmad Yassaviy XII asrda Turkiston uslubiga asos solgan, bu uslub asosan Movarounnahr hududida rivojlangan.

Turkiston uslubida jonli xalq tili – turkonalikka intilish yetakchilik qilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Muqimiy, Zavqiy, So‘fi Olloyor, Turdi, Huvaydo kabilarning ijod namunalari Turkiston uslubi asosini tashkil etadi.

Turkiston uslubining kelib chiqishi genezisi X-XI asrlarga borib taqaladi. Bu davrda ijod qilgan Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib kabi qomusiy olimlar turkiy adabiy til taraqqiyotida o‘ziga xos hissa qo‘shishadi. Shu davrdan boshlab adabiyotda didaktik usul yetakchilik qila boshladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadug‘u bilig” , Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lugotit- turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi. XI asrda Yusuf Xos Hojibga xos uslub Ahmad Yugnakiy, Sayfi Saroyi, Qutb, Haydar Xorazmiy kabi shoirlar ijodida davom ettirildi.

Turkiston uslubining o‘ziga xosligi unda didaktikaning ustuvorligidadir. Buni Ahmad Yassaviy asarlarida yorqin ko‘rish mumkin. Ahmad Yassaviy ijodi uchun Qur’on, hadis va umuman diniy ma’rifat yetakchi xususiyat hisoblanadi. Yassaviy ishqi ilohiyni rasmiy shariat doirasidan uzoqlashmagan holda sharhlagan.

Yassaviy o‘ziga xos diniy tariqatga ham asos solgan bo‘lib, bu tariqat “Yassaviya” deb nomlangan. Unda hayotning barcha bosqichlari “shariat”, “tariqat”, “marifat” va “haqiqat”dan iborat degan tasavvufona g‘oya o‘z ifodasini topgan.

Yassaviy ijodida didaktik va tasavvufona uslublar o‘zaro uyg’unlashib, o‘ziga xos ma’no-mazmun hosil qilgan. Ya’ni bir-birini to‘ldirgan deya olamiz.

Quyidagi parcha fikrimizga yorqin misol bo‘la oladi:

Nafsdin kechib, qanoatni pesha qilg‘an,

Har kim topsa rozi bo‘lib, bo‘yin sung‘on,

Yaxshilarga xizmat qilib duo olg‘on

Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo‘q.

Asarlarining asosiy g‘oyalari: nafsni yengish, to‘g’ri yo‘ldan yurish, haqiqatni anglash va shu orqali o‘zlikni anglashdan iborat. Ahmad Yassaviy tasavvufga inson ma’naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil va ruhiy tarbiya sifatida qaraydi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining xalq orasida keng tarqalishi va sevib o‘qilishining asosiy sabablaridan biri ularning xalq og‘zaki ijodiga yaqinligida va barmoq vaznida yozilganligidadir.

“Devoni hikmat”dagi she’rlarning ko‘pchiligi xalq og‘zaki ijodida keng yoyilgan qo‘shiq shakldagi to‘rtliklardan iborat.

To‘rtlik-qo‘shiq shaklida yaratilgan she’rlar xalq so‘zlashuv tiliga yaqin bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Ma’lumki, bu she’rlar, asosan, qadimdan mavjud bo‘lgan barmoq va aruz vaznida yaratilgan. Shunga ko‘ra Yassaviy hikmatlarida umumxalq tiliga xos so‘z va shakllar, badiiy tasvir vositalari keng ishlatilgan.

Yassaviya yoki jahriya tariqatining ta’limoti turli davr va joylarda Yassaviyning ko‘plab shogirdlari va muxlislari tomonidan davom ettirildi. Sulaymon Boqirg‘oniy, Bobo Mochin, Shamsiddin O‘zgandiy, Xudoydod, Qul Nasimiy, Uvaysiy va boshqalar “Devoni hikmat” izidan borib, tasavvuf ilmining ma’lum yo ‘nalishini targ‘ib qiluvchi asarlar yaratdilar.

Sayfi Saroyi XIV asrda yashab ijod qilgan turkiy adabiyot vakillaridan biridir. U adabiyotimizda shoir va tarjimon sifatida o‘z o‘rniga ega.

Sayfi Saroyi she’rlariga nazar solsak, mavzu jihatidan turlicha ekanligini ko‘ramiz. Ishq-muhabbat, vafodorlik va sadoqat mavzulari yetakchilik qilgani holda, odamiylik, inson qadr-qimmati, ijtimoiy mavzular ham uchraydi. Yaxshilikni ilgari suradi. Yomonlik qilganga ham yaxshilik qil deydi:

Yamonlik qilgan erga, ezgulik qil,

Qopar it og‘zini luqma otadur.

Sayfi Saroyining bunday qarashlari «Gulistoni bit-turkiy»da keltirilgan baytlarda ham ko‘rinadi:

Yetganicha kuching ko‘ngul yopqil,

Kim xaloyiq senga duo qilg‘ay.

Tushgan er hojatin ravo qilsang,

Haq sening hojating ravo qilg‘ay.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, adabiyotimizdagi har bir uslub o‘z o‘rniga ega. Biz birgina Turkona uslub orqali buni isbotlashga harakat qildik. Turkiston uslubidagi didaktikaning yetakchilik qilishi alohida e’tiborga molik. Aynan shuning uchun ham pedagog sifatida qaraydigan bo‘lsak, Turkiston uslubi mumtoz adabiyotning ajralmas bo‘lagi ekanligini o‘quvchilarga yetkazib berish bizning vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – “Sharq”, 2008.

2. Quronov D.H. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: “Noshir”, 2019.

3. Jumaxo‘ja N, I.Adizova. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi).–T.: “Noshir”, 2019.

4. Sariyev Sh. Adabiyot fanidan yaxlit o‘quv-didaktik qo‘llanma. –T.: “Sharq”, 2014.

5. www.ziyouz.com

ЎЗБЕК АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ОБРАЗ ВА ТИМСОЛ ТУШУНЧАСИГА ОИД БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Хасанова Лайло Фирдавсиевна,

Чирчиқ давлат педагогика институти

ўқитувчиси

Бадиий асарнинг гўзаллигини, жозибаси ва таъсирчанлигини кўрсатиб берувчи образ ва образлилик тушунчалари бадиий таҳлил жараёнида муҳим омил сифатида қаралади. Асарнинг жонлилигини таъминлаб, тасвирларнинг тушунилишини осонлаштиришга хизмат қилади. Асарнинг қимматини оширади. Англамсиз туйғуларнинг моддийлигини

таъминлайди. Ўқувчини ишонтиришнинг, ўзига боғлаб олишнинг асосий усулларидан биридир.

Образ ва образлилик ҳақида, хусусан, Навоий асарларидаги образлар тизими тўғрисида кўплаб мақолалар ёзилган, илмий тадқиқотлар яратилган. Алишер Навоий девонлари бўйича илмий тадқиқот олиб борган олимлардан А. Қаюмов, А. Ҳайитметов, С. Ғаниева, А. Абдуғафуров, Н. Маллаев, Д.Салоҳий, К.Муллахўжаева ишларини алоҳида таъкидлаш жоиз. Илмий тадқиқотларнинг асосий йўналиши сифатида ушбу олимлар “Бадоеъу-л-бидоя”нинг бадиий ғоявий тизими, бадиий санъатларнинг моҳирона тарзда қўлланган ва шу қаторда образларга алоҳида тўхталиб, уларни атрофлича таҳлил этганини кўрамиз

Образлилик тушунчаси табиат ҳодисалари, наботот, ҳайвонот ва, ҳаттоки, жонсиз нарсаларни ҳаракатга келтириш ёҳуд сўзлатиш натижасида янгича мазмунга эга бўлган ҳодисалар йиғиндиси сифатида юзага келади. Образлилик, умуман олганда, бадиийлик демакдир. У орқали ижодкор ўзи ифодаламоқчи бўлган фикрни ўқувчига худди видео тасмасига туширилган лавҳадек жонли тарзда етказа олиш имкониятини қўлга киритади. Бу тушунча яхлит асарни қамраб олиши билан характерланади.

Образ нисбатан торроқ мазмунга эга бўлиб, асосан, инсоннинг характер хусусиятини ўхшатишлар орқали ифода этиш вазифасини бажаради. Образ тушунчаси ҳақидаги қарашлар ўзбек адабиётшунослигида кенг кўламда ўрганилган бўлиб, бу ҳақида бир қатор назариячи олимлар ўз фикрларини билдириб ўтган. Т.Бобоевнинг фикрича, адабиёт назарияси китобларида тимсол сўзи билан эквивалент тарзда қўлланилиб келинадиган образ атамаси биринчи марта Гегел томонидан фанга киритилган экан[1].

Масала шундан иборатки, мумтоз адабиёт намуналари ўрганишга бағишланган деярли барча асарларда образ ва тимсол тушунчалари бир-бирига эквивалент сифатида қўллаш ҳолатлари кўп учрайди. Аммо ҳар бир истилоҳнинг мазмун-моҳиятини теранроқ таҳлил қилиш жараёнида улар орасида муайян тафовутлар мавжуд эканлигини ҳис этамиз.

1 Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2001. Б 51.

Масалан: Ишқ тимсоли, ошиқ тимсоли, маъшуқа тимсоли сифатида терминни қўллаш мумкин. Аммо шамъ, гул, парвона, ит, қуёш тимсол бўла олмайди, назаримизда. Бундай қўлланиш мазмундаги ғализликни келтириб чиқаради.

Юзаки қаралганда деярли мазмунан бир-биридан фарқланмайдигандек туйиладиган бу икки тушунчага теранроқ назар солсак, улар ўртасида нозик мазмуний тафовутлар борлигига гувоҳ бўламиз. Юқоридаги мисолда гарчи жумлада ғализлик йўқдек туюлса-да, бирикма шаклига келтирилганда бу яққол кўзга ташланишини кўришимиз мумкин. “гул тимсоли”, “зарра тимсоли” , “булбул тимсоли”, “гулзор тимсоли” сингари. Дилором Ҳамроева “Ўзбек тили ва адабиёти” журналида эълон қилинган “Образ, тимсол ва рамз” номли мақоласида образ, тимсол ва рамз тушунчаларига атрофлича тўхталиб, уларнинг бир-бирдан фарқини тушунтиришга ҳаракат қилган. У буни қуйидагича изоҳлашга ҳаракат қилади: “шоир кечинмаларини, асосан, ошиқ тилидан маъшуқа, рақиб, дўст образлари воситасида очиб беради. Поэтик тимсол ва рамзлар ижодкорнинг ўзи яратаётган образга муносабатини ҳам ифодалаб, шеъриятда образ билан тенгма тенг хизмат қилади. Бунинг ҳам сабаби бор, албатта,чунки образда тимсолнинг барча хусусияти мужассам айни чоғда тимсол ҳам образнинг маълум қррасини акс эттиради. Шунга қарамасдан, образ ва тимсоли айни бир маънода қўллаб бўлмайди. Образ – бадиий фикрлашнинг асосий воситаси, ғоявий мазмунни ифода этишнинг муҳим шакли”[1]. Насиба Бозорова ҳам бу мавзуга тўхталиб ўтар экан нисбатан аниқроқ ва тушунарлироқ тарзда ўз ўқувчисига бу тушунчаларининг фарқини ифода этади. Унга кўра “образ бадиий фикрлашнинг асосий воситаси, ғоявий мазмунини ифода этишнинг муҳим шакли”[2]. Олима тимсолни образининг маълум бир ифода шакли сифатида эътироф этиб ўтади. Аммо, кўпчилик илм аҳли сингари олиманинг тадқиқотида ҳам образ ва тимсол тушунчаларини эквивалент сифатида қўлланган ўринлар

1 Ҳамроева Д. Образ, тимсол ва рамз,// Ўзбек тили ва адабиёти//, Т.: 2008, 4-сон. Б. 72-75.

2 Бозорова Насиба Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи, ф.ф.н. даражасини олиш учун дисс. Т.: Б. 92.

учраб туради. Замонавий адабиёт намуналаридан фарқли равишда, мумтоз адабиётда образлар кенг кўламли бўлиб, уларнинг аксарияти тасаввуфий маъно-мазмун касб этган ҳолда қўлланади. Тасаввуфда қўлланадиган образлар тизими Ҳаққа бўлган ишқни у ёки бу маънода ифода этишни мақсад қилади.

Кўринадики, истилоҳларни ҳар бирининг ўзининг кўтарадиган юки ва мазмуни мавжуд. Қуйида образ ва тимсол истилоҳларининг баъзи фарқли жиҳатларини кўрсатиб ўтишга ҳаракат қиламиз:

Образ	*Тимсол*
Образ тушунчаси нисбатан метофориклик хусусиятни ўзида кўпроқ жамлаган. Масалан: Гулни таҳлил этиш жараёнида образ сифатида талқин этилса мақсадга мувофиқ бўлади, назаримизда. Чунки унга юкланган маъно нисбатан чуқурроқ.	Тимсол эса мазмун қаватларини юзароққа жойлаган. Маъшуқа эса тимсол. Чунки унда мазмун нисбатан юзароқда ва мажозийлик очиқроқ ифода этилган. Бу ўринда айтиш мумкинки, гул образи маъшуқа тимсолини ифода этади.

Образ	Тимсол
Тасаввуф адабиётида:	
• Бут • Харобат аҳли	• Севгили ёр, маъшуқа, Ҳақ тимсоли • Маърифат аҳли ва ирфон зуҳур этган комиллар

Образ ва тимсол тушунчаларини бир-бирин тўлдирувчи ва шу билан бирга бири бошқасидан фарқланадиган икки адабий истилоҳдир. Бунда образ бадиий адабиётнинг жозибасини, гўзаллигини акс эттиришга хизмат қилса, тимсол образнинг яширин маъноларини ўқувчига тушунтиришга ёрдам беради.

ҲАЁТИ АДАБӢ ВА ФАРҲАНГИИ САМАРҚАНД ДАР АСРИ XX

Қучқоров Ҳошимҷон Ҳасанзода,
омӯзгори кафедраи “Адабиётшиносии ӯзбек”-и
Донишкадаи давлатии педагогии Чирчиқи вилояти Тошканд,

Дар охири асри XIX ва ибтидои асри XX адабиёти тоҷик анъанаҳои адабиёти классикиро нигоҳ дошта, навигариҳо ба вуҷуд овард ва ба адабиёти асри XX ҳамчун пойдевор хидмат намуд. Инчунин, ба сифати маҳсули матбуот публитсистика ва очерки бадеӣ низ дар адабиёти бадеӣ мавқеи худро соҳиб шуд. Ба адабиёти давр рӯҳу ғояи нав дохил шуд. Доираи мавзӯоти адабиёт васеъ гашта, мазмуну мундариҷаи он низ тағйир ёфт. Адибони давр бо бардоштани муаммоҳои мардум қонеъ нашуда, балки роҳҳои ҳалли онро ҷустанд. Зарурияти навиштани асарҳоеро, ки шуур ва тафаккури мардумро ислоҳ мекунад, дарк намуданд. Адибон бо орзуву умед ва ғаму ташвишҳои халқ ҳамқадам шуданд. Аксарияти эҷодкорони давраи нав анаъанаи зуллисонайниро давом доданд, зеро қисми зиёди онҳо дар мадраса таълим гирифта буданд ва забонҳои арабӣ, форсӣ-тоҷикӣ ва қисме аз онҳо забони русиро хуб медонистанд. Дар ин давр, ки анаъанаи зуллисонайнӣ пайваста давом ёфт мактаби тарҷумониро ба вуҷуд овард. Аз ҷумла, Сиддиқии Аҷзӣ ва Васлии Самарқандӣ дар майдони тарҷума эҷоди муносиб карданд. Ҳаракати адабӣ дар шаҳри Самарқанд хеле фаъол буд.

Яке аз муҳаққиқони барҷастаи муҳити адабии Самарқанд С.Саъдиев дар китоби “Маркази адабии Самарқанд дар шоҳроҳи таърих” боби алоҳидаеро, ки охирҳои асри XIX ва ибтидои асри XX-ро фаро мегирад “Эҳёи адабӣ дар Самарқанд” (охирҳои асри XIX ва аввали асри XX) номидааст, ки ин аз рушди адабиёт ва дубора ҷон гирифтани муҳити адабӣ дар ин давр далолат медиҳад. Гарчанд дар охирҳои асри XIX шоироне чун Ҳодии Самарқандӣ, Сипандии Самарқандӣ ва андаке сонитар Васлии Самарқандӣ ба майдон омада буданд, вале бовуҷуди ин Самарқанд ба дараҷаи маркази адабӣ

нарасида ва ҳаёти адабӣ чандон нашъунамо наёфта буд. Танҳо дар ибтидои асри ХХ Самарқанд ба маркази калони адабӣ табдил ва адабиёт рушд ёфт ва теъдоди зиёди аҳли адаб ба майдон омаданд. Ҳаёти адабии Самарқанд, ки қариб ду аср рӯ ба таназзул оварда буд, эҳё гардид ва мавқеъву аҳамияти пешинаи худро барқарор кард ва ба маркази адабии бузургтарини кишвар табдил ёфт. Ки на танҳо дар мисоли дар маркази адабии давр эҷод кардани адибони зиёд, балки Сайидаҳмади Васлӣ, Сайидаҳмади Аҷзӣ(Сиддиқӣ), Нақибхони Туғрал, Маҳмудхоҷа Беҳбудӣ, ки дар адабиёти тоҷик ва ӯзбеки давраи мазкур ба мақоми баланд соҳиб шудаанд, далели гуфтаҳои болоист. Чуноне, ки адабиётшинос С.Саъдиев таъкид мекунад "...Маҳмудхоҷа Беҳбудӣ ва Сайидаҳмади Аҷзӣ аз асосгузорон ва чеҳраҳои барҷастаи адабиёти навини тоҷик ва ӯзбек ба шумор мераванд. Фаъолияти адабии шоир ва нависандагони намоёни маорифпарвари Бухоро Абдурауф Фитрат ва Садриддин Айнӣ ҳам дар охирҳои ин давр бо Самарқанд вобаста гардида, дар ҳамин маркази адабӣ ба пояи баланди эҷодӣ расидаанд."[1.350] Пас гуфта метавонем, ки Самарқанд дар ин давр ба маркази калони адабӣ табдил ёфта, дар он адабиёти пешқадам ва тараққихоҳона рушду равнақ ёфтааст ва чеҳраҳои барҷастаи адабие, ки эҷодиёташон ба арзишу аҳамияти баланди ҳаётию иҷтимоӣ соҳиб аст ба камол расиданд. Дар ин асос гуфта метавонем, ки он аз маркази адабии Бухоро пеш рафтааст.

Бино ба фикри адабиётшинос С.Саъдиев "Дар Самарқанд дар атрофи Беҳбудӣ, Аҷзӣ, Васлӣ, Туғрал ва дигар адибони намоён гурӯҳи калони эҷодкорони хурду бузург, машҳуру номашҳуре эҷод кардаанд, ки номи чанде аз онҳо имрӯз танҳо ба доираи муҳаққиқони адабиёти давр маълум асту бас. Аз ҷумлаи ин адибон Ҳоҷӣ Муин Шукруллозода, Саидризо Ализода, Иброҳим Ҷуръат, Пинадӯз, Абдулғании Ҷавдат, Фахриддини Роҷӣ, Ориф Гулханӣ, Абдулқаюми Қурбӣ, Абдулқодири Шакурӣ, Ҷомӣ, Мирзо Акрами Фикрӣ, Абдулҷалили Писандӣ, Қорӣ Муҳаммадраҳими Тоҷӣ, Абдулхолиқи Ғамгинро ном гирифтан мумкин аст, ки дар ҳаёти адабии давр каму беш ширкат варзида, дар равнақи он ба ин ё он дараҷа саҳм гирифтаанд."[1.350]

Ҳамаи инҳо намояндагони муҳити адабии Самарқанди аввалҳои асри ХХ ба шумор мераванд ва бо эҳёи адабии ҳамин шаҳр вобастаанд. Бояд гуфт, ки рӯйхати пурраи адибони ин давраи Самарқанд танҳо аз номҳои зикршуда иборат нест. Ба ин рӯйхат адибонеро дохил кардан мумкин аст, вале мутаассифона ҳоло на осорашон, на номашон ба мо номаълум аст.

Аксарияти адибони ин давр фаъолияти эҷодияшонро дар замони шӯроҳо ҳам идома додаанд. Қисме аз инҳо ба адабиёти нави шӯравӣ хизмат кардаанд. Қайд кардан ба маврид аст, ки баъзеашон мафкура ва адабиёти нави шӯравиро қабул накардаанд ва дар равияи назми анъанавӣ эҷод кардаанд. Як қисмашон аз зулму истибдоди шӯроҳо фирор ва ҷилои ватан карда, ҳатто дар ғарибӣ ва саргардонӣ низ фаъолияти эҷодии худро давом додаанд. Дар ин бора устод С.Саъдиев чунин қайд мекунад, ки исботи гуфтаҳои болоист. “Аз шоирони ба ғурбат афтодаи Самарқанди ин давр дар вақтҳои охир ном ва осори Хубии Самарқандӣ, Вофии Самарқандӣ ва Мулло Салими Қонеъ ба воситаи тазкираи «Армуғони Саббоқ», ки ба дасти Шайх Кароматуллоҳи Саббоқ, адиби муҳоҷири муқими Арабистон тартиб дода шудааст, маълум гардид.”[1.351] Аз онҳо девонҳои ашъори Хубӣ, ва Вофӣ ба дастоварда ва бо саъю кӯшиши Ҳазрат Сабоҳӣ дар Самарқанд нашр карда шудаанд.

Вале мутаассифона эҷодиёти бархе аз адибони Самарқанди ин давр ҳанӯз омӯхта нашудаанд ва осорашон чоп нагардидааст. Ҳатто ашъори баъзе аз онҳо ҷамъоварӣ нашудаанд ва аз ин сабаб ба доираи васеи алоқамандони шеъру адаб ошно нестанд. Дар адабиётшиносии тоҷики аҳди шӯравӣ ба муҳити адабии Самарқанди ин давр, эҷодиёти намояндагони он чандон эътибор дода нашудааст. Вале танҳо Холиқ Мирзозода дар тадқиқоти умдаи худ роҷеъ ба тамоюлоти асосии адабиёти тоҷикии аввали асри ХХ бештар осори адибони Самарқанди ин даврро ба таҳлил гирифтааст. Вақтҳои охир адабиётшиносони ӯзбек ба эҷодиёти ба омӯзишу нашр ва тарғиби осори баъзе симоҳои барҷастаи муҳити адабии Самарқанди ин давр, мисли Беҳбудӣ, Аҷзӣ, Васлӣ ва Саидризо Ализода пардохтаанд.

Ба таври хулоса ҳаминро гуфтан мумкин аст, ки равияи асосиву

пешқадами тараққиёти адабиёт дар Самарқанди аввалҳои асри XX адабиёти маърифатпарвар буд. Баробари ин назми анъанавӣ низ роҳи тараққиёти худро идома дода, чанде сухансароёни тавоноро ба майдон овард. Қайд кардан ба маврид аст, ки эҳёи адабӣ дар Самарқанди давраи музокара аслан бо назми анъанавӣ (давомдиҳандагони он Ҳодии Самарқандӣ ва Сипандии Самарқандӣ) оғоз ва беҳтарин суннатҳои шеъри мумтози тоҷик идома ёфтааст. Вале бо вуҷуди ин дар ибтидои асри XX тараққиёти адабӣ асосан бо адабиёти маърифатпарвар ва эҷодиёти намояндагони он вобаста гардида, ба ғояҳои олии маърифатпарварӣ асос ёфта буд.

Адабиёт:

1. С.Саъдиев. Маркази адабии Самарқанд дар шоҳроҳи таърих. – Тошканд. 2012, саҳ, 350-351.

2. Мирзозода Х. Луғати мухтасари истилоҳоти адабиётшиносӣ. – Душанбе:. Маориф, 1992.

3. Ҳалимов С. Баъзе масъалаҳои шакл ва мазмун дар адабиёти маорифпарварварии тоҷик. Масъалаҳои адабиёти маорифпарварии тоҷик// Маҷмӯи мақолаҳои илмӣ, Самарқанд, СамДУ. 1995, саҳ. 39.

4. Додобоев М. Андешаҳои маорифпарварии Аҷзии Самарқандӣ. Масъалаҳои муҳими забон ва адабиёти тоҷик. Маҷмӯаи мақолаҳои илмӣ. – Самарқанд: ДДС. 2009, саҳ. 21-24.

ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ПУБЛИЦИСТИКАСИДА ЖАДИДШУНОСЛИК МУАММОЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШ ҚОНУНИЯТЛАРИ

Ш.Б.Қосимов,

ЎзЖКУ, Жамоатчилик билан алоқалар ва реклама кафедраси катта ўқитувчиси

Ўзбекистон Республикаси ўз мустақиллигини эълон қилган илк кунларданоқ ижтимоий-сиёсий ҳаётнинг барча жабҳаларида ўзгаришлар

содир бўлди. Бу тарихий нуқтаи назардан асосли, мантиқий асосга кўра зарурият ҳам эди. Миллий тикланиш концепцияси тақозосига кўра, ўзбек адабиёти ва адабиётшунослиги ҳам янги мавзу ва тадқиқотларни ёритиш вазифасига киришди. Айниқса, ўтмишнинг қораланган, халқ бағридан тортиб олинган адабий, маънавий меросини қайта тиклаш, илмий баҳо беришда матбуотнинг ўрни беқиёсдир. Шундай қилиб, яқин ўтган тарихимизга доир ҳақиқатларнинг илмий-оммабоп тафсилотлари оммавий ахборот воситаларида кенг ёритилди. Адабиётшуносларнинг миллат тарихини ёритувчи публицистик мақолалари ҳам халқнинг ижтимоий-сиёсий онгини, маънавий-ахлоқий дунёқарашини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади. Демак, истиқлол даври публицистикасининг ўзига хос асослари сифатида, энг аввало, миллат маънавий илдизларини ёритиш, иккинчидан, истиқлол фидойилари – жадидлар номи ва асарларини тўлақонли халққа етказиш, учинчидан, миллий мустақилликни мустаҳкамлашга чорлаш ғояларини кўрсатиш мумкин.

Шу маънода адабиётшунос олимларнинг жадидчиликка бағишланган илмий тадқиқотларини матбуотда ёритилиши масаласини ўрганишга зарурат бор. Негаки, муайян давр, ёйинки, миллат ижтимоий-сиёсий, маданий ҳаётида, ўтиш даврларида публицистикага эҳтиёж ошиши табиий ҳол. Шу муносабат билан истиқлолнинг илк йилларида публицистика барча маънавият йўналишларига кириб борди. Қолаверса, ўзига хос специфик хусусиятлари орқали миллат ҳаётидаги етакчи тарғибот минбарига айланди. “Публицистик ижод деганда, одатда, воқеликни ҳужжатлар асосида қайта тиклаш англашилади. Публицистиканинг ҳар қандай кўринишида, публицистик организмнинг ҳар бир ҳужайрасида ана шу омилнинг таъсири сезилиб туради” [1.7].

Ўзбек миллий публицистикаси тарихида бу ҳолат халқимиз ҳаётида содир бўлган икки муҳим босқичда янада кучли аҳамият касб этди. Дастлаб, 1907 йилда Исмоил Обидийнинг “Тараққий”си бошлаб берган миллий матбуот қамрови ва миссиясининг ниҳоятда кенгайиши натижасида содир

бўлган миллий уйғониш, кейингиси мустақиллик йўл очган миллий юксалиш масаласининг кун тартибига чиқишидир.

Истиқлол йилларида ўзбек публицистикасида ғоявий ҳамда услубий синкретизмни кузатиш мумкин. Публицистикадаги турғун мавзулар ва эталон фикрлар, шиорбозликдан воз кечилди. ОАВ турлари, жанрлари кенгайиб, ихтисослашиб борди. Янгидан янги газета, журнал, нашриётлар таъсис этилди. Жамиятдаги ижтимоий-сиёсий, маънавий ўзгаришлар публицистик жанрлар табиатига ҳам ўз таъсирини ўтказди. Жадид зиёлилари бошлаб берган публицистик инерция батамом йўқ бўлиб кетмаган, гоҳ рамзий, гоҳ яширин тарзда давом этаётган эди. Мустақиллик туфайли бу имконият яна қайта пайдо бўлди.

Ҳар қандай публицистик асар сингари бадиий-публицистик асарнинг ҳам муҳим мазмуний асоси факт ҳисобланади. Факт деб, биринчидан, воқеликнинг юзага чиққан бирор лаҳзасига айтилса, иккинчидан, публицистикада муаллиф мулоҳазаси, фикрларига ҳам факт сифатида қаралиши мумкин. Ҳаётий факт ва ҳужжатлар фақат воқеликнинг қандайдир лаҳзаларинигина эмас, балки одамларнинг реал хатти-ҳаракатларини ҳам ифодалайди. Шунинг учун улар публицистик тасвир предмети сифатида намоён бўлади. Публицист шахсий аралашувнинг кучи билан энг аҳамиятли фактларни ажратиб кўрсатади, таъкидлайди ва изоҳлайди. Демак, бадиий публицистика фактлар ҳақида қуруқ маълумот бермайди, “...балки ҳаёт фактлари билан боғлиқ муаммоларни чуқур таҳлил этади, уларнинг моҳиятини аниқ очиб беради” [2.10].

Адабиётшунос, тарихчи, журналист, адабий манбашунос ва матншунос яқин ўтган тарихни танқидий таҳлил қилиш, унга холисона баҳо бериш, жамият тақозо этаёган муаммоларни рўй-рост ўртага қўйиш имкониятлари пайдо бўлди. Бу давр публицистикасида тарихий, адабий, маданий мерос, миллий қадриятлар, унутилган сиймолар, қатағон қурбонлари биографияси, асарларини халққа тезроқ етказишга бўлган иштиёқ яққол кўзга ташланади. Ўзбекистон Қаҳрамони, адабиётшунос олим

О.Шарафиддинов, адабиётшунослар Б.Қосимов, С.Аҳмедов, У.Долимов, Ш.Юсупов, Н.Жабборов, У.Жўрақулов, Б.Каримов, Ҳ.Болтабоевларнинг 1991 йиллардаги илмий кузатишлари асосан жадид зиёлиларининг ҳаёти ва фаолиятига бағишланган кенг кўламли ишлардан эди.

Мустақиллик даврида жадидшуносликдек муҳим илмий муаммони публицистик миқёсда, адабий-илмий ижод негизида халққа етказган олимлар орасида профессор Б.Қосимовнинг илмий фаолияти анча салмоқлидир. Адабиётшуноснинг жадидчиликка бағишланган кузатишлари миллий публицистикада жадал ёритиб борилди. Шундай экан, мазкур олимнинг илмий-публицистик ижодини тадқиқ этиш ва баҳолаш бугунги адабиётшунослик илми зиммасидаги долзарб вазифалардан бири саналади.

Б.Қосимов тадқиқотларига хос илмий концепция, мавзуга турлича аспектда ёндашув, тарих ва манбаларнинг қиёсий таҳлили ўзбек жадидшунослигида ўзига хос ҳодиса ҳисобланади. Унинг шахсиятида ҳам миллий уйғониш, миллий ғурур ва ўзлик, ўзбекнинг маънавий қадриятлари чуқур синггани учун ҳам адабиётшунослик концепцияси барқарор тамойилга эга. Жадидчилик ҳаракати, зиёлилар яшаб, ижод этган тарихий давр, улар илгари сурган адабий тушунча ва қарашларни шуурига сингдирган олим жуда талабчан мустаҳкам публицистик позициясини турли ракурсларда намоён этади.

Жадидшунослик истиқлолнинг илк йилларида анча равнақ топди. Зиёли шахс борки, ўтмиш асоратлари, биқиқ жамият, мустамлакачилик исканжаси борасида фикр юритганида, албатта жадид зиёлилари номларини келтириб ўтишни публицистик тамойил даражасига олиб чиқишди. Лекин шунчаки жадидлар номини санаб ўтиш, жадидшунос бўлди дегани эмас. Жадидшуносликка даъвогар олим, журналист ёки тарихчи энг аввало қўлёзма, тошбосма манбаларни ўқий олиши шарт. Акс ҳолда, кимдир ёзган шарҳ хоҳ у тўғри бўлсин ёки аксинча, китобдан китобга, мақоладан мақолага кўчиб юраверади. Асл манбани ўрганган олим, ўша даврга холис, тўғри баҳо бера олади. 1991-2001 йиллар ОАВ кузатганимизда, мустақиллик, Ватан,

тарихни ҳаққоний ёритиш масаласи кун тартибининг асосий вазифаси саналганини кузатиш мумкин. Бунда публицистиканинг барча жанрларидан фаол фойдаланилди. Масалан, эссе, суҳбат, хабар, репортаж, мақола шулар жумласидандир.

1. Муайян сана муносабати билан (умумхалқ байрамлари, жадид зиёлиларининг таваллуд саналари) соҳа ижодкорлари билан суҳбатлар;

2. Жадидшунос олимларнинг янги асарлари тақдимоти муносабати билан ёзилган тақризлар;

3. Беҳбудий, Мунаввар Қори, Ибрат, Авлоний, Саид Аҳрорий, Фитрат, Чўлпон ва бошқа зиёлилар ҳаёти ва ижодига доир янги хабарлар анонси;

4. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти намуналарининг саҳналаштирилиши ва оммалаштирилишини ОАВ ёритиш;

5. Жадидшуносликнинг долзарб муаммоларига бағишланган илмий-оммабоп материалларни нашр қилиш каби қонуниятлар доирасида миллий публицистикамиз жадидшунослик йўналиши билан ҳам бойиди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Стюфляева М.И. Поэтика публицистики. – Воронеж: Воронеж. ун-т., 1975. – 153 с.

2. Суровцев Ю. О публицистике и публицистичности//Знамя. – М., 1986. – № 4. – С. 210.

VILLIAM SHEKSPIR IJODIDA BADIIY O‘XSHATISHLARNING TUTGAN O‘RNI

Ismoilova Dilorom,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Buyuk ingliz yozuvchisi, iste’dodli shoir Villiam Shekspirning ingliz nutq madaniyatiga qo‘shgan hissasi ichida eng salmoqli o‘rinni, shubhasiz uning uslubiy o‘ziga xosligi asosida yaratilgan asarlari, ulardagi go‘zal ma’noviy ko‘chishlar hisoblanadi. Shekspir nomining bu darajada shuhrat qozonishi sababini

Marketta Chute o‘zining adib hikoyalarini jamlagan holda yaratgan “Shekspirdan hikoyalar” asarining kirish qismida asoslab bergan: “Gomer insoniyatning urushdagi kechinmalarini yozgan, Sofokl va Tolstoy insoniyatni g‘am-tashvish ichra hayotini yoritgan, Terens va Mark Tven komedik asarlar muallifidir, Dikens esa melodramalar ustasi edi, Plutarx tarixiy asarlar yaratdi, Hans Kristian Andersen esa ertaklarni maromiga yetkazdi. Lekin Shekspir yuqoridagi barcha asar turlarida qalam tebratdi va ularning har biri abadiyatga muhrlandi ” [1,11].

She’riyat, ya’ni nazm-shunday bir so‘z dunyosiki, u oddiy so‘zlashuv tilidan farq qilgan holda, bepoyon ifoda maydoniga egadir. Shekspirning badiiy o‘xshatishlari shu qadar ta’sirli tuzilganki, ularning ko‘pi bugungi zamonaviy ingliz tilida ham o‘z shaklini o‘zgartirmagan holda qo‘llanib kelinmoqda. Badiiy o‘xshatish - bu ikkita turli xil narsaning qiyoslanishi asosida ifodalangan ma’no ko‘chishi hisoblanadi. Lekin ular o‘rtasida hech bo‘lmaganda bitta umumiy jihat mavjud bo‘ladi [3.54]. Shekspir badiiy o‘xshatishlarini ba’zi sonetlari misolida o‘rgangan H.Amriani o‘z xulosalarida ijodkorning o‘xshatishlari boshqa stilistik vositalarga qaraganda ancha ko‘lamdor ekanligini ta’kidlaydi. Ko‘plab ijod ahlini kuzatib, badiiy o‘xshatishlarni o‘rgangan tilshunos Frenk Vilstash bo‘lib, u qariyb 20 yil umrini 2 mingdan ziyod manbalardagi 16000 dan ko‘proq o‘xshatishlarni tadqiq qilib, ularni “Badiiy o‘xshatishlar lug‘ati” nomli kitobga jamladi. Ushbu kitobda ko‘plab ijodkorlar ichida Shekspir ham o‘rin olgan, albatta uning 559 ta betakror o‘xshatishlari ham aks ettirilgan. Lekin bu kitobda faqat o‘xshatishlar ustun shaklda, faqat qayd etilgan, xolos. Ularning qaysi asardan olinganligi, qiyosiy ma’nodagi tahlil qilinishi kerak bo‘lgan jihatlar yoritib berilmagan. Bu kitob faqatgina Shekspir o‘xshatishlari haqida umumiy ma’lumotni, ya’ni ularning umumiy o‘xshashliklari, mavzulari haqida dastlabki ma’lumotni bera oladi, xolos.

Shekspirning deyarli har bir asari o‘rinli foydalanilgan badiiy o‘xshatishlarga boydir. Ularning uslubiy ta’sirchanligiga yuqori bo‘lgani sababli, har bir davr kitobxonining xotirasida muhrlanib qoladi va ular beixtiyor yozuvchining “so‘z ustasi” ekanligiga iqror bo‘ladilar. “Makbet” tragediyasidagi badiiy o‘xshatishlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ular obraz nutqini yanada ochib berish uchun, asar tilining

oddiy so‘zlar zanjiridan tashkil topishini oldini olish maqsadida ham qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Dramaning boshida Harbiy obrazi nutqidan olingan parchadagi badiiy o‘xshatishni ko‘rib chiqaylik:

Doubtful is stood,

As two spent swimmers that do cling together’ And choke their art.

Bu yerda ikki dushman armiyasi ikkita toliqqan g‘avvoslarga qiyoslanyapti: har ikkalasi ham suv ustida qolish uchun harakat qilyapti, lekin aslida ikkalasi ham bir-birini suv ostiga tortyapti. Darhaqiqat, badiiy o‘xshatishning kuchi shundaki, u ikkita turli tasniflanadigan so‘zlarning bitta umumiy xususiyatini, jihatini o‘ziga qurol qilib oladi. Makbet xonimning turmush o‘rtog‘iga aytgan quyidagi so‘zlarida ham inson tashqi ko‘rinishi –jonsiz buyum kitobga o‘xshatilyapti:

Your face, my thane, is as a book where men May read strange matters.

Ya’ni dramaturg ingliz tilining imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalangan holda, Makbetning yuz ifodasi, ya’ni yuzidagi xavotir, qo‘rquv uning dilidagi yashirin g‘arazli niyatini fosh qilib qo‘yishi muminkligini, xuddi insonlar osongina o‘qib tushuna oladigan kitobga mengzayapti. Ushbu misralarning davomida esa, makkora xotin aynan shu holatdan qanday xalos bo‘lishni ham o‘xshatish asosiga qurilgan nasihati orqali bayon etadi:

Look like th’ innocent flower, But be the serpent under ‘t.

Bu majoziy ma’no orqali esa, Makbet xonim turmush o‘rtog‘ini xuddi beg‘ubor gul singari o‘zini tutishini, lekin aslida esa shu gul soyasida o‘z g‘arazli niyatini amalga oshiruvchi ilondek harakat qilishini uqtiradi.

Badiiy o‘xshatish ko‘p o‘rinlarda metafora bilan deyarli bir xil deya e’tirof ertiladi. Lekin badiiy o‘xshatish-metaforaga nisbatan kengroq shaklda bo‘ladi. Metafora esa qisqalik xususiyatiga ega. Shuningdek, badiiy o‘xshatish vositasida qiyoslanayotgan narsalar bir-birlari bilan yonma-yon, parallel tarzda namoyon bo‘lsalar, metaforada esa ular bir-biriga singib ketib, bir butunlik hosil qilgan bo‘ladi. Shekspir ijodida bu kabi ko‘plab nazariy xulosalarni asoslovchi misollarni ko‘rishimiz mumkin.

Presents thy shadow to my sightless view, Which like a jewel (hung in ghastly night)

Makes black night beauteous, and her old face new.

27-sonetdan keltirilgan ushbu parchada ham yor go‘zalligi qorong‘uda ilinib turgan yaltiroq tosh misoli butun tunni yoritib turganligi ifodalanmoqda.

Like to the time o‘ th’ year between the extremes Of hot and cold; he was nor sad no merry.

“Antoniy va Kleopatra” dramasidan keltirilgan yuqoridagi parchada ham badiiy o‘xshatishning yaqqol namunasini ko‘rish mumkin. Bunda o‘xshatilayotgan dastlabki narsaning o‘z jihatlari, ikkinchi o‘xshatilayotgan narsaning qismlaridan uzoq turgan holda, bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsatmayapti. Kitobxon bu misralarni o‘qib, o‘z-o‘zidan ikki narsaning umumiy o‘xshash xususiyatini topishga harakat qiladi. “Siz hoxlaganingizdek” komediyasidan ham bir necha misollarni tahlil qilishimiz mumkin:

With this shepherdess, my sister; here in the skirts of the forest, like fringe upon a petticoat.

Shuningdek, Shekspirning badiiy o‘xshatish asosida davomli qiyoslash zanjiri hosil qilganini ham ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni ushbu misralar mashxur Shekspirona so‘zlar “The world is a stage” - “bu dunyo - bamisli bir sahnadir” iborasiga isbot sifatida keltirilgan:

And then the whining school-boy, with his satchel, And shining morning face, creeping like snail Unwillingly to school. And then the lover,

Sighing like furnace, with a woful ballad Made to his mistress’ eyebrow. Then a soldier,

Full of strange oaths, and bearded like the pard;

Ushbu asarda quvg‘inga uchrab, o‘rmonda qiyinchilikda yashayotgan Graf va uning oilasi, xizmatkorlari holati ham badiiy o‘xshatish vositasida bir qurbaqaga o‘xshatiladiki, unda holi xarob ushbu mavjudot – jirkanch, notavon , lekin hamon boshida toji borligi biroz ironiya aralash ifodalandi:

‘This is no flattery; these are counsellors That feelingly persuade me what I

am.’ Sweet are the uses of adversity,

Which, like the toad, ugly and venomous, Wears yet a precious jewel in his head;

Shekspir majoziy ma’no kuychisi deya e’tirof etilgan holda, u o‘z asarlarida yunon afsonalari va yunon mifologik qahramonlariga ham ko‘p bora murojaat qilgan. Aynan badiiy o‘xshatish usulini ham shunday an’ana asosida qurgan misollarni tahlil qilib chiqaylik. “Siz hoxlaganingizdek” dramasida Selia obrazi nutqidan keltirilgan misralarda ham shu an’ana ko‘zga tashlanadi:

Rose at an instant, learn’d, play’d, eat together; And wheresoe’er we went, like Juno‘s swans, Still we went coupled and inseparable.

Bu yerdagi “Juno‘s Swans” ham o‘z tarixiga ega mifologik fraza bo‘lib, Juno - bu yunon afsonalarida tilga olingan nikoh xudosi va shuningdek, barcha ayol xudolarning qirolichasi sanaladi. Juno‘s swans esa birgalikda mangu sodiqlik, vafodorlik timsoli hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki, shoh qizi Selianing birga o‘sib, voyaga yetgan Rozalindaga bo‘lgan do‘stlik tuyg‘usi, mehr-shavqati xuddi ikki oqqush vafodorligiga ilohiy va ramziy timsollar orqali qiyoslanyapti. Ya’ni ushbu o‘xshatish Selia o‘z do‘stini hatto o‘rmonga quvg‘in bo‘lgan holida ham tashlab ketmasligini, har qanday holatda ham ajralmas ekanligini ta’kidlash uchun xizmat qilmoqda. Shunday namunalardan birini “Hamlet” tragediyasining bosh qahramoni Hamlet nutqida olingan parchada ham kuzatishimiz mumkin:

With which sh efollowed my poor father’s body Like Niobe, all tears-why she, even she

(O God! A beast that wants discourse of reason Would have mourn’d longer) married with my uncle;

Ushbu parchadagi Niobe timsoli - yunon mifologiyasiga ko‘ra, Lidiya iqroli Tantalusnining qizi bo‘lib, o‘z mag‘rurligi tufayli farzandlarini yo‘qotgan va doimiy azobda yashovchi ona timsolida gavdalanadi. Uning barcha farzandlari manmnaligi tufayli qurbon bo‘ladi. Hamlet ham o‘z onasining otasi vafotidagi motamsaro holatini huddi o‘sha ona tushgan vaziyatga mengzaydi va asar

ta’srichanligini oshirishga erishadi. Ushbu tragedyada badiiy o‘xshatish usulini yana ko‘plab kuzatishimiz mumkin:

Which now, like fruit unripe, sticks on the tree; But fall unshaken when they mellow be.

Sonetlarining deyarli har birida ushbu ma’no ko‘chish voistasini uchratishimiz mumkin. 29-sonetda oshiq holati ajoyib tarzda tong saharda kunni boshlab berish uchun sayrovchi to‘rg‘ayga qiyoslanyapti:

Haply I think on thee, and then my state, (Like to the lark at break of day arising

From sullen earth) sings hymns at heaven’s gate.

57-sonetda esa oshiq o‘zini mahbubasining quli sifatida tasvirlaydi av uning hajrida kunlari, o‘y-hayollari mahzun keachayotganligini badiiy o‘xshatish asosida aks ettiradi:

Where you may be, or your affaors suppose, But like a sad slave stay and think of nought Save where you are, how happy you make those.

Shekspirning hozirgi kunda bir butun yaxlit ibora sifatida ishlatiladigan o‘xshatish namunasi uning ko‘plab asarlarida uchraydi. Bu *as pure as the driven snow* bo‘lib, butunlay sof, pok degan ma’noni anglatadi. Aynan shu ko‘rinishdagi ibora yillar silsilasida hosil bo‘lgan. Dastavval ibora “Makbet” tragediyasida *as pure as snow* shaklida namoyon bo‘lgan.

Malcolm:

That, when they shall be open’d, black Mackbeth Will seem as pure as snow, and the poor state;

Shuningdek, iboraning xuddi shu shaklini Hamlet asarida ham uchratishimiz mumkin: If thou dost marry, I’ll give thee this plague for thy dowry: be thou as chaste as ice, as pure as snow, thou shalt not escape calumny.

Keyinroq Shekspirning “Qish ertagi” asarida ushbu ibora as white as driven snow shaklida namoyon bo‘lgan. Autolycus:

Lawn as white as driven snow; Cypress black as e’er was crow;

Buyuk dramaturgning stilistik vositalarga keng urg‘u bergan romantik

tragediyasi “Romeo va Juliyetta” romantik tragediyasida hech qanday yashirin ma’no aks ettirilmagan, absolyut qiyoslash namunasini ko‘rishimiz mumkin:

My bounty is as boundless as the sea, My love as deep:more I give to thee;

“Veronalik ikki savdogar” asarida ham badiiy o‘xshatishning barcha xususiyatlarini o‘zida jamlagan misollarni o‘qishimiz mumkin:

I’ll be as patient as a gentle stream,

And make a pastime of each weary step.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, Shekspirning badiiy o‘xshatishlari dastlab ijodkorning badiiy va g‘oyaviy maqsadlarini amalga oshirish maqsadida yaratilgan bo‘lsada, uning asarlari ommalashishi asnosida, bu o‘xshatishlar tildan tilga ko‘chdi va ingliz adabiy tilining rivojida muhim o‘rin tutdi.

Adabiyotlar:

1. Chute M. Stories from Shakespeare. Penguins Books USA, 1987. – p 320.

2. Complete works of William Shakespeare. World Library, 1990. – p 3601.

3. Wren P., Martin H. High School English grammar and composition. New Delhi: S.Chand & Company Ltd, 1981. – p 384.

4. Shakespeare W. Sonnets. Global language resources- 2001, Facebook page, July, 2003.

5. Shakespeare W. Macbeth. www.twirpx.com. – p 96.

6. Johnson S. Preface to Shakespeare. London, 1765. – p 44.

“SALOM, TOG‘LAR” HAMDA “JAMILA” QISSALARINING QIYOSIY TAHLILI

Gulbahor Qurbanova,

Jizzax davlat pedagogika instituti

O‘zbek adabiyoti o‘qitish

metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Badiiy adabiyot yaralibdiki, dunyo xalqlari adabiyoti bir-biridan oziqlanib, andoza olib boyib boradi. Yoki ikki adib bir-biridan bexabar holda bir xil syujetli

asar yozishi ham mumkinligini adabiyotshunoslik ko‘p kuzatgan. O‘xshash syujetli asarlarni o‘zbek va yevropa, o‘zbek va qardosh xalqlar adabiyotida ko‘plab uchratishimiz mumkin. Shu o‘rinda syujet atamasining ta’rifini bir eslab o‘taylik.

“Syujet” (frans. – predmet, “asosga qo‘yilgan narsa”) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi [1:114-bet]. Faqat har bir turda (epik, dramatik, lirik) syujet o‘ziga xos bo‘ladi. Masalan, qissada bir qahramon atrofidagi kichik ijtimoiy muhitda bo‘layotgan voqealar bilan muallif o‘z ko‘zlagan maqsadini ifodalaydi. Masalan, Nurali Qobulning “Salom, tog‘lar” qissasini oladigan bo‘lsak, yozuvchi asar bosh qahramoni Zulayho hayoti misolida sovuq urushning insonlar taqdiriga bo‘lgan salbiy ta’sirini yoritib berganini ko‘rishimiz mumkin. Qissa syujeti qirg‘iz adabiyoti vakili Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi syujetiga o‘xshash. Jamilaning turmush o‘rtog‘i to‘ylaridan ko‘p vaqt o‘tmay urushga ketgani kabi Zulayhoning turmush o‘rtog‘i ham yoshgina kelinni tashlab urushga ketadi. Urush davrining fojialaridan biri xuddi shu – hali bir-birining mehriga qonib ulgurmasdan, kelinlar turmush o‘rtoqlariga yelib-yugurib xizmat qilishga ulgurmay yoshlar bir-biridan ayriladi. Ular endi faqatgina xatlar orqali bir-birlariga mehr va sog‘inchlarini izhor qilishlari mumkin bo‘ladi, xolos, agar bunga imkon, jonlari omon bo‘lishsa.

Demak bu kabi voqealari bir-biriga o‘xshash asarlarni sharq adabiyotida ham, g‘arb adabiyotida ham uchratishimiz mumkin. Faqat syujetlari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa ham asarlarning mualliflar undagi voqea-hodisalarni o‘zlari yashaydigan ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda, mentaliteti bilan bog‘lab tasvirlagan bo‘ladi. Masalan, Nurali Qobulning “Salom, tog‘lar” qissasida keltirilgan quyidagi parchaga e’tibor qarataylik:

Toshbuvi xola ahyon-ahyonda ularnikiga kirib, G‘oyibnazarning topar-tutari ancha yaxshi bo‘lib qolganligini, holi-joni borida o‘g‘lining boshini ikkita qilib qo‘ymoqchi ekanini aytardi. Qorako‘z Toshbuvi xola shu haqda gap ochib qolguday bo‘lsa, sekingina biror narsani bahona qilib chiqib ketar, dahlizda

turib ularning gapiga quloq solardi… Shunday gap-so‘zlardan keyin u bir necha kungacha o‘zini g‘alati sezar, Toshbuvi xola yoki G‘oyibnazarga ko‘rinishdan uyalib yurardi [2:53-bet].

Bu o‘rinda asar muallifi o‘zbek qizlariga xos bo‘lgan ibo, sharm kabi tuyg‘ularni ifodalash bilan birga milliy qadriyatimizni ko‘rsatib berib, bugungi kun yoshlarini ulardan o‘rnak olishga ham chaqirgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Aslida adabiyotning maqsadi ham shu – obrazlar, detallar orqali kitobxonga estetik zavq bag‘ishlash bilan birga insoniyatni tarbiyalash, yaxshilikka undashdir.

Qissada Zulayho otasi bilan xayolan gaplashadi. Otasi unga “Uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi, bolam! Oqibatsiz qarindoshdan begona bo‘lsa ham qo‘shni ma’qul” [2:44-bet]deb aytadi. Xalqimiz tilidan olingan bu purma’no so‘zlar hamisha o‘z tasdig‘ini topgan. Yozuvchi nafaqat bu qissasida, balki barcha qissalarida ham xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli va o‘z o‘rnida foydalanadi. Syujet ichida syujetlar – qissalar ichida kichik-kichik hikoyachalar keltiradi. Xuddi Asqad Muxtorning “Chinor”, Ch.Aytmatovning “Asrni qaritgan kun” romanlari hamda Ch.Aytmatovning “Oq kema” qissasi syujetlari kabi. Nurali Qobul qissalarida peyzaj juda chiroyli beriladi. Uning go‘zal va so‘lim tabiat – Baxmal tog‘lari yonbag‘irlarida katta bo‘lganligi uning asarlaridagi tabiat tasvirlarining takrorlanmas bo‘lishiga yordam bergan bo‘lsa ajab emas. “Salom, tog‘lar” qissasida keltirilgan peyzajlar ham juda mahorat bilan chizilgan.

“Salom, tog‘lar” hamda “Jamila” qissasi syujetlari o‘xshash (Zulayhoning turmush o‘rtog‘i ham, Jamilaning turmush o‘rtog‘i ham urushga ketadi. Har ikalasi ham yigit kishi bilan do‘stlashadi. Har ikalasi ham front uchun dalada ishlaydi. Har ikkisi ham maktub orqali turmush o‘rtog‘i tirik ekanligini bilib turadi) bo‘lsa ham ularning yakunlari turlicha. Vatan uchun jon kechib urushda yurgan turmush o‘rtog‘ini tashlab Jamilaning boshqa yigit bilan qochib ketishi hamda turmush o‘rtog‘i hajrida aqldan ozayozgan Zulayho va uning fojiali qismati – o‘limi bilan yakun topadi. Zulayho sharq ayoli bo‘lganligi uchun ham juftiga xiyonat qilmadi, xatto bu haqda o‘ylamadi ham. Ammo Jamilani ham qoralashdan yiroqmiz. Chunki u ham baxtli bo‘lishga sevishga, sevilishga haqli inson bolasi. Zulayho

G‘oyibnazarga ko‘ngil qo‘yib turmushga chiqqan, G‘oyibnazar ham uni yeru ko‘kka ishonmay, o‘zidan ortiq sevardi. Ayriliqda yashagan davrda ham Zulayhoga bo‘lgan mehr-muhabbati, sog‘inchlarini tez-tez bayon qilardi. Jamila hayotida esa aksincha, ko‘z ochib ko‘rgan jufti haloli “seni sog‘indim”, “seni yaxshi ko‘raman”, “meni kut, albatta qaytaman” kabi so‘zlarni bir bor ham aytmadi. Shuning uchun ham balki Jamila o‘zi xohlagan, kutgan mehrni izlab boshqadan topdi. Taniqli adabiyotshunos, tanqidchi Ozod Sharafiddinovning bir fikri bor: “Davrlar har qancha o‘zgarmasin, insonni harakatga keltiruvchi asosiy omil shaxsiy manfaat bo‘lib qolaveradi. Insonning bu xislati ruslarning “Baliq chuqur joyni izlaydi, inson esa yaxshi joyni” degan maqolida yaxshi ifodalangan”. [3:238-bet] Xuddi shunday bu xayotda hamma narsa ijobiy ma’noda manfaatlar evaziga quriladi. Er ayoliga mehr ko‘rsatsa, ayoli ham mehr ko‘rsatadi. Ayoli eriga bor mehrini berar ekan “men shunday qilsam, u ham shunday qiladi” degan xayol albatta bo‘ladi. Menimchi, Chingiz Aytmatov bu asarni faqat Jamilaning xiyonatinigina ko‘rsatib berish uchun yozmagan, aksincha mehr-muhabbat bor joyda “hayot” bo‘lishini uqtirmoqchi bo‘lgan. Oila mustahkamligida qanaqa davr bo‘lishidan qat’iy nazar oila boshi mas’ul ekanligini yana bir bor ko‘rsatib bergan. Agar Jamilaning eri bir martagina “Jamilam, meni kut” deb bir satrgina xat yozganida edi, ehtimol u ham Zulayho kabi sadoqatini saqlardi. Zulayho haqiqiy o‘zbek ayoli timsoli: mehribon qiz, g‘amxo‘r qo‘shni, sadoqatli yor, mehnatkash fuqaro. Bu asarlar qachon, qaysi davrda yaratilmasin ular bizga yashash sharoitimizdan, xayotimizda yuz berayotgan voqealardan kerakli xulosalar chiqarib, sermazmun xayot kechirishimizga dasturul amal bo‘ib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: “Noshir” nashriyoti, 2019.

2. Nurali Qobul. Johillik va qotillik: qissalar. Toshkent, “IJOD-PRESS” nashriyoti, 2017.

3. Sharafiddinov Ozod. Ijodni anglash baxti. Toshkent.: “Sharq”, 2004.

“ҚИРҚ ҚИЗ” ДОСТОНИ – ТЕАТР САҲНАСИДА

Дошанова Мухаббат Муратбаевна,
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Мақолада, қорақалпоқ халқ достонлардан бири “Қирққиз” достонини театр саҳнасида намойиши ёзилган. Ушбу достон қаҳрамонлик эпоси бўлиб, ўз юртини ҳимоя қилишга отганланган қирқ нафар мард қизлар ҳақидадир. Достон илк марта 1945 йилда Амет Шомуродов ва Иброҳим Юсуповлар томонидан саҳнага қўйилган. 2015 йилда Қ.Заретдиновнинг “Қирқ қиз” балети саҳналаштирилиб, халқимизга намойиш этилган. Адабиёт ва театр доимо ўзаро алоқада эканлиги таъкидланган.

Калит сўзлар: “Қирқ қиз”, достон, қорақалпоқ, адабиёт, театр, саҳна.

Қорақалпоқлар уруғ-аймоқчилик ва қабилавий анъаналари асосида ҳаёт кечиришади. Чорвачилик, деҳқончилик ва балиқчилик уларнинг асосий машғулотлари ҳисобланади. Қорақалпоқ халқ оғзаки ижоди бевосита қўшни – ўзбеклар, қозоқлар ва туркманлар халқ оғзаки ижоди билан ҳам яқин. Чунки бу қўшни халқларнинг ўзаро муносабатлари азалдан мавжуд бўлиб, яхши қўшничиликка асосланган эди. Шу боис, қорақалпоқ халқ қўшиқлари, жумладан, “Хаужар”, “Беточар”, “Қиз йиғлар”, “Йўқлов” каби миллий қўшиқлар қўшни халқлар маросимларида ҳам у ёки бу шаклда мавжуд. Оила, никоҳ муносабатлари билан боғлиқ маросимлар ҳам мавжуд. Ушбу маросимларга болалар ёшлигидан тайёрланиб борадилар. Ота-онаси, қўшнилари, қариндошлари уларга ўргатиб боради. Бу репитиция эмас, балки улар тингловчи, кузатувчи, оддий қилиб томошабин бўлиб иштирок этади. Чунки, бу масала оиланинг обрўйи ҳисобланади. Ушбу маросимларда айтиладиган миллий қўшиқларни ҳам болалар ёшликдан тўйларга бориб ёдлаб олишади. Тўйлардаги рақсларни ўрганишади. Бу уларнинг маҳоратини оширишга ёрдам беради.

Халқ достонлари ҳам қорақалпоқ халқларининг севимли айтишувларидир. Бу достонлар ҳам саҳналаштирилган. Жумладан, 1940 йилда Н. Девқараев “Алпомиш” драмасида халқ ўйинлардан “Айқулаш” ўйини саҳнага олиб чиққан. Ушбу мусиқали драмада балетмейстр Тамара Ибрагимова 1942 йилда, Али-Ардобус 1944 йилда, Лиза-ханум Петросова 1956 йилда моҳирлик билан саҳнада ижро этган. Мусиқасини композитор В.Г.Шафранникова басталаган [1.38]. Драматург Раҳим Мажитов томонидан 1939 йилда “Ҳаке қайде?” ўйини инисеровкасини мусиқали драма “Қора юраклар” спектаклида саҳнага олиб чиқилган.

Волга бўйидан то Фарғона водийсига қадар ҳудудда, Оролбўйи ва Зарафшон кўчманчи қорақалпоқлар ўз маданияти, анъаналарини сақлаган ҳолда истиқомат қилишар эди. “Қирқ қиз”, “Алпамис”, “Қоплон” ва бошқа достонларни ёддан билишган. Бу достонларда ўз юртига муҳаббат, аждодлар мероси, ғурури, оилавий анъаналарини, ватанпарварликни тараннум этилади. Ушбу достонлар айтувчилари Жароу ва бахшилар бу достонларни шу вақтга қадар етиб келишига катта ҳизмат қилганлар. Улар турли халқ ўйинлари, ҳазил, халқона маросимларни етиб келишга ҳам ўз ҳиссасини қўшганлар.

«Қирқ қиз» достони қорақалпоқ халқининг кечмиши ва маънавий дунёси, қаҳрамонлиги ва ғам-аламларини, урф-одатлари ва келажак тўғрисидаги орзу умидларини ёритган ўлмас асардир. “Қирқ қиз” қаҳрамонлик эпоси қорақалпоқ халқининг бадиий образи, 2000 йиллик кўп қатламли ва кўп томонлама тарихий ва этнографик ёдгорликдир. Унда Хоразм хонлиги ва Туркистон бўлиб ўтган ҳам узоқ тарих воқеалари ҳам, бизнинг давримизга яқин тўқнашувлар акс этган. «Қирқ қиз» достони тўрткўллик бахши Қурбонбой Тожибоевдан Ш.Хўжаниёзов, С.Мавланов ва А.Бегимовлар томонидан 1939-1940 йилларда ёзиб олиниб, қорақалпоқ тилида нашр қилинган. Ҳозирги даврда қардош халқлар маданий меросини ўрганиш ва ўзлаштиришга интилиш янада кучаймоқда. Бинобарин, мазкур достон ўзбек, рус, туркман, қозоқ, қирғиз тилларига таржима қилинган. Чунончи, XX асрнинг 40-50 йилларида «Қирқ қиз» эпосини атоқли ўзбек шоирлари

Уйғун ва Миртемир ўзбек тилига, 1958 йилда туркман таржимон-олими Қ.Сейдмурадов туркман тилига, 1970 йилда эса қозоқ шоирлари Х.Ергалиев, С.Мауленов ва А.Шалабаевалар қозоқ тилига таржима қилдилар.

Достон воқеалари, қаҳрамонларнинг ҳатти-ҳаракатлари, фикр-туйғуларида, ҳаёлий-фантастик, мифологик унсурлар, гротеск ва гиперболадан кўра реализм кучлироқ ифодаланади. Қаҳрамонларнинг ўқ ўтмас, қилич чопмас хусусиятлардан холи эканлиги, фақат халқдан мадад олиши достонни нисбатан ёзма адабиёт асарларига, қолаверса, давримизга яқинлаштирувчи реалистик хусусиятлардир. Шубҳасиз, бунда Қурбонбой жировнинг достонни давр руҳига нисбатан мос тарзда куйлаганлиги ҳам муҳим роль ўйнаса-да, достон ўз анъанавий белгиларини сақлаб қолган. Достоннинг етакчи қаҳрамонлари қийин вазиятларда диний-илоҳий руҳдан мадад тилашмайди. Халқнинг оқилу доно кишилари билан кенгашиб, халқдан маънавий-руҳий мадад оладилар. Достоннинг барча қаҳрамонлари: Гулойим, Олтиной, Ўтбосган, Арслон, Сарвиноз ва бошқалар ботирлик, мардлик, ватанпарварлик, инсонпарварлик, душманга чексиз нафрат хусусиятларини ўзларида мужассам этганлар. Босқинчи хонлар Суртайшо ва Нодиршоҳнинг адабини бериб, ўз юртларидан ҳайдаб чиқарадилар. Юртда тинчлик ва осойишталик ўрнатади, халқлар дўст ва аҳил бўлиб яшай бошлайдилар. Демакки, халқнинг озодлиги йўлида фидойилик кўрсатиш достоннинг асосий ғояларидан биридир. Достондаги мисралар орасида характерларни ойдинлаштирувчи ажойиб тасвирлар, диалоглар, зарурий тафсилотлар ва қаҳрамон характерини очувчи ҳолатлар баёни, адабий-тарихий манбаа сифатида муҳим аҳамият касб этади[2. 118].

“Қирқ қиз” достонининг саҳнавий талқинини 1945 йилда Амет Шомуродов ва Иброҳим Юсуповлар томонидан яратилган [1. 31]. Асардаги қирқ қизларнинг тақдири, жасорати, характерларнинг ранг-баранглиги, мураккаб ва бир-бирига ўхшамас инсон тақдирини ифодалаши билан томошабинлар эътиборини жалб этди. Шунингдек, бу асар миллий ўзига

хослиги, режиссёрлик ечимларининг бетакрорлиги, актёрлик талқинларининг беқиёслиги билан ҳам диққатга сазовордир.

Қорақалпоқ халқининг миллий қадриятлари, маънавий мероси кейинги йилларда ҳам саҳнага олиб чиқилмоқда. Жумладан, 2015 йилда Қ.Заретдиновнинг "Қирқ қиз" балети сахналаштирилиб халқимизга намойиш этилди.

Ўзбек режиссёри ва видео-рассом Саодат Исмаилованинг Тошкентда бўлиб ўтган "Қирқ қиз" мусиқий спектаклининг намойиши Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги ҳузуридаги Маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармаси томонидан Замонавий санъат маркази тақдимоти лойиҳаси доирасида ташкил этилди. "Қирқ қиз" эпоси (достони) қаҳрамони – қорақалпоқ халқининг бадиий қиёфасидир. Спектаклда Марказий Осиё вокал санъатининг мумтоз мактаблари: Ўзбекистон тановари, достонлар, жиров ва Қорақалпоғистон, Қозоғистон, Қирғизистоннинг узоқ айтиладиган қўшиқларини намойиш этувчи кўплаб халқ чолғулари янграйди. "Қирқ қиз" – бу режиссёрнинг Марказий Осиё аёл овозларининг турли хилдаги вокал ва мусиқий кучини ҳамда бойлигини бирлаштиришга, шунингдек, томошабинга халқ афсоналари, достонлари ва мусиқий асарларида сақланиб қолган минтақавий яхлитликни кўрсатишга уринишидир. Спектакл аввал, Нью-Йоркда БАМ (Brooklyn Academy of Music) театрида ва Парижда Клод Леви-Стросс театри саҳнасида, Жак Ширак Фондининг Бранли қирғоғидаги Музейида намойиш этилган.

Хуллас, халқ достонларининг мазмуни, ўзига хос хусусиятлари, мотивлари, жарангдорлиги, тарбиявий аҳамияти театр саҳналарида ҳам ўз аксини топиш лозим. "Қирқ қиз" достонининг қорақалпоқ театр саҳнасидан то халқаро миқёсида тараннум этилиши нафақат миллий қадриятларни қадрлаш, балки туркий халқлар дўстлиги, ҳамфикрлиги учун асос бўлиб хизмат қилади. Адабиёт ва театр доимо ўзаро узвийлик ва мувофиқликда ёш авлоднинг маънавиятини шакллантиришда бир-бирини тўлдириб борган, бормоқда ҳам.

Адабиётлар:

1. Алланазаров Т. Каракалпакский советский театр. Истоки и формирование. Ташкент: Фан, 1966. С. 178.

2. Дильманова И., Мамбетаминов Н. “Қирққиз” эпосининг туркий тиллар таржималарига доир//«Фан ва таълим-тарбиянинг долзарб масалалари» мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Нукус., 2019. 321б.

БИР АСАР ХУСУСИДА

Паризод Туропова,
Жиззах давлат педагогика
институти ўқитувчиси

Маълумки, “Сир-синоатга тўла табиатда ақл бовар қилмас ажойиб ҳодисалар ва ҳайратомуз мўъжизалар рўй бериб туришини инкор этиб бўлмайди. Аммо, бадиий ижод жараёни ўзига хос, мураккаб руҳий бир олам. Унда ҳеч ким эртаклардаги сингари сеҳрли хум ё қалпоқча қудрати билан бир амаллаб шоир, ё ёзувчи бўлиб қолмайди. Чинакам ижод ҳамиша юксак бадиий тафаккур ва санъаткор қалбидаги дард ё қувончнинг ифодаси бўлиб майдонга келади... Абдулла Аҳмаднинг мазмунли ҳаёти ва ижод йўлига назар ташласак, ана шу азалий ҳақиқатига яна бир карра амин бўламиз” [2;3].

Дарҳақиқат, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасининг аъзоси Абдулла Аҳмад “Ҳамият”, “Қирмизи атиргул”, “Ўлимга тик боққанлар” каби китоблари билан китобхонларга яхши таниш. Адибнинг, айниқса, “Фарёд”, “Олисдаги соялар”, “Алвидо, севгилим” қиссалари ўзига хос ифода усулига эгалиги билан диққатга сазовор.

“Фарёд” қиссаси Шўро даври воқеалари, хусусан, Ўрта Осиё бойларининг ҳукумат томонидан таланиши, хўрланиши мавзусини ёритишга бағишланган. Қиссанинг бош қаҳрамони Олимбойвачча ва унинг оиласи мисолида тарих кўз ўнгимизда жонлантирилади. Китобхон асарни ўқир экан, мисли кўрилмаган адолатсизликларнинг яна бир карра шоҳиди

бўлади. Асар Олимбойваччанинг Тошкентдан қайтиши ҳолатини тасвирлаш билан бошланади. Адиб маҳорати шундаки, қаҳрамон қиёфасида, унинг хатти-ҳаракатларида юртимиз бошига келаётган совуқ шамоллар ишонарли жонлантирилади: “Олимбойваччанинг авзойи бузуқ. Кеча Тошкентда бўлиб, бойлар билан гурунглашгач, руҳи синди. Большавой деган очофат ҳамма бойларни, ҳатто ўртаҳол деҳқонларни талаётган эмиш. Унинг дастидан на ўрада ғалла, на қўрада қўй, на далада ҳосил қолаяпти. Бир умр пешона тери билан йиққан-терганингга қайсидир нобакор эга чиқса, сочиб совурса, қандоқ чидайсан?” [1;6].

Шундай ўй-кечинмаларни хаёлидан ўтказаётган Олимбойваччанинг кўнглидаги ғашликни чорбоғдаги ғарқ пишган мевалар олма, нашвати-ю ўн етти хил ғарқ пишган узумзор ва ўрикзорларигина бир озгина бўлсин кўтарди. Ахир бу ўрикларни Ойсари энаси эккан.

Ёзувчи воқеалар ривожини икки линияда олиб борадики, бу ҳам асар охирига бориб ойдинлашади. Қисса воқеалари шиддат билан ривожланади. Олимбойваччанинг бобоси Юсуфбек Эрназарбой бобоси каби ер эгаси бўлиш билан бирга савдога аралашиб водийга қатнаган ва Асакага борганда дурадгор сандиқсоз билан қадрдонлашади, унга шогирд тушиб тўрт ой иш ўрганади. Сандиқсознинг якка-ю ягона қизи Ойсари ва акасидан қолган қиморбоз, ахлоқсиз жияни Талхатдан бошқа яқини йўқ эди. Шу сабабданми у Юсуфбекка меҳр қўйган, уни ўз ўғлидек яхши кўрарди. Тақдирнинг ўйинини қарангки, иккала ёш ҳам бир-бирига бефарқ эмасди. Лекин ҳаёт доим инсон истагандай бир текисда кетмайдики, бу ҳам асарда ўз бадиий ифодасини топган.

Олимбойваччанинг бошига оғир кунлар келди. Хотини Зийнатой уни шўро идорасига чақиришганини айтди. Шўро идораси бир пайтлар чилла масжид деб аталган бинога жойлашган бўлиб, бу масжид Жиззахнинг машҳур бойларидан бири томонидан қурилган бўлиб, у ерда дин уламолари намоз ўқишар ва китоб мутолаа қилишарди. Адиб масжид тасвирини асарда жудаям таъсирчан ифодаларда берганки, бу ҳам ижодкорнинг ўзига хос

маҳорат эгаси эканлигидан далолат беради: “Масжид битта улкан ва бешта мўъжаз хоналардан иборат. Шу етти хона уч тарафлама айвонлар билан қуршаб олинган... Уч тарафлама айвонга қирқ битта маҳобатли устунлар ўрнатилган. Қирқ битта устунга ипдек ингичка, лекин жозибаси билан ақлни шоширадиган турфа нақшлар ўйилган. Ҳар бир устундаги нақшга етти хил рангда жило берилган. Устунларнинг тепасига етти қиррали гулбарак ўрнатилган. Уларга пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссаломнинг ҳадислари битилган. Гулбаракнинг ложувард етти қиррасига еттита шамдон ўрнатилган. Ҳайит кунлари қирқ битта устундаги шамлар ёнуви, бир илоҳийлик, қалам бирла битгусиз улуғворлик ҳосил қилади... Минг афсуски, аввалги кўркамлик ва улуғворликдан эндиликда ном-нишон қолмаган. Айвонлари тахталар билан ўралиб, шифтларига қоғоз қоқилган. Ҳадислар битилган гул бараклар, шамдонлар олиб ташланган... Олимбойвачча манзарани кўриб, танг қолди. Ичидан бир нима узилгандай, ҳолсизланиб ўтириб қолди” [1;15-16].

Асар воқеалари ҳеч кимни бефарқ қолдирмайди. Ўн чоғлиқ қуролланган аскар билан Андрей Бойчев келиб, Олимбойвачча, хотини Зийнатойнинг қўлига кишан уриб, қизи Дилхуморнинг қўлини эса арқон билан боғлаб, эллик пуд ғалласини, тахмонида турган сандиғигача, уларнинг чирқиллашларига қарамасдан аравага жойлашди.

Юқорида айтганимиздек, воқеалар ривожи икки линияда давом этар экан, хафақонлик касаллигига чалинган Ойсарининг мўйсафид отаси қиморбоз жияни Талхатга ишонмай, Юсуфбек билан бирга Оқтулпорини арава қўшиб табибга жўнатишга мажбур бўлади. Йўлда уларга бўрилар ҳужум қилди. Юсуфбек жон-жаҳди билан охирги куч қолгунча курашиб, Ойсарини ҳимоя қилади. Юсуфбекдек инсоннинг невараси Олимбойвачча ҳам оиласини большевик аталмиш бўрилардан қутқариш учун чунон ҳаракат қилмасин, имконини топа олмайди. Уларнинг хўрлашларидан ҳушидан кетган аёлини кўриб, қўрқиб кетади. Бир кечада ўн йилга қариган, юзлари сўлиб, кўкариб кетган Зийнатой тонгда омонатини топширади.

Асарнинг энг кульминацион нуқтаси унинг жанозаси жараёнида яққол намоён бўлади. Аёлини дафн этишга ҳозирлик кўраётган Олимбойваччанинг елкасига қўндоқ билан уриб, қўлларини кишанлаб: “Сенларнинг дастингдан қирқ йиллик қадрдон хотинимдан айрилиб ўтирибман-ку. Ахир муштипаримни сўнгги манзилга элтай! Қиёмат қарзимни узай” [1;26-27] деб зорланишларига қарамай, унинг боғини талон-тарож қилишларини ўз кўзи билан кўриши учун олиб кетишади. Отасининг орқасидан борган ўғли Қобилжон, уни кўриб ҳуши бошидан учади. Бечора отаси қўли кишанланган, жазирама офтобда ётар эди. Қобулжон бу холни кўргач, отасини олиб кетмоқчи бўлади, лекин Андрей Бойчев терслик билан рухсат бермайди: “– Тирмизак, ҳаддингдан ошма, отанг бизга керак.

– Керак бўлса офтобда тоблаб, ўлдирмоқчимисан? Золим, аблаҳ.

– Тилингни тий, ҳозир авахтага ташлайман!

– Қўрқитма, босқинчи, сенга ялинадиган манқурт йўқ!

– Бас қил, ит эмган. Ҳозир йигитларга айтаман, мажақлаб ташлашади... Ҳозир бўғзингдан дарча очдираман!... Жаҳли чиққанидан ўзини тутолмай қолган Қобулжон Бойчевнинг қобирғасига кетма-кет пичоқ санчди” [1;32].

Ахир, Қобулжон йўлда бўрилар билан якка ўзи олишган, отининг ўлимидан сўнг Ойсарини аравага ўтқазганча уни бир ўзи судраб келган Юсуфбекнинг авлоди эди-да. Унинг ҳам дов юраги бор, лекин буни номард большевиклар тушунармикин, ё қадрига етармиди?

Андрей Бойчевнинг ўлимидан кейин унинг ўғлини қамоққа олиб ўзларича суд қилган Шўро ҳукумати вакиллари унинг учун ўлимни, лекин қандай ўлим, осон эмас, шафқатсиз ўлимни раво кўришди.

Асарда бир ўзбек оиласи бошига Шўро ҳукумати томонидан ёғилган балолар Олимбойвачча оиласи мисолида ёритиб берилади. Аёли Зийнатойни улар томонидан ўтказилган тазйиқларга чидолмай юрак хуружига учраб ўлиши, қизи Дилхуморнинг хасталаниб қолиши, ўзларини кимсасиз чўлга сургун қилишлари етмагандай, ўғли Қобулжоннинг дорга тортилиши, буларнинг барчаси Олимбойваччани йиқитди, тўшакка михлаб қўйди.

Ўзбек халқига хос мардлик, соддалик, поклик, ростгўйлик каби хислатлар Қобулжон образида ўз ифодасини топган бўлса, орият, миллий ғурур туйғулари Юсуфбек ва Олимбойвачча тимсоллари мисолида чуқур психологик контрастда талқин этилган. Демак, ҳар бир ёзувчининг услубий ўзига хослиги шаклланиши натижасида бадиий асар мукаммаллашади, ғоявий-эстетик ва композицион жиҳатдан ҳам етукликка эришилади. Катта ҳаётий ва ижодий тажрибага эга бўлган истеъдодли адиб Абдулла Аҳмаднинг ушбу қиссаси чуқур миллий руҳ билан йўғрилган тили ва услуби ҳам шакл ва мазмун мутаносиблигини таъминлаганлигини таъкидлаш ўринли бўлади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Аҳмад Абдулла. Ҳамият. –Т.: Yangi nashr, 2015.

2. Қосимов У. Ибратли ҳаёт ва машаққатли ижод сабоқлари//Абдулла Аҳмад. Ҳамият. –Т.: Yangi nashr, 2015.

MILLIY RUH - MILLAT KO‘ZGUSI

G.Bozorova,

Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti

Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov milliy ruhdan mosivo tafakkurni bamisoli qanotsiz qushga qiyos etadi. Nasrda bo‘lgani kabi nazmda ham milliy ruhdan to‘yingan tafakkur tarzi hal qiluvchi ahamiyatga molik. Milliylik she’riyatning asosiy tamoyilidir. Zero, shoir mansub bo‘lgan millatni o‘zga millatlardan farqini namoyon etadigan asosiy belgi bu milliy ruh sanaladi. Umri boqiy ijod namunalari ham milliy ruhning betakror badiiy talqinini aks ettirgani uchun, davrlar osha barchaga birdek manzur bo‘ladi. Shuning uchun ham, O‘zbekiston qahramoni Abdulla Oripov “Xalqning o‘lmas ruhiyatini, qadriyatlarini, milliy o‘ziga xosligini va nihoyat bebaho til boyligini mujassam eta olgan haqiqiy ijod namunalarigina yashashga haqli”- deya, ta’kidlaydi. Mana shunday yashashga haqlilik, haqiqiy ma’nodagi barhayotlik, zavol bilmasllik Muhammad Yusufning ham ijodiga taalluqlidir. Shoirning satrlari xalqonaligi

hamda samimiyligi sabab xalqimiz qalbidan joy olgan. “Har qanday holda adabiyotning, she’riyatning darajasi ikki mezon – milliy ruh va mahoratga ko‘ra belgilanar” (N.Jabborov) ekan, Muhammad Yusuf ijodida milliy ruh yuksak badiiy mahorat bilan o‘z ifodasini topgan. Shoir ijodida milliy ruh badiiy obraz va detallar, milliy urf-odatlar hamda qadriyatlarimiz shuningdek, millatimizning asl farzandlari – buyuk ajdodlarimiz yodi orqali poetik ifodasini topgan. “Yozuvchi badiiy talantining o‘lchovi” (Ch.Aytmatov) bo‘lgan badiiy mahorat shoirning o‘zida millatning ruhini ifodalagan har bir satrida yaqqol namoyon bo‘ladi:

Ko‘rdim suluvlarning eng faranglarin,
Yo xudbinman, yo bir soda kasman men:
Parijning eng go‘zal restoranlarin,
Bitta tandiringga alishmasman men.

“O‘zbekiston” nomli she’rining ushbu satrlarida Vatanga muhabbat va faxr tuyg‘usini shuningdek, tandir detali orqali milliy ruhning kichik bir ko‘rinishini kuzatamiz. “Pardoz emas, husn bo‘lib asarni ochishi kerak” (A.Qahhor) bo‘lgan detal haqiqatda ham bu satrlarni ohorli va ta’sirchan chiqishiga xizmat qilgan.

Otam o‘gitlarin unutmoqdaman,
Unutyapman ozg‘in yuz, qo‘llarini.
Ter hidi anqigan beqasam chopon,
Ketmoni, yaktagi yamoqlarini.

“Unutish” nomli she’rining ushbu satrlarida o‘zbek otalarining badiiy obrazi gavdalangan. Bu obrazni yaratishda ham milliy mansubligimizga xos beqasam chopon, yaktak, ketmon tamsillaridan mahorat bilan foydalangan.

Yurtim suluvlari, sizga yo‘q taraf,
Qoshingizda o‘sma yursa sirg‘alib,
Uzun sochingizni o‘rsangiz tarab,
Boqsa degan edim oy ham suqlanib.

Shoir ijodiga nazar tashlaganimizda, o‘zbek qizlariga bag‘ishlangan betakror tashbehlar bilan badiiy yo‘g‘rilgan go‘zal baytlarni uchratamiz. She’rlari orqali millat qizlariga ota bo‘lib mehr beradi, yor bo‘lib ko‘ngil qo‘yadi, og‘a-ini bo‘lib

himoyasiga otlanadi. Milliy qadriyatlar talqini milliy ruh ifodasining eng muhim shartlaridandir. “Chimildiq” nomli she’rida milliy mentalitetimizda azal-azaldan qadriyat darajasida bo‘lgan chimildiqning asl mohiyati shoirga, aynan Muhammad Yusufga xos hassoslik bilan o‘zining badiiy ifodasini topgan:

Garchi ipak devoring,
Seni hech kim qurgan yo‘q.
Ammo ikki dunyoda
Sendan baland qo‘rg‘on yo‘q.
Qo‘sh yuraklar yog‘dusi
O‘zing beshak chimildiq,
Bo‘y qizlarning orzusi
Shohi to’shak chimildiq.
Tilagim shu boylansin
Jon rishtasi joningga.
Yo‘lamasin hech bir qiz
Rozi bo‘lmay yoningga.

Vatanga bo‘lgan muhabbat eng oliy umumbashariy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Shoirning “Izhori dil”, “Vatanim”, “O‘zbekiston” nomli she’rlari ham milliy ruh bilan sug‘orilgandir.

…Tovonimga kirgan
Tikoning suyuk –
Kaftdan
Zirapchang ham
Yulmay sevaman.

Ko‘rinadiki, Muhammad Yusufda ham so‘z tanlash va qo‘llash mahorati yuksak darajada. Zero, Izzat Sulton ta’kidlaganidek: “Yozuvchining mahorati aytilmoqchi bo‘lgan fikr, tasvirlanayotgan predmet va ruhiy holatni eng aniq va yorqin ifoda eta oladigan so‘z va iboralarni topa bilishdan iboratdir”. Shoir Ota makonidagi har bir zarraga o‘zini daxldor deb biladi. Mana shu dahldorlik hissi tufayli jamiyatda sodir bo‘lgan va bo‘layotgan voqea-hodisotlar uning nazaridan

chetda qolmaydi. Ayniqsa, tarix guvohligidagi xalqimizning qora kunlari, millatimiz darg‘alarining qonli sahifalari hech bir shoir ijodida Muhammad Yusuf ijodida bo‘lgani kabi teranlik kasb etmagan. Jumladan,

Garchi boshin eggani yo‘q edik bizlar,

Ekkanidan tekkani yo‘q edik bizlar

Vatanida vatani yo‘q edik bizlar,

O‘sha zulmat o‘tmish, sening uying kuysin.

Mana shunday xalq dardini o‘ziniki qilib olgan ijodkorgina xalqi suygan insonga aylanishi, shubhasiz. Mustabid mafkura tazyiqi ostidagi vulgar sotsiologizm tufayli qatag‘on qurbonlariga aylangan o‘zbek xalqining ma’naviy darg‘alari qayd etilgan sahifalar ham shoir ijodida salmoqli o‘ringa ega.

Mana,

Qodiriyni qilishar so‘roq:

“O‘tkan kunlar” degan she’r siznikimi?

- Ha.

Ammo u she’r emas…

- Jim bo‘ling, axir.

She’rmi yo boshqami, avtori siz-da.

Tamom.

Boshqa gapga qolmaydi hojat.

Tergovchi - payg‘ambar,

Tergovchi – xudo.

Temir zotdan kelgan buyruq – ijozat,

O‘zbek yana bitta o‘g‘lidan judo.

Fikrlarimizga xulosa qilib aytganda, she’riyatning, umuman adabiyotning asosiy sharti bo‘lgan badiiy obraz yoki timsol chinakam milliy shaklda namoyon bo‘lsagina, o‘quvchi qalbiga tezroq yetib boradi. Shundagina uning ta’siri umrbod unutilmasligi mumkin. Xoh nasrda, xoh nazmda bo‘lsin, unda aks etgan milliy ruh orqali millat hayotining kechasi va buguniga xos bo‘lgan tafakkur tarzi, ma’naviy qiyofasi, madaniy evrilishlari, orzu-umidlari o‘z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf Muhammad. Saylanma. -Toshkent: Sharq, 2014. – 285 b.

2. Йўлдош Қозоқбой, Йўлдош Муҳайё. Бадиий таҳлил асослари. -Тошкент: Камалак, 2016. - 463б.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ (На примере узбекской литературы)

Шыкина Анастасия Александровна,

студентка Ферганского государственного университета

Аннотация: В данной статье затрагивается проблематика литературоведения на примере узбекской литературы. Проводится параллель между особо значимыми переломными этапами и событиями истории, а также прослеживается эволюционный путь развития литературы. Особое внимание уделяется задачам и перспективам развития узбекского литературоведения.

Ключевые слова: литературоведение, социокультурная ситуация, национальная особенность, методология.

Период с второй половины XX по XXI вв. ознаменован поиском совершенно новых идейно-эстетических и философских взглядов. По праву данный период считается «переходным» в литературоведении [1]. Резкий скачок в сторону прогресса в период советской власти становился все более неоднозначным. Кризис эволюционной доктрины стал причиной роста интереса к альтернативным теориям. Одним из ярких примеров стала теория «циклов». Согласно данной теории, переход совершается от цикла к циклу.

Не смотря на то что в целом весь литературный процесс по сути является освоением и усвоением культурных моделей – классических персидских и арабских в период становления и расцвета (15–19 вв.), а также пантюркистских (конец 19 – начало 20 вв.), русских (имперских, советских)

(19–20 вв.) и западных (конец 20 в.), особенности узбекской литературы в значительной степени обусловлены ее географией – удаленностью от очагов европейской культуры, близостью евразийской по своим ориентирам России и генетической близостью с мусульманским Востоком.

Нынешние состояние литературоведения можно объяснить как с точки зрения общественных, социальных, культурных условий «переходного» периода, так и с точки зрения новой сложившийся обстановки в начале XXI в. Наступило время трезвой оценки состояния узбекской литературы. Появилась возможность «делать» литературу не ангажированную социальными заказами [2]. Работа по сути заключалась в реализации следующих основных пунктов:

1) Возвращение узбекского наследия; Здесь как нельзя кстати сыграли свою роль такие известные поэты как Рауф Парфи, Сабит Мадалиев, Хамид Исмайлов, Белги, Мухаммад Салих.

2) Восстановление правдивой истории узбекского народа.

3) Становление узбекскоязычной публицистики и литературы. Небольшие произведения в журнале «Звезда Востока» (1990-2004), а затем и в Московском журнале, опубликованные в 5 выпусках сборников, положили начало тому, что уже сегодня работы узбекских авторов можно встретить как на литературных сайтах, так и в журналах «Арион», «Дружба народов» .

4) Переоценка религиозных ценностей.

Необходимость в исследовательской работе выявила на передний план проблему состояния литературоведения и ее перспектив. Зародился интерес к изучению роли узбекской литературы в масштабном смысле, а также их взаимовлияние.

Если смотреть на нынешние состояние узбекского литературоведения, то оно лишь открывает для себя новые горизонты научно теоретической мысли. Ещё в начале 90-х гг был поставлен вопрос о смене догматических методологических принципов, основанных на марксистско-ленинской идеологии, принятых в период советской власти [3]. Следующая проблема,

возникшая в литературоведении-это исторически-культурное наследие узбекского народа. Конечно, в исследованиях, основаных на марксистско-ленинской эстетике, чрезмерно восхвалялась идеология СССР как интернационального целого, но и исключать успехи этого периода невозможно. Достижения СССР прошли проверку временем, и стали основополагающими.

Ещё одной проблемой стало появление современного поколения читателей, готовых в к восприятию разноплановой литературы. Но тут стоит отметить, что узбекская литература не затерялась в мощном потоке развития мировой литературы, скорее наоборот: неповторимость и самобытность ее стали очевидными. Саид Ахмад, Аскад Мухтар, Адыл Якубов, Пиримкул Кадыров, Эркин Вахидов, Абдулла Арипов и многие другие обрели не только широкую известность и признание, но создали произведения, достойные современной эпохи.

В связи с тем, что узбекская литература относилась достаточно противоречиво ко всему новому, по причине того что к традициям в узбекской литературоведческой школе долгое время относились с особой настороженностью, это привело к тщательному выбору и употреблению русско-европейских терминов и понятий [4].

Основой исследований стала внутренняя закономерность литературоведения. Об этом правильно высказывался М.Хасанов, «одна из серьезных проблем - необходимость создания собственной методологии» [5].

За годы независимости возрос интерес к изучению истории литературоведческой науки в целом. Как показывают исследования, она основана не на пустом месте, это своего рода смесь лучшего в данной области. Такие литературоведы как Абдусаматов, Хафиз Шаахмедович Варфоломеев, Иван Павлович Владимиров, Георгий Петрович Ганиев, Суйима Ганиевна Зунделович, Яков Осипович Каримов, Наим Фатихович Мадаев, Омонулла Нагаев, Сафтер Аблямитович Султанов, Иззат Атаханович Тартаковский,

Пётр Иосифович Хамидов, положили начало исследованию узбекского литературоведения, преподаваемого в школах и вузах.

За использование из прошлого опыта самого ценного и значимого на данный момент литературоведение и важна как наука. Это помогает в формировании преемственности к традиционной составляющей. Развитие направлений, определяемых течением истории, опирающихся на внутренние законы, тесно связывают новаторство и традиции. Так как наша наука о литературе долгое время была ориентирована на науку о русском литературоведении, наши исследование в выработке новых понятий, которые бы отразили национальные особенности узбекской литературы, находятся в процессе формирования.

Произошли значительные перемены в изучении художественного творчества, закономерности, отличительных черт, метода оценивания литературного процесса. Данные процесс внес значительные обновления аспектов теории литературы. Утрата идеологических ориентиров, ставших историей партийности и классовости привели к острым спорам о таких понятиях как «тип творчества», «творческий метод», «творческое направление».

Таким образом, изменения в общественной жизни имеют значительное влияние на литературный мир в целом. Узбекское литературоведение вступает на путь собственного развития, а в качестве ответа на запросы времени формирует альтернативные подходы.

Литература:

1. Хренов Н. А. Переходность как следствие колебательных процессов между культурой чувственного и идеационного типа 2003. С. 24

2. Кабанова И. В. Введние//современная литературная теория: антология 2004. С. 7.

3. Богаткина М.Г. Теория литературы: формирование новой научной парадигмы. 2007. С. 11.

4. Хренов Н.А Опыт культурологической интерпретации переходных процессов. 2002. С. 11-55.

5. Хасанов М. Некоторые методологические проблемы изучения истории литературы. 1992 №1. С. 141-147.

ҚОНУНЧИЛИК ТАРҒИБОТИДА ҲУҚУҚИЙ МАТНЛАРНИ ГЕРМЕНЕВТИК ТУШУНИШ ВА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ИМКОНИЯТИ

Миргазиева Зухро,

Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти тадқиқотчиси

Аннотация. Мақолада ҳуқуқий терминларнинг санъат яратиш имкониятлари ҳамда бу борада ижтимоий-сиёсий фактор мезонлари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: сўз санъати, миллий тил, индукция, дедукция, индивидуализм, ғоя, ёлқин, оммавийлик, бадиий ижод.

Қонунчилик ҳужжатлари амалиёти жараёнида уларни тушуниш ва бу жараённинг ҳаққонийлиги муҳим роль ўйнайди. Матнни тушуниш жараёни герменевтик услубда амалга ошади. Герменевтика (юнонча hermeneutikos - тавсифловчи, баён қилувчи) термини «таржима санъати», «тавсифлаш санъати» (Гермес юнон мифологиясида худолар ва одамлар ўртасида ўзаро фикр етказувчи ҳисобланган) маъноларини англатади[1]. У тил ҳақидаги классик фаннинг ўзига хос методи сифатида тан олинган бўлиб, қадимги ёзма ёдгорликларни идрок этиш, тавсифлаш учун қўлланган. Илмий матнларни интерпретация қилишнинг назарияси ва умумий қоидаларини бирлаштирган герменевтика дастлаб Александрия мактабида Библия матнларини тавсифлаш учун қўлланилган. Герменевтика ҳозирда тил шакллари ва конструкцияларни англаб етиш билан шуғулланувчи фан соҳасидаги ҳолатидан фарқли равишда умуман бегона инсон ички дунёсига кириб бориш, унинг индивидуал руҳий дунёсини, психологиясини очиб бериш учун қўлланмоқда.

1 Философия: Энциклопедический словарь/под ред. А.А.Ивина. – М.: Гардарика. 2004.стр. 107.

Юридик герменевтика – юридик матнни тушуниш, матн орқали акс этган қонун муаллифининг ички дунёси, қалб манзаралари, қалб ҳаракатлари жараёнини билан бир қаторда қонунни шакллантирган реал сиёсий-ижтимоий шароитни ўрганадиган фандир. «Матнни тушуниш» дегани инсон тажрибасини матнга, унинг мазмунини эгаллаш учун йўналтирилиши демакдир. Матнни эгаллаш учун йўналтирилган тажриба бир вақтнинг ўзида индивидуал (хусусий) ёки ижтимоий бўлиши мумкин: бир одамнинг тушуниш имкониятлари бошқа одамнинг фаолиятида тараққий топиши мумкин, бошқа одамнинг муваффақиятлари эса, биринчи одамнинг имкониятларини кенгайишига хизмат қилади. Шу нуқтаи назардан тушуниш ёки матн маъноларини англаб етиш жараёнининг интерсубъективлиги ҳақида гапириш ўринлидир.

Қонунчилик амалиётида матнни тушуниш моҳияти ҳақидаги масала энг муҳим ва мураккаб муаммолардан биридир. Шу сабабли тушуниш жараёнини бирор бир ягона йўналиш асосида ўрганиш мумкин эмас. Тушуниш жараёнига диалектик муносабат унинг йўналишларини кенгайтирилишини ҳамда тушунчанинг ташкил топишини тарихий аснода диахроник ўрганишни талаб қилади.

Тушунишнинг таърифи нисбатан қисқа бўлиб, бу таъриф тушунишнинг бошқа соҳалардан – онг, тафаккур, билим кабилардан фарқини аниқлашга қаратилган. Юқорида айтилганлар асосида тушунишнинг қуйидаги йўналишларини белгилаш мумкин.

Тушуниш – матн мундарижасининг ички алоқаларини англаб етиш жараёни;

Тушуниш - матннинг мантиқини англаб етиш жараёни;

Тушуниш – матнда шаклланган ўзга инсонларнинг ички ҳис-туйғулари, фикри ва қарорини тушуниб етиш;

Тушуниш – билимга интилиш, билимни ишлаб чиқиш;

Тушуниш – матнда муаллиф онг ҳаракатлари манзараларини қайта тиклаш.

Ҳуқуқшуносликда герменевтик метод юридик матнларни турли интерпретацияси орқали ижтимоий тафаккур қирраларини очиш ва умуман қонунчилик ҳужжатлари матнини турли усулда англаб етиш усули ҳисобланади.

Биз қуйида қонунчилик матни турли талқинлари орқали ижтимоий тафаккур қирраларини очиб бериш ва бу борада эътиборга олиниши лозим бўлган лингвопоюридик масалалар ҳақида фикр юритамиз. Академик В.В.Виноградов ўзининг “Бадиий проза тили” китобида адвокат Стеблевнинг қандай қилиб суд жараёнида жиноий иш сифатида кўрилаётган материални қаҳрамонликка айлантириб юборган адвокатлик нутқини таҳлил қилиб беради. Адвокат тақдим қилинган айбловдаги сўзларнинг маъно ва моҳиятини ўз ва кўчма маъноларида шундай таҳлилдан ўтказадики, унинг нутқи орқали воқеа-ҳодисалар ривожи тамомила янги тус олади. Давлат жиноятчиси сифатида суд залига олиб кирилган шахс суд ҳайъати ва омма олдида халқ қаҳрамонига айланади. Адвокатнинг халқ тилини мукаммал билиши ва тақдим қилинган материал матнини турли трансформациясини ярата олиш маҳорати ишга тамомила янги муносабатни шакллантиради. Бу ҳол унинг герменевтик услубни мукаммал эгаллаганлиги орқали юз беради.

Герменевтик трансформацияда халқ тилидаги оддий сўзлар образли тилда мавзу ва моҳият, шунингдек, услуб ва ғоя йўналишида мотивлашади. Мотивлашмоқ шундан иборатки, сўз мавзу, моҳият, ғоя ва услуб талаби натижасида янги, баъзи ўринларда ўзининг бирламчи маъносига мос келмайдиган кўчма маънолар касб этиши ёки услуб талаби билан шакл ўзгаришига учраши демакдир. Мотив французча сўз бўлиб, «мелодия», «хиргойи» маъноларини англатган. Берилган матн сюжети, мазмуни ва ғоясини англаб етишга хизмат қиладиган майда деталлар мотив вазифасини ўтаган.[1]

Юридик матнда сўзнинг мотивлашуви унинг энг муҳим луғавий хусусияти ҳисобланади. Мотивлашув ғоя талаби билан сўзнинг шаклида ҳам ўз аксини топиши мумкин. Хусусан, айрим ижтимоий гуруҳлар айрим

1 Словарь литературоведческих терминов. – М.: 1974. стр.226-227.

сўзларни турли шакл ва маънода, ўз табиатига мос равишда қўллайдилар. Масалан, рус тилида денгизчилар «мичман»нинг кўплигини «мичманы» деб эмас (адабий шаклига мувофиқ равишда), балки «мичмана» (русча женский родда) дейишади ва бу шакл фақат денгизчилар тилидагина учрайди. Шунингдек, мумтоз адабиётда ва ҳозирги замон шеъриятининг аруз вазнларидаги жанрларида «кўз» ўрнида «чашм», «кўз ёши» ўрнида «ашк», «соч» ўрнида «зулф» ва бошқаларнинг қўлланиши ҳам поэтик талаб билан бадиий мотивлашиш натижасидир. Айнан шу ҳодиса сўз маъноси трансформацияси учун база вазифасини ўтайди.

Сўзлардаги мотивлашув унинг техник ва жонли маънолари ўртасида ҳам пайдо бўлади. Матн мазмунидан келиб чиққан ҳолда ҳар бир сўз янги, оригинал маъно, оригинал шакл касб этади; сўзнинг шакл парадигмалари ҳам маънонинг кенгайишига ёрдам беради. Сўз шакли доимо мотивлашиш учун манба бўла олади. Масалан, «келдингизми» сўзини «келдингизму» шаклида талаффуз қилиш унга руҳий-эмоционал бўёқ ва янги маъно бахш этади.

Мотивлашиш бу – сўзнинг бошқа бир сўзга тобе бўлиши демакдир. Берилган матнда инсон (у қайси миллат вакили ёки қандай вазифа эгаси, умуман ким бўлишидан қатъий назар) руҳий оламининг парадигмалари очиб берилади. Албатта, бу ўринда инсон «мен»и образларга сингиб кетади, асарда. Шу боис кўп ҳолларда образлар руҳий ҳолати муаллиф руҳий ҳолати билан тенглаштирилади.

Муаллиф образли, тасвирий тил қўллаш жараёнида ўз фикрларини ўхшатишлар, образлар билан ифодалайди, бу борада янги, қандайдир ниқобли тил яратади, яъни ўзининг «мен»ида туғилган фикрларни тамомила бошқа-бошқа воқеа-ҳодиса ифодасида шакллантиради. Матннинг трансформациясини таъминловчи восита ҳам ўша ниқобли тилдир. Унинг замирига ўхшатиш, қиёслаш, муболаға ва шунингдек, иборавийлик ҳам кириб кетади.

Ниқобли тил уйғунликни талаб қилади, аниқроғи уйғунликни тасвирлайди. Дунёдаги воқеа - ҳодисаларнинг тенглиги сув юзасининг

тенглиги билан ўлчанади. Чунки сув юзаси ҳеч қачон паст ёки баланд бўлиши мумкин эмас. Айнан шу ҳол борлиқдаги нарсаларнинг тенглигини таъминлайди. Бинобарин, инсон ва унинг онгидаги ҳуқуқий бирлик ва тенгликни ҳам шунга қиёслаш мумкин. Қуруқликдаги тоғлар, адирлар ва ўрмонлар нисбий ҳолатда тенгликни бузадилар. Яна маълум муддат ўтганидан кейин қутбларда музлар эрийди, сувга айланади. Борлиқ, ер устидаги барча нарсалар яна сув остида тенглашади. Ижтимоий фалсафа яратилиши учун мотивлардан бири шу ерда очилади. Жамиятда ирқий ёки ижтимоий дискриминацияни инкор қилиш учун асос-мотив мана шу тенглик ғояси замирида ётади.

Ғояни амалга оширишга сўз бирламчи сабаб бўлди. Ғоя сўзда ўз шаклига киради, алоқа воситаси сифатида моддийлашди. Ғоя кўп ўринда хусусийлигича қолади. Матнда ғояни юзага чиқарувчи тил шаклларини излаш ва топиш ҳам муҳим вазифа ҳисобланади. Хусусан, инсонпарварлик, ватанпарварлик, дунёнинг фонийлиги, ҳуқуқий муносабатлар мутаносиблиги каби қатор ғоялар юридик матнда ғоя тилининг шакллари ҳисобланади. Муаллиф ғояни шаклга мувофиқ танлаш жараёнида мазмун ва шакл мувофиқлигига интилади.

Бу ўринда ҳисобга олиниши керак бўлган яна бир ҳолат бу – матн мазмунининг ғоя тилига муносабати. Айнан матн мазмуни ғоя тилини аниқлаш, белгилашга хизмат қилади. Аниқроғи, ғоя тили матн мазмунидан келиб чиқади. Илмий матнда тилдаги сўзлар, уларнинг мавжуд маъно ва шакллари иштирок этади. Муаллиф тилда йўқ сўз, воқеа-ҳодисани ёки маънони четдан келтириб тилга киритмайди. У ўша мавжуд воқеликдан фойдаланади. Бироқ, бу воқелик муаллиф, у яратган матн тилида ўзига хос оҳанг, ритм ва шакл билан янграйди.

Бу борада Эдгар Понинг матн ижоди ҳақидаги фикрлари муҳим ўрин тутади: «Матн трансформацияси учун энг муҳим икки ҳолатни қайд қилмоқ лозим: буларнинг биринчиси бу – мураккаб ассоциация ва комбинацияларнинг маълум бир салмоғи, иккинчиси эса, сингдира олиш

маҳорати, яъни кўзга кўринмас ва ноаниқ ҳолатларни онгнинг ички ҳаракати орқали атрофдагиларга сингдира олиш маҳорати».[1]

Юридик матнда тасвирий воситалар, сўзларнинг кўчма маъноли қўлланиши муаллифнинг мақсадини, қонунчиликка олиб кирмоқчи бўлган ғоясини тингловчига етказиб беришга хизмат қилади.

Ана шундай сўзлар воситасида муаллиф қонун матнининг маъноси, ғоясини атрофдагиларга етказиб беради, унда тасвирланаётган воқеа-ҳодисага уларнинг муносабатини уйғотади. Бусиз умуман герменевтик трансформация ғояси ҳақида гап бўлиши мумкин эмас. Юридик матнда ишлатилаётган сўзларнинг бир хили бетараф ҳолатда бўлса, иккинчи бир хиллари нутққа экспрессивлик, эмоция бериш учун хизмат қилади. Албатта, нейтрал қимматга эга бўлган сўзлар ҳам контекст, махсус интонация ёрдамида нутққа экспрессивлик киритиши мумкин. Тил (сўз) – ҳар қандай фактнинг, ҳар қандай фикрнинг либосидир[2]

Юридик матн тилида қўлланган сўз, иборалар, фикрлар, ғоялар қабул қилинган информациялар фикр таҳлили орқали ўрганиш, синтез қилиш орқали рўёбга чиқар экан, худди шу ҳолат тингловчи воқеа-ҳодисанинг янги рангларини, ғояларини, маъно-моҳиятини англашга чорлайди. Шу орқали тингловчи – инсон борликдан, борлиқ ҳақидаги тушунчасидан янги ҳолат, янги белги топади, бинобарин, дунёқарашини - олам, дунё, ҳаёт, борлиқ мавжудлиги ҳақидаги тушунчаларини кенгайтиради.

XIX аср ўрталарида Англия адабиёти вакили Шарлотта Бронте «Жен Эйр» романи ҳуқуқий герменевтикани шакллантиришда ва унинг тушуниш имкониятларини яратишда муҳим роль ўйнайди. “Жен Эйр» романи жамиятнинг фаол аъзоси сифатида ёш қизнинг ҳаётда ўз ўрни учун олиб борган кураш йўли тасвиридан иборат. Ота-онасидан эрта етим қолган ёш қизча Жен Эйр ўлиб кетган амакисининг беваси хонадонида қолади. Мамлакатда тақчиллик ҳукм сураётган бир вақтда бегона оғизни ёқтирмаган момо етим қизни дастлаб турли кийноқларга солади, кейинчалик етим

1 Қаранг: Арнаудов М. Психология литературного творчества. –М.: 1970. стр.408.

2 Абрамович Г.А. Введение в литератураведение. –Т.: 1953. стр. 97.

қолган қизлар пансионига бериб юборади. Жен Эйрни олиб кетишга келган пансион бошлиғига уни ниҳоятда салбий фикрлар билан таърифлайди. Шу боис пансионга келган ёш қизчани бошлиқ Брекенбриж ҳамманинг олдида стол устига чиқариб шарманда қилади, атрофдагиларни унга нисбатан ниҳоятда қаттиққўл ва совуқ муносабатда бўлишга чақиради.

Яқин қариндошларидан ажралган, бегона жойда аянчли аҳволда ёлғиз қолган ёш қизча аламини ичига ютади. Узоқ йиллик таълим даврида минг турли азобларни бошидан кечиради. Мамлакатда юқумли касаллик тарқалганда пансионатнинг жуда кўп тарбияланувчилари оғир шароитда юпун қолганликлари сабабли ҳалок бўладилар. Тақдир экан, Жен Эйр тирик қолади. Пансионни тугатгач, борадиган жойи бўлмаганлиги сабабли шу ерда гувернантка вазифасида ишда қолади. Бироқ у тақдир берган ҳаёт билан қониқадиган қиз эмасди. Шу боис ўз келажагини яратишга интилади. Газетага эълон беради, пансиондан ташқарида иш топади. Мистер Рочестернинг қалъасида унинг боқиманда қизига гувернанткалик қила бошлайди.

Айнан шу ердаги ҳаёт унинг тақдирига янги чизгилар солади: бахтини топади, оилали, фарзандли, жамиятнинг олди бўлган давлатли аёлларидан бирига айланади. Бир сўз билан айтганда юқори табақа кибор аёллар қаторига киради. Бироқ бу кунларга етгунча унинг бошидан кечирган кунлари қисқа қилиб айтганда итнинг ҳам бошига тушмасин.

Шарлотта Бронтенинг бу асари Англия XIX аср ўрталаридаги жамият ҳаётининг реал манзараларини яратган бўлса-да асарнинг иккинчи бир қирраси инсон шахси, унинг хатти-ҳаракати ва қалб манзараларини унинг ўтмиши, хотиралари, руҳий-психологик аураси билан мутаносибликда ўрганишни тарғиб қилади. Зотан, адиба ўз романида нафақат инсон фожиали тақдирининг бахтга айланишидаги реал ижтимоий руҳни, балки бундай бахтга эришиш жараёнида инсоннинг ўзидан талаб қилинадиган индивидуал сифатларни ҳам кўрсатиб бера олган. Жен Эйр талантли, санъат ва адабиётни тез ва мукаммал ҳис қиладиган истеъдод соҳибасигина эмас, балки тиришқоқ меҳнаткаш, сабр-бардошли, энг муҳими атрофдагиларни

тўғри тушунадиган, меҳрибон, ғамхўр инсон ҳам эди. Шу боис унга қанча зулм ўтказганликларига қарамасдан момосининг фарзандларини оғир кунларда ташлаб қўймади, уларга ёрдам қўлини чўзди. Айниқса, ўзининг орзусига эришиб ўгай опа-сингилларини топганида улар билан ўз бахтини бўлишишга шошилди.

Севган кишиси мистер Рочестер ногирон бўлиб, кимсасиз оғир аҳволда қолганида ҳам уни ташлаб кетмади, муҳаббатига содиқ қолди. Унга фарзандлар туғиб берди, уни бахтли инсонга айлантирди, жамиятга қайтарди.

Матн мутолааси, мутолаадан олинган таассурот таҳлили мураккаб жараён. Матн таҳлили жараёнида, аниқроғи унинг ўзлаштирилиши мобайнида таҳлилнинг энг муҳим бўғини асар мўлжалланган китобхоннинг интеллектуал тайёргарлиги. Яъни, китобхон томонидан матнни қамраб олиш имкониятлари.

Бу ўринда унинг илмий-ижодий менталитети, масъулияти, ижодий салоҳияти, ҳаётий тажрибаси, матн ёзилган тил хусусиятларидан хабардорлик даражаси, матн ёзилган тилни эгаллаб турган миллат менталитети, миллий қадриятлардан хабардорлиги, умуминсоний қадриятлар, фалсафий тафаккур қоида ва ғояларини ижодий қабул қила олиши каби мураккаб хусусиятлар муҳим роль ўйнайди. Жен Эйр қиссаси бахт калити сабр-тоқат ва бахтли ҳаёт учун курашда, ундан-да муҳимроғи эса, покиза инсоний туйғулар, ўзаро муҳаббат ва самимий муносабатларда эканлигини жонли мисолда кўрсатиб бера олган.

Юридик герменевтика ғоявий хусусиятлари юзасидан олиб борилган қисқа тадқиқот якунида айтиш лозимки, қонун матни ижод маҳсули сифатида инсон онгининг ҳали илғанмаган қирраларини, маъно ва моҳиятларини аниқлашга хизмат қилади. Матннинг трансформациясига мувофиқ равишда янги фикр, янги ҳолатни, умумий қилиб айтганда янги ғояни яратади. Янги ғоя инсон ҳуқуқий тафаккури тараққиёти орқали жамиятга ўтади, инсон руҳий малакасини ҳосил қилади. Руҳий малака маълум шаклларда кўникмага

айланади. Кўникма эса инсоннинг дунёга, жамиятга муносабатини тубдан ўзгартиради, уни янги, тарбияланган инсонга айлантиради. Бу ўринда энг муҳим восита реал матн мутолааси, унинг трансформациясини ҳаққоний талқини ҳисобланади. Ҳаққоний талқин эса герменевтиканинг асосида ётади.

Адабиётлар:

1. Тисельтон Э. Герменевтика. – Черкасси: 2008.

2. Михайлов А.А. Современная философская герменевтика. –Минск: 1984.

3. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. –Москва: 1986.

4. Шпет Г.Г. Герменевтика и ее проблемы//Контекст. Литературно-теоретические исследования.-Москва:1989-1992.

5. Султонов И. Адабиёт назарияси. –Тошкент: 1982.

6. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: 1968.

O‘TKIR HOSHIMOVNING “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANIDA BADIIY PSIXOLOGIZM

E.S.Achilova,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
II kurs magistranti.

XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek nasrida O‘tkir Hoshimovning munosib o‘rni bor. U nasrda Abdulla Qahhor, Said Ahmad an’analarini davom ettirib, nasrimizda alohida, o‘ziga xos poetik uslub egasi sifatida tanildi. O‘tkir Hoshimovning roman, qissa va hikoyalarida so‘z san’atining azaliy va bosh muammosi-inson taqdiri va qalbining badiiy tahlili mavjud. Adibning “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol”, “Nur borki soya bor”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki karra ikki - besh” kabi asarlari

xalqimiz ko‘ngil mulkidan joy olgan.

Yozuvchi asarlari orasida istiqlolga erishganimizdan so‘ng yozilgan “Tushda kechgan umrlar” romani alohida o‘rin tutadi. 80-yillarning o‘rtalarida O‘zbekistonda markaz tomonidan “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” nomlari bilan poraxo‘rlikka qarshi kurashish, unga barham berish niqobi ostida, aslida esa, “siyosiy tozalash” ishlari olib borildi. Sho‘rolar davrida har o‘n yilda mana shunday “tozalash ishlari” olib borilgan. 80-yillar o‘rtalarida Moskvadan kelgan X.Gdlyan, I.Ivanov boshchiligida olib borilgan “O‘zbeklar ishi”da minglab o‘zbeklar qamoqqa olindi. O‘zbekistonga markazdan minglab mutaxassislar ko‘chirib kelindi. Xalqni qullik asoratida saqlab turish uchun bor imkoniyatlar ishga solindi. Shuni ta’kidlash lozimki, sobiq ittifoq boshidanoq soxta edi. Unga Respublikalar majburan birlashgan edilar. Sho‘rolar tuzumining qariyib yetmish yillik hukmronligi davrida to‘planib qolgan muammolar saksoninchi yillarga kelib yuzaga chiqa boshladi. Endi ittifoqni kuch bilan boshqarish mumkin bo‘lmay qoldi. Mixail Gorbochev hukumat tepasiga kelgach, to‘planib qolgan muammolarni hal qilish uchun “Qayta qurish” siyosatini o‘tkaza boshladi. Stalin davridagi qatag‘onlar butun ittifoqni qamrab olgan bo‘lsa, qayta qurish davrida qatag‘on buluti faqat birgina millatni badnom etdi . “Paxta ishi”, “O‘zbeklar ishi” degan soxta uydirmalar o‘ylab chiqarildi. Maqsad ittifoqda avj olib ketgan boshboshdoqlik, qo‘shib yozish, korrupsiya kabi muammolarni O‘zbekiston misolida bartaraf etishga kirishildi. Asar nomi ham bejiz bunday tanlanmagan. Adib 70 yil davomida mudroq holatda bo‘lgan, uyquda hayot kechirgan millatning ijtimoiy, ma’naviy holatiga ishora beryapti. Asarda ko‘p yillar kommunistik ahdiga sodiq yashagan Rustamning otasi tuhmat bilan qamalgandan so‘ng, o‘g‘liga yozgan xatida aytadi: “O‘ylab qarasam o‘tgan umrim – umrmas, tush ekan. Go‘yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirgan-u tush ko‘rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko‘rib, o‘sha “birov” qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman... uyg‘onishga esa qo‘rqqanman. Mana endi, uyg‘onib, yonverimga qarasam, menga o‘xshaganlar ko‘p ekan.” Bu so‘zlar o‘zi yashab turgan tuzumning adolatsizliklarini ko‘rgan, nohaq jabr tortgan raisnigina emas,

roman personajlarining barchasiga, ular timsolida esa minglab jabrdiydalarga ham tegishli. Ular bu qo‘rqinchli tushdan uyg‘onib amin bo‘ladilarki, ular ishongan g‘oyalar puch, bir umr e’tiqod qo‘yganlari sarob bo‘lib chiqdi. Adib bu tuzumning va unga ishongan odamlarning taqdiridagi ma’nisizliklarni shu tarzda ochib beradi. Romanda insonlar taqdiri orqali mustabid tuzumning g‘ayriinsoniy mohiyati ochib beriladi.

Asarda ijtimoiy muhit ta’sirida xarakteri shakllangan Soat G‘aniyev obrazi juda haqqoniy tasvirlangan. Uning xarakteridagi bo‘yin egmaslik, cho‘rtkesarlik, shafqatsizlik bolaligidayoq mavjudligini voqealar tasvirida ko‘ramiz: “Ha-a, komissar! Qani, bir g‘ayrat qil-chi, ko‘ramiz suvga teskari suzish qanaqa bo‘larkan! Soat tag‘in oqimga qarshi suzishga tushdi. Bora-bora qo‘llaridan mador ketganini, oyoqlari uvishib qolganini sezdi. O‘z yo‘liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini idrok etdi. – Eshitib qo‘yinglar! - dedi Soat alam aralash g‘azab bilan. - Men komissar bo‘laman! Albatta bo‘laman! Hammangni otaman!” Bu satrlarda komissar bo‘lish orzusida yurgan, bolalikning beg‘ubor damlarini o‘z boshidan o‘tkazayotgan Soat G‘aniyevning xarakteridagi xususiyatlar ifodalangan. Darhaqiqat, asarda Rustam, Qurbonoy, Komissar, Sanjar, Shahnoza, Grishalarning taqdiri bir ipga tizilgandek, go‘yo. Yozuvchi “Tushda kechgan” umrlar romani orqali urush oqibatida inson ruhiyatida qanday g’alayonlar ko‘tarilganligini ko‘rsatgan. Jumladan, Rustam va Shaxnozaning Qatortoldagi qo‘shnisinikida bo‘lgan to‘y sahnasi o‘zbek millatiga xos ruhiy sifatlarning namoyon bo‘lish ko‘lami va teranligi jihatidan oldingi romanlardan aslo qolishmaydi. Romandagi to‘y epizodida orsizlik, qo‘rqoqlik singari tuban ma’naviy sifatlar milliy belgilar tarzida namoyon bo‘ladi. Yuzlab odamning birgina kelgindini andishasizligi oldida indamay bo‘yin egib turishi tasviri, yuraksizlik, o‘zbekdan qo‘y-odamlar tarbiyalashda yuksak natijaga erishganligining yorqin dalili bo‘lgan degan gaplar bor!”, - deya o‘zini oqlaydi. Davrning bo‘ronlarida, mustabid tuzumning taloto‘plarida aynan o‘zbek millatining necha minglab farzandlari qurbon berilgani tarixiy faktlardan bizga ma’lum. Asardagi ana shu davrning, tuzumning eng katta qurboni ham Qurbonoydir. Qurbonoy-o‘zbek

ayollarining timsoliga o‘xshaydi. Unda haqiqiy o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan andisha, mehr-oqibat, iymon, pokizalik saqlanib qolgan.To‘g‘ri, uning ismi haqida asarning bir o‘rnida to‘xtab o‘tiladi. Bu Komissar navbatdagi “tozalash”ni o‘tkazayotgan paytda, Qurbonoylarning uyida yapon rezidentiga yozilgan xatni tintish jarayonida yuz beradi. “Qurbonoy emish! Xo‘p topibsanmi, qizingni otini! Demak, Qurbon hayitida tug‘ilgan. Maktabda o‘qituvchilik qilasan, uyingda Qur’on o‘qiysan. Ilon! Munofiq!” Qizaloq onasini quchoqlab turar, chamasi dadasining oldiga uchib borib bo‘yniga osilgisi kelar, ammo notanish “amaki”dan qo‘rqar edi.” Bu o‘rinda yozuvchining niyati o‘sha davrda dinga, diniy marosimlarga munosabat qanday bo‘lganligini ko‘rsatish uchungina Qurbonoy ismini tanlaganligi biroz haqiqatdan chetroq tuyuladi. Albatta, biz ta’kidlagan fikrlarni yozuvchi o‘ylagani aniq. Biroq, menimcha, Qurbonoy obrazi asarda davrning eng katta qurboni sifatida gavdalanadi. Holbuki, u go‘dakligidan boshlab qancha-qancha siyosiy zug‘umlarni ko‘rgan, bobosidan, otasidan va so‘ngida onasidan ayanchli holda ajragan edi. Bu voqealar, zug‘umlar uning yuragini olib qo‘ygan edi. Shuning uchun ham u taqdirga tan bergan, yozig‘ida nimaiki bo‘lsa, xudodan ko‘rguvchi edi. Bir qaraganda Qurbonoy obrazi asarda biz istaganchalik vazifa bajarmayotgandek tuyuladi. Uning asar bosh qahramoni Rustam bilan bir “dom”da istiqomat qiluvchi farrosh ayol ekanini bilamiz. Qurbonoy o‘rniga boshqa obraz kiritilsa yoki umuman kiritilmasa ham bo‘ladigandek. Biroq, gap bunda emas, Qurbonoy bilan Rustam o‘rtasidagi munosabat unchalik chuqurlashmagan bo‘lsa-da, davr muhiti, tuzum kishilari haqidagi xulosalarimizning yana ham quvvatliroq bo‘lishida Qurbonoy obrazining o‘rni kattadir. Chunki, uning taqdiri, o‘tmish fojiasi bevosita Komissar bilan bog‘liqdir. Komisar esa, necha minglab qurbonoylarning boshiga yetgan jamiyatning “qo‘li” hisoblangan. Komissar xarakterining to‘laqonli ochilishida Qurbonoy obrazining roli kattadir. Komissar Qurbonoyning butun umrini, yoshligini poymol qilgan shaxs. Otasi, To‘lagan akani tuhmat bilan qamatib yuboradi. Onasi Fotimani ham nomusiga tegib, uning umriga zomin bo‘ladi. Lekin Qurbonoy bularning hech qaysiga javob qaytarmaydi. Hammasini Hudoga soladi. Komissar Sovet hukumatining

manqurti butun umr kommunizmni quraman deb yashaydi. Davr, ijtimoiy muhit shunday ediki, hattoki, ta'riflab berish mushkul bo'lgan darajada, kishilar e'tiqodi "dogma" holatiga keltirilgan edi. Komissar ham ana shunday e'tiqodi qotgan, o'zi uchun qat'iy normalarni yaratib olgan-"prinsipial" kimsa edi. Uning ruhiyat olamiga, psixologik va ma'naviy qiyofasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zgalar fikrini tan olmaydigan, o'z fikrida "sobit", o'zini jamiyatning eng kerakli ustuni, ya'ni uni "yot unsur" lardan tozalovchi kishi deb biluvchi kimsa ekanini bilib olamiz. U hech kimga ishonmaydi, hattoki farzandlari, xotini, yaqinlariga ham. Roman so'ngida komissar hayoti poyoniga yetib qolgan bo'lsada, biroq u, shu umri davomida shaxs sifatida shakllanmadi, balki sho'ro mafkurasining "maxsus odami" sifatida yashab o'tdi. O'tkir Hoshimovning badiiy niyati ham o'tish davri, ya'ni asrimizning 80-90-yillari hayotini Rustam, Shahnoza, Komissar, Qurbonoy va boshqa obrazlarning taqdirlari, afg'on urushining ayanchli oqibatlari, "O'zbek ishi" tufayli minglab halol, mehnatkash kishilar tuhmatlar bo'ronida qolib, poraxo'rlikda yoki pora berishda ayblanganliklari, inson erkini bo'g'uvchi, shaxsiyatini poymol qiluvchi, barcha huquqlaridan mosuvo etuvchi jamiyat millionlab kishilar boshiga ham ruhiy, ham jismoniy qiynoqlar solganini haqqoniy suratda ko'rsatishga qaratiladi.

O'zining minglab kitobxonlarini topgan O'tkir Hoshimov asarlari nafaqat o'zbek xalqi, balki qardosh xalqlarning ham sevimli yozuvchisiga aylangan. Biz uning kitoblarini o'qiganimizda ijodi xalq hayoti bilan naqadar yaqin ekanligining guvohi bo'lamiz. Uning yozganlari afsona, ertak ham emas, sof haqiqat. Kitobxon unda yo otasi, yo akasi va yo yaqin kishisi bilan uchrashadi. Olamdan nom-nishonsiz o'tib ketgan ammo shon-sharaf bilan yashagan kishilar ko'z oldimizga keladi. Ularning quvonchlaridan ko'nglimiz ko'tarilsa, g'amu-alamlaridan ko'zlarimizdan duv-duv yosh to'kiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov O'. Tanlangan asarlar IV. Roman, qissa, hikoyalar, hajviyalar, tarjimalar o'ylar. – T: Sharq, 2011

2. Hoshimov O'. "Tushda kechgan umrlar" romani. G'.G'ulom nomidagi

Adabiyot va san’at nashriyoti.- T: 2002

3. Achilova E. O‘tkir Hoshimov asarlarida badiiy psixologizm muammosi. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 5. www. xtjurnali.zn.uz.

4. *w.w.w. ziyonet uz.*

5. w.w.w. literature.uz.

6. w.w.w ziyouz.com

SHE’RIYATNING UYG‘OQ RUHI
(Rauf Parfi poetik olamida ijtimoiy ruh va hissiy manzaralar tahlili)

Muhammadqodir Toshpo‘latov,
Jizzax davlat pedagika instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Yulduz Karimova, JDPI dotsenti, f. f. n.

O‘zbek adabiyotining novator ijodkorlaridan biri, hassos ijodkor Rauf Parfi – O‘zturk o‘z ijodi bilan milliy she’riyatimizda yangi o‘zan ochgan betakror iste’dod sohibi edi. Shoir she’riyati mavzu jihatidan rang-barang, fikran teran, u hissiy kechinmalar, falsafiy mushohadalarga boy, o‘quvchini ham intellektual, ham ruhan yuksaltirishga xizmat qiladi.

Rauf Parfi ijodining asosiy mavzu ko‘lami xususida shoir, tadqiqotchi Behzod Fazliddin shunday fikr yuritadi: *“Shoirning to‘ng‘ich she’rlari intim lirikaning nodir namunalari bo‘lsa, keyingi ijodida falsafiy-intellektual yo‘nalish ustuvorlik kasb etdi. “Yomg‘ir yog‘ar…”, “Qanday go‘zal, qanday lojuvard…”, “Kunduz o‘yga cho‘mar..”, “Dilgir musiqa oqardi…”, “Bul xafa kecha kechar…” kabi avvalgi she’rlarida tuyg‘ular, ehtiroslar daryosi to‘lib-toshib mavj ursa, 80-yillardan boshlab asarlarida bezovta ruh, tafakkur tug‘yonlari yetakchilik qiladi”* [2;40]. Rauf Parfi o‘z shoirona oliy tafakkuri bilan yuksak insoniy qarashlarini , millat kishisining o‘y-xayollarini, orzu-armonlarini an’anaviy shakl-uslublarda ham, modern she’riyatning yangicha uslublarida ham ifoda eta bilgan.

U o‘z lirikasida intimlikka ijtimoiy mazmunni shu qadar payvand qiladiki, ularni bir-biridan ajratish mushkul.

Shoir ruhiyat manzaralarini suratlantirar ekan, uning lirikasida intimlik dunyo hodisalaridan mazmun qidirish, xatti-harakatlar taftishi, ozurdajon tug‘yonlari ifodasi bo‘lib maydonga keladi. Shu bois Rauf Parfi o‘z ko‘ngil holatlarini yuksak badiiy mahorati, ifodadagi originalligi bilan qog‘ozga ko‘chiradiki, o‘qirmanda shoirga hissiy yaqinlik, darddoshlik paydo bo‘ladi.

Meni o‘yla, sog‘inib o‘yla,
Aytsalar-da sevgi uzilgan,
Shunday ishonchsizlik tufayli,
Xafa bo‘lma mendan – o‘zingdan,
Meni o‘yla, sog‘inib o‘yla.
Yolg‘iz meni o‘yla intizor,
O‘ylaringda men yashay yakka,
Chunki sevgi atalgan azob
Qodir emas toq yashamakka –
Yolg‘iz meni o‘yla intizor [4;54].

Shoirning o‘z “men”iga murojaati o‘laroq yozilgan bu she’rda lirik qahramon o‘y-xayollarida hazinlikdan, o‘zni sevmoqlikdan umidsizlantirgan ishonchsizlikdan yozg‘irish, ham bu jonni intizor kutmoqqa, uni o‘ylamoqqa chorlov bor, da’vatkor ruh yetakchi. Lirik qahramonda (shoirda!) “men”ning xayollarini band etish istagi mujassam. Ifodaning ta’sir kuchi yana shundaki, u yakka o‘zining – “men”ining o‘ylarida yolg‘iz xayollangisi, tanho yashagisi keladi. Sababiki, *“sevgi atalgan azob”* toq yashamoqqa qodir emas – bu dard doim qaysidir ko‘ngilni o‘ziga sherik qiladi. Shoir aytadiki, ruhda ma’naviy yolg‘izlik emas, moddiy birlik bo‘lishi kerak.

Rauf Parfining “Yurak” she’ri ham nozik ichki tuyg‘ularning latif talqini bo‘lib qog‘ozga tushgan. Yurakka qarata bitilgan bu she’rda ijodkor shaxsining qismati bo‘y ko‘rsatadi:

Aytgil, aytarmanmi bir kun, yuragim,

Aytgil, kuylarmanmi boqmay o‘zimga.

Seni jarroh kabi sovuqqon va jim.

Yulib qo‘yarmanmi qog‘oz yuziga [4;128].

O‘zbekning yana bir cho‘ng shoiri Usmon Nosir ham yurak obrazini shunday badiiylashtirgan edi: yurak – lirik qahramonning sozi, u tilni nayga hamohang qildi, nigohlar ostiga hilolni yashirdi, yana u ishqiboz. Bunda yurak ajib orzu-havaslar, hislar bilan chulg‘anganki, lirik qahramon olamga soz-u nayning xushohanglari ostida teran boqadi – u dunyoni she’riy nigoh-la ko‘ra oladi, chunki qarog‘ida go‘zallik – Oy yashirin:

Yurak, sensan mening sozim,

Tilimni nayga jo‘r etding,

Ko‘zimga oyni berkitding,

Yurak, sensan ishqibozim [3;5].

Usmon Nosir kabi dunyoni she’riy ko‘ra bilgan Rauf Parfining yozganlaridan shu narsa ayonki, yurakka nazar solmay, u bilan “hisoblashmay”, uni darddoshi *“qog‘oz yuziga” “jarroh kabi sovuqqon va jim” “yulib qo‘y…”*may asl she’r tug‘ilmaydi. Boisi “ma’lum ritmik qolip”ga solinadigan she’r ham, “qolip”ning chekidan oshib ketadigan bitik ham shu yurak tug‘yonlari, alam-dog‘laridan, quvonchlaridan dunyoga keladi.

Shoirning ifodasidagi yana bir mohirligi shundaki, u borliqni, uning hodisotlarini nafaqat shoirona, balki musavvirona teran qarash bilan his etadi. Bunda shoirni biz tabiat rassomi deb emas, sezimlar musavviri deb bilamiz: *“Insonning ruhoniy erkinligi masalasi Rauf Parfi ijodining o‘zak mag‘zini tashkil etadi. Shu boisdan ham shoir lirikasida tuyg‘ular hayotini, kechinmalar manzarasini, holat-kayfiyatlar suratini chizish alohida tamoyilga aylangan. Shu boisdan ham uni tuyg‘u-kechinmalar musavviri deyishadi”* [5;87].

So‘ngso‘z shuki, Rauf Parfi ijodi mas’ullik ehtiyojidan tug‘ilgan, uning “xaloskor”lik xizmati So‘z bilan amalga oshadi. Bu buyuk So‘zga sadoqat shoirning ma’naviy qiyofasi, asarlari badiiyatining mezoniga aylanadi. Shu bois Rauf Parfi she’riyati doim e’tirofga munosib bo‘lgan. Atoqli shoir Usmon Azimning fikrlari

so‘zimizga isbotdir: *“Rauf Parfi she’riyatga birdan ulkan shoir sifatida kirib kelgan. Va u butun ijodiy yo‘li davomida mana shunday yuqori saviyani mahkam ushlab turdi”* [1;103].

Zero, Rauf Parfi O‘zturk xalqimizning, she’riyatimizning SO‘Z bilan qurollangan uyg‘oq ruhidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azim U. Sog‘inchga aylangan dunyo (maqola). “Sharq yulduzi” jurnali, 2020-yil, 6-son

2. Fazliddin B. Rauf Parfi poetik olamiga bir nazar. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2013-yil, 3-son

3. Nosir U. Yurak, sensan mening sozim. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2017

4. Parfi R. Turkiston ruhi (saylanma). –T.: “Sharq”, 2013, 320 bet

5. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. –T.: “Fan”, 2007

АНЪАНА ВА НАВОВАРӢ ДАР АДАБИЁТИ МАОРИФПАРВАРӢ ВА ТАҶАДДУДХОҲӢ

Бозоров Иброҳим,

донишҷӯи курси 2-юми шуъбаи забон ва адабиёти тоҷики

Донишкадаи давлатии педагогии Чирчиқи вилояти Тошканд.

Роҳбари илмӣ: Қучқоров Ҳошимҷон, *омӯзгори*

Донишкадаи давлатии педагогии Чирчиқи вилояти Тошканд.

Мектеп өміріндегі демократиялық өзгерістер, ізгілендіру білім, іскерліктерді бақылау және бағалауды жетілдіруді талап етеді. Оқыту процесінде оқушылардың өзін-өзі бақылауы өте қажет. Өзін-өзі бақылау, олардың оқу бағдарламасы материалы мен игерген іскерлігі және дағдысының беріктігі жайлы ақпарат алуын қамтамасыз етеді. Өзін-өзі тексеру арқылы оқушылардың алған біліміне сенімі артады, орындаған жаттығу, есеп шығару және тәжірибе жұмыстарының нәтижесін бағалайды.

Баға - білімді есепке алу ғана емес, ол тәрбиелік құрал. Сондықтан, оқушы білімін бағалауда немқұрайлылыққа салынуға болмайды. Оқушылардың білімін, дағдыларын бағалаудан бұрын, сол берілген білімнің қабылдануын, дағдының қалыптасуын тексерген жөн. Білімді тексеру арқылы

мұғалім «Балаға не берді, бала дағдыны қалай қалыптастырды, білімді қалай қабылдады, кемшілік неде және кімнен?» деген сияқты сұрақтарға жауап табады. Бақылау - жаза емес. Бақылау мәдениетті жүруі тиіс. Бақылау процесін де мұғалім оқушыларға ерекше көңіл бөліп, ыстық сезіммен «көмектесейін» деген ниет білдіруі керек. Оқушы бір нәрсені түсінбесе оны ұрыспай, балағаттамай, өрескел мінез танытпай көмектескені жөн.

Білім тексеру мен бағалауда біраз уақытын жеке оқушыға бөліп, не болмаса жазбаша бақылау жұмыстарын кешенді талдау арқылы бағаламақ болып көп уақытын ысырап етеді. Тексеру мен бағалаудың озық технолгиялық әдіс-амалдарын ойластырып жатпайды. Бұның соңы білім бағалаудағы субъективизмге әкеліп соғады: баға оқушы мен мұғалімнің өзара қатынасына негізделеді, өзге оқушылардың білім деңгейімен салыстырыла қойылады. Мұғалімдердің арасында бағаны оқушыға қысым көрсетудің, «қорқытып тәрбиелеудің» құралына айналдырушылар да кездеседі. Ондай сабақта тыныш отырмайтын оқушыларға да «екілік» қояды. Кейбір ұстаздар бағаны қалтасынан беретіндей тым сараңдық жасайды. Керісінше, «жақсы атты» болуға, оқушы тілін табуға тырысып, «жомарт апай, ағай» атануға ұмтылатын әріптестеріміз де жоқ емес.

Сабақтың тақырыбы мен мақсатына, оқу материалының мазмұны мен көлеміне, оқушылардың дайындық дәрежесіне сәйкес, сабақтың құрылысы мен тексерудің түрлерін ұдайы толықтырып отыруды мұғалімнің өзі белгілеп, өзі таңдап алады. Сайып келгенде мұғалімдер оқушылардың танымдық іс-әрекеттерін ұйымдастырушы, ұйтқы болуда. Мұғалімдер оқушыларға берілген сабақтағы әрбір тақырып бойынша өз ойларын дамытуға, әрі ойларын ірікпей, еркін жеткізуге, батыл да тапқыр шешімдерді шығаруға, ойларын өрбітуге болатын көптеген мысалдар, теңеулер келтіру арқылы қол жеткізуге болады.

Қазіргі әлемде жүріп жатқан жаһандану процесі мектептегі білім жүйесі мен оқушыны оқытып тәрбиелеуге де өз әсерін тигізе бастады. Мектептегі берілетін білімнің салмағын арттыру осы жаһандану алапатынан сақтаудың

бірден-бір жолы деуге болады. Бұл өзекжарды мәселелер қазіргі білім беру үрдісіндегі оқушының білімін тексеруді дұрыс ұйымдастыруға байланысты орнын дәлелдейді.

1. Жаңа білімді беруде оқушылардың өз бетінше жұмысын ұйымдастыру. Оқыту процесінің қай кезеңінде қандай әдісті қолдану керектігі туралы жазылып қойған бұлжымайтын ереже жоқ, әрине. Және әдістемелік әдіс-тәсілдерді сабақ кезеңінде бөліп топтастыру мүмкін емес.

2. Білімді бекіту кезеңінде оқушылардың өз бетінше істейтін жұмыстары. Мұндай мұғалім материалдың ерекшелігін түсіндіреді де, ондағы айтылғанды оқушыларға мәтін бойынша өздері талдап, анықтауды ұсынады. Мысалы: оқушыларға өздері жасаған жоспарлары бойынша образдарға тілдік мінездеме беру тапсырылады.

3. Мұғалімнің түсіндіруінсіз оқушылардың өз бетінше жаңа білім алуын ұйымдастыру. Оқушылардың өз бетінше жұмыстары жаңа білім алуға үйретуде алдымен өз бетінше істейтін жаттығу жұмыстары ұйымдастырылады. Мұғалім баяндайтын, хабарлайтын тақырыптарды ойдағыдай меңгеру үшін оқушыларға оқитын қосымша әдебиеттерді атап, оларды қамтитын жоспар жасап көрсетеді. Осындай 1-2 жаттығудан соң мұғалім тапсырма беру әдісін өзгертеді.

4. Оқушылардың білімін қорыту, қайталау кезеңдерінде өз бетінше істейтін жұмыстарды ұйымдастыру. Оқыту процесінің маңызды бір кезеңі оқушылардың алған білімін қайталауы. Мұғалімдер тәжірибесінде қайталаудың күнделікті қайталау, тақырыптық, тоқсандық, жылдық қайталау сияқты кезеңдік түрлері бар. Бұларды «Мына тақырыпты қайталап келіңдер», «Осы анықтаманы өткен жылы өткен анықтама бойынша естеріңе түсіріп келіңдер, сыныпта қайталаймыз»-деген сияқты оқушылардың алдына ешқандай мақсат қоймайтын тапсырмалармен шатастыруға болмайды.

Ал, анық мақсат қойылмаса, өткен материалдарды қайталау түрлендіріп ұйымдастырылмаса оқушы сабақтың бұл кезеңіне қызықпайды. Дәстүрлі бағалауда - білім алушы оқытудың нәтижесінде нақтылық жоқ болатын,

сандық бағамен бағаланатын өзінің қандай баға алғанын және не үшін алғанын түсінбейтін. Критериалды бағалау – белгіленген критерийлер негізінде білім алушылардың нақты қол жеткізген нәтижелерін оқытудың күтілетін нәтижелерімен сәйкестендіру үдерісі. Білім алушыға да, ата-анаға белгілі критерийлер бойынша оқыту нәтижесін біліп отырады. Формативті бағалау оқушылардың қай кезеңде, қай бағытта екенін анықтау және одан да зор жетістікке қалай жету керектігін жоспарлау үшін қолданылады. Формативті бағалау күнделікті сабақта үлкен роль атқарады, себебі күнделікті оқу жетістіктері мен кері байланыс оқушыларға өз оқуы туралы қортынды жасауға және нәтижені жақсарту үшін керекті шешім қабылдауға ықпал етеді. Формативті бағалау оқушының әр сабақтағы іс — әрекетін бағалайды. Бұл жерде оқушының сабақтағы белсенділігі, еркін өз ойын білдіруі, сыныптастарына көмектесуі, бірлесіп жұмыс жасауы т.б.жатады.

Формативті бағалау баға қоюмен жүзеге асырылмайды. Мақтау, мадақтау, жылы шырай таныту, қолдау көрсету, ынталандыру формативті бағалаудың түрлері болып табылады. Дәстүрлі бағалау:

- жоспарлау, оқыту және бағалау бір-бірінен бөлек үдерістер;
- бағалаудың бір ғана құралы немесе стратегиясы пайдаланылады;
- бағалау тек мұғалімнің билігінде;
- оқушылардың оқу нәтижелерін есепке алу мен есеп берудің бір ғана тәсілі қолданылады;
- оқушылардың жауаптары дұрыс жауаппен салыстырылады (біледі-білмейді);
- тақырыппен жұмыс біткен кезде ғана тексеру жүргізіледі;
- бағалаудың жалғыз мақсаты – қойылатын бағаны анықтау;
- оқушылардың ағымдық білімі мен оқу тәжірибесін бағалау тақырыппен жұмыс біткен кезде ғана жүргізіледі.

Қорыта айтқанда, оқыту процесінде оқушылардың білім, білік, дағдыларын есепке алу, тексеру, бақылау және бағалау оның аса қажет құрамдас бөлігі болып есептелінеді. Мұғалімнің сабақтар жүйесінде оны

дұрыс ұйымдастыра білуі көптеген жағдайда оқу-тәрбие процесінің табысты болуының оң кепілі. Ол үшін, мұғалім оқушының оқу материалын меңгеру дәрежесін, сапасы мен көлемін үнемі анықтап отыруы тиіс. Бұл бағытта оқушылардың, сабақтар жүйесінде білім, білік, дағдыларын есепке алу, тексеру, бақылау және бағалаудың маңызы ерекше.

Пайдаланылған әдебиеттер:

1. Айсина Майра. Оқыту - білім мен тәрбие өзегі//Қазақстан мектебі. – 2006. - № 2. – 28.

2. Алдабергенова Ж.Д. Оқу әдістерін тиімді қолдана білу//Сынып жетекшісі. - № 2. – 35.

3. Айтжанова Қ. Дәстүрлі оқытудың психологиялық– физиологиялық негіздері//Қазақстан мұғалімі., 2004. – 27 б.

4. Қоянбаев Ж.Б., Қоянбаев Р.М. Педагогика/Алматы. – 2000. – 213 б.

5. Көшімбетова С.А. Оқу – тәрбие үрдісінде оқытудың инновациялық әдіс – тәсілдерін пайдалану/Алматы. Білім жолы. – 2004. – 305 б.

6. Оқалбек Ж., Бабаев С. Жалпы педагогика/Алматы. Білім.-1999. -420 б.

IJTIMOIY MUHOFAZAGA MUHTOJ BOLALAR TA'LIM-TARBIYASI HAQIDA

Berdiyorova Guloyim Dilshodxo'ja qizi,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Hozirgi yangilanayotgan jamiyatda ta'lim va tarbiyani tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Mustaqil Respublikamizda shunday ulkan vazifa hal etilayotgan bir sharoitda ta'lim-tarbiyani jahon andozalari darajasiga ko'tarish pedagog olimlar, pedagog va tarbiyachilar oldiga hal etilishi zarur bo'lgan vazifalarni qo'ymoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirish Harakatlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi, ya'ni ijtimoiy sohani rivojlantirish, ta'lim, madaniyat,

ilm-fan, sohalarini rivojlantirish, xususan, uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta’minlash, sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, shuningdek, ularni zamonaviy intelektual bilimlarga ega bo‘lgan, XXI asr talablariga javob beradigan barkamol, yetuk shaxslar bo‘lib yetishishi uchun zarur bo‘lgan imkoniyat va sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bu masala nogiron bolalar tarbiyasiga, hayotga ijtimoiy moslashuviga ham ta’luqlidir.

“Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun”da o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tamonlama yetuk shaxs bo‘lib yetishishlari muhim vazifa sifatida belgilanadi. Xususan, mazkur hujjatning 11-moddasida ushbu masalaga quyidagicha yondashiladi: “Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi”, bu esa maktabgacha ta’lim muassasasiga murakkab va ayni damda muhim vazifani yuklaydi. Shu ma’noda, birinchi Prezident Islom Karimovning xalqimizning siyosiy tafakkur xazinasiga bebaho hissa bo‘lib qo‘shiladigan “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobi barchamizni hozirgi o‘ta notinch va tahlikali zamonda doimo hushyor, ogoh va sergak bo‘lib yashashga da’vat etadi. Shu asosda “Vatanimizning yangi tarixini chuqur anglab, undan zarur saboq va xulosalar chiqarib, yurtimizning qadimiy shuhrati, bugungi qudrati va salohiyati, jahon maydonidagi obro‘-e’tiboriga har tomonlama munosib bo‘lib yashashga o‘rgatadi”.

Davlatimiz Konstitutsiyasining 41-moddasida belgilanganidek, “har kim ta’lim olish huquqiga ega”. Ushbu huquq “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun”ning 23-hamda 24-moddalarida alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar nuqtayi nazaridan ham kafolatlangan. Hozirda davlatimiz, Prezidentimiz tomonidan alohida yordamga muhtoj insonlarga ko‘rsatilayotgan e’tiborning kuchaytirilishi, hamda ularning ijtimoiy hayotga samarali adaptatsiyalashuvini ta’minlash masalasi dolzarb muammo sifatida butun respublikamizda, hamda dunyoda faoliyat

ko‘rsatayotgan tadqiqotchi, amaliyotchi mutaxassislar oldida gavdalanmoqda. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsep-siyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PFnida ham O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsad qilib qo‘yilgan va “imkoniyati cheklanganlikning oldini olish, ularni bartaraf etish bilan bir paytda ularni ijtimoiy realibitatsiya qilish, ularning ishlash muhitini sog’lomlashtirish, maxsus korreksion ishlar olib borish orqali ulardagi nuqsonlarni korreksiyalash, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish va tayyorlash kabi murakkab, ammo savobli ishni amalga oshirish hozirgi zamon talabidir”, deb alohida band ajratilgan. Yurtimizga hech bir soha e’tibordan chetda qolmayotgani yaqqol ko‘rinib turibdi. O‘zbekiston Respublikasining o‘sha vaqtdagi Xalq ta’limi vaziri T.I.Jo‘rayevning Toshkent shahrida 2006-yilning 15-noyabrida “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalar ta’lim-tarbiya muassasalarining holati va kelajakdagi istiqbollari to‘g‘risida”gi nutqida ham ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ishlar yuzasidan birmuncha murakkab va ayni damda dolzarb bo‘lgan vazifalar belgilangan. Xususan, ushbu nutqda alohida yordamga muhtoj bolalarning ta’lim-tarbiyasiga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, ko‘rsatilayotgan uslubiy hamda moliyaviy ko‘maklar ko‘lamini kengaytirish, to‘g‘ri va aniq yo‘nalganligini ta’minlash xususida so‘z boradi. 2007-yilning “Ijtimoiy himoya yili” deb e’lon qilinishi ham aynan bizning oldimizda ushbu bolalarning ijtimoiy hayotga kirishuvini ta’minlash, ularni yetarli bilimlar zahirasiga ega bo‘lgan, yetuk fuqaro, shaxs sifatida kamol topishlarini asosiy masalalar darajasiga ko‘tarmoqda.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoni jismoniy va intellektual salohiyatni talab etadi. Zero, ruhiy rivojlanishning sustlashishi bolaning savodni o‘zlashtirishida qator to‘siqlarni keltirib chiqarishi tayin. Ammo, savodga o‘rgatishda bolaning jismoniy va intellektual salomatligi, uning ruxiy kechinmalari

nutqining benuqson bo‘lishining muayyan talab etilishi alohida ehtiyojli bolalar savod ko‘nikmalarini egallay olmaydilar degan fikrni tug‘dirmasligi lozim. O‘ziga xos ravishda, ammo rivojlanayotgan bola boshlang‘ich savod zahiralarini egallash imkoniyatiga ega. Jumladan, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar ham bundan mustasno emaslar. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqidagi kamchiliklar, harakat tizimidagi keskin buzilishlar ruxiyatidagi kechinmalar savodni egallashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu muammo o‘z o‘rnida yana qator muammolar yigindisini (nutqiy, psixologik, ijtimoiy, intellektual va hokazo...) hosil etmoqdaki, ular o‘z o‘rnida ushbu to‘siqlar yechimini bir emas, balki, bir qancha aspektlar holatini ijobiy rivojlantirilishini talab etadi. Turli mualliflar, xususan, K.A.Semenova, Ye.M.Mastyukova, M.V.Ippolitova, R.D.Babenkova, N.V.Simonova, E.S.Kalijnyuk, I.I.Mamaychuk, Sh.O.Levchenko, G.V.Kuznetsovalarning fikricha, bu bolalarda bilish faoliyatini shakllantirishdagi qiyinchiliklar motorik hamda grafik ko‘nikmalarni egallashdagi qiyinchiliklar tashkil etadi. Ammo, bu qiyinchiliklarning xususiy ko‘rinishi qanday ko‘rinishda ekanligi, maktab ostonasini hatlayotgan ruhiy rivojlanishi sustlashgan bola qanday hajmdagi bilim, ko‘nikma va malakalar zahirasiga ega bo‘lishi lozim, ularni hosil qilishda qanday qiyinchiliklar, ularni bartaraf etishdagi korreksion ta’sir yo‘nalishi, mazmun hamda maqsadi nimalardan iborat bo‘lishi mavzusi doirasi kam o‘rganilib, yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лебединский В.В. Нарушения психического развитяи у детей. М., 1984

2. Стрекалова Т.А. Особенности наглядного мышления у дошкольников с ЗПР. Журн. Дефектология, №1, 1997

3. К.К.Мамедов, Ғ.Б.Шоумаров. Руҳий ривожланиши сустлашган болалар ҳақида. Т., “Ўқитувчи”. 1993

4. Шоумаров Ғ.Б., Мамедов К. “Ақли заиф болалар психологияси”. Тошкент: “Ўқитувчи”, 1998.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING O‘RNI

Ergasheva Surayyo Tulqinovna,
Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslaridan tashkil etiladigan mustaqil ta’limning turlari va uyga vazifalarni tashkil etishning ilmiy-nazariy jihatlari o‘z aksini topgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda mustaqil ta’limning o‘rni asoslab berilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirishda uyda bajariladigan topshiriqlarni tashkil etishning didaktik va metodik jihatlari chuqur tahlil etilgan. Uyga vazifalarni tashkil etishda rejalashtirish va unga o‘rgatishning didaktik shart-sharoitlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, o‘qish, ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi, uyga vazifa, topshiriq, mustaqil fikr, savol-topshiriq, faoliyat, tizimli yondashuv, matn, mantiqiy tafakkur, qayta hikoyalash, samaradorlik.

Boshlang‘ich sinflar “O‘qish kitobi” darsliklarida badiiy asar ustida ishlash uchun o‘quvchilarga matn asosida reja tuzish va o‘qilganlarini reja asosida qayta hikoyalash ko‘p taklif qilinadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarda reja tuzish ko‘nikmalari shakllanishiga e’tibor qaratishi, ular asar qismlarining mantiqiy aloqasini qanday o‘zlashtirganliklarini aniqlab borishi kerak. Odatda, o‘qituvchilar topshiriqning ikkinchi qismiga, reja asosida asar matnini qayta hikoyalatishga ko‘proq urg‘u beradilar. Shuning uchun o‘quvchilar yuqori sinfga borganda ham insho yozish uchun reja tuzishga qiynaladilar. Asar matnini qayta hikoyalash, ayniqsa, yuqori sinflarda, hatto, u ijodiy xarakterda bo‘lsa ham, o‘quvchining ma’naviyati uchun etarli manba bo‘lolmaydi. U boshlang‘ich sinflarda o‘quvchining nutqini o‘stirishi mumkin, xolos. Reja tuzishni o‘rgatishdan maqsad o‘quvchining

tasavvuri va tafakkurini uyg‘otish, uni muhimni nomuhimdan ajratishga, bilganlarini tizimga solishga o‘rgatishdir. O‘quvchilar ongini faollashtiradigan bunday ish turlari nafaqat asar matnining chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlaydi, balki ularda har qanday badiiy asarni mustaqil muhokama qilishga qodir kitobxonni tarbiyalaydi. Qolaversa, o‘quvchilar tuzgan reja o‘quv materialini ular tomonidan chuqur va mustahkam o‘zlashtirilishiga imkoniyat yaratadi va bilimlar nisbatan ongli o‘rganilishiga erishiladi.

Savol-topshiriqlar bilan ishlash bo‘yicha uy ishlari. Boshlang‘ich sinflarning “O‘qish kitobi”da taqdim etilgan adabiy matnlar ustida ishlash uchun ma’lum savol-topshiriqlar berilgan. Boshlang‘ich maktabning 3-4-sinflarida o‘quvchilarga uy vazifasi sifatida asar matni yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlarning soni to‘rttadan oshmasligi kerakligi ma’lum. Darsliklarda taqdim etilgan ayrim savol-topshiriqlar tavsiflashni talab qilsa, ba’zilari umumlashtiruvchi xarakter kasb etadi. Ayrim savollar avval o‘zlashtirilgan bilimlarni eslashga ehtiyoj uyg‘otsa, boshqasi har tomonlama o‘ylashni va tahlilni talab qiladi. Darslikdagi asar matni yuzasidan berilgan savol-topshiriqlarga uyda javob tayyorlashda o‘quvchilar ko‘pincha umumiy qonuniyatni to‘g‘ri topadilar, biroq buni o‘zlari asardan misollar keltirib asoslab berishga qiynaladilar. Ulardan nega shundayligini tushuntirish yoki aytganlarini isbotlash talab qilinganda, mazkur holatga tegishli ko‘pgina faktlarni bilsalar ham, o‘zlarini yo‘qotib qo‘yadilar. Gap shundaki, javob beradigan o‘quvchi o‘zi bilgan dalillarni, bilimlarni yangi tizimga, o‘qituvchi tomonidan belgilangan, uning savoli talab qilayotgan yangi yo‘nalishga solishi kerak bo‘ladi. Dastlab o‘quvchini aynan shu narsa qiynaydi. Keyinchalik, faktlar aniqlanib, topshiriq aqliy imkoniyati darajasidan uncha uzoq emasligi ma’lum bo‘lgach, tafakkuri faollashadi.

O‘quvchilar faoliyati mustaqilligini uyg‘otishga intilgan o‘qituvchi uyga beriladigan savol yoki topshiriqni mavzuga moslagan tarzda shakllantiradi. Shuning o‘zi o‘quvchining aqliy faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. O‘qituvchi o‘quvchini materialni shunchaki qayta bayon qilmay, qarashlarini ma’lum tayanch fikr atrofida umumlashtirishga, undan javob uchun zarurini ajratib olishga,

fikrini qolipga tushgan siyqa iboralarda emas, o‘z so‘zlari bilan bayon qilishga undaydi. Bu o‘quvchidan ma’lum hodisa sabablarini tushuntirish, fikrlarini qat’iy ilmiy-mantiqiy asoslarga qurish, voqealarni xolis baholash va kuzatganlarini umumlashtirishni talab qiladi.

O‘quvchining fantaziyasi, xayolot olami kattalarnikidan boy va keng. O‘quvchining bu imtiyozlaridan uning o‘zi uchun foydalanish kerak. O‘quvchining hayotiy tajribasi kattalarnikiga nisbatan ancha kam, atrof-muhitga munosabati ham sodda va jo‘nroq. O‘quvchini ijodkorlikka yo‘naltirish uning ruhiyatini bezovta qila oladigan, qiziqtiradigan mavzuda yozishga, eng muhimi, tuyg‘ularini, munosabatini so‘z bilan ifodalab berishga qiziqish uyg‘otilganda engil amalga oshadi. Bola ko‘pincha yozishga arziydigan salmoqli gapi yo‘qligidan yomon yozadi. Maqsad sinfdagi barcha o‘quvchilarni badiiy ijodkor qilish emas. Muhimi, o‘quvchida ijodkorlik tuyg‘usi paydo bo‘lsa, darsda o‘rganganlariga munosabat bildirishga odatlansa, unda insonlik, shaxslik kurtaklari shakllanadi. O‘quvchini faqat o‘zi yaxshi bilgan narsasi haqida yozishga o‘rgatish kerak. Yaxshi bilmagan, tushunmagan mavzu haqida yozishdan azobli narsa yo‘q. Bolaga bunday topshiriq berish unda quruqlik, yuzakilikni tarbiyalash demakdir. O‘quvchi shaxsida ijodkorlikni, bezovta, uyg‘oq qalbni tarbiyalash uchun, avvalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga, insonga kuchli qiziqish uyg‘otiladi. Bolani o‘zi yaxshi bilmaydigan, yaxshi ko‘rmagan, qiziqmagan mavzuda yozishga majbur qilmagan ma’qul. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limida uyga insho yoki bayon yozishga berilsa, o‘sha kuni o‘quvchi boshqa o‘quv fanlari bo‘yicha oshiqcha yuklamalardan halos etilishi kerak.

Mustaqil ta’limni bajarish bilan bog‘liq bunday vaziyatlarda qo‘shimcha savollar juda qo‘l keladi. Qo‘shimcha savollarning kuchi shundaki, ular avval o‘rganilgan bilimlarga tayanganidan o‘quvchilar ishini yengillashtiradi. Bu o‘rinda avval o‘zlashtirilganlarni takrorlash emas, balki o‘rganilgan bilimdan yangi yo‘nalishda foydalaniladi. Bu o‘quvchilarni yangilik qidirishga, noma’lumni aniqlashga yo‘naltiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. –T., 2019. – 32 b.

2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.

3. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –Toshkent: Kamalak, 2016. – 462 b.

4. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 368 b.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Р.М.Садыков,

преподаватель Ташкентского государственного

педагогического университет

Аннотация: В статье раскрывается использование авторских методик по развитию речи, по развитию орфографической грамотности, по развитию языковой компетенции учащихся начальных классов, для формирования лингвометодической компетентности будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: компетенция, лингвометодическая компетентность, авторские методики, методика преподавания родного языка, развитие речи, развитию языковой компетенции, учитель начальных классов.

Мировое сообщество большое внимание уделяет требованиям, предъявляемым к подготовке педагогических кадров и овладение ими языковыми компетенциями. В этой связи по всему миру запускается большое количество проектов, участие в которых позволит педагогам овладеть

профессиональными компетенциями для эффективной деятельности в образовательном поле, которое было бы невозможно без владения коммуникативными и лингвистическими компетенциями. Международный проект «Спутник» - один из многих таких проектов для преподавателей русского языка в Европе, который ориентируется на освоение педагогами лингвистических, лингвометодических, лингводидактических компетенций, развитие инновационного подхода в преподавании русского языка в Европе и мире. [1]

Современный этап развития методики преподавания родного (русского) языка в высших учебных заведениях Республики Узбекистан для будущих учителей начального образования, обусловлен поиском наиболее эффективных подходов в соответствии с реалиями современного мира и переходом на практико-ориентированный подход в образовании. Многие методы, инструменты и способы обучения, предложенные авторитетными авторами и экспертами в последнее время, сумели найти собственное место в новейших подходах к обучению родному языку младших школьников. Следовательно, для рассмотрения и дальнейшего применения современных методических концепций и теорий обучения развитию речи, правописанию и грамматике, имеет смысл дать оценку содержания и сущности методике преподавания русскому языку, сформированной за последние десятилетия. Многие идеи, средства и технологии, которые были предложены ранее уже успели доказать свою эффективность и успешность в масштабных педагогических экспериментах и массовой практике, но есть и такие концепции, такие авторские методики, которые пока еще ждут своего практического воплощения. Одними из таких методик по развитию речи, по развитию орфографической грамотности, по развитию лингвистических компетенций являются методики Л.Е.Журовой [2], О.В.Лысенко [3], С.Н.Лысенковой [4], Р.Фрейнмана [5] и др.

Л.Е.Журова в своей работе опирается на развивающие методы обучения. При проведении урока в первом классе в период обучения грамоте

Л.Е.Журова использует звуко-буквенный анализ слова с использованием развивающего обучения, делая акцент на психологическую атмосферу обучения и психологическую поддержку учащихся, позволяя детям самостоятельно находить допущенные ошибки и исправлять их. Также Л.Е.Журова широко использует на уроках русского языка опорные схемы, таблицы для формирования системности понятий русского языка.

О.В.Лысенко использует в своей работе методику интенсивного обучения, которая позволяет учить детей чтению в 7-10 раз быстрее, чем в общеобразовательных школах. О.В.Лысенко использует в своей работе такие средства обучения, как авторские развивающие карточки для чтения, авторские развивающие карточки для онлайн обучения чтению, авторские карточки со словарными словами в картинках и т.д. При этом широко применяя игровые методы обучения, что даёт возможность вести обучение в интенсивном режиме, не перегружая физически и психологически учащихся.

С.Н.Лысенкова известный педагог с большим опытом работы в данной области. Авторская методика С.Н.Лысенковой опирается на перспективно - опережающее обучение, использование опорных схем при комментируемом управлении. С.Н.Лысенкова для того, чтобы уменьшить объективную трудность некоторых вопросов программы, включала их с опережением на предварительных уроках, когда несколько минут на уроке уделяется знакомству с новыми понятиями, которые будут изучаться в ближайшем времени. Используя данную методику, учащиеся более легко усваивают новые понятия, благодаря чему ученики испытывают радость успеха в учебном процессе, что формирует в них интерес к учёбе. Например, при изучении, учащимися 4 класса, одного из сложных разделов русского языка - синтаксис, С.Н.Лысенкова предлагает упражнения, которые включают в себя работу, как по анализу синтаксических явлений, так и по их употреблению в речи учащихся, это:

- составление схем предложений;

- составление предложений по схемам;

- составление предложений указанной структуры;

- полный или частичный синтаксический разбор словосочетаний и предложений разных структур.

Выполнение синтаксических упражнений готовит школьников к овладению пунктуацией, а также рядом речевых умений. Основная цель данной методики – освоение учащимися 4 класса, грамотным письмом и речью, а так же развитие духовных способностей учащихся через преподавание родного языка.

Методику Р.Фрейнмана широко применяется для более успешного самообразования, в тех областях, где это вызывает затруднения. Эта техника обучения чему - либо и кого - либо, которая состоит из четырёх шагов. Во-первых, необходимо собрать и систематизировать весь объём информации, которую вы хотите представить аудитории, таким образом, как если бы вам надо было её пересказать ребёнку 7 лет. Во-вторых, необходимо провести работу над ошибками, если таковые имелись, ликвидировать пробелы в понимании. Вернуться к исходному материалу, чтобы лучше его понять. В-третьих, необходимо упорядочить и упростить весь объём информации. В-четвёртых, обобщите полученную информацию и представьте её аудитории.

Техника Фейнмана – это не только прекрасный рецепт для обучения, но и окно в другой образ мышления, который позволяет разбирать идеи на части и собирать их с нуля.

Необходимо сказать, что авторских методик в настоящее время большое множество, мы лишь взяли малую часть их. У каждой из вышеперечисленных авторских методик есть свои плюсы и минусы, у какой-то в большей мере, у какой-то в меньшей. На практических и семинарских занятиях по методике преподавания родного языка, студентам предлагается изучать, как современные методики, так и традиционные методики, которые применяются уже давно. При изучении материала

студентам необходимо провести анализ и синтез информации, произвести вычленение главной идеи методики, её опорных понятий. Это позволяет сформировать лингвометодическое мышление студентов с опорой на классические методические подходы, учитывая опыт авторских методик современных методистов.

Таким образом, мы можем говорить о том, что методика преподавания русского языка и развитие речи у младших школьников сумели выйти на новый уровень своего развития, значительно укрепив собственный фундамент и дополнив собственное содержание новаторскими идеями и технологиями. В основе современной методики обучения родному языку лежит точка зрения, согласно которой для овладения высокой культурой речи и навыками свободного выражения своих мыслей недостаточно знать основные правила грамматики.

Разработанная методика создания проблемных ситуаций и компетентностных задач программирует формирование лингвометодической компетенции, свидетельствующей о высоком интеллектуальном развитиии бакалавров – будущих учителей начальных классов.

Система работы с понятиями на 6-и уровнях таксономии Б. Блума позволяет диагностировать степень сформированности компетенций и судить о характере мыслительной деятельности баклавров, свидетельствующей об уровне развития лингвометодического мышления на этапе ориентировки в лингвистическом содержании и методической деятельности, что составляет основу лингвометодической подготовки бакалавров – будущих учителей начальных классов.

Использование на практических занятиях по методике преподавания родного языка авторских методик по развитию речи, по развитию орфографической грамотности, по развитию языковой компетенции учащихся начальных классов, позволяет усвоить передовой опыт обучению русскому языку, эффективность которого проверена временем и количеством пользователей данных ресурсов.

Литература:

https://www.centroruso.es/ru/proyectos-internacionales- Международный проект «Спутник»

https://www.youtube.com/watch?v=9HN5fZuS5t4&t=910s - авторская методика развивающего обучения Л.Е. Журовой.

https://www.youtube.com/watch?v=AB1bKuGUiGk-авторская методика интенсивного обучения Лысенко О.В.

https://www.youtube.com/watch?v=b0HIXG1Gic8 - техника развития речи Лысенковой С.Н.

https://www.youtube.com/watch?v=YRXFUzzUYnw-техника самообучения Фейнмана

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLIKLARIDAGI TENGLAMAGA OID TOPSHIRIQLARNING QIYOSIY TAHLILI

Yusupova Shahzoda Yunus qizi,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning algebraik bilimlari va tushunchalarini shakllantirishda ifoda, tenglama tushunchalarining o‘rni nihoyatda kattadir. O‘quvchilar tomonidan ifoda, tenglamalar tuzish va ularni bajarishga oid topshiriqlar tafakkurga yo‘naltirilgan ijodiy mazmundagi topshiriq ko‘rinishlardan biridir. Bunday turga mansub topshiriqlarni: a) tenglama tuzish b) ifoda tuzish d) tengsizlik tuzish kabilar ajratib tahlil qilinadi [1.88]. O‘quvchilarning ifoda tuzishga oid tayyorgarlik ishlari 1-sinfning boshidan boshlash yaxshi samara beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarni 10 ichida sonlar bilan tanishtirish davridayoq “raqam”, “qo‘shish” yoki “ayirish” amallari yozilgan kartochkalaradan foydalanib yig‘indini, ayimani topishga doir masalalar tuzishga ajratib boradi. 10 ichida qo‘shish va ayirish mavzusini o‘rganish jarayonida qo‘shish hamda ayirish amali

komponentlari bilan tanishayotgan davrda “yig‘indi” ayirma iboralari ma’nolari anglab olingach, o‘quvchilarni sonlar, amal ishoralari yordamida sodda sonli ifodalar tuzishga o‘rgatib borish lozim. O‘quvchilarda ifoda tuzish malakasi shakllantirgandan so‘ng ifoda tuzish biroz murakkablashtiriladi. Endi ularda ifoda tuzish emas, balki noma’lum qo‘shiluvchini topish, noma’lum kamayuvchini topish, noma’lum ayriluvchini topish kabi murakkablashtirilgan ifodalarni tuzish masalalari turadi.

Tenglama tuzish va uni yechishga tayyorgarlik ishlari 1-sinfdan boshlanadi. “Noma’lum qo‘shiluvchini topish, noma’lum kamayuvchini toppish kabi mavzularni o‘rganish jarayonida 1-sinf o‘quvchisida qo‘shish va ayirish amali hadlarni topish ko‘nikmasi tarkib topadi. 20 va 100 ichidagi sonlar uchun qo‘shish va ayirish amallari hadlarini topishga doir tizimli olib borilgan ishlar o‘quvchilarning tenglama tushunchasini o‘rganishga zamin hozirlaydi. 1-sinf og‘zaki mashqlardan tashqari darchali misollar ham tenglama tushunchasining kiritilishiga asos bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni birinchi darajali bir noma’lumli tenglamalarning ba’zi xillari yechishlari bilan tanishamiz. Birinchi bosqichda tenglamalar bunday o‘qiladi.

* +1= 4 4ni hosil qilish uchun qanday songa 1ni qo‘shish kerak?

9- *= 7 7 ni hosil qilish uchun 9 dan qanchani ayirish kerak?

Asta sekinlik bilan o‘rniga “noma’lum son” so‘zini kiritamiz . 7 + * = 15, * - 9 = 6 ko‘rinishidagi misollarni bunday o‘qiymiz.

1. 7 ga noma’lum sonni qo‘shganda 15 ni hosil qilamiz.

2. Noma’lum sondan 9ni ayirganda 6ni hosil qildik, bu qanday son? Har bir savolning javobi tanlash yo‘li bilan yoki sonning tarkibi haqidagi bilim asosida topiladi. II sinf I chorakda tenglama va x noma’lum tuhunchlari kiritiladi. Ulardan biri “x” harfidir. Endi ifodalar tuzishdan “noma’lum son tushunchasi o‘rniga darchalardan tashqari x ni qo‘yish qulayroq. Bunday yozuv hosil bo‘ladi:

5+x=8.

Bunday yozuv matematikada tenglama deyiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga aniq tushuntirish maqsadida bu tenglamani plakatda ifodalaydi. Shundan so‘ng

tenglama tushunchasini mustahkamlash uchun mashqlar beriladi. Tenglamalarni ham misollar kabi yechish kerak. Tenglamani yechish shunday sonni topish degan so‘zki, uni berilgan tenglamaga qo‘yilganida to‘g‘ri tenglik hosil bo‘ladi. Yechish og‘zaki yechish yo‘li bilan amalga oshiriladi. 2-sinfning II choragidan boshlab o‘quvchi tenglama tushunchasi bilan tanishadi. Yangi tahrirdagi 2-sinf matematika darsligida “Sonli va harfiy ifodalar. Tenglamalar” bobida tenglama mavzusiga 5ta dars ajratilgan [2.133]. Unda tenglama haqida tushuncha, uni yechish qoidasi, to’rt arifmetik amal ishtirokidagi tenglamalar, tenglama tuzishga doir og‘zaki va yozma topshiriqlar keltirilgan. Bundan tashqari, yangi tahrirdagi darslikning ijobiy jihatlaridan biri oddiy topshiriqlar o‘rniga o‘quvchini mantiqiy fikrlashga undaydigan tenglama tuzishga doir rasmli boshqotirmali topshiriqlar berilgan.

Boshlang‘ich sinflarda qaralgan tenglamalardan eng murakkablari shundaki, noma’lum son yig‘indi,ayirma, ko‘paytma yoki bo‘linma bilan ifodalangan komponentlardan biri tarkibiga kiradi. Boshlang‘ich sinfda beriladigan tenglamalarning o‘ziga xos jihati tenglamadagi ikki yoki uch amalning hammasi bir xil daraja amallaridan tuzilishidir, ya’ni bir tenglamada qavs ishtirokida qo‘shish va ayirish yoki ko‘paytirish va bo‘lish birga keladi. To‘rt amal komponentlari aralash kelgan tenglama turlari ham mavjud. O‘quvchilarning murakkabroq tenglamalarni yechishdagi taxminiy mulohazani keltiramiz. 1) (x-11) + 24= 43 tenglama yechiladi. Tenglamaning chap qismi (x-11) + 24 ifodadan iborat. Tenglamaning yechilishi taxminan mana bunday munosabatlarda olib boriladi. Qavs ichidagi ayriluvchi (11), ikkinchi qo‘shiluvchi (24) ma’lum va yig‘indi (43) ma’lum, noma’lum son birinchi qo‘shiluvchi tarkibiga kiradi. Birinchi qo‘shiluvchini topish uchun yig‘indidan ikkinchi qo‘shiluvchini ayirish kerak.

(x-11)+24=43

x-11 =43-24

x-11=19

x=19+11 x=30 ga teng bo‘ladi.

2) $x - 210 = 50 \cdot 6$

$x - 210 =$300

$x = 300 - 210$

$x = 90$

Bu kabi tipdagi masalalar boshlang‘ich sinf darsligida juda ko‘p keltirilgan. [3.169] Bu ilmiy ishimizda taklif etilayotgan metodikaning o‘ziga xos jihati shundaki, joriy metodikada tenglama mavzusi faqat 2-sinfda mavzu sifatida keltirilgan. 3-4- sinflarda esa murakkab tenglamalardan namunalar faqat asosiy darsning mustahkamlovchi yoki uyga vazifa qismida qisqacha namuna bilan berilgan.

Bu esa o‘quvchining murakkab tenglamalarni yechishga doir bilimga ega bo’lishida murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Chunki o‘quvchi darsning asosiy qismida faqat yangi o‘tiladigan mavzu haqida bilimga ega bo‘ladi va shu asosidagi topshirilarni yechish bilan shug‘ullanadi. Mustahkamlash qismiga kelganda o‘quvchining diqqati darajasi darsning asosiy qismidagi darajadan pasayadi. Bu esa murakkab tenglamani yechishga doir topshiriqni bajarishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Biz shu kamchiliklarni hisobga olgan holda 3-4-sinf matematika darslarida ham tenglama mavzusini alohida mavzu sifatida kiritishni taklif qilamiz. Fikrimizcha, 3-sinfda keltirilgan tenglama turlari 2-sinfda mavzu doirasida tushintirilgan tenglamalardan murakkabroq. Uni o‘quvchi faqat qo‘shimcha misol sifatida ishlashda davom etsa yuqori sinfda o‘rganiladigan tenglamalar mavzusini tushunishi qiyinroq kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaev M.E, “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” (OO‘Y uchun darslik) Toshkent “Fan va texnalogiya” 2005.

2. L.O’rinboyeva va boshqalar. 2-sinf “Matematika” darsligi.- Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.

3. S.Burxonov va boshqalar. 3-sinf matematika darsligi. – Toshkent: “Sharq”, 2019.

НУТҚНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ҒАРБ ВА ШАРҚ НОТИҚЛИГИНИНГ ЎРНИ

Алишер НАРМАНОВ,
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти таянч докторанти

Аннотация: Мазкур мақолада болалар нутқини шакллантиришда ғарб ва шарқ нотиқларининг фикрлари, улар берган назарий ва амалий тавсияларини ўрганиш, уларнинг нутққа оид фикрлари ва тавсияларини ўқувчи ёшларга етказиш орқали таълим тизимида юқори самарага эришиш ҳақида фикр юритилди.

Таянч сўзлар: риторика, қуръон, ваъзхонлик, воиз, оналар мактаби, ақл ва нутқ**.**

Мустақиллик йиллари том маънода Ўзбекистон Республикаси ижтимоий-иқтисодий ва маданий тараққиёти истиқболини белгилаш, жаҳон ҳамжамияти мамлакатлари сафидан муносиб ўрин эгаллашга интилиш йўлидаги кенг кўламли ислоҳотларни амалга ошириш билан кечмоқда. Жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари тажрибаларини ўрганиш, маҳаллий шарт-шароит, иқтисодий ва интеллектуал ресурсларни инобатга олган ҳолда жамият ҳаётининг барча соҳаларида туб ислоҳотларнинг амалга оширилаётганлиги янгидан-янги ютуқларга эришишни таъминламоқда.

Президент Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида (22 декабрь 2017 й): – Бугун биз давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларини тубдан янгилашга қаратилган инновацион ривожланиш йўлига ўтмоқдамиз... Янги фикр, янги ғояга, инновацияга таянган давлат ютади. Унинг учун мия қобилиятини ривожлантириш омилларини пухта таҳлил қилиши зарур. Биз улуғ боболаримизнинг муносиб давомчилари (Ал-Хоразмий ва Беруний) бўладиган етук инсонларни тарбиялаш масаласига, афсуски, етарлича аҳамият бермадик... Нодир талант эгаларини тарбиялаб камолга етказиш

ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканини унутишга ҳаққимиз йўқ. Ривожланган мамлакатлар бугунги юксак тараққиёт даражасига айнан шунинг ҳисобидан етгани – бу ҳам ҳақиқат, деб таъкидлаганди.

Албатта янги фикр ва янги ғояни амалга оширишда сиёсий, иқтисодий, ижтимоий йўналишлар билан бир қаторда баркамол авлодни вояга етказиш, улар нутқини ўстириш муҳим ўрин тутади.

Бола нутқининг ривожи кўп жиҳатдан унинг руҳиятига, соғлом, тетик ўсишига, аҳлоқий сифатларига, ўқув дастурини ўзлаштиришда меъёрли бажарилишини таъминлашга, қўлланмаларнинг монандлигига боғлиқдир. Бу масалалар бошланғич таълимда ўз ечими ифодасини топиши ва ўз она тилида равон гапира оладиган қилиб тарбиялашга қаратилиши зарур.

Таълим ва тарбия муаммоси жуда қадимдан мавжуд. У ўрта асрлардаги Ғарб ва Шарқ мутафаккирларининг асарларида кўриб чиқилган.

Кишилар чиройли, мазмундор нутқ масаласи билан жуда қадимдан қизиқиб келадилар. Қадимги Греция (Юнонистон) ва Римда нутқ маданиятининг назарий асослари яратилиб, нутқ олдига қўйиладиган талаблар ишлаб чиқилди. Бунга қулдорлик тузумининг ривожланиши, қулдорлик демократияси сабаб бўлди.

Бу даврда давлат, савдо-сотиқ, суд ишларининг ниҳоятда тараққий этиши нотиқликни санъат даражасига кўтарди. Етук инсон бўлиш учун албатта, нотиқлик санъатини эгаллаш шарт қилиб қўйилади.

Ана шу эҳтиёж туфайли нотиқлик назарияси яратилди. Унинг Цицерон, Демосфен, Квинтилиан, Аристотель каби назариётчилари етишиб чиқди. Эрамизнинг 335 йилида Аристотелнинг “Риторика”си яратилди. Унда нотиқ олдига қуйидагилар асосий вазифа қилиб қўйилади:

– Материални ҳар томонлама тайёрлаш.

– Материални жойлаштириш режасини белгилаш.

– Материални ўзлаштириш, нутқ қурилишини тўғрилаш.

– Нотиқнинг нутқ материалини ўрганиши.

– Материални сўз билан ифодалаш.

– Нутқни талаффуз қилиш, яъни нутқ жараёни.

Бу талаблар ҳозир ҳам ўз кучини сақлаб келмоқда. Ўша давр суд нотиқлигининг катта намояндаси Цицерон эди. У суд нотиқлигида юксак муваффақиятларга эришди, нотиқлик санъати назариясига улкан ҳисса қўшди. Цицероннинг "Нотиқ ҳақида", "Нотиқ", "Брут" асарлари ҳозир ҳам маълум қимматга эга.

Рим нотиқлик мактабининг яна бир буюк вакили Марк Фабий Квинтилиандир. У ўзининг "Нотиқ билими ҳақида" китобида билимдонликни нотиқликнинг биринчи шарти қилиб қўяди. Квинтилиан нотиқликка доир билимни жуда ёшликдан ўргана бориш керак, дейди. Нутқнинг тингловчи учун тушунарли бўлишига катта аҳамият беради. У "Сен шундай сўзлагинки, сени ҳар бир киши тушуна олсин", - деган эди.

Хуллас, қадимги Юнонистон ва Римда маданий нутқ, нотиқлик назарияси ривожлантирилди. Бу назария кейинчалик Оврупода нутқ маданиятига бағишланган фаннинг майдонга келишига асос бўлди.

Шарқда, жумладан, Мовароуннаҳрда бадиий, илмий ижоднинг тараққиёти билан, шунингдек, ваъзхонлик, "Қуръон"ни тарғиб қилиш билан муштарак ҳолда сўзнинг аҳамияти, маъноси ва ундан мақсадга мувофиқ фойдаланиш борасида қадимдан кўп яхши фикрлар айтилган.

Ваъзхонликнинг, балоғат (чечанлик, нотиқлик) санъатининг ўсуви билан нутқ олдига қўйилган талаблар мукаммаллашиб борди.

Ўша даврнинг буюк мутафаккирлари Абу Наср ал-Форобий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Юсуф Хос Ҳожиб, Аҳмад Югнакий, Жалолиддин Довоний, Алишер Навоий ва бошқалар феодал зулм ва мутаасиб руҳонийларнинг қаттиқ қаршилигига қарамасдан жаҳон фани, маданияти, маорифига беқиёс ҳисса қўшдилар.

Ўрта асрлар Шарқининг қомусий мутафаккири Абу Наср ал-Форобий (873-950) инсонни ҳар томонлама такомиллаштириш, уларни умумий бахт-саодатга етаклаш йўллари ва усулларини ўзининг ижтимоий-сиёсий таълимоти марказига қўяди, бу эса унинг дунёқарашларнинг умуминсоний асосга

эгалигидан далолат беради. Айнан шундай мақсадлар Форобийнинг шахсни тарбиялаш ва таълим бериш, уни такомиллаштириш ҳамда унинг ижтимоий муаммоларни ҳал этишдаги фаол ролига нисбатан дунёқарашларининг бош мазмунини ташкил этади. Унинг фикрига кўра, таълим ва тарбия оилада, ўқитувчи ёрдамида мактабда ва яхшиликка асосланган жамиятда унинг раҳбари ёрдамида амалга оширилиши мумкин.

Форобий фикрига кўра, таълим бу нафақат ақлий ривожланиш, балки умуман маънавий ривожланиш, шу жумладан ахлоқан ривожланиш пойдеворидир. Таълим ва тарбия ўзаро бир-бирига боғлиқ бўлиб, улар шахсни маънан камолотга етказувчи турли йўллар ҳисобланади.

Форобий ижтимоий тарбияни тартибга солиш, уни бошқариш масалаларига алоҳида эътибор берган. У меҳнат фаолияти тарбиянинг муҳим воситаси ҳисобланади, деган хулосага келади.

Абу Райҳон Беруний (971-1050) қомусий олим сифатида тарихга кирган. У фанни диндан ажратиш зарур деб ҳисоблаган, акс ҳолда, унинг фикрига кўра, илмий билимлар ҳақиқий бўла олмайди. Олимнинг динга бўлган танқидий муносабати кўп жиҳатдан унинг тарбия ва таълимга бўлган муносабатларини ҳам белгилаб берди.

Беруний ўз асарларида таълимнинг узлуксиз, кўргазмали, аниқ мақсадга йўналтирилиши лозимлигини ва унинг муайян тизим асосида ўтказилиши зарурлигини таъкидлаган. Беруний ёш йигитда шахс тарбия жараёнида шаклланади, деб ҳисоблаган. Бунда у меҳнатга алоҳида ўрин берган.

Берунийнинг қарашлари чекланган тусга эга эди, зеро у ҳам ўша даврдаги бошқа кўплаб олимлар сингари фан ва билим жамият тараққиётида мутлақ аҳамиятга эга, деб билган. Бироқ фан, билим, меҳнатнинг аҳамияти ҳақидаги фикрларнинг ўзи тўғри эди. Билим олишнинг ўзини Беруний куч, вақт ва сабр-тоқат талаб қиладиган меҳнат, деб ҳисоблаган.

Ибн Син (980 - 1037) педагогика масалаларига ижодий ёндашган. У бола табиатини нафақат табиб, балки етук педагог сифатида ҳам чуқур билишини намоён қилган. Олимнинг болаларга таълим ва тарбия бериш

ҳақидаги кўплаб фикрлари ўзининг чуқурлиги, инсонпарварлик руҳи билан йўғрилганлиги ва тарбиядек мураккаб муаммони тўғри талқин қилиши билан кишини лол қолдиради.

Ибн Сино таклиф қилган тарбия ва таълим мазмуни ақлий тарбия, жисмоний соғломлаштириш, эстетик тарбия, ахлоқий тарбия ва ҳунар ўргатишларни ўз ичига олади.

Ибн Сино бола тарбиясининг бутун машаққати ва мураккабликларини жуда чуқур тушунган. "Тиб қонунлари"нинг "Тарбия ҳақида" номли бўлимида қўйилган масалалар аниқ ҳал этилади, бола характерини тарбиялаш ҳақида қимматли фикрлар билдирилади.

Ибн Сино бола шахсини ҳурмат қилиш, боланинг табиий ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда унинг қизиқишларини ўрганишга чақиради. У ёшга қараб даврларга бўлиб чиқишга ҳаракат қилган. Ўсмирлик даврини у бешта даврга бўлган: чақалоқлик (бола туғилганидан бошлаб йўлга юриб кетгунича бўлган давр); болалик даври (йўлга юргандан сўнг); организм чиниққани ва қозиқ тишлари чиққанидан кейинги давр; ўсмирлик ва жинсий етилиш даври; ўсмирлик даври (ўсиш тўхтатуганча бўлган давр).

Ибн Сино бола тарбиясининг барча мураккабликлари ва қийинчиликларини тушунган. У жисмоний жазонинг меъёридан ортиб кетишига қарши чиққан. Унинг фикрига кўра, рисоладагидек тарбияни муваффақиятли амалга ошириш учун болаларга инсоний муносабатда бўлиш даркор.

Ибн Сино тарбия омилининг аҳамиятини чуқур англаган ва ижобий омил аҳамиятини жуда қадрлаган, уни тарбиянинг асосий воситаларидан бири деб билган.

Ўзбекистонда XVI асрдан кейинги асосий педагогик фикр йўналишлари ва уларнинг хусусиятларини тушуниш учун қомусий олим бўлган, ўз замондошлари ўртасида жуда машҳур бўлган Жалолиддин Девоний (1427 - 1502) асарлари билан танишиш зарур.

Девоний асарларида тарбиялашда, таълим методикасида мактаб ва

ўқитувчининг тутган ўрни ҳақида кўплаб ижодий фикрлар жуда кўп. Унинг асарларини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, Девоний ўз даврининг илғор мутафаккири бўлган ҳамда унинг таълим ва тарбия ҳақидаги кўплаб ғоялари бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган.

Айниқса Алишер Навоий Ўзбекистон халқи қалбидан чуқур жой олган. Унинг асарлари беш юз йилдан буён кўплаб авлодларни ҳаяжонга солиб келади. Инсонпарварлик, муҳаббат ғоялари, инсоннинг олий мақсадларини куйлаш Навоий меросида асосий ўрин тутади.

Навоийнинг педагогик қарашлари ўта инсонийлиги билан ажралиб туради. У бола шахсини шакллантириш ва тарбиялаш масалаларига жуда катта аҳамият берган, Навоий фарзандни оилага қувонч ва бахт келтирувчи шамчироқ, деб билган.

Навоий болага унинг ёшига қараб энг кичик ёшдан тўғри тарбия бериш зарур, фанларни ўрганишни иложи борича барвақт бошлаш лозим, дея таъкидлаган.

Буюк славян педагоги Ян Амос Коменский (1592-1670) Ғарбнинг буюк олимларидан бири ҳисобланади. Унинг педагогик тизими ўсиб келаётган авлодни инсонийлик, тинчликсеварлик, тенглик ва биродарлик руҳида тарбиялаш ғоялари билан йўғрилган.

Я.А.Коменскийнинг педагогик мероси улкан ва кўп қирралидир. Олимнинг чоп этилган фалсафий ва педагогик асарлари унинг тарихий аҳамиятини белгилаб берди. “Оналар мактаби”да қайд этилган болани дастлаб оилада тарбиялаш ва ривожлантириш ғоялари бугунги кунда ҳам ўз долзарблигини йўқотмаган. Ҳажми кичик, бироқ мазмуни жуда чуқур бўлган мазкур асарни унда қўйилган муаммоларнинг долзарблиги ва аҳамиятлилиги, уларни амалга ошириш учун таклиф қилинаётган йўллар ва воситаларнинг соддалиги ҳамда ишончлилиги, ниҳоят оила, аёллар, болалар ва уларни тарбиялашга бўлган муносабатнинг инсоний йўналишга эгалиги бўйича уни мумтоз асарлар сирасига киритиш мумкин. “Инсон зотини ҳимоялаш энг аввало бешикдан бошланиши лозим”. Бундан ортиқ содда

ва доно фикр бўлмайди. Уддабурон олимлар қайси бир ижтимоий тарбия тизимини кашф қилмасинлар, барибир болалар ҳаёт кечирадиган, улар жисмонан ва маънан ривожланадиган муҳит сифатида оила энг самарали тарбия тизими ҳисобланади.

Қаторлашган ғоялар тизимига эга бўлган «Оналар мактаби»ни бирламчи оилавий тарбия бўйича биринчи асар деб ҳисоблаш мумкин.

“Оналар мактаби”нинг бош ғояси - оиладаги бирламчи тарбиянинг бола учун қувончли бўлиши, унинг келажагини бахтли, ота-оналар учун ёқимли ва умидбахш, жамият учун фойдали қилишдан иборатдир.

Коменский табиий иқтидорни энг илк ёшдан бошлаб ҳар томонлама ривожлантириш ғоясидан келиб чиққан ҳолда оналар мактаби олдига қийин вазифаларни, яъни: болаларга билиш (билимга эҳтиёжмандликни тарбиялаш, билимга чанқоқлик)ни, ҳаракат қилиш (меҳнаткаш бўлиш, ўзини бошқара олиш ва яхши амаллар қилиш)ни ва гапириш (нутқ ва фикрлашни ривожлантириш)ни ўргатиш вазифаларини қўяди. Шу муносабат билан у ақлий, жисмоний ва маънавий тарбиялаш, нутқ ва фикрлашни ривожлантириш бўйича аниқ маслаҳатлар беради. “Оналар мактаби”даги алоҳида бир боб “қандай қилиб болаларга нутқни машқ қилдириш” лозимлигига бағишланган. Коменский “ақл ва нутқ”ни ривожлантириш учун бир хил ҳаракат қилиш зарур деб ҳисоблаган.

У “ақл” ва “нутқ”қа органик бирикма сифатида қараган. Ва бу тасодифий эмас, зеро бола нутқ туфайли ўз фикрларини ифодалайди ва атрофдаги одамлар билан мулоқотга киришади, нутқни эгаллаш орқали у атрофни ўраб турган оламни англайди. Болада нутқ ва фикрлаш ривожланади. У сенсор ривожлантириш ва тарбиялашга алоҳида эътибор берган, чунки усиз ақл ва нутқни муваффақиятли ривожлантириб бўлмайди. Ва буюк педагогнинг мазкур қоидага риоя қилишни “дидактиканинг олтин қоидаси” деб атагани ҳам бежиз эмас.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, юқорида келтирилган буюк мутаффакирлар, олимлар ва ёзувчиларнинг асарларини ёшга мос равишда

бошланғич таълимда ўқувчиларга яқиндан таништириб бориш натижасида уларда улкан сўз заҳираси пайдо бўлади, натижада ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқининг ривожланишига катта хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Президент Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси (22 декабрь 2017 й).

2. Маҳмудов Н. “Ўқитувчи нутқи маданияти”. Дарслик. Т. Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона, 2007.

3. Расулов Р., Мўйдинов Қ. “Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати” ўқув қўлланма T. Fan va texnologiya, 2011.

ЎҚУВЧИЛАР ИЖОДКОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ТИЛ ВА АДАБИЁТНИНГ ЎРНИ

Расулова Райхон Бахритдиновна,

Чирчиқ давлат педагогика институти ўқитувчиси

Педагоглик мураккаб ва масъулиятли касб бўлиб, ижодкорликка асосланган, ёшларни ҳар томонлама тарбиялаш ва ўргатиш билан бир қаторда, келажакдаги меҳнат фаолиятига тайёрлаш, касб-ҳунар эгаллашларига кўмаклашиш ва замон талабларга жавоб берадиган, махсус тайёрланган мукаммал мутахассис фаолиятидир. Айниқса, тил таълимида замонавий ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланиш орқали ўқувчиларнинг тасаввурларини бойитиш, рақамли технологиялардан самарали фойдаланиш барча тил ва адабиёт ўқитувчиларининг зиммасидаги ўта муҳим вазифаларидан биридир. Таълим жараёнида ўзбек тили ва адабиёти фанини ўқитишда инновацион технологиялардан фойдаланиш орқали самарали ва сифатли таълимни амалиётга жорий қилиш замон талабидир. Миллий таълим тизимимизнинг сўнгги йиллардаги ютуқларига назар ташласак, самарали ижобий ишлар амалга оширилганлигининг гувоҳи бўламиз. Кейинги йилларда таълим ва кадрлар тайёрлаш соҳаларига оид

бир қатор президент ва ҳукумат қарорлари қабул қилинди [1]. Шу жиҳатдан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сонли “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори ҳамда 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон “Ўзбекисон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 апрелдаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4699-сон Қарорлари ижроси, шубҳасиз, таълим соҳасига ҳам самарали таъсир кўрсатмоқда.

Ўзбекистонда таълим тизимини стратегик ривожлантириш жараёни узлуксиз давом этмоқда. Таълим тизимини ривожлантиришга қаратилган мазкур ҳужжатларда кадрлар тайёрлаш сифатини тубдан такомиллаштириш учун кенг имкониятлар, моддий ва маънавий шарт-шароитлар яратилди. Юртимизда Кадрлар тайёрлашнинг кўп йилга мўлжалланган миллий дастури қабул қилинганлиги, узлуксиз таълимнинг ҳар бир босқичи учун алоҳида давлат таълим стандартлари ишлаб чиқилиши, эркин ва мустақил фикрловчи ватанпарвар, ижодкор шахсни тарбиялаш давлат таълим тизимининг устувор вазифаларидан бири бўлиб қолди. Биринчи Президентимиз И.Каримов таълим-тарбия соҳасидаги ишларнинг дастуриламали бўлган “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури” моҳияти ҳақида шундай деган эди: “Демократик жамиятда болалар, умуман, ҳар бир инсон эркин фикрлайди. Агар бола эркин, мустақил фикрлашни ўрганмаса, унга берилган таълим самараси паст бўлиши муқаррар. Албатта, билим керак, аммо билим ўз йўлига, мустақил фикрлаш ҳам катта бойликдир”.

Зарурий иқтисодий стратегия асосида ижтимоий ривожланишни умумжаҳон тараққиёти даражасига кўтаришни мақсад қилган “Таълим тўғрисида”ги Қонуннинг 12-моддасида ҳам умумий ўрта таълимнинг асосий мақсадларидан бири, мустақил фикрлаш кўникмаларини шакллантириш ва ривожлангириш эканлиги алоҳида таъкидлаб ўтилган. Онг, тафаккур ва

тил ҳодисаларининг бир-бирини тақозо этиши, бири-бирисиз ривожлана олмаслигини инобатга олсак, ижодий тафаккур соҳиби тарбиясида она тилининг энг асосий муҳим восита эканлигини таъкидлаб ўтиришга ҳожат йўқ. Зеро, интеллектуал билим, касбий маҳорат, энг нодир кашфиётлар ҳам биринчи галда она тили ёрдамида дунёга келади, она тилида намоён этилади, она тилида ривожланади ва ҳимоя қилинади. Мустақил юртимизда бошқа умумий ўрта таълим фанлари қатори она тили ва адабиёт таълими соҳасида ҳам улкан ўзгаришлар, янгиланишлар содир бўлмоқдаки, натижада фанлар ривожи ва самарадорлигини инновацияларсиз тасаввур қилиб бўлмай қолди. Таълим тизимига нисбатан бундай инновацион ёндашув, агар у ҳақиқий ривожланиш жараёнининг мантиғига мос келадиган бўлса, албатта, самарадорликни оширади. Юртимизда баркамол авлод тарбиясига, ижодкор, иқтидорли ёшларни танлаш ва уларга махсус, чуқурлаштирилган билим беришга алоҳида эътибор қаратилди. Айни пайтда, айтишимиз жоизки, таълим бериш соҳасида таълим турлари ўртасидаги алоқа ва узвийликнинг таъминланишида кластер усулидан фойдаланиш жорий қилинмоқда, бу пировардида, мақсадни белгилашдаги аниқликка ва таълим сифатининг ўсишига сабаб бўлади. Таълим жараёнида мувозанатнинг барқарорлашиши таъминланади. Ўз навбатида педагогик таълим тизимида янги механизм яратилиши ҳаётий заруратга айланди, унда таълим турлари ўртасида ўзаро назорат ҳам, рақобат ҳам, қиёслаш ҳамда манфаатларнинг қондирилиши замон талабига айланди. Тил ва адабиёт таълими мазмунининг ўзбек тилшунос ва адабиётшунослари томонидан матн яратиш компетенциясини шакллантиришга йўналтирилган мутахассислар нуқта-и назаридан интенсив суратда янгиланиши ва тубдан қайта ишлаб чиқилиши ўзбек тили ўқитиш методикасининг педагогикадаги энг янги йўналиш - ўқиш саводхонлигини ошириш ва китобхонликни янада такомиллаштириш тизимига ўтишини енгиллаштирди.

Умумтаълим мактабларида компетенциявий таълими мазмуни, моҳияти, амалий асосларини қуйидагича таснифлаш мумкин:

1. Англаш, билиш, амалий қўллаш, таниш ва нотаниш вазиятларда муаммолар ечимини топа олиш учун зарур бўлган тил ҳодисалари, нутқий вазият ва имконият, матн яратишга йўналтирувчи манба, мустақил топшириқларнинг изчил тизимини дарс жараёнига татбиқ этиш.

2. Нутқий фаолиятни инновацион педагогик технологияларга асосланган ҳолда изчил, босқичма - босқич шакллантириш, ўқувчи онгида мунтазам суратда янгиланиб борувчи, доимий ҳаракатдаги оғзаки ва ёзма нутқ кўникмаларини ҳосил қилиш ва ривожлантириб бориш (ўқиш саводхонлигини ошириш ва тил ҳодисаларини ўрганиш жараёнида).

3. Ўқувчини турли вазиятга мос равишда мустақил ва ижодий фикрлашга, фикрни, ихчам, равон, тўғри ва ўринли ифодалашга, ўзаро танқидни тўғри қабул қилиш, маданий мулоқот сирларини эгаллаб бориш компетенцияларини ўзлаштиришга одатлантириш.

4. Берилган бир мавзуда мустақил матн яратиш, уни таҳрир ва қиёсий таҳлил қилиш, жамоа олдида мустақил маъруза қилиш, нотиқлик сирларини эгаллаш, ўз фикрини ҳимоя қилиш, хулосасини далиллар ёрдамида исбот қилишга ўрганиш (ақлий ҳужум, дебатлар, ижодий ёзма иш учун ажратилган махсус соатларда) в. ҳ.

Педагогларнинг энг долзарб вазифаларидан умумтаълим мактаб ўқувчиларининг матн яратиш компетенциясини шакллантиришни инновацион технологиялари асосида ташкил этилишини таъминлаш, ўқувчида мавжуд бўлган луғат заҳираси, нутқий интеллектуал қобилиятни аниқлаш, ижодий тафаккурни ривожлантириш, эгалланган билимларни мустаҳкамлашга ўқиш саводхонликларни ошириш орқали мустақил матн яратишнинг технологиясини ишлаб чиқиш, шу тизим асосида ўқувчининг матн яратиш компетенциясини шакллантириш ва ривожлантиришдан иборат. Демак, жаҳон баҳолаш талаблари асосида ўқитишнинг бош мақсади ўқувчи мустақил фикрлаши, ижодий фикр маҳсулини ёзма, оғзаки шаклларда тўғри, равон ифодалаш кўникмаларини шакллантириш экан, тил ва адабиётни ўқитиш фани олдида ўз ечимини кутиб турган навбатдаги долзарб

вазифа ўқувчиларда фанга оид таянч ва коммуникатив компетенцияларни шакллантиришдир. Кўзланган мақсадга миллий меросларимиз ва адабиёт сарчашмаларига мурожаат этиш орқали эришиш самарали натижалар беради.

Бунинг учун ўқувчиларнинг дарсдан ташқари вақтларини мазмунли ташкил этиш, уларни кўпроқ китоб ўқишга жалб қилиш, тўгараклар фаолиятини такомиллаштириш ва барча кўрилган натижаларни дарсларда назорат қилинишини йўлга қўйиш зарур. Тўгаракларда мумтоз асарларимиздан намуналар ўқиш ва таҳлил қилиб борилиши, миллий-маънавий қадриятларимизни тиклаш билан бир қаторда ўқувчиларда китоб ўқишга бўлган қизиқишларини ривожлантириши шубҳасиздир. Бундай ўқилган асарлардан янги ўтилган мавзуларни мустаҳкамлаш ва такрорлаш жараёнларида ёзма ишлар ташкил этилиб, таҳлил қилиб борилса, ёзма ҳамда оғзаки тафаккур ошишига яхши самара беради. Буюк сиймоларимиз ижодида илгари сурилган юксак инсоний хислатлар, инсонпарварлик ғоялари ўқувчи ёшлар маънавиятига чуқур таъсир этади, уларни халқ учун, ватан учун муносиб инсон бўлиб етишишига хизмат қилади. Боланинг вояга етишида тарбиянинг катта куч-қувватга эга эканлиги, инсонлардаги ижобий фазилатларнинг намоён бўлишида ҳалоллик ва софдиллик, соддалик ва самимийлик каби фазилатлар асосий омил эканлиги адабиётимиз қатламларида бот-бот такрорланади. Теран нигоҳ ва қалб соҳиблари аталмиш ўқитувчилар сараланиб, асрлар тўфонларини енгиб келаётан бундай дурдоналаримизга узлуксиз мурожаат этишса, шарафли касбларида доимий фойдаланишса замон талабига ва зиммасидаги вазифасига сидқидилдан ёндашган бўладилар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” Қонуни, 2020 й. 23 сентябрь, № 637.

2. Мухамедов Ғ.И. Педагогик таълим инновацион кластери: эҳтиёж, зарурат, натижа. Халқ сўзи, жамият, 15 февраль 2019 й.

3. Ишмуҳамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Т.: NIHOL, 2013.

4. www.bilimdon.uz 7. www.ziyo net.uz

5. www.google.ru

MA‘NAVIY TARBIYADA AXLOQIY QADRIYATLARNI O‘RGANISHNING INNOVATSION USULLARI

H.To‘xtayev,
Termiz davlat universiteti
stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada axloqiy qadriyatlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan turli xil metodlar: erkin assosiativ eksperiment, erkin definitsiyalar metodi va klaster tahlili keltirilgan, qadriyatlarni tadqiq qilishda qo‘llaniluvchi metodlar mohiyati yoritilgan.

Bugungi kunda umuminsoniy qadriyatlar turli xil gumanistik tadqiqotlar predmetiga aylangan bo‘lib, ular orasida sotsiologik, psixologik, lingvistik, psixolingvistik va madaniy tadqiqotlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Turli xil gumanitar sohalarda “qadriyat” tushunchasi turlicha izohlanadi, ammo ularning har birida insonning tasavvurlari va ishonchi uning voqelikni idrok etishida alohida ahamiyat kasb etishi haqida so‘z yuritiladi. Misol uchun, polshalik psixolingist Barbara Rodzevich qadriyatni “ijtimoiy ideallarni o‘zida mujassamlashtirgan, ma’qullik namunasi sifatida xizmat qiluvchi va inson uchun barcha ahamiyatli, aziz-u mukammallarni o‘zida namoyon etuvchi voqelik obektlari, hodisalari va abstrakt g‘oyalari” sifatida tushunadi[1]. Qadriyatlarni o‘rganishga nisbatan aksiologik yondashuv qadriyatlarni insonning atrof olamga munosabati sifatida tushuntiradi. Olamdagi har qanday hodisa, shu jumladan qadriyatlar ham tilda o‘z ifodasini topadi.

Hozirgi vaqtda qadriyatlarni o‘rganishda qo‘llash mumkin bo‘lgan bir qator

yetarlicha asoslangan diagnostik metodikalar klassifikatsiyalari mavjud.

Birinchidan, diagnostik metodlarni to‘g‘ri javob talab qiluvchi topshiriqlarga, yoki nisbatan to‘g‘ri javob mavjud bo‘lmagan topshiriqlarga asoslangan metodlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga maxsus qobilyatlar testlari va bir qator shaxsiy xususiyatlar testlari (misol uchun, Uitkinning yarimtobelik – yarimmustaqillikni aniqlash diagnostik protsedurasi, Luchins rigidlik testi va h. k.) kiradi. Diagnostik metodikalarning ikkinchi guruhi u yoki bu topshiriqqa javobning to‘g‘riligi bilan emas, balki faqat chastotasi (va yo‘nalishi) bilan tavsiflanuvchi topshiriqlardan tarkib topadi. Bunga ko‘plab shaxs so‘rovnomalari misol bo‘ladi (misol uchun, R. Kettelning 16 faktorli testi).

Ikkinchidan, psixodiagnostik metodikalarni verbal va noverbal metodikalarga ajratish mumkin.

Verbal metodikalar u yoki bu tarzda sinaluvchining nutqiy faolligi vositasida ifodalanadi; ushbu metodikalar tarkibiy qismlari xotira, xayol, ishonchlar tizimiga ularning tildagi shakli vositasida murojaat qiladi. Noverbal metodikalar sinaluvchi nutqiy qobilyatidan faqatgina instruksiyani tushunish maqsadida foydalanadi, topshiriqning bajarishning o‘zida esa noverbal – perseptiv, motor qobilyatlarga tayanadi [2].

Diagnostik metodikalar klassifikatsiyasi uchun foydalaniladigan uchinchi asos – bu muayyan metodika asosida yotuvchi asosiy metodik tamoyil xarakteristkasi hisoblanadi. Odatda ushbu asosga ko‘ra farqlanadi: 1) obektiv testlar; 2) standartlashgan o‘zi haqida hisobotlar, ular o‘z navbatida bo‘linadi: a) test – so‘rovnomalar; b) natijalarni kontent – analiz qilishni talab etuvchi ochiq so‘rovnomalar; v) Ch. Osgud semantik differensiali tipi bo‘yicha tuziladigan shkalaviy texnikalar; va tasniflash metodikalari; g) rolli repertuar panjaralar tipidagi individual yo‘naltirilgan texnikalar; 3) proektiv texnikalar; 4) dialogik (interaktiv) texnikalar (suhbatlar, intervyular, diagnostik o‘yinlar).

Obektiv testlar – to‘g‘ri javob, ya’ni topshiriqni to‘g‘ri bajarish imkoni bor metodikalardir.

Standartlashgan o‘zi haqida hisobot metodikalarining barchasi uchun

umumiy jihat sinaluvchining verbal qobilyatlaridan foydalanish, shuningdek uning tafakkuri, xayoli, xotirasiga murojaat etish hisoblanadi.

Test – so‘rovnomalar sinaluvchi yuzasidan mulohaza hosil qiluvchi punktlar (savollar, tasdiqlar) to‘plamidan iborat bo‘ladi (odatda, javoblarning ikki yoki uch muqobilli tanlovidan foydalaniladi).

Bir xil psixologik o‘zgaruvchi punktlar guruhi (6 tadan kam bo‘lmagan)da ifodalanadi. Test – so‘rovnomalar punktlari oshkora, bevosita subekt tajribasiga murojaat qiluvchi (masalan: Siz qorong‘ilikdan qo‘rqasizmi?), yoki sinaluvchi shaxsiy tajribasi yoki taassuroti bilvosita namoyon bo‘luvchi uning fikrlari, mulohazalariga murojaat etuvchi (misol uchun, ko‘pchilik insonlar halolmi?) bo‘lishi mumkin. So‘rovnomalar bir o‘lchovli yoki o‘z ichiga ko‘plab psixologik o‘zgaruvchilar safini qamrab oluvchi ko‘p o‘lchovli qilib yaratiladi.

Ochiq so‘rovnomalar sinaluvchining standartlashgan javobini ko‘zda tutmaydi; ishlov standartizatsiyasiga standart kategoriyalarga ixtiyoriy javoblarni solishtirish yo‘li bilan erishiladi [3].

Shkalaviy texnikalar u yoki bu obekt (so‘zli tasdiqlar, tasviriy materiallar, muayyan shaxs va h.k) ni uning shkalada taqdim etilgan sifati bo‘yicha (misol uchun, “issiq - sovuq”, “kuchli - zaif”) baholashni nazarda tutadi. Odatda uch, besh, yetti nuqtali shkalalardan foydalaniladi. Shkalalashtirishning maxsus varianti – bu nomlar shkalasi darajasida obektlarning subektiv tuzilish hosil qilishini aniqlashni ko‘zda tutivchi subektiv klassifikatsiya hisoblanadi.

Repertuar panjaralar tipidagi individual – orientatsiyalangan (ideografik) texnikalar shakli bo‘yicha shkalaviy, so‘rov metodlari bilan o‘xshash bo‘lishi, suhbat yoki intervyuni esga solishi mumkin. Ularning test – so‘rovnomalardan asosiy farqi shundan iboratki, baholanayotgan parametrlar (o‘qlar, o‘lchovlar, konstruktlar) tashqaridan olinmaydi, balki muayyan aniq sinaluvchi individual javoblari asosida belgilanadi. Bu metodlarning intervyu metodidan farqi shundaki, repertuar panjaralar zamonaviy statistik apparatni qo‘llash imkonini beradi va subektning individual o‘ziga xosliklari yuzasidan ishonchli diagnostik xulosalar beradi.

Proektiv texnikalar stimul sifatida taqdim etiluvchi yetarlicha tugallanmagan material muvofiq tashkil etilgan butun eksperimentda maqsadli tarzda subektning u yoki bu xususiyatini ochib beruvchi tasavvur, xayol jarayonlariga sabab bo‘lishiga asoslanadi. Proektiv texnikalardan klinik foydalanishda ko‘p holarda ma’lumotlarni interpretatsiya qilish jarayonida zarur bo‘ladigan diagnostning intuitsiyasi va nazariy tayyorgarligiga tayaniladi. Odatda proektiv texnikalardan tadqiqotchilik maqsadlarida foydalanish ma’lumotlar ishlovini standartlashtiruvchi kontent – analiz protsedurasini ko‘zda tutadi.

Dialogik texnikalar diagnost sinaluvchi bilan aloqaga kirishi va ushbu aloqaning maxsus xususiyatlari, relevant diagnostik vazifa hisobidan eng yaxshi diagnostik natijalarga erishishini hisobga oladi. Misol uchun, ishonchli aloqa oilaviy qiyinchiliklar, bolaning shaxsiy rivojlanishi xarakteri diagnostikasida va diagnost bir vaqtning o‘zida ham konsultant, ham tarbiyachi – tuzatuvchi rolida namoyon bo‘ladigan boshqa ko‘plab vaziyatlarda zarurdir. Patopsixologik diagnostik tadqiqot vaziyati muloqotni ekspertiza tamoyillari bo‘yicha tashkil etishni talab etadi.

Dialogik texnikalar verbal (intervyu, suhbat) va noverbal (masalan, bola bilan o‘ynash noverbal diagnostik protsedura vazifasini bajarishi mumkin) bo‘lishi mumkin.

Agar klassifikatsiyaning yagona asosi sifatida diagnostning o‘zining diagnostik protsedira jarayoniga jalb etilishi va uning tadqiqot natijalariga ta’siri darajasi o‘lchovi qabul qilinsa, unda asosida u yoki bu metodika yaratiladigan turfa xil metodik usullarni bir shkalaga joylashtirish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, pedagogik-psixologik tadqiqotlar, o‘quvchi yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan islohotlar muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ushbu tadqiqotlarda qo‘llaniluvchi ilmiy tadqiqot metodlari va ushbu metodlardan to‘g‘ri va samarali foydalanishga bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Родзевич Б. Система ценностей в языковом сознании поляков//И вновь продолжается бой...: сб. науч. ст., посвященный юбилею д-ра филол.

наук, проф. С.Г. Шулежковой. Магнитогорск: Изд-во МаГУ, 2010. С. 222.

2. Горошко Е.И. Интегративная модель свободного эксперимента. Харьков; М.: Изд. группа «РА-Каравелла», С. 320.

3. Чиркова О.И. Духовные ценности как зеркало жизни современного российского общества (по результатам ассоциативного эксперимента)// Научный поиск: материалы третьей науч. конф. аспирантов и докторантов. Социально-гуманитарные науки. Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2011. С. 120-123.

AQSHNING IXL O‘QUV DASTURI HAMDA BAHOLASHNING MILLIY TEST TIZIMI

Qahharova Sabohat Abdug‘afurovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
ilmiy izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi IXL K-12 amaliy dasturi hamda ona tili va adabiyot fanidan bilish darajasini baholashning test topshiriqlari sinovi haqida tanqidiy, tahliliy fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: IXL K-12 o‘quv sayti, The International Reading Association –IRS, National Council of Teachers of English – NCTE, Common Core Davlat Standarti, Next Generation Science Davlat Standarti, o‘quv resurslari, Milliy test tizimi.

Dunyo hamjamiyati va davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy munosabatlarning integratsiyalashuvi ta’lim maskanlarida o‘zbek tili-davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalangan holda o‘zbek tili fanini o‘qitish usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali insonning butun umri mobaynida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda [1.,2-3]. Ayniqsa, ta’lim tili xorijiy til bo‘lgan ta’lim maskanlarining tobora takomillashib borayotganligi sababli o‘z ona tilidan boshqa

tilda ta’lim olayotgan yoshlar soni tez sur’atlarda o‘sib bormoqda. Bu bir jihatdan yoshlarimizning xorijiy tillarni o‘rganishi ong va tafakkurining rivojlanishiga olib kelishi ayni muddao, ikkinchi jihatdan esa ularga ona tili – o‘zbek tilini o‘rgatish, unga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo‘lish tuyg‘ularini shakllantirish ta’lim muassasasi pedagog-o‘qituvchilari oldida turgan dolzarb muammodir. Mana shu muammoni bartaraf etish uchun, ya’ni ta’lim shakli ona tilida va boshqa tillarda olib boriladigan o‘quv maskanlarida o‘zbek tilini sifatli hamda samarali o‘qitishni yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim:

- jahon standarti talablariga mos ta’lim dasturlari, yuqori sifatli o‘quv resurslari, materiallari hamda ta’lim platformalarining deyarli yo‘qligi;

- dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish uchun, xususan, o‘quvchilarning tug‘ma qiziquvchanligi, ijodkorligi va bilimga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otish uchun texnologiyaninig innovatsion usullaridan foydalanish talab darajasida yo‘lga qo‘yilmaganligi ;

- malaka oshirish kurslarida o‘qituvchilar bilimi, salohiyati va metodikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga yordam beradigan, ta’limning hissiy bilish tomoniga, ya’ni o‘quvchilarni ilhomlantiradigan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkillashtirishga alohida e’tibor qaratadigan tushunchalarning berilmasligi.

Shuning uchun Butunjahon Ta’lim Standartlari talablariga javob bera oladigan Davlat Ta’lim Standarti hamda Milliy o‘quv dasturiga mos, asosiy fanlarni individual o‘rgatishni ta’minlaydigan o‘quv saytlarini yaratish bugungi kunning davr talabiga aylanmoqda. Bunday o‘quv saytlari bir qator rivojlangan davlatlarda allaqachon yaratilib, ular yildan yilga takomillashtirilmoqda. Xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi dunyoning ko‘p obunachilariga ega, 2007-yilda ishlab chiqilgan o‘quv sayti - IXL-K-12 AQShning barcha Davlat Standartlari, xususan, Common Core, Next Generation Science Davlat Standartlariga moslashtirilgan bo‘lib, bugungi kunda u individuallashtirilgan o‘quv tajribasini taqdim etib, onlayn ta’limning yangicha tizimini kashf etgan amaliy dasturlardan biri hisoblanadi. Mazkur sayt mahsulotlaridan AQShning 50 ta shtatlari va 190 ta mamlakatlari foydalanishadi[5.,6-7].

IXL dasturi Davlat Ta’lim Standart talablarining yuqori natijalariga erishishga yordam beradi, keng qamrovli o‘quv rejasi, diagnostikasi va amaldagi tahliliga ega bo‘lib, u o‘qituvchilarga, ta’lim oluvchilarga o‘z qobiliyatlarini to‘liq ochishlariga yordam beradigan barcha narsani o‘rgatadi, aniqrog‘i, ta’lim olishini tezlashtiradi.

Hozirgi kungacha IXL amaliy dasturi sakkiz milliondan ortiq talabalar tomonidan ishlatilgan bo‘lib, matematika, til san’ati, ilm, ijtimoiy fanlar va ispan tilini qamrab oluvchi sakkiz mingdan ortiq mavzular bo‘yicha individual ta’lim beradi. [5.6.7] Xususan, ushbu dasturda til san’ati to‘rtta amaliy ko‘nikma: o‘qish strategiyasi, yozish strategiyasi, lug‘at va grammatikadan itashkil topgan. Til san’ati bu boshlang‘ich va o‘rta maktablarda o‘qitiladigan, o‘quvchilarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan fan.

Xalqaro o‘qish assotsiatsiyasi (The International Reading Association -IRS) va ingliz tili o‘qituvchilarining milliy kengashi (National Council of Teachers of English - NCTE) tomonidan belgilab qo‘yilganidek, bunga o‘qish, yozish, tinglash, gapirish, ko‘rish va “vizual tasvirlash” kiradi[5.,6-7].

IXL o‘quv saytida har bir sinf uchun keltirilgan test shaklidagi amaliy topshiriqlar o‘quvchilar uchun nihoyatda qiziqarli hamda samarali tashkil etilgan bo‘lib, ularning tabiat, jamiyat, insoniyat haqidagi tasavvurini kengaytirib, o‘ylashga, mantiqiy fiklashga, mushohada qilishga undaydi.

Barchamizga ma’lumki, shu yili, ya’ni 2021-yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan umumta’lim fanlari bo‘yicha sertifikatlashtirish va bilim darajasini baholashning Milliy test tizimi, jumladan, ona tili va adabiyot fanidan bilish darajasini baholashning milliy test sinovi topshiriqlari kitobi nashr etildi. Bu Milliy test tizimi, qolaversa, xalqaro PISA baholash tizimini takomillashtirish uchun ham IXL amaliy dasturini keng ko‘lamda o‘rganishimiz, uni har bir fan kesimida amaliyotga tatbiq etishimiz zarur.

Milliy test tizimida abituriyentning fikrlash qobiliyatini, mushohadasini aniqlashga qaratilgan saviyali amaliy test topshiriqlari berilgan bo‘lib, ammo ba’zi o‘rinlarda bu holatdan chekinishlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

8-savol. Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asari doston janriga mansub. A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri

9-savol. Tog‘ay Murod yozuvchilikdan tashqari rassomlik va qo‘shiqchilik ham qilgan. A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri [4.,6].

Yuqoridagi test topshiriqlari o‘quvchilarning olamning hissiy va aqliy bilish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan emas, balki ma’lumotlarni ko‘r-ko‘rona yod olgan yoki olmaganligini belgilaydi, xolos. Badiiy asarning qissa yoki doston janriga mansubligi hamda ijodkorning tarjimayi holi, uning qaysi vazifalarda ishlagan yoki ishlamaganligi o‘quvchilarning fikrlash, mantiqiy mushohada qilish qobiliyatiga umuman bog‘liq emas. Bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalarida o‘qishga kirish test sinovlarida bu kabi amaliy topshiriqlardan voz kechilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

IXL dasturidagi har bir amaliy ko‘nikmalar esa dars jarayonida olingan bilimlarni amalda qo‘llash bilan birga o‘quvchini mustaqil izlanuvchanlikka, kreativ fikrlashga undaydi:

Quyidagi matnni o‘qing.

Yoz - Veston suv parkiga tashrif buyuradigan yilning eng yaxshi vaqti. Keling, bizning eng mashhur sayohatimiz – Super Slaydni ko‘ring!

Matnning eng katta maqsadi nima?

A) Ishontirish B) Xabar berish D) Ko‘ngil ochish

Mualliflar matnlarni turli **maqsadlar** yoki sabablarga ko‘ra yozadilar. Yozishning umumiy maqsadi uchta: o‘quvchilarni ishontirish, xabardor qilish yoki ko‘ngil ochish. **Mualliflar** o‘quvchilarni biror narsaga **ishontirish** orqali ishontiradilar. **Reklama** o‘quvchilarni mahsulot sotib olishga ishontirishga harakat qiladi. **Siyosiy plakat** o‘quvchilarni kimgadir ovoz berishga ishontirishga harakat qiladi. Mualliflar bir mavzu yoki jarayon haqida o‘quvchilarimizni xabardor qiladi**.** **Yangiliklar** nima bo‘lganini tushuntiradi. **Retsept** taomni qanday tayyorlashni tasvirlab beradi. Mualliflar o‘quvchilarga zavqlanish uchun biror narsa yozish orqali **ko‘ngil ochishadi**. Hazil o‘quvchilarni kuldirishga harakat qiladi. She’r o‘quvchilarni xursand qilishga harakat qiladi[5.,6-7].

Matn - bu reklama. Uning maqsadi - **ishontirish**. Shuning uchun test javobi – **A** [5.6.7].

Xulosa shuki, Oliy ta’lim muassasalarida o‘qishga kirish uchun ona tili va adabiyot fanidan taqdim etilgan test topshiriqlarining har biridan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning kreativ fikrlash, mantiqiy mushohada qilish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Test topshiriqlari yozuvchining tarjimayi holidan emas, balki badiiy asarning asosiy g‘oyasi, unda qanday bugungi kun bilan bog‘liq dolzarb muammo ko‘tarilganligi, bu muammoning yechimi, bu borada qahramonlarning xatti-harakati, fe’l-atvori haqidagi qarashlar, jumlalardan tuzilmog‘i shart. Chunki har qanday ijodkor o‘z “men”ini asariga singdirishi tabiiy holdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekison Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son. https://lex.uz/docs/-4312785

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-son Qarori, 2020 - yil 28 - aprel. https: //lex.uz›docs/-4800657

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 17-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-3107036

4. Umumta’lim fanlari bo‘yicha sertifikatlashtirish va bilim darajasini baholashning milliy test tizimi ona tili va adabiyot fanidan bilish darajasini baholashning milliy test sinovi test topshiriqlari kitobi, DTM, 2021-yil, 22 bet

5. https://www.ixl.com

6. https://www.ixl.com/ company

7.vhttps://www.ixl.com/materials/i_guides/IXL_for_Supporting_Core_Curriculum_Implementation_Guide.pdf.

ЗАМОНАВИЙ РАҲБАР МАЪНАВИЯТИ

Ш.Мўминов,
Фарғона давлат университети
тадқиқотчиси.

Ҳар қандай замон ва ҳар бир жамиятда инсонлар турли касб-ҳунар билан шуғулланиб келишади. Кимдир ўзи орзу қилган касбни ёки ҳунарни танлайди, кимдир ота-онаси қистови билан, яна кимдир шароит ва эҳтиёждан келиб чиқиб қайсидир касб ва ҳунардаги ҳаётий фаолиятини бошлайди. У қандай касб ёки ҳунар эканлигидан қатъи назар, ундан шу танлаган соҳаси бўйича чуқур билим ва тажриба талаб қилинади. Танлаган касб-ҳунарнинг сир-синоатини яхши билиш, соҳа бўйича чуқур билим эгаси бўлиш, ҳамиша шу касбда эъзоз топишда муҳим аҳамият касб этади. Бироқ энг муҳим жиҳати шундаки, раҳбарми, шифокорми, ўқитувчими, тадбиркор ёки маҳоратли тикувчими, аввало, юксак маънавиятни яхши ўзлаштирган бўлиши лозим. Зеро, бугун мамлакатимизда олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳотлар, аввало, ҳар бир раҳбардан масъулият, ҳалоллик ва садоқат билан бирга юксак маънавиятни талаб этмоқда.

Шунинг учун ҳам Республикамиз Президенти Шавкат Мирзиёев 2020 йил 24 январь куни Олий Мажлисга навбатдаги Мурожаатномасида **“Халқ давлат идораларига эмас, балки давлат органлари халққа хизмат қилиши керак”** деган асосий тамойилни амалда тўлиқ таъминлаш бўйича ҳали кўп иш қилишимиз зарур...” деди ва “Ҳар томонлама мукаммал ва самарали бошқарув тизимини яратиш – олдимизда турган улкан вазифаларни бажаришнинг асосий шартидир” [1] дея алоҳида таъкидлади.

Раҳбарлик фақатгина ваколат, мансаб ёки лавозим бўлиб қолмай, балки улкан масъулиятдир. Етакчилик, ҳалоллик, самимийлик, ҳурмат-эътибор, қатъият, ишонч, камтарлик, меҳнатсеварлик ва қўл остидагиларга ғамхўрлик кабилар ҳам раҳбарнинг зарур хусусиятларидандир. Бунинг учун раҳбарлик вазифасига тайинланган ҳар қандай шахс нафақат ўз ишини яхши билиши,

балки етарли билимларга эга бўлиб, жамоасига, жамиятга ва давлатга садоқат билан хизмат қилиши, доимо халқ билан ҳамнафас яшаши керак.

Машҳур рус адиби Максим Горькийнинг “Ижоднинг фақат бир фоизи истеъдод, қолган тўқсон тўққиз фоизи меҳнатдир”,-дея билдирган ва афоризмга айланиб кетган фикри бевосита раҳбарлик фаолиятига ҳам тегишли ва бу ҳар бир раҳбар фаолиятида ўз аксини топмоғи лозим.

Шоир, рассом, ҳайкалтарош ёйинки хонанда бўлиш учун истъедод керак бўлгани каби раҳбарликка ҳам Аллоҳ томонидан берилган юксак истеъдод зарур. Аммо истъедоди бўла туриб, ўз устида ишламаса, меҳнат қилмаса, берилган истеъдодлар зое кетади.

Ҳар бир инсоннинг маънавий соғлигини оладиган бўлсак, бунга доимо шахснинг ўзи жавобгар ва масъулдир. Аммо, жамоага келганда бу ҳолат анча жиддий тус олади. Жамоанинг маънавий соғлигига унинг ҳар бир аъзоси жавобгар бўлишига қарамасдан, жамоанинг раҳбари, айниқса, унинг маънавий соғломлиги жиддий таъсир қилади. Шунинг учун ҳам бошқарув тизимида маънавий соғломликни кузатиш, ўрганиб бориш, жамоанинг яшаши ва меҳнат фаолиятига жиддий таъсир қилишини инобатга олиб, ҳеч қачон уни раҳбар кўздан қочирмаслиги лозим [4.36] .

Сўз мулкининг султони, буюк бобокалонимиз Алишер Навоий халқ бахти ва фаровонлиги жуда кўп жиҳатдан подшоҳга, бугунги кун тили билан айтганда раҳбарга боғлиқ деб билади ва ўз асарларида бу ҳақда ғоят теран фикрларни баён қилган: “Адолатли подшоҳ ҳақ таолонинг халойиққа кўрсатган марҳаматидир: бундай шоҳ мамлакат учун тинчлик ва фаровонлик сабабчисидир” [2.15].

Раҳбарнинг маънавияти бевосита унинг юриш-туришида, айниқса, муомала маданияти – сўзида намоён бўлади. Бунга кўплаб ҳаётий мисоллар келтириш мумкин. Жумладан, ўз вақтида Ўзбекистоннинг биринчи раҳбари сифатида фаолият юритган Шароф Рашидов фаолияти бу соҳада ҳаммамизга ибрат бўлиши мумкин. Собиқ Иттифоқ даврида фаолият олиб борган бўлишига қарамай, ўзлигини, миллий менталитетини ҳеч

қачон унутмаган бу тарихий раҳбар ҳақида “...республикамиз матбуотида ҳам, турли-туман марказий нашрларда ҳам шу қадар кўп нарса ёзилдики, буларнинг бари жамланса, бутун бошли бир адабиёт бўлади. У ҳатто собиқ бир бутун мамлакат ҳудудидан чиқиб, халқаро миқиёсдаги айрим бадиий тўқималарнинг “қаҳрамонига” айланди [3.3] .

Таниқли адиб ва таржимон Асил Рашидовнинг “Акам ҳақида” номли китобида бу ҳақда қуйидагиларни ўқиймиз: “...Шароф Рашидов бировларга қарата бирон нарса улоқтириш у ёқда турсин, ҳатто овозини кўтариб муомала қиладиган ёки кўнглида кек сақлаб қовоқ уядиганлардан эмас эди. Аксинча, табиатан фариштадай бир инсон эди, доимо катта-ю кичик билан очиқ чеҳра, илиқ табассум билан қучоқ очиб кўришарди” [3.27]. Китобнинг бошқа саҳифасида яна қуйидаги фикрлар келтирилади: “Ш.Рашидовдаги унча-мунча одамларга насиб этмаган фазилатлардан бири – инсонга ишониш, инсонни улуғлаш, икки оғиз ширин сўз билан ўз суҳбатдошини қайта кашф этгандай, сеҳрлаб, қалбини тоғдек кўтариб, илҳомлантириб юборувчи жозиба кучи эди. Бу у кишидаги ноёб фазиатлардан деб биламан...” [3.23] .

Хулоса ўрнида шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, жамиятимизда барча соҳаларда олиб борилаётган туб ислоҳотларнинг нечоғли муваффақиятли амалга оширилиши, бугун ҳар бир бўғиндаги раҳбарнинг масъулияти ва кундалик фаолиятига бевосита боғлиқ. Шундай экан, раҳбарнинг фаолияти Ватан тараққиёти, мамлакат келажаги, юрт тинчлиги ва халқ фаровонлигига йўналтирилган бўлиб, бир сўз билан айтганда, юксак маънавиятли бўлиши лозим.

Адабиётлар:

1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси //Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

2. Навоий А. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.

3. Рашидов А. Акам ҳақида. – Тошкент: Фан, 1992.

4. Йўлдошев М., Назарзода Н. Раҳбар психологиясида ахлоқ. – Тошкент: ШАРҚ, 2010.

O‘QUVCHILARNING TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mambetova Lobar Mirzavali qizi,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Maqolada jahon tilshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan tinglab tushunishni rivojlantirishga oid strategiyalari tahlil qilindi va ona tili darslarida o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid tavsiyalar berildi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ona tili ta’limi jarayonida o‘qituvchilarning oldiga bir qator vazifalar qo‘yilgan bo‘lib, xususan, o‘quvchilarga kognitiv ravishda yangi bilimlarni berishi, vazifalarni belgilashi, o‘quvchilarning yozma nutqini shakllantirishi, og‘zaki nutqini o‘stirishi, o‘qib tushunish va tinglab tushunish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishi zarur. Ma’lumki, an’anaviy ona tili ta’limida nutqni idrok qilishda o‘qish, yozma nutq va og‘zaki nutq ko‘nikmalariga katta e’tibor berilgan. Ona tili darslarida o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish nutqning idrok qilinishida asosiy o‘rinni egallaydi, chunki boshqa til ko‘nikmalariga qaraganda eshitib tushunishni o‘rganishda ko‘proq vaqt sarflanadi. Xorijlik tadqiqotchilar bu sohada ko‘pgina yutuqlar bo‘lishiga qaramasdan, tinglab tushunish hali ham murakkab jarayon ekanligini aytishmoqda.

Ma’lumki, o‘quvchilarning tinglab tushunishida pedagogning roli ham muhimdir. Pedagog avvalo matn tanlashda bolaning yoshini, qiziqishlarini ham hisobga olgan holda, o‘quvchiga o‘rgatmoqchi bo‘lgan ko‘nikma haqida aniq

tasavvurga ega bo‘lmog‘i lozim. Ya’ni o‘qituvchi o‘zi xohlagan natijaga erishmoq uchun aniq strategiyalar tuzib chiqmog‘i va bu strategiyalar kerakli natijaga erishishda o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tashi kerak. O‘qituvchi o‘quvchilarga tinglash jarayoni va uning vazifalari haqida tushuncha bera olishi kerak. O‘quvchi o‘qituvchining aralashuvisiz va tinglovchi har xil usullar yordamida belgilangan vazifani bajarsagina strategiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bo‘ladi. O‘quvchilar darsni to‘liq tushunishlari uchun ular o‘qituvchi tomonidan eshittirilgan audio matnni diqqat bilan tinglashlari va vazifani bajarishlari lozim. Agar o‘quvchi berilgan topshiriqni bajara olmasa, eshitgan matnning mazmunini tushunmagan, mashg‘ulotning maqsadi esa amalga oshmagan bo‘ladi.

Xorijlik tadqiqotchilar tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun kerakli strategiyalardan foydalanish lozimligini ta’kidlashdi va samarali strategiyalarni ishlab chiqishdi.

L.Vandergriftning ta’kidlashicha, tinglovchilar tushunishni osonlashtirish va ta’lim sifatini yanada samarali qilish uchun metakognitiv, kognitiv va ijtimoiy-ta’sirchan strategiyalardan foydalanadilar. Metakognitiv strategiyalar juda muhim, chunki ular tilni o‘rganish jarayonini nazorat qiladi, tartibga soladi va yo‘naltiradi. Kognitiv strategiyalar o‘rganiladigan materialni boshqaradi va tinglash vazifasiga ma’lum bir texnikani qo‘llaydi. Ijtimoiy-ta’sirchan strategiyalar tinglovchilarning boshqalar bilan hamkorlik qilish, tushunishni tekshirish yoki xavotirni pasaytirish uchun foydalanadigan usullarni tavsiflaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, metakognitiv strategiyalardan foydalangan tinglovchilar yaxshi natijaga erishganlar[1.67].

Juary De Brito metakognitiv strategiya uch turdagi bilimlarni o‘z ichiga oladi: shaxs bilimi, vazifa bilimi va strategik bilimlar. Ularning orasidan tinglab tushunishda strategik bilimlar muhim rol o‘ynaydi, deydi[2.15].

Muvaffaqiyatli tinglashning usullaridan biri tinglash faoliyatining bosqichma-bosqich amalga oshirilishidir. Bu jarayon uch bosqichda amalga oshadi. Ular dastlabki tinglash, tinglash jarayoni va tinglashdan keyingi faoliyat

deb nomlanadi. Dastlabki tinglash jarayonida o‘quvchining boshlang‘ich bilimlari faollashtiriladi. Dastlabki tinglashning eng muhim vazifasi o‘qituvchi mavzu bo‘yicha tuzilgan savollar orqali o‘quvchilarga ma’lumotni taqdim etmasdan matnni tushunish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni faollashtirishiga yordam beradi. Tinglash jarayonida o‘quvchining ko‘nikmalari rivojlanadi. Ya’ni birinchi tinglash bosqichidan olingan bilimlar mustahkamlanadi. Tinglashdan keyingi faoliyat tinglashdan olingan bilimlar ustida ishlashni o‘zichiga olgan holda gapirish yoki yozish ko‘nikmalarini yuzaga chiqishida asosiy ko‘prik vazifasini o‘taydi.

O‘qituvchilar tadqiqotga pragmatik munosabatda bo‘lsa, tinglovchilar dars davomida qanday tinglash haqida qaror qabul qilishga o‘rganadilar. Darslarda eshitib tushunishdan foydalanish tinglovchilarning tinglash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Biroq bunday natijaga erishish uchun o‘quvchilarda ko‘proq eshitib tushunish darslarini tashkillashtirish lozim. Til o‘qitish amaliyotida tinglab tushunishning ham bir qator qiyinchiliklari bor. Tinglash har xil vaziyatlarda amalga oshiriladi. Masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa jarayonida, radio, audio-video materiallar orqali bo‘lishi mumkin. Audio materiallarini tinglashda tembr, ovozning balandligi, so‘zlovchining jinsi (erkak, ayol yoki bolalarning ovozi) ham ta’sir qiladi. Audio materiallar bir martalik va qisqa muddatli taqdimot bo‘lgani uchun ham tinglovchining xotirasida ma’lumotlar yaxshi saqlanib qolmasligi mumkin. Ko‘pgina tadqiqotchilar tinglash jarayonida matnning uzunligi, hajmi ko‘proq bo‘lsa tinglovchining tezda charchab, diqqati bo‘linishini va bu ayni paytda qiziqishi ham yo‘qolishini ta’kidlashgan. Shunga qaramay audio materiallardan foydalanilgan darslar noan’anaviy darslar hisoblanib, bu vaziyatda o‘quvchilar ovoz tembrlarini doimiy ravishda eshitib turadilar. Shu bilan bir qatorda tinglovchi audio materiallarni tinglaganda talaffuz va intonatsiya qoidalariga amal qiladi, bu esa tinglovchining orfoepik bilimlarini mustahkamlashga va tinglash orqali tushunishni taminlashga yordam beradi. Matnni eshitib tushunishda tinglovchilar noma’lum so‘zlarga duch kelganda ular bu so‘zlarning ma’nosini qidirib, eshittirilayotgan ma’lumotni tinglamasligi mumkin. Tinglash vaqtida hatto

e’tiborni biroz buzish ham tushunishga xalaqit berishi mumkin. O‘qituvchi bu holatlarni ham oldindan nazoratga olgan holda tinglovchilarga tushunmagan so‘zlarini tushuntirib berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar matn tinglovchi uchun qiziqarli bo‘lsa, bunday holatda tinglovchi matnni katta qiziqish bilan tinglaydi. Bu ham tinglab tushunishning o‘quvchilarga tezroq va samarali tarzda yetkazib berish usullaridan biridir.

O‘quvchilar tinglagan matnni tushunishda darsda qo‘llangan materiallarning ham ahamiyati katta. Masalan, dialogik matnlarga qaraganda, monologik matnlarni tushunish osonroq. Monologik matnlar orasidan tasviriy matnlarga qaraganda syujetli matnlarni tushunish osonroq.

Eshitib tushunish darslari aniq maqsadlar asosida yaratilmog‘i, tinglab tushunish bosqichma-bosqich amalga oshirilmog‘i lozim. Bu tinglash jarayonining oddiydan murakkab narsalarga o‘tishini anglatadi. Bundan tashqari tinglovchilar nimani tinglash kerakligi, qayerda tinglash kerakligi va qanday tinglash kerak ekanliklarini bilishlari lozim. Bu ko‘rsatmalar, albatta, o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.llas.ac.uk/resources/gpg/67resources›gpg; Larry Vandergrift. Listening: theory and practice in modern foreign language competence.

2. Juary De Brito. The Effects of Listening Comprehension on English Language Learners Writing Performance while Taking Notes. MA, Bridgewater State University, 2015, p.15.

THE ORIENTATION OF PROFESSIONALLY TEACHING OF FOREIGN LANGUAGES IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS.

(Pedagogik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida chet tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitish mazmuni)

Xudoyberdiyeva Gulchexra Isamidinovna,
Teacher of Foreign Language and Literature Department (English)
Chirchiq State Pedagogical Institute of Toshkent region

Annotatsiya: Ushbu maqolada har xil tavsiflovchi usullardan foydalanish samaradorligi va oliy ta’limda professional yo‘naltirilgan chet tili bo‘lib, unda tavsifiy metodning o‘ziga xos xususiyatlari, qiyosiy-tarixiy metod va lingvodidaktikaning oliy o‘quv yurtlarida chet tilini o‘rgatishdagi kasbiy yo‘naltrilgan o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: professional yo‘naltirilgan chet tili o‘qitish, differensial individual yondashuv tamoyili, kommunikativ kompetentlik, lingvistik bo‘lmagan universitet.

INTRODUCTION.

The huge changes taking place in the life of our society are affecting all areas, as well as the process of higher education. The breakdown of old forms of social relations and the emergence of a new democratic way of life require the creative activity of the individual. By improving the education system in the country, great attention is paid to the training of mature, well-rounded, independent-minded, strong-willed, dedicated and enterprising personnel. Today, due to the integration processes and the new socio-economic conditions of the development of Russian society, interest in foreign languages is growing. New educational institutions, various courses and faculties are being established. The educational process plays a leading role in the training of qualified, competitive personnel. The essence

of teaching is the effective organization of an active learning process aimed at expanding the educational opportunities of professionals and the formation of a particular worldview. The foreign language in the higher technical educational institutions is taught as obligatory discipline and its teaching is carried out beginning from the first year of study. However, the duration of teaching of a foreign language depends on a curriculum of this or that educational institution and fluctuates from one year to four years. The problem of taking into account a specialisation in the course of training becomes extremely actual, causing the requirement to connect the learning of a foreign language with the future speciality of students.

Research Methods

Research areas devoted to the introduction of innovative forms of foreign language teaching based on the latest technologies occupy the most serious and dynamic positions in the publications of researchers from all countries. Major international congresses of foreign language teachers (FIPF Liege, Belgium 2016) The descriptive method is the oldest and most common method in linguistics. It is especially important for the language teaching experience. The peculiarity of the descriptive method is that it studies the object directly on the basis of information provided by the sensory organs. Descriptive method information is the basis for all other methods. In particular, the structural method works based on the conclusions of the descriptive method. Or even for the comparative-historical method, the descriptive method provides an explanation of the object being compared. So, it is arguable that intoxicants of choice runs the taste in diets. We have tried to simplify the use of the descriptive method for elementary school. Let's look at some examples of creative analysis based on the descriptive method.

Creative analysis. The introduction of the concept of competence in the educational process eliminates the gap between the theoretical knowledge that has hitherto been used in teaching practice and its practical application, that is, when the student has theoretical knowledge, it is difficult to use it in problematic situations. So, instead of the "knowledge paradigm" that prevails in traditional

education, the “appropriate use of knowledge in problem situations” paradigm prevails. Language competence is the ability to use the capabilities of a language in practice, which is to achieve educational effectiveness. For this reason, experiments are currently being conducted in primary schools to improve the competence of students in secondary schools.

On the Basis of the Institute of Foreign Languages (RUDN University), English training is the most crucial aspect, passing through the entire educational activity of the student. Professional education begins with a basic level, which includes studying the generally accepted developmental topics necessary for the learner for a widespread perception of foreign language culture. The basic course consists of an introduction to the generally accepted phonetic, grammatical, cultural and linguistic aspects. Teachers train students through English-language textbooks, original manuals selected by teachers, as well as television products made by students and teachers depending on the subject of the lesson. Continuing education in English already at the business level begins with the third year and lasts until graduation from the higher institution. The objective of these lessons is to expand and enrich the values of the previous courses and prepare students to communicate on professional and business topics because overcoming the language barrier is arduous work. “To better prepare students for the higher educational demands of life and work in the 21st century, teachers need to become high-level knowledge workers” who constantly learn professionally (Schleicher, 2012, p. 11).

Foreign references:

1. Abramovich G.V. (2005). The concept of foreign language competence as an aim and result of professional technical education. Nezhin: Publishing House of NSU after Gogol, 257 [in Ukraine].

2. Varianko T.V. (2012). Teaching to read scientific technical texts at the nonlinguistic higher educational institutions. Kyiv, Ukraine: FL, NTUU “KPI”, 28 [in Ukraine].

3. Volchenko O.M. (2004). Peculiarities of students’ abilities to master a

foreign language. Materials of VII International scientific and practical conference: Science and Education, 25-26 [in Ukraine].

4. Obraztsov P.J. (2005). Designing and structurising of a professionally – oriented training techniques. Orel: 61 [in Russian]. 10

ШЕШЕНДІК СӨЗДЕРДІ ОҚЫТУДЫҢ ТИІМДІ ТЕХНОЛОГИЯЛАРЫ

Ғалымжан Рахымбаев,

Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік педагогика институты

Қазақ тілі және әдебиеті бағытының 1-курс магистранты

Кез келген ұлтты алсақта оның бүгінімен ертеңгі күні тәрбиелі, саналы ұрпаққа байланысты екені белгілі. Өрісі өрге қарай өрлеген, ақылы мен парасаты кемелдене түскен өз Отанын сүйе білетін азаматты тәрбиелеу – әр мұғалімнің алдына қойған мақсаты болуы тиіс.

Бүгінгі техника дамыған заманда қай салада болсын жаңа технологияларды іс жүзінде қолдану кеңінен етек жайып келе жатыр. Сондай-ақ білім беру саласында да жаңа технологиялар арқылы оқыту үдерісі күннен-күнге дамып отыр. Тілдің тазалығы мен көркемдігін сақтау әлбетте қазақ әдебиеті пәнінен басту алары сөзсіз. Әдебиет сабақтарын тиімді технологиялар арқылы оқыту – оқушының өз бетімен еркін сөйлеу тілін жетілдіруге өз ықпалын тигізеді. Осы орайда белгілі алаш қайраткері Жүзіпбек Аймауытовтың мына бір сөздерін келтіргенді жөн көрдім «Баланың ынтасын арттыру үшін оқылатын нәрседен бір жаңалық болу керек», – дейді. Солай екен бүгінгі ғаламтор дамыған заманда оқушыларға тың ақпараттар мен тиімді технологияларды қолдана отырып сабақ өту әрбір мұғалімнің міндеті.

Әдебиет заманалар тарихының, алуан оқиғалардың, адамзат тіршілігінің, салт-санасының, таным-нанымдарының көркем шежіресі. Әдебиет адамзат баласымен бірге жасасып, оларға рухани күш-жігер беріп, бірге дамып,

өсіп келе жатқан өнердің бір түрі. Ата-бабамыз осы әдеби туындылардың тұнығынан нәр алып, рухани жетілді емес пе? Сол себепті де бүгінгі өскелең ұрпағымыз терең ойлы, саналы да сауатты болсын десек көнеден келе жатқан шешендік сөздердің мән-мазмұнын оқушы жастарымызға тереңнен үйретуде тиімді технологияларды жетік меңгерген, оны сабақ үдерісінде шебер қолдана алған ұстаздың міндеті деп білемін. Бүгінгі баланы тек бор мен тақта арқылы сабаққа қызықтыру мүмкін емес, өйткені олардың талғамдары жоғары.

Осы орайда шығыстың екіші ұстазы Әбу – Насыр әл – Фарабидің мына бір сөздерін келтіріп өткенді жөн көрдім «Адамға ең бірінші білім емес, тәрбие берілуі тиіс. Тәрбиесіз берілген білім – адамзаттың қас жауы», деп өте орында айтқан болатын.Қазақтың шешендік сөздері жалпы білім беретін мектеп оқушыларына тәрбие берудің аса қасиетті де құнарлы қаруы болып табылады. Себебі, оқушылардың жас және дара ерекшеліктерін ескере отырып, шешендік сөз өнерінің қуатын арттыратын тілдік құралдар, дидактикалық сипаттағы ақыл, нақыл сөздер таным үдерісі мен дұрыс ойлау қажеттіліктерін ашуда маңызды рөл атқарады. Сонымен қатар шешендердің сөйлеу әрекетін, сөйлеу түрлерін, шешен бейнесін талдаудан туындаған шешендік сөз тағылымы қазіргі жасөспірімдерді тәрбиелеуде өзекті мәселе болып отыр. Өйткені шешендік сөз өнері өмір шындығымен, әлеуметтік уақыттың қатал да құбылмалы мінезімен бетпе-бет келгенде адамға рухани жәдігер болып, көзден алыс, көңілге жақын құбылыстарды түсінуге жетелейді.

Қазақ тілі мен әдебиеті пәнін оқытуда жаңа технологияларды пайдалану мұғалім үшін қандай маңызды болса, оқушы үшін одан да маңызды. Жаңа технологиялар оқушылардың білім сапасын арттыруға, өздігінен жұмыс істеу мүмкіндігін молайтуда арнайы педагогикалық технологияларды қажет етеді. Ол технологияларда баланы қоршаған ортамен еркін қарым-қатынасқа түсу мүмкіндігі беріледі. Оның барлығы бала тұлғасының дамуына өз үлесін қосады. В.Л. Беспалько: “Педагогикалық технология – практикада

іске асатын нақты педагогикалық жүйе, жоба",-деген анықтама берсе, Б.Т.Лихачев педагогикалық технологияны арнайы лайықталған әдістер, амалдар, тәрбие құралдары түріндегі психологиялық – педагогикалық қондырғы деп түсіндіреді.

Жоғарыда қайта-қайта технология деп жатырмыз өзі бұл терминнің мағынасы қандай? «Технология» гректің «techne» – өнер, шеберлік және «logos» – ғылым деген сөзінен шыққан, яғни «шеберлік туралы ғылым» деген мағынаны білдіреді.

Оқыту әдістерінің кез келген түрін белсенді әрекетке айналдыру – мұғалімнің әдіскерлік шеберлігі мен шығармашылық ізденісіне байланысты болмақ. Осы тұрғыда жаңа технологияларды қазақ тілі мен әдебиеті сабақтарында кеңінен пайдаланамыз.Мектеп қабырғаларында шешендік сөздерді оқытуда қолданылатын ең белсенді әдіс-тәсілдер «ИНСЁРТ», «Ақыл картасы», «5 сұрақ әдісі» тағы да қазақ тілі мен әдебиет сабақтарында шығармашылық жұмыс түрлерін көбірек ұсыну, ойын түрлерін беру, оны кейін практикалық тұрғыда қолдана білуге үйрету жұмыстары өз нәтижесін беріп келеді.

Шешендік сөздерді оқытудағы жаңа әрі пайдалы ізденістердің бірі– «Оқу мен жазу арқылы сын тұрғысынан ойлау» технологиясы. Бұл технология оқушылардың сабаққа деген қызығушылығын арттырады, ойлау белсенділігін, тапқырлығын, өзіне деген сенімділігін, іскерлік дағдысын қалыптастырады. Сыни тұрғысынан ойлау технологиясы бойынша сабақ құрылымы қызығушылықты ояту, мағынаны ажырату, ой толғаныс кезеңдерінен тұрып, әр кезеңдегі тәрбиелік және оқу мақсаттары әр түрлі стратегияларды қолдана отырып, алға мақсат қою, мәселені зерттеу, жауап іздеу, оқушылардың өз ойларын ашық айта білуге тәрбиелейді.

Жалпы айтқанда, «Оқу мен жазуды сын тұрғысынан ойлау» стратегиясы сабақты жоспарлауда өте тиімді. Мұнда оқушының ойы шыңдалып, өз даму деңгейіне сай жетістіктерге жетуге болады. Сын тұрғысынан ойлау жобасы мынадай үш құрылымнан тұрады:

– қызығушылықты ояту;

– мағынанытану;

– ойтолғаныс.

Бұлтехнологияда бұрынғы білім мен жаңа ұғым ұштастырылады. Соңғы кезеңде оқушы өз шығармашылық қабілетін таныта алады.

Педагогикалық қызметтің басты мақсаты оқушылармен оқу-тәрбие ісінде жаңа педагогикалық технологияларды ұтымды пайдалану. Ол үшін жаңа технологияларды игеру және оны шығармашылықпен дамыту, инновациялық технологиялармен білім беру. Сонда ғана қабілетті оқушылар дайындай аламыз.

Қазақ тілі мен әдебиеті сабақтарында жаңа технологияларды қолдану арқылы оқушылардың таным белсенділігін арттыру, қазіргі қоғам талабына сай ой-өрісін дамыту, шығармашылығын кеңейту, дамыту, терең білімді, бәсекеге қабілетті тұлғаны жасау, заман сұранысына сай ізденімпаз тұлғаны қалыптастыру.

Өзбекстан Республикасы Президенті Шавкат Мирзияевтің 2017 жылда жарық көрген «Танқиди таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак» деген кітабында келтірілгендей әрбір оқушы ертеңгі басшы деп қарасақ бүгінен бастап оқушыларға сын тұрғысынан ойлуға, әрбір жасап жатқан жұмысына жауапкершілікпен қарауға үйрету бүгіннің ең басты мақсаты болуы тиіс.

Қорыта айтқанда, мектепте шешендік сөздерді тиімді технологиялармен оқыту оқушының өз бетімен оқып үйренуіне сенімін ұялатып, шығармашылықпен жұмыс істеуіне, қорытынды жасай алуына, сөйлеу мәдениетінің өсуіне ықпал етеді, білім сапасын арттырады. Оқыту технологияларын сабақта қолдану оқушылардың білім сапасын арттырып қана қоймайды, олардың жеке тұлға ретінде қалыптасуына әсерін тигізеді. Жаңа әдіс-тәсілдерді мән-мағыналарына, ерекшеліктеріне қарай таңдап қолдана білсек, балаға білім беруде ұтарымыз анық.

Пайдаланған әдебиеттер:

1. Ж.Қараев. Мектепте оқытудың педагогикалық жүйесін жетілдірудің әдіснамалық негіздері.//Бастауыш мектеп.1996 №7.

2. Н.Шадиева. Оқыту процесінде жаңа технологияны қолдану//Ізденіс, 2003

3. С.Негимов. Шешендік өнер. Алматы,1997.

4. Ф.Б.Бөрібекова., Н.Ж.Жанатбекова. Қазіргі заманғы педагогикалық технологиялар. Алматы, 2014.

5. С.Симбаева. Белсенді оқу мен оқытуда қолданылатын әдістер. Нұр-Сұлтан, 2019.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUMTOZ ADABIYOT O'QITISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI

Matkarimova Sayyora Shavkatbek qizi
Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi
Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Bugungi kunda yoshlar ma'naviyatini mumtoz adabiyot namunalari orqali, ularga singdirilgan g'oyalar vositasida o'stirish; o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berayotgan pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Respublikamiz ta'lim tizimida qilinayotgan yangi islohotlar ta'lim-tarbiya jarayonining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy, iqtisodiy hamda tashkiliy asosi bo'lmish "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va u bilan bog'liq me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish, jamiyatda o'qituvchi nufuzini ko'tarish, uning sifatli amaliy faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu harakatlarning barchasi kundalik ta'lim amaliyotini, avvalo, mazmun, shuningdek, shakliy jihatdan mukammallashtirib, oxir-oqibat o'quvchilarning axloqiy

tarbiyasi, bilim va saviyasida aks etmog‘i kerak. Mazkur vazifani ado etish uchun esa har bir fan, predmetning o‘qitilishidagi joriy holatni tahlil qilib, yutuq va kamchiliklarni aniqlab olish muhim. Ana shu nuqtayi nazardan maktablarimizda mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishning ayni paytdagi holatini o‘rganish, tahlil qilish muammoni hal etishning omili sanaladi desak, xato bo‘lmaydi.

Shunday qilib, o‘rta maktabda mumtoz adabiyot qanday o‘qitilmoqda? Aslida, bu ritorik savolga o‘xshab ketadi – javobi aniq: yaxshi emas. Lekin bu “yaxshi emas”liklar nimalarda namoyon bo‘ladi? Sababi nimada? Ularning ildizlari qayerga borib taqaladi? Ana shu savollarga javob topish muhim. Bu tashxis qo‘yishdek bir gap. Shunga qarab chora izlanadi, tadbir belgilanadi.

Bizningcha, qoniqarsiz ahvolning ikki: obyektiv va subyektiv sabablari mavjud bo‘lib, ularning biri boshqasining chuqurlashuviga sabab bo‘lmoqda. Obyektiv omillar o‘qituvchi shaxsiyatidan ko‘ra ko‘proq ta’lim mazmuniga mas’ul muassasalar, direktiv hujjatlar bilan bog‘liq. Biz bunda, avvalo, standartlar, dasturlar, darslik va metodik hamda o‘quv qo‘llanmalarini nazarda tutmoqdamiz. Mustaqillik yillari adabiyot bo‘yicha DTS hamda o‘quv dasturlari ishlab chiqilib, bir necha bor takomillashtirildi, darsliklarning bir necha avlodi chop etildi. O‘rganish uchun tanlab olingan asarlarning yuksak badiiy mezonlar talabiga javob berishi, tarbiyalanuvchilarning badiiy didini o‘stirishga, ma’naviy olamini shakllantirishga, ularda yuksak axloqiy sifatlar shakllantira olishiga, bolalarning yosh xususiyatiga mos kelishi kabi jihatlarga qarab tanlab olingan. Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda aynan shu jihatga alohida e’tibor qaratiladi . Mazkur davlat hujjatlari, didaktik va metodik ashyolar e’lon qilinib, nashrdan chiqqach, o‘z vaqtida matbuotda munosabat bildirilgan, asosan, ularning yutuqlari, fazilatlari to‘g‘risida fikrlar bildirilgan.

Biz standart va dasturlardagi to‘ldirilishi kerak bo‘lgan o‘rinlar, darslik va qo‘llanmalardagi bartaraf etilishi lozim ko‘ringan nuqson va kamchiliklar borasida mulohazalarimizni bayon etamizki, yechimini kutayotgan muammolarning talay qismi ular bilan ham bog‘liq. “Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni

belgilaydi” . Umuman olganda adabiyot bo‘yicha DTS ushbu fanning mazmun va sifatiga qo‘yilgan talabni qoniqarli darajada aks ettiradi. Mazkur hujjatning mohiyat jihatdan yaxlit, umumiy xarakterda bo‘lishini nazarda tutsak, unga jiddiy e’tiroz bildirishga asos yo‘q. Faqat nazarimizda, yanada aniqlashtirilishi kerak bo‘lgan o‘rinlar, xususan, unda mumtoz adabiyot o‘qitilishiga doir mazmuniy tafsilotlar, sifatiy ko‘rsatkichlar alohida o‘z ifodasini topishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Standartda mumtoz adabiyotning o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlari, matnni mustaqil o‘qib tushunishga yo‘llaydigan nazariy ma’lumotlar o‘quvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib berilishi alohida ko‘rsatilmaganligi bois adabiyot o‘qituvchilari o‘quvchi baribir mumtoz matnni tushunmaydi, undan ma’no chiqarishga qiynaladi degan bahonani ro‘kach qilib, asarlar mazmunini so‘zlab beradilar va bolalardan ham shuni talab qiladilar. Bu bilan go‘yo standartdagi “...adibning tasvir mahoratini ko‘rsatishdan ko‘ra matnni chuqurroq anglashga yo‘naltirish” ko‘rsatmasini ado etadilar va adabiyot o‘qitishdagi eng katta xatoga yo‘l qo‘yadilar. Aksar hollarda matnni tahlil qilish “muallif bu yerda unday deyapti, bu yerda bunday deyapti” qabilidagi hissiz bayonlardan iborat bo‘lib qolayotganligi kuzatiladi. Ifodadagi o‘zgachalik, tasvirdagi yangilik, badiiy mahorat masalasi ochiq qoladi. Aslida standartdagi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablarda mavjud bo‘lgan “o‘rganilgan asarning asosiy badiiy xususiyatlarini” tezisidan kelib chiqib, zikr etilgan nazariy ma’lumotlar dasturga ham, darslikka ham kiritilishi kerak edi. Adabiyot fanidan Davlat ta’lim standartida o‘quvchini mumtoz matn bag‘riga yetaklaydigan, matnga ma’no berishga o‘rgatadigan nazariy ma’lumotlarning berilishi alohida belgilab qo‘yilishi kerak. O‘quvchilarga mumtoz matnni mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradigan ma’lumotlar tizimi ishlab chiqilib, dastur va darsliklarda aks ettirgan holda sinfma-sinf tadrijiy tarzda berib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Endi diqqatni darsliklarga qaratamiz. 10-sinf adabiyot darsligi “O‘zbek mumtoz adabiyoti” qismida Ahmad Yassaviy, Atoyi, Alisher Navoiy, Zahiriddin

Muhammad Bobur, Turdi Farog‘iy kabi mumtoz adabiyotimizning yetuk namoyondalari berilgan. 11-sinf adabiyot darsligi “O‘zbek mumtoz adabiyoti” qismida Nosiruddin Rabg‘uziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Anbar Otin singari mumtoz adabiyotimizning yetuk namoyondalari hayoti, ijodi va asarlaridan namunalar berilgan.

Adabiy ta’lim standarti va dasturlaridagi ijobiy jihatlar darsliklarda, xususan, mumtoz adabiyot namunalarining tanlanishi va berilishida ham aks etgan. Darsliklar mustaqillikning dastlabki yillaridan adabiy ta’lim e’tibor markaziga qo‘yilgan yangilangan pedagogik tafakkur talablari asosida yaratilmoqda.

Bu muvaffaqiyatlarga qaramay, yaratilgan darsliklarda mashg‘ulotlar saviyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, adabiy ta’limda ko‘zlangan maqsaddan o‘qituvchini ham, o‘quvchini ham chalg‘itadigan holatlar borki, ular to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish joiz bo‘ladi.

Aksar hollarda kuzatilayotgan, afsuski, ko‘pchilikka maqbul ko‘rilayotgani – darsliklarda mumtoz adabiyot namunalaridan so‘ng bu matnlar mazmuni nasriy bayon tarzida alohida berilishidir. Bir qarashda haqiqatan ham yaxshi: mumtoz adabiyotni tushunish qiyin, o‘quvchi avval matnni o‘qib ko‘radi, tushunmasa, uni berilgan mazmuniy bayonga solishtirib, ma’noni uqib oladi. Asta-sekin unda mumtoz matnni o‘qish va uqish malakasi shakllanadi. Shunday bo‘lsa, qani edi. Darslik mualliflari ana shunday ijodiy yondashuvni ko‘zda tutib nasriy bayonni bergan. Lekin amaliyot bu maqsadga butunlay zid holatni namoyon etmoqda. Bunday darsliklar bilan ishlashda o‘qituvchilarning aksariyati asosiy matnni tashlab, hatto o‘quvchilar e’tiborini sal bo‘lsa ham unga qaratmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mazmuniy bayonni o‘qitib qo‘ya qolmoqdalar. O‘quvchilar mumtoz asarlarni emas, balki ularning darslik mualliflarining tushungan darajasidagi mazmuni bilan tanishmoqdalar, xolos. Juda insof qilgan, adabiyot darsi mas’uliyatini his etgan muallimlar bir sidra matnning aslini o‘qitib qo‘yishi mumkin. Bunday muallimlarni hozirgi kunda topish qiyin. Bo‘lganda ham baribir natija o‘sha-o‘sha – maqsad amalga oshmay qolayotgani ko‘riladi.

Faktologik savollar, asosan, darslikda mavjud bo‘lgan yoki o‘qituvchi

so‘zlab bergan faktlarni qayta so‘zlab berishni ko‘zlaydi. Bunday savollar ustuvor bo‘lgan darslarda o‘quvchi fikrlamaydi, matn ustida izlanmaydi. Chunki ularning javoblari darslikning o‘zida berilgan, faqat birrov o‘qib topib olinsa bas. Ko‘pincha amaliyotda o‘quvchilar darslikdagi savollarga javob topish uyga vazifa qilib berilganda, darslik sahifalarining chetiga javoblari bayon etilgan o‘rinlarga shu savol raqamlarini qo‘yib chiqishadi. Eng achinarlisi, ba’zan uyga vazifani shu tarzda bajarishni o‘qituvchilarning o‘zlari ko‘rsatib beradilar. Bir qarashda bu hamma uchun qulay: bola qiynalmaydi, ortiqcha zo‘riqmaydi, bir zumda darsni tayyorlab qo‘yadi. Ammo bu holat adabiy ta’lim uchun qimmatga tushmoqda. Oqibatda badiiy so‘zni his qilishdan mahrum, badiiy asar tahlili bo‘yicha ko‘nikma malakasi shakllanmagan, mutolaadan zavq tuymaydigan bitiruvchilarga ega bo‘linmoqda.

Kontseptual savol va topshiriqlar o‘quvchini o‘ylashga, mustaqil fikrlashga, izlanishga chorlaydi, asar badiiyati, uning mazmuniga mustaqil nazar tashlash, o‘ziga xosliklarini, farqli jihatlarini topishga yo‘llashi jihatidan g‘oyat muhim metodik apparat sanaladi. Kitobdan ularga chaynalgan luqma kabi tayyor javoblar topilmaydi, har bir savolga tayyorlanish, matnni sinchkovlik bilan o‘qish, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini o‘z qalbidan o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. Javob topish yo‘lidagi aqliy, ruhiy zo‘riqishlar avvaliga qiyin tuyulsa-da, keyinchalik izlab topilgan haqiqatlar, kashf etilgan go‘zalliklar o‘quvchilar uchun shirin “azob”, estetik lazzat manbaiga aylanishi metodikaga oid adabiyotlarda ta’kidlanadi.

Shu yerda bir e’tiroz tug‘ilishi mumkin: darslikka yopishib olish shartmi, o‘qituvchi umuman ularga qaramay, yangi, sifat va mazmun jihatidan farqlanuvchi boshqa savol va topshiriqlarni tuzib olsa bo‘ldi-ku! Zamonaviy adabiyot namunalarini o‘qitishda, balki ayrim o‘qituvchilar buning uddasidan chiqarlar, lekin mumtoz namunalarga kelganda bunga ishonish qiyin. Negaki o‘qituvchilarimiz mumtoz adabiyotni tushunishga qiynaladilar. O‘zi tushunishga qiynaladigan muallim qanday qilib darslik yozgan muallifdan o‘tkazib savol, topshiriqlar tuzishi mumkin?

Aytilgan fikrlardan faktologik savol va topshiriqlar mashg‘ulotlarda doim o‘zini oqlamaydi, amaliyotda qo‘llanmasligi ma’qul degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Biz darsning faqat shu tipdagi savollar asosiga qurilishiga qarshimiz. Aslida, faktologik savol va topshiriqlar o‘z o‘rnida qo‘llansa, asar tahliliga ustalik bilan singdirib yuborilsa, samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, Bobur ijodi o‘rganilayotganda avval shoir hayoti va faoliyati to‘g‘risida so‘rash joiz. Faktlar darsliklarda bor va buning ustiga muallim qo‘shimcha ma’lumotlar bergan bo‘lishi mumkin. Bu orqali o‘quvchilarga Boburning shonli hayot yo‘li, achchiq qismati to‘g‘risidagi tasavvur jonlantiriladi, shaxsiyatidagi ulug‘vorlik, butunlik eslatiladi. Mazkur faktologik savoldan so‘ng shoirning shaxsiy taqdiri uning ijodiga, asarlarining poetik mazmuniga, obrazlar tizimiga ta’siri bilan bog‘liq kontseptual topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. B. To‘xliyev rahbarligida yaratilgan 10-sinf hamda 11-sinf Adabiyot darsliklarida savol va topshiriqlarning ana shunday jo‘yali berilganligiga guvoh bo‘lamiz. Misol tariqasida 11-sinf darsligining 142-betida “Saddi Iskandariy” asaridan olingan matnlar uchun berilgan savol va topshiriqlarga e’tibor beraylik:

1. Hikoyatni qayta o‘qing. Unga qanday sarlavhalar qo‘yish mumkin.

2. Hikoyat qahramoni bo‘lgan yigit portreti qanday chizilgan? Uning surati va siyratida qanday farqlar mavjud?

3. Hikoyatda Nosih obrazi bor. Siz uni qanday tasavvur qilasiz?

4. Hozirgi “suzmoq” so‘zining kelib chiqishiga asos bo‘lgan dastlabki variant mazkur matnda mavjud. Unga e’tibor berdingizmi? Shu so‘zning kelib chiqishi haqida mulohazangizni bildiring.

5. Hikoyatning xulosasiga e’tibor bering. O‘zgalarning xatosidan xulosa chiqarish osonmi? O‘z xatosidan-chi?...

Savol va topshiriqlarning ifodasining sodda, samimiyligi, ayni paytda o‘quvchini asar matniga jiddiy yondashishini taqozo qiladigan kontseptualligi diqqatiga sazovor. Darslikda ularning birortasiga tayyor javob yo‘q. O‘quvchilar o‘z javoblarini ona tili va adabiyot fanidan olgan bilimlari, o‘z hayotiy tajribalari, kuzatishlaridan kelib chiqib asoslashga urinadilar. “Asoslashga urindimi, u

mustaqil fikrlay boshlaydi; mustaqil fikrlay boshladimi, demak, shaxs sifatida shakllana boradi” Bu darslik mualliflarining katta salohiyati, yillar davomida shakllangan ulkan tajribalaridan ham darak beradi.

Darslikda barcha mumtoz adiblar she’riyati namunalaridan keyin berilgan jo‘yali, yaxshigina tuzilgan savol va topshiriqlar “tayyor osh pishirib berish”ga harakat natijasida o‘quvchilarni fikr boqimandalariga aylantiruvchi vositaga aylanib qolgan.

O‘qitishdagi nomukammaliklarning subyektiv – adabiyot o‘qituvchisi shaxsi bilan bog‘liq sabablari ham bor. Muallimlar kasbiy tayyorgarligining pastligi mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganishdagi oqsashlarning asosini tashkil qiladi. Adabiyotshunos va metodist olim B.To‘xliyev yozadi: “...badiiy asarni qanday tahlil qilish kerak? – degan savolga bir xildagi javobni berib bo‘lmaydi. Bunga tahlilning maqsad va vazifalari, uni kim tahlil qilayotgani va kim uchun tahlil qilayotgani, badiiy matnning yaratilgan davri, muallif maqsadi, janri, uslubi, shakli singari ko‘plab omillar ta’sir o‘tkazib turadi” . O‘qituvchilarning ko‘pi aynan shu omillarni yaxshi bilmaydilar. Adabiyot o‘qitishdagi eng og‘riqli nuqtalardan biri shudir. Adabiyot o‘qituvchilarining aksariyatida mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganishda nimani qanday o‘qitish kerakligi to‘g‘risida yetarli tushuncha yo‘qligi darsni to‘g‘ri tashkil qilolmaslikning asosiy sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, mumtoz adabiyotni o‘qitishda nazariy bilimlarni berish o‘quvchilarning adabiyotdan va boshqa fanlardan olgan bilimlari, orttirgan tajribalari, ko‘nikma va malakalariga tayanish yuqori samara garovi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchilarda mumtoz badiiy tafakkur tarzini shakllantirmay turib, ularning mumtoz asarlarni ham aqliy, ham ruhiy idrok etish malakalari ega bo‘lishlarini ta’minlab bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni. /Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1997. – 20–29-b.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». /

Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1997. –31–60-b.

3. Mirziyoyev Sh. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. – Elektron manba: lex.uz/docs/3412785.

4. Mirziyoyev Sh. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha beshta muhim tashabbus. –Elektron manba: https://www.gazeta.uz./oz/2019/04/03/5-tashabbus/.

5. Boboyev T. Oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek she’riyati poetikasi asoslarini o‘rganish. – T.: DDQ, 1997. – 268 b.

6. Dolimov S., Ubaydullaev H., Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: O‘qituvchi, 1967. – 448 b.

7. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.

8. To‘xliyev B. Badiiy asarlarni sharhlab o‘rganish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 147 b.

9. O‘zbek adabiyotidan umumta’lim maktablari uchun dastur. (V–XI sinflar uchun). Tuzuvchi Yo‘ldoshev Q. va boshq. – T.: Respublika Ta’lim markazi, 1998. – 24 b.

10. Yaminova S. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ssenariyli o‘qitish usulidan foydalanish. Ped. fan. nomz. …diss. – T., 1997. –168 b.

11. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Respublika o‘quv-metodik markazi, 1994. – 96 b.

DARSLARDA MASHQLARNING BAJARILISHIDA KO`RGAZMALILIKNING O‘RNI

A.M.Shofqorov,
ChDPI dotsenti, f.f.n.,
J.A.Karabayeva,
ChDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.

Bugungi kunda ona tili darslarida mashqlarni turli yo‘llar bilan, inovatsion metodlar (case study, T metod kabilar) orqali bajarish odatiy tusga kirib bormoqda. Mashqlarni yozib borish o‘quvchilarning husnixatini to‘g‘irlab boradi, Grammatik shakllarning to`g`ri yozilishini mustahkamlab olishga katta yordam beradi. Ba’zan bu odatiy mashqlardan o`quvchilar tez zerikib qolishi bu tabiiy hol. Fanga qiziqishini oshirish maqsadida, har bir mashqni sodda shakllarda berib borish ularda ishtiyoq uyg`otadi. Ushbu berilgan sodda mashqlar nafaqat grammatik bilimlarni mustahkamlashga, balki odatiy darslardan qochishga, ishtiyoqning oshishiga yordam beradi.

Misol tariqasida 5-6-sinf darsliklarida mavjud mashqlardan foydalanamiz.

1. F, K, M, R, H, D, V, J, X, Q undoshlarini kerakli vagonchalarga joylashtirirng.

2. Yordamchi so‘zlar jadvalini 10 tadan misol keltirib to‘ldiring.

Bog‘lovchilar	**Ko‘makchilar**	**Yuklamalar**	**Undov so‘zlar**	**Taqlid so‘zlar**
Lekin	Bilan	- mi	Oh, voh	Qars
Chunki	Tomon	-chi, -a , -ya	Obbo, voy	Jiqqa
Biroq	Sari, sayin	-u, -yu, -ku	Bay- bay	G`ichir
koshki	Kabi, tufayli	-da	ibi	Chars, shaqir

3. Sifat so‘z turkumiga oid ma’nodosh so‘zlarni toping. Bunda tenglik belgisini ifodalashda bolalar tez va oson ma’nolari bir – biriga tengligini, yaqinligini anglab olishadi

Hayoli = andishali = oriyatli = iboli

Go`zal = lobar = chiroyli = dilbar = latofatli

Yomon = yovuz = badbaxt = vaxshiy = orsiz.

4. Sifat so`z turkumiga oid dominanta so`zni toping.

Tasqara, badsurat, badqovoq, xunuk, beo`xshov, beso‘naqay, badbashara, turqisovuq.

Go‘zal, xushro‘y, lobar, fusnkor, latofatli, xusnli, chiroyli, dilbar.

5. Fe’l so‘z turkumiga oid ma`nodoshlarga teng keladigan so`zlarni aniqlang.



Va'dalashmoq = ahd – paymon qilmoq = bitishmoq = ahdladhmoq = kelishmoq.

Kulmoq = qah – qah urib kulmoq = jilmaymoq = tirjaymoq = miyig'ida kulmoq = tabassum qilmoq = hoholamoq = iljaymoq = handon otib kulmoq = ishshaymoq = "tishini oqini ko'rsatmoq"(ibora).

6. Shakldosh so`zlarning ma'nolarini izohlab bering. Ularning qaysi so'z turkumlariga oid ekanligini aniqlang.

7. Berilgan so'zlarning qaysi tillardan kelib chiqishini toping.

Parashyut(1), pijama(2), tsar (chor)(3), choy(4), banan(5), mandarin(6), triko(7), samovar(8), palto(9), shortik(10).

8. O'zbek tilidan o'zlashgan so'zlarni toping.

Somsa = samsa, uzum = izyum, payola = piyala, o'rik = uryuk.

9. Parashyutlar qo'nish yo'lakchalarini toping.

10. Quyidagi so'zlar yordamida makon – joyni bildiruvchi qo'shma so'zlar hosil qiling.

Dehqon+ obod,	Yangi+ bozor	Bo'z + suv
Usmon + obod	Juma + bozor	Yetti + suv
Bek +obod	Mol + bozor	Chor + suv

11. Mavhum otlar berilgan munchoqlarni bo'yang.

Soya qayg'u kulgu baxt o'kinch chopar isyon ruh sevgi mehr havo bilim

12. Atoqli otlar turdosh otlar asosida vujudga kela oladimi?

Po'lat, Temur, Bolta, Tugma, Tosh, Qo'chqor, Tesha, Rayhon, Shamol, Nargiz, Lola, Anor, Shahar, Bozor, Bo'ri, Arslon, Shaxzoda, Malika, Saodat.

13. Bir nechta so'zlar yig'indisining qisqarib yozilishi natijasida Atoqli otga aylangan so'zni toping.

Bolsheviklar siyosati ta'sirida qo'yilgan ismlar:

Melis: m - Marks, e – Engels, l – Lenin, I – va bog`lovchisi, s – Stallin.

Vilen: v – Vladimir, I – Ilyich, l – Lenin.

14. Atoqli otlarning turdosh otlarga aylanganini aylanib qolganini so'zlar

bilan izohlang.

Amper – uskuna, olim nomi bo'lgan.

Makintosh – oyoq kiyim ishlab chiqaruvchi brend nomi, ilgari inson ismi bo`lgan.

Gucci – Kiyim ishlab chiqarish korxonasi, ilgari oila sharifi.

Shu jumladan: Chanel, Versache, Prado va boshqalar.

15. Shaxs nomi sifat asosida paydo bo'lishini misollarda ko'rsating.

O'lmas, Ozoda, Go'zal, Botir, Qaytmas, Shirin, Oqil, Yorqin, Odil, Munisa, Salomat va h.

16. Sinonimik tenglini aniqlang.

Inson = odam, kimsa, kishi.

17. "Anor", "Gul" so'zlari asos bo'lgan atoqli otlarni toping. Bu mashqda Anor tasvirlanadi, anor donachalarining ustiga atoqli otlar yoziladi va gul tasvirining barglariga ham xuddi shu shaklda otlar yoziladi.

Nortoy, Nortoji, Anora, Norbuvi, Normat, Anorgul, Gulnora, Norhida, Bibinora, Norboy, Anorqul(norqul) va b.

Bu kabi ko'rgazmali mashqlar o'quvchilarning bilim salohiyatini kengaytirishga, murakkab grammatik qoidalarni tez va oson eslab qolishga, keng doirada fikr yuritishlariga ko`mak beradi. Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ularni bajarish esa maqsadimizni yanada muvofiqlashtirgan bo`lar edi. Zero, Davlat tilimizga berilayotgan ulkan e`tibor o`z ustimizda ishlashga, yangi ped texnologiyalardan unumli foydalanishga undaydi. Innovatsion dasturlar hayot tarzimizga aylanishga ulgurdi, shuning uchun zamonaviy yosh avlod – kelajak poydevori ekanligini unutmaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurazzaqova D. Interfaol usullardan foydalanish. – Toshkent, 2005, 368 bet.

2. Maxmudov, N., Nurmonov, A., Sobirov, A., Nabiyeva, D. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf darsligi. – Toshkent, "Tasvir" 2013.

3. Muxamedov O'. X., Usmonboyeva M.H., Rustamov S.S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. – Toshkent, 2016 312 b.

4.Ro'ziyev D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent, 2013. 146 b.

MUNDARIJA

1-sho‘ba: Tilshunoslikning nazariy va amaliy muammolari

Mengliyev Baxtiyor *Tilga zo‘ravonlik yoki mashhur lingvistik jinoyatlar*	*4*
Расулов Равшанхўжа *Ҳолат феъли асосли гапларнинг контрагент валентлиги*	*6*
Enazarov Tolibjon *Dialektal so‘z maqomi masalasi*	15
Иҫәнғолова Гөлназ Абдулхаҡ ҡыҙы *Хәҙерге башҡорт телендә, оҡшатыу һүҙҙәренән ҡылым яһалышы*	28
Иҫәнғолова Гөлназ Абдулхаҡ ҡыҙы *Гөлсирә Ғайсарова-Ғиззәтуллина әҫәрҙәренең синтаксик-стилистик үҙенсәлектәре*	33
Жұмақаева Береке Дәулетхан қызы, Молдасанов Ерсайын Мышаңұлы *Көркем шығармадағы көнерген сөздердің қызметі*	37
Айтбаев Дилшодхўжа Темирбаевич *Дискурс – коммуникацион-прагматик ҳодиса*	46
Турсунов Акмал Рахматуллаевич *Ясама сўзнинг ўрганилиш тарихи*	48
Mo‘ydinov Qodirjon *O‘zbek tilida yuridik terminlar*	53
Шофқоров Абдишукур Мусаевич *Исмлар услубияти*	56
Менглиева Мунира Бахтиёр қизи *Ҳаракат тарзи маъноларини ўзбек ва инглиз тилларида қиёсий ўрганиш долзарблиги хусусида*	59
Байқабылов Өсербай, Ибраимова Жайна *Тіл халықтың алтын діңгегі*	61
Абдуллаев Акмал Амирович *Бўстонлиқ тумани микротопонимиясини лингвомадиний тадқиқ этиш асослари*	66
Байқабылов Өсербай, Қошқарбаев Ернар *Тіл – ұлттың мақтанышы*	71
Саидов Ўлмас Рахматович *Расмий иш юритиш ҳужжатларининг морфологик аспектлари*	76
Abdirimova Intizor Kamilovna, Ochilova Anora *Ijtimoiy tarmoqlarda savodxonligimizga qanchalik e’tiborlimiz?*	81

Achilova Risolat A'zamovna *Antonomaziya va metonimiyaning o'xshash tomonlari*	84
G'aniyev Nurbek *Toponimika va lingvistik tadqiqotlar yo'nalishlarining asosiy xususiyatlari hamda leksikografik tavsifi*	88
Холназаров Умид Эркинович *Тоғай Мурод асарларида қўлланилган метафоралар семантикасининг константбирликлари*	92
Qodirova Surayyo Do'stqobilovna, Sanonova Ra'no Qo'lbashevna *Til ta'limida nutq psixologik vosita sifatida*	106
Ачилова Рисолат Аъзамовна *Антономазия – стилистика английского языка*	111
Байзаков Жандос *"Абай жолы" романындағы қос сөздердің мағыналық ерекшеліктері*	114
Байзаков Жандос, Манабаев Нұркелді *Тіл ең асыл құндылықтардың бірі*	122
Байзаков Жандос, Омирзакова Зарина *Тіл мәртебесі - ел мәртебесі*	128
Жарасбаев Нұркелді, *Қос сөздердің қазақ тіл білімінде зерттелуі*	132
Жарасбаев Нұркелді, Алимкулов Әбдуәлім *Қазақ тілім байлығым, рухани жан дүниемнің айнасы*	139
Бухорова Махлиё Ҳожиевна, Одилова Озода *Лисоний бирликларнинг ўзаро муносабатлари*	144
Нурадилова Аселхан Дилшодхўжа қизи *Ўзбек ва қозоқ тилидаги келишикларнинг ўзига хос хусусиятлари*	146
Sabirova Go'zal *Nomlash mexnologiyasi muammolari*	151
Xayrullayeva Ra'no *Ona tili darsliklarida o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga qaratilgan samarali yondashuvlar*	155
Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi *Nazariyadan amaliyotga*	158
Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li *Tasviriy ifoda va uning lingvistik tahlili*	161
Yorbulova Dildora I*mlo qoidalari bilan bog'liq muammolar*	164
Аширова Маҳбуба *Француз тилидаги ибораларнинг ўзбек тилига таржима қилиш масаласи юзасидан мулоҳазалар*	168

2-sho'ba: Adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar

Алмаз Улви Биннатова *Дада Алиасқар – Озарбайжон бахшичилик мактабининг чўққиси*	172
Жабборов Нурбой *Алишер Навоий шеъриятида ҳаёт фалсафасининг бадиий талқини*	175
Очилов Эргаш *Огаҳий ижодида мавъиза*	183
Пардаев Қўлдош *Муқимий шеърияти матнига доир айрим мулоҳазалар*	187
С.Мўминов, Ў.Орипова *Ўткир Ҳошимов ҳикояларида ўзбек миллий мулоқот хулқининг ифодаланиши*	194
Сабитова Тожихон *Алишер Навоийнинг "Лисон ут-тайр" достонида ийхом санъати*	199
Давлатова Адиба Раҳматовна *"Ранглар ва оҳанглар" туркуми Абдулла Орипов ижодининг алоҳида босқичи сифатида*	205
Ўтанова Сирдарёхон *Иброҳим Ҳаққул – яссавийшунос*	208
Таджибаев Мусажан Сабирович *Мактабда герменевтик мезонлар билан лингвопоэтика санъатини ўрганиш*	215
Таджибаев Мусажан Сабирович *Бадиий асар поэтик таҳлилида сўзнинг маъно структураси ва бадиий тил муносабатларини ўрганиш*	227
Салимова Дилнавоз Акмаловна *Ойдин Ҳожиева шеъриятида шоира тасаввури*	233
Қораев Шерхон *Султон Искандар Шерозий шеърият кечалари (Алишер Навоий ва унинг замондошлари асарлари маълумотлари асосида)*	237
Эшонқулова Сурайё *Нодира ижодига Қўқон адабий муҳитининг таъсири*	242
Karimova Safiya *Poyoniga yetmagan afsonaviy ishqiy doston*	246
Бердиев Ҳусан Холназарович, *Поэтик матн систем-стуруктур таркибида узвийлик ва мантиқийлик*	250
Нодира Соатова *Шуҳрат адабий мероси хусусида*	256
Торткулбаева Т. *Қарақалпақ аймағы қазақ ақын-жыраулар шығармаларындағы орында ушылық ерекшеліктер*	260
Оразов Бағдат Төлепбергенұлы *Мекембай Омаров шығармашылығындағы халықтық идеяның оқушыларға ұлттық тәрбие берудегі рөлі*	262

Rasulova Rayxon, Jovliyeva Yulduz *Alisher Navoiy ijodida Xuroson uslubining tutgan o‘rni va ahamiyati*	265
Rasulova Rayxon, Jumanazarova Umida *Mumtoz adabiyotda Turkiston uslubi ijodkorlari*	269
Хасанова Лайло Фирдавсиевна, *Ўзбек адабиётшунослигида образ ва тимсол тушунчасига оид баъзи мулоҳазалар*	273
Қучқоров Ҳошимҷон Ҳасанзода *Ҳаёти адабӣ ва фарҳангии Самарқанд дар асри ХХ*	277
Қосимов Ш.Б. *Истиқлол даври публицистикасида жадидшунослик муаммоларининг ёритилиш қонуниятлари*	280
Ismoilova Dilorom *V. Shekspir ijodida badiiy o‘xshatishlarning tutgan o‘rni*	284
Qurbanova Gulbahor, *“Salom, tog‘lar” hamda “Jamila” qissalarining qiyosiy tahlili*	290
Дошанова Мухаббат Муратбаевна *“Қирқ қиз” достони – театр саҳнасида*	294
Туропова Паризод *Бир асар хусусида*	298
Bozorova G. *Milliy ruh - millat ko‘zgusi*	302
Шыкина Анастасия *Актуальные проблемы литературоведения (на примере узбекской литературы)*	306
Миргазиева Зухро *Қонунчилик тарғиботида ҳуқуқий матнларни герменевтик тушуниш ва таҳлил қилиш имконияти*	310
Achilova E.S. *O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida badiiy psixologizm*	*318*
Toshpo‘latov Muhammadqodir *She’riyatning uyg‘oq ruhi (Rauf Parfi poetik olamida ijtimoiy ruh va hissiy manzaralar tahlili)*	323
Бозоров Иброҳим *Анъана ва навоварӣ дар адабиёти маорифпарварӣ ва таҷаддудхоҳӣ*	326
Қӯқонов Воҳидҷон *Образҳои асосии осори шоирони таҷаддудхоҳ*	330
Содиқов Насим *Ғояҳои иҷтимоӣ–маорифпарварии Аҳзӣ*	333
Мамадҷонова Мадинабону, Тӯрабоева Сарвиноз *Арзиши илмии “Тазкори ашъор”-и Садри Зиё*	337
No‘monova Mohizar Ulug‘bek qizi *Hamid Olimjon she’riyatida badiiy tasvir vositalari*	342

3-sho‘ba: Ta’limda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini joriy etish usullari

Ходжамқулов Умид Негматович *Педагогик таълимни кластерлаштиришнинг зарурати*	348
Усаров Жаббор Эшбекович, Жамшетова Гулмира Куралбоевна *Тил ўрганишда педагогик таълим кластерининг инновацион функционал ёндашувлари*	354
Рәмилә Янсаф қызы Хөснөтдинова *Абдрахман Ғәлләмов – күренекле методист һәм әлифбасы (тыуыуына 95 йыл тулыуға қарата)*	362
Абдурасулов Қобилжон *Фикрни оғзаки баён қилиш кўникмасининг педагогик ва психологик асоси*	368
Абдиримова Интизор Камиловна *Лойиҳалаш фаолиятида кластер усулининг аҳамияти*	373
Байқабылов Өсербай *Қазақ тілі сабақтарында бағалау және бақылау білім технологиясы*	378
Berdiyorova Guloyim *Ijtimoiy muhofazaga muhtoj bolalar ta’lim-tarbiyasi haqida*	385
Ergasheva Surayyo Tulqinovna *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishda mustaqil ta’limning o‘rni*	388
Садыков Р.М. *Использование международного опыта при формировании лингвометодической компетентности будущих учителей начальных классов*	392
Yusupova Shahzoda Yunus qizi *Boshlang‘ich sinf matematika darsliklaridagi tenglamaga oid topshiriqlarning qiyosiy tahlili*	397
Нарманов Алишер *Нутқни шакллантиришда ғарб ва шарқ нотиқлигининг ўрни*	401
Расулова Райхон Бахритдиновна *Ўқувчилар ижодкорлигини оширишда тил ва адабиётнинг ўрни*	408
To‘xtayev H. *Ma’naviy tarbiyada axloqiy qadriyatlarni o‘rganishning innovatsion usullari*	413
Qahharova Sabohat Abdug‘afurovna *AQSHning IXL o‘quv dasturi hamda baholashning milliy test tizimi*	417
Мўминов Ш. *Замонавий раҳбар маънавияти*	422
Mambetova Lobar Mirzavali qizi *O‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari*	425

Xudoyberdiyeva Gulchexra Isamidinovna *The orientation of professionally teaching of foreign languages in pedagogical higher education institutions.* *(Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida chet tilini kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitish mazmuni)*	429
Рахымбаев Ғалымжан *Шешендік сөздерді оқытудың тиімді технологиялары*	432
Matkarimova Sayyora Shavkatbek qizi, Abduqahhorova Xosiyat Abdurasul qizi, *Umumta'lim maktablarida mumtoz adabiyot o'qitishning hozirgi kundagi holati*	436
A.M.Shofqorov, J.A.Karabayeva, *Darslarda mashqlarning bajarilishida ko`rgazmalilikning o'rni*	444